

I.O.YAKUBOV

# MINTAQAVIY IQTISODIYOT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**I.O. Yakubov**

**MINTAQAVIY IQTISODIYOT**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.**

**TOSHKENT– 2021**

UO‘K: 238(156.64.72)

KBK 65.012.2ya7

**I.O.Yakubov. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik.—T.:  
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»,  
2021 – 280 b.**

**ISBN 978-9943-7395-9-8**

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fani bo‘yicha mazkur darslik shu fanning fan dasturi bo‘yicha barcha mavzular yoritilgan. Unda ushbu fanning prospekti, mavzular bo‘yicha matn annotatsiyalari va ular bo‘yicha oxirgi yangiliklar, fan bo‘yicha testlar, fanga doir video ma’ruzalar va videoroliklar, talabaning semestr davomidagi mustaqil ishiga oid toshiriqlar, glossariylar hamda tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar bayon qilingan.

Shuningdek, majmuar mazkur fan bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda va mustaqil ta’lim jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan keys-stadi, o‘quv loyiha, muammoli vaziyatlar, testlar hamda har bir mavzu bo‘yicha qisqacha nazariy materiallarni o‘z ichiga olgan.

Ushbu darslik talabalar o‘quv mashg‘ulotlarida va ulardan so‘ng mavzularni mustaqil ravishda chuqur o‘zlashtirishiga uslubiy ko‘maklashish orqali, ularning amaliy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini yanada oshirishdan iborat.

**UO‘K: 238(156.64.72)**

**KBK 65.012.2ya7**

**Taqrizchilar:**

**B.T. Salimov** – TDIU, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası professori, iqtisodiyot fanları doktori.

**N.G.Mo‘minov** – M.Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet kafedra mudiri, PhD, dotsent.

**ISBN 978-9943-7395-9-8**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

## KIRISH

Mamlakat muayyan hududlar yig'indisi, shuning uchun, mamlakatdagi har bir hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va uzluksiz taraqqiyotni ta'minlab beruvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda uning ta'sir yo'nalishlarining tahlili asosida tavsiya, taklif va amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, butun jahonda kechayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozi ham alohida mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotini muntazam kuzatib borish va uni xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga tayyor turishini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishning muhim shartidir.

Mintaqa – mamlakat yagona xalq xo'jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnikiqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o'zaro munosabati tufayli hosil bo'lgan yaxlit birlikdir. Binobarin, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda unda erkin bozor munosabatlarining joriy etilishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradi. Mamlakatdagi har bir hudud o'zining iqtisodiy salohiyatiga asoslanib ish yuritishi, mavjud ichki resurslardan oqilona foydalanishi va dunyo miqyosida respublika nufuzining o'rtishiga o'z hissasini qo'shishi orqali mintaqa iqtisodiyoti taraqqiy etib boradi.

Mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlil qilish, iqtisodiy rivojlantirish va bu borada barqarorlikni taxminlash respublikada yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan taraqqiy etishi pirovard natijada milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilab beradi. Malumki, hududlarning tabiiy-resurs salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik sharoiti va ekologik vaziyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir biridan farq qiladi. Ayni shu holat ularda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish hamda barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda takidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayapti. Malumki, 2019-yilda Toshkent shahrida eksperiment tariqasida davlat boshqaruvining yangi tartibi joriy etilib, shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash vakolati berildi"<sup>1</sup>.

## Introduction

The country is a collection of specific regions, and therefore develops recommendations, proposals and practical guidelines based on the study of the economic development characteristics of each region in the country and the identification of internal and external factors that ensure sustainable development and analysis of its impact areas exit is one of today's priorities. In addition, the ongoing global financial and economic crisis is an important condition for stabilizing the country's economy by regularly monitoring the economic development of individual regions and ensuring its readiness for changes in the international economy.

The region is a territorial subsystem of the country's single economic complex. It is an integral unit formed by the interconnectedness and interdependence of demographic, natural-ecological, socio-economic and technical-economic processes. Consequently, the political and economic independence of the country and the introduction of free market relations in it will allow the development of national and regional economies. The region's economy will develop through the fact that each region of the country operates on the basis of its economic potential, makes rational use of available domestic resources and contributes to the growth of the republic's image in the world.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma [Matn]. – T.: «Ma'naviyat», 2019. – 97 bet

Analysis of indicators of socio-economic stability of the country's regions, economic development and forecasting of stability in this regard is one of the important directions of economic policy in the country.

The socio-economic and environmental development of a region 'determines the level of development of the national economy' as a result. It is known that the indicators reflecting the natural resource potential, socio-economic development, demographic conditions and environmental situation of the regions differ from each other. This situation necessitates the placement of productive forces in them and their rational use.

One of the most pressing issues is the effective use of the socio-economic potential of specific regions and the analysis of sustainability indicators.

It should be noted that the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis reads: It is known that in 2019 in Tashkent, as an experiment, a new order of public administration was introduced, giving the mayor and district governors the power to appoint heads of finance, economy, investment, construction, housing and communal services.

## **1 BOB. “MINTAQAVIY IQTISODIYOT” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALAR**

### **1.1. “Mintaqa” tushunchasi, mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli va ahamiyati.**

Mintaqa – mamlakat yagona xalq xo‘jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnikiqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o‘zaro munosabati tufayli hosil bo‘lgan yaxlit birlikdir. Binobarin, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda unda erkin bozor munosabatlarining joriy etilishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradi. Mamlakatdagi har bir hudud o‘zining iqtisodiy salohiyatiga asoslanib ish yuritishi, mavjud ichki resurslardan oqilona foydalanishi va dunyo miqyosida respublika nufuzining ortishiga o‘z hissasini qo‘shishi orqali mintaq iqtisodiyoti taraqqiy etib boradi.

Mamlakat muayyan hududlar yig‘indisi, shuning uchun, mamlakatdagi har bir hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va uzluksiz taraqqiyotni ta‘minlab beruvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda uning ta‘sir yo‘nalishlarining tahlili asosida tavsiya, taklif va amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, butun jahonda kechayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozi ham alohida mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotini muntazam kuzatib borish va uni xalqaro iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga tayyor turishini ta‘minlash mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishning muhim shartidir.

Mintaqa yohud alohida hududlar taraqqiyotini o‘rganish avvalo “hudud”, “iqtisodiy hudud”, “iqtisodiy hudud rivojlanishi”, “mintaqa”, “iqtisodiy rayon”, “iqtisodiy rayonning barqaror rivojlanishi” atamalarining mohiyatini ochib berishni taqozo etadi.

Hudud (region) tushunchasining mohiyati – iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Masalan, hududiy rivojlanish – bu territorial tizimning aholi turmush darajasi va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan holati bo‘lib, unda hududning o‘zaro bir – biriga salbiy ta‘sir etmaydigan, barqarorlik

bilan ta'minlangan va muvozanatlashgan ijtimoiy, xo'jalik, resurs va ekologik salohiyati doimiy takror ishlab chiqariladi.

Hozirgi paytda tubdan o'zgarib borayotgan O'zbekistonning zamonaviy xo'jalik majmuasi murakkab tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida elektrotexnika va elektronika, metallurgiya, mikrobiologiya va kimyo sanoati tarmoqlarida ko'plab yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi, hamda bu soha mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo'lib qolmoqda.

### **1.1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o'rni**

Mintaqaviy iqtisodiyot ijtimoiy fan hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, mulum tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini hamda ularning hudud ichidagi, hududlararo va tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, mintaqaviy iqtisodiyot fanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy jihatlarini o'rganishdan iborat.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo'nalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o'rganadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o'rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yanma xo'jalik majmuasining tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, mamlakat fan mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o'rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini bahol qiladi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini



aniqlaydi. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, tarmoqlar iqtisodiyoti, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador.

Bozor munosabatlarining takomillashib borishi mamlakat xo'jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Mintaqaviy iqtisodiyot va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo'nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

## **1.2. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari**

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fani olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning maqsadi hududiy tuzilmani takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan. Mintaqaviy iqtisodiyot texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimiga tayanadi, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usullarini keng qo'llaydi, ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy boshqarish mexanizmini o'rganadi. Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko'pgina iqtisodiy omillarni chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Mintaqaviy iqtisodiyot faninihg o'rganish usullari quyida keltirilgan (1rasm).

Dialektik usul tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga asoslangan.

Dialektik usulda rivojlanish quyidan yuqoriga, bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivojlanadi. Dialektika induksiya va deduksiya usullaridan tarkib topgan.



**1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari.**

Induksiya yakkalash fakt olinib, umumiy xulosa chiqariladi. Deduksiya esa aksincha. Ilmiy abstraksiya usulida mavhum obyekt ilimga tayangan holda o'rganiladi va uning faqat asosiga e'tibor qaratiladi.

Makro darajada o'rganishda nazariy masalalarni keng ko'lamda, mikro darajada esa kichik bir ko'lamda o'rganish tushuniladi. Taqqoslash usulida o'rganilayotgan obyekt davrlar bo'yicha yoki boshqa bir obyekt bilan taqqoslanadi.


Statistik usulda tadqiqot sonli ko'rsatkichlarga, jadval ma'lumotlariga asoslanadi. Jadval ma'lumotlarini chizmalarda aks ettirish grafik usul mohiyatini ochib beradi.

Tizimli tahlil usuli bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni

joylashtirish xususiyatlarini har tomonlama o'rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tadqiqot jarayonida tizimlash o'rganilayotgan hodisalarni alohida belgilariga ko'ra guruhlariga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, turlash, umumlashtirish va boshqa usullar qo'llaniladi.

Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi.



**2-rasm. Alohida hududlar doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tadqiq qilishda qo'llaniladigan usullar.**

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o'z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat: hududiy usul; tarmoq uslubi; mahalliy uslub.

Kartografik uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko'rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo'ysunuvchi iyerarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar – iyerarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so'rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha dalillarning tahlili va boshqalar. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nihoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Hozirda jahon hamjamiyatida yuz berayotgan jarayonlar (globallashuv, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda bozor munosabatlarining rivojlanishi) milliy iqtisodiyotni tartibga solish sohasida muvofiqlashtirilgan qarorlarni qabul qilishning asosi sifatida makroiqtisodiy tahlil usullaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan o'quv dasturiga «Makroiqtisodiy tahlil» kursi kiritilgan.


### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Makroiqtisodiy tahlilning predmeti nimadan iborat?
2. Makroiqtisodiy tahlilning pozitiv va normativ turlariga izoh bering.
3. "Makroiqtisodiy tahlil" fanining maqsadi va vazifalari bo'yicha "Toifali jadval" tayyorlang.
4. "Mintaqa", "hudud", "iqtisodiy hudud", "iqtisodiy rayon", tushinchalarini o'xshash va farqli jihatlarini aniqlang.
5. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini va uning rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.
6. Mintaqaviy iqtisodiyotning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini va uning rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.
8. Mintaqaviy iqtisodiyotning predmeti va o'rganish obyekтини tavsiflang.
9. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullarini tavsiflang.

## 2 BOB. ISHLAB CHIQARUVCHI KUCHLARNI JOYLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

### 2.1. Ishlab chiqarish chiqarish kuchlari va ularni joylashtirish to'g'risida tushuncha.

Iqtisodiyot rivojlanishi uning ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning bunday shakllari esa muayyan bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, u mohiyatan ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mehnat taqsimoti bajarilayotgan ishning kim tomonidan va qay tarzda amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bunda amalga oshirilayotgan ish ya'ni mehnat ongli faoliyat bo'lib, jamiyat ehtiyojini qondirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mehnat taqsimoti mamlakat, mintaqa, hududning biror bir maxsulot ishlab chikarish yoki xizmatlar kursatishga ixtisoslashuvi bulib, bu mehnat taqsimoti shakllarini namoyon kiladi. Quyidagi mehnat taqsimoti umumlashgan xolda milliy mehnat taqsimotini namoyon kiladi. Bu jihatdan O'zbekiston yaqingacha jahon bozorida paxta tolasi bilan ishtirok etgan.




3-chizma. Milliy iqtisodiyot tarmoq tuzilmasida mehnat taqsimotining namoyon bo'lishi.

Ishlab chiqarish – insoniyat tomonidan tabiiy boyliklarni o‘z ehtiyojiga moslashtirish orqali mahsulot yaratish jarayoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyodan tayyor mahsulot yaratiladi. Bu jarayonda u takomillashib boradi va texnologik tus oladi. Ayni shu holat ishlab chiqarishga bo‘lgan turli yondoshuvlarga sabab bo‘ladi.


Ishlab chiqarish birlamchi faoliyat sifatida ikki turga bo‘linadi.



**4-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasi Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi.**

Ishlab chiqarish ongli faoliyat sifatida tashkil etiladi va bu jihatdan ijtimoiy va hududiy belgilarini namoyon qiladi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy shakllari bir birini inkor etmaydi, balki bir birini to‘ldiradi.



### **5-chizma. Ijtimoiy tashkil etish shakllari.**

Ishlab chikarish shakllari uzaro aloqadorlikda rivojlanib boradi va ko‘pincha birgalikda sodir bo‘ladi. Ularning asta sekin takomillashib borishi, bir birlari bilan uyg‘unlashuvi fan texnika taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishi bilan hamkorlikda yuz beradi.

#### **2.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyalari**

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish turli davlatlarda ularning tabiiy iqlimiy sharoiti, demografik va iqtisodiy salohiyati hamda boshqa xususiyatlarini inobatga olingan holda turlicha amalga oshiriladi. Biroq, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish ma’lum qonuniyatlarga asoslangani va maqsadlarining mushtarakligi bois, ularni nazariy asoslarida o‘xshashlik mavjud.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning nazariy asoslarini rivojlantirishda xorijiy olimlaridan I.Tyunen (1783-1850), A.Veber (1868-1958), A.Lesh (1906-1945), V. Kristaller (1893-1969), rus olimlaridan K.I.Arsenev (1789-1865), P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1827-1914), N.P.Ogarev (1813-1877), D.I.Mendeleyev (1834-1907) lar munosib hissa qo‘shishgan.

Xususan, I.Tyunenning «Qishloq xo‘jalik standarti», A.Veberning «Sanoat shtandortlar», F.Perruning «O‘sish qutblari va

rivojlanish markazi», A.Lyoshning va U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyalari shular jumlasidan. Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo'lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so'ng – XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G. Fon Tyunen, V. Launxard, A.Veber nomlari bilan bog'liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

➤ alohida olingan biror qishloq xo'jaligi yoki sanoat korxonasining ko'rib chiqilishi;

➤ joylashtirishning barcha omillari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to'g'risida aniq javob olish mumkinligi to'g'risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obyektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo'lgan). Tyunen qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta'minlovchi shahargacha bo'lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo'jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. U iqtisodiyotni hududiy tashkil etish masalalariga majmual, tizimli yondoshdi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari joylashuvining qonuniyatlarini ochib berdi, iqtisodiy makon tushunchasini fanga kiritdi.

I.Tyunen o'zining ilmiy g'oyasini abstrakt holatda, alohida, boshqa mamlakatlar bilan bog'liq bo'lmagan, ajralib turgan davlat misolida yaratdi. Uning faraz qilishicha, bu mamlakatda atigi bitta shahar mavjud bo'lib, u qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'mol qiluvchi yagona bozor yoki markaz vazifasini o'taydi. Mazkur shahar atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish asosan transport xarajati, mahsulot vazni, uning sifatini buzilmasligi va keltirish masofasi belgilaydi.

Mahsulot etishtirish va uni markazga keltirish qancha arzon bo'lsa, u shuncha yaqin masofada, aks holda uzoqroqda joylashadi.



Yuqoridagi tartibda qishloq xo'jaligini joylashtirish shahar atrofida o'ziga xos aylanalarni hosil qiladiki, ular ilmiy adabiyotlarda «Tyunen xalqalari» nomi bilan mashhur. Masalan, bu xalqaning eng birinchisi yuqori darajada unumdor shahar atrofi xo'jaligidan iborat bo'lib, undan keyingi xalqa o'rmon xo'jaligi, uchinchi-meva va urug'chilikdan tashkil topadi. Jami Tyunen 6 xalqa belgilangan; ular, yuqoridagilardan tashqari, turli yo'nalishdagi chorvachilikni ham o'z ichiga oladi.

I.Tyunen g'oyasi ma'lum darajada abstraktdir; chunki hech qanday davlat, ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi globallashuv va baynalmilallashuv jarayonida jahon xo'jaligi tizimidan ajralgan holda, alohida rivojlana olmaydi. Qolaversa, bu mamlakatda odatda bir emas, bir necha shahar mavjud bo'ladi va o'rnatilgan joyning tabiiy sharoiti aynan bir xil emas. Biroq, shunga qaramasdan, muallifning ushbu ta'limoti o'zining nazariy ahamiyatini, xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida saqlab qolgan.

A.Veber sanoat korxonasi joylashuvining optimal (eng qulay) nuqtasini uning iqtisodiy foydadan kelib chiqqan holda belgilaydi. Buning uchun u xom ashyo va yoqilg'i, ishchi kuchi va transport omillariga urg'u beradi. Keyinchalik xom ashyo va yoqilg'i xarajatlari ham transport omiliga kiritiladi va qolgan barcha shartsharoitlarni alohida aglomeratsiya omilida umumlashtiradi. Natijada sanoat shtandorti, ya'ni joylashuvi ishchi kuchi, transport va aglomeratsiya omillari bilan belgilanadi. Shunday qilib, bu olim fanga sanoat korxonasini joylashtirishining ko'p omilli tahliliga asos soladi va buning uchun u matematik usuldan keng foydalanadi.

A.Veber ham faqat alohida sanoat korxonasi misolida (pivo zavodi) o'zining ilmiy tasavvurlarini yaratgan. Demak, har ikkisi ham ma'lum abstrakt sharoitlar inobatga olingan. Shu bilan birga yuqoridagi olimlarning ilmiy g'oyalari ishlab chiqarishning hududiy mujassamlashuvi va uning notekis joylashuvi, rivojlanishiga qaratilgan edi.

A.Veberning sanoat shtandorti o'z asosiy mohiyatini yo'qotmagan bo'lsada, keyingi yillarda sanoat joylashuvining shakllari yanada murakkablashib, takomillashib bordi. Jumladan, bu borada ekologik omilning ta'siri kuchaydi, ishchi kuchining miqdor jihatlari emas, uning sifat ko'rsatkichlari muhimroq bo'lib qoldi; sanoat ishlab

chiqarish mehnat talablikdan ko'proq «ilmtalab», mablag' talablikka o'zgardi. Shuningdek, transport infrastrukturasidagi yangiliklar konveyr usulining o'rniga ayni bir mahsulotning turli xillarini ishlab chiqarish (postfordizm), miqdor iqtisodiyotidan sifat yoki turli xillik iqtisodiyotiga o'tish, fan-texnika taraqqiyoti sanoatni hududiy tashkil qilishga jiddiy ta'sir etdi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda sanoatni hududiy tashkil qilish shakllari yanada aniqroq ko'riladi. Sanoatni rayonlashtirish yoki hududiy tashkil qilishning birlamchi elementi sanoat korxonasidir. Aynan shu darajada ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakli ya'ni mujassamlashuv birgalikda namoyon bo'ladi.

«Pastdan» ikkinchi bosqich sanoat manzilgohi hisoblanadi va u hech bo'lmaganda bir sanoat korxonasiga ega bo'lishi kerak. Agar sanoat ishlab chiqarishning hududiy (urbanistik) mujassamlashuv darajasi yuqori bo'lsa, bir emas, bir necha sanoat korxonalari ma'lum nuqtada joylashtirilsa, u holda sanoat manzilgohi sanoat markaziga aylanadi. Mabodo bu markaz faqat birgina shahardan, aksariyat hollarda poytaxt yoki port shaharlardan tashkil topsa, unday shaharda milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va tuzilmasi ham bir tomonlama bo'ladi.

Frantsuz iqtisodchisi Fransua Perruning g'oyasi aynan o'sish nuqta, markaz va qutblariga bag'ishlangan. Odatda, bu g'oya iqtisodiy makon uncha shakllanmagan, katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan hududlarda yaxshi samara beradi. Bunday hududga turli omillar va shartsharoitlar hisobga olingan, qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan nuqtada aholi manzilgohida yirik sanoat korxonasi joylashtiriladi. Natijada o'sish markazi vujudga keladi. Perruning fikrlari ham iqtisodiyotning hudud bo'yicha notekis rivojlanishi, mujassamlashuvini nazarda tutadi.

F.Perruning o'sish qutblari g'oyasi avstriyalik iqtisodchi, keyinchalik Garvard universitetining professori Yozef Shumpeterning 1911- yilda yozgan «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida bayon qilingan tadbirkorlik asoslari bilan biroz hamohangdir. U, shuningdek, shved olimi T.Xagerstrand (1953 y.) yangiliklar diffuziyasi, ya'ni tarqalishi to'g'risida ilmiy ish olib borgan. F.Perruning xizmati avvalambor shundaki, u ushbu g'oyani hudud jihatidan talqin qilgan va

hududlarning ayni bir vaqtning o'zida bunday rivojlanish, mutloq tenglashtirish g'oyasidan voz kechgan.

V. Launxard ham sanoat korxonalarini ko'rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalari joylashadigan joy to'g'ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

V. Kristaller «Markaziy o'rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisobkitoblar orqali hududiy iyerarxiya bir darajadan boshqa darajaga to'g'ri geometrik progressiya orqali o'tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o'z navbatida tumanlar ko'plab qishloq fuqarolari yig'inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o'ziga tegishli bo'lgan tovar va xizmatlar yo'naltirilgan. Shunday qilib, olim aholi manzilgohlari guruhiiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy o'rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo'nalishlarini, shahar va aholi manzilgohlari boshqaruvi ma'muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o'rganishga oxirgi o'n yilliklarda nisbatan kamroq e'tibor berildi. To'g'ri, hududiy iqtisodiyot bo'yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko'rib chiqildi. Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modellari qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan.

Sobiq ittifoqda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda iqtisodiy rayonlar orqali ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, shu davrda hudud atamasiga berilgan ta'rif "iqtisodiy rayon" ga berilgan tavsifga juda yaqin. Iqtisodiy rayon xalq xo'jaligini tartibga solish maqsadida ajratilgan va ishlab chiqarishni hududiy-tashkiliy shaklidir. U davlat mintaqaviy siyosatining obyekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish

maqsadlari uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy rayonlar turli omillar ta'siri ostida shakllanib, turli shakllarda namoyon bo'ladi, ular butun mamlakat hududini o'z ichiga olishi yoki uning alohida joylarida, ya'ni diskret holda ajratiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonlar umumiy (integral) va tarmoq rayonlarga bo'linadi.



**6-rasm. Iqtisodiy rayon hosil qiluvchi omillar.**

Har bir iqtisodiy rayonning o'ziga xos rayon hosil qiluvchi omil va ishlab chiqarish tarmog'i mavjud. Ba'zi rayonlar shakllanishida qazilma boyliklar, boshqasida-transport, geografik o'rin, uchinchisida-mulakali ishchi kuchi, to'rtinchisida yirik shaharlar va ayniqsa poytaxt shahar omili muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o'zaro uyg'unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va

hududiy tashkil qilish, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil yoki shakldir. Rivojlanganlik darajasi bilan iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyoti o'rtasida farq mavjud. Uning birinchisi muayyan vaqt oralig'ida amalga oshgan jarayonlarni natijasi sifatida talqin qilinsa, ikkinchisi hudud rivojlanishining muayyan bir yo'nalishini tashkil etadi.

Iqtisodiy rayonlashtirish jarayoni uni ma'muriy-hududiy bo'laklarga ajratish jarayoni bilan uzviy aloqador bo'lsada, u insonlarning hohish-irodasidan qat'iy nazar obyektiv tarzda mavjud bo'lgan kategoriyadir.

Siyosiy-ma'muriy birlik – qonun asosida davlat tomonidan ajratiladi, shuning uchun ham u sub'ektiv kategoriya hisoblanadi.

## 2.1-jadval.

### Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi<sup>2</sup>

(joriy narxlarda, ming so'm)

|                                 | 2015y.         | 2016y.         | 2017y.         | 2018y.          | 2019y.          | 2020y.          |
|---------------------------------|----------------|----------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b> | <b>6 715,4</b> | <b>7 614,2</b> | <b>9 340,8</b> | <b>12 339,1</b> | <b>15 190,9</b> | <b>16 949,1</b> |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 3 504,1        | 4 453,8        | 5 597,6        | 8 086,9         | 10 126,2        | 11 093,5        |
| <i>viloyatlar:</i>              |                |                |                |                 |                 |                 |
| Andijon                         | 4 672,3        | 5 322,1        | 6 429,7        | 8 720,1         | 10 732,7        | 12 006,0        |
| Buxoro                          | 6 563,8        | 7 532,5        | 8 888,1        | 11 254,4        | 14 338,4        | 15 892,4        |
| Jizzax                          | 5 002,2        | 5 702,5        | 6 967,3        | 9 019,7         | 11 302,4        | 12 494,3        |
| Qashqadaryo                     | 5 520,5        | 6 268,3        | 6 571,7        | 7 920,5         | 9 595,4         | 10 466,5        |
| Navoiy                          | 11 088,3       | 12 383,0       | 14 975,0       | 22 786,2        | 36 479,6        | 48 747,0        |
| Namangan                        | 3 976,4        | 4 636,4        | 5 419,0        | 6 619,5         | 8 319,8         | 9 380,5         |
| Samarqand                       | 4 950,8        | 6 034,0        | 6 937,2        | 8 307,9         | 9 719,9         | 10 831,7        |
| Surxondaryo                     | 4 427,1        | 4 737,8        | 5 506,7        | 7 002,9         | 8 299,2         | 9 040,6         |
| Sirdaryo                        | 6 050,2        | 7 175,0        | 7 945,8        | 9 802,3         | 13 672,3        | 14 274,7        |
| Toshkent                        | 7 582,9        | 8 083,9        | 9 787,6        | 13 463,8        | 18 409,5        | 21 113,1        |
| Farg'ona                        | 4 517,5        | 4 891,4        | 5 521,9        | 7 287,2         | 8 558,6         | 9 651,1         |
| Xorazm                          | 4 894,5        | 5 543,3        | 6 397,8        | 8 373,6         | 9 987,0         | 11 076,9        |
| Toshkent sh.                    | 10 989,3       | 13 749,4       | 18 125,0       | 23 433,5        | 30 860,7        | 33 747,8        |

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasida qishloq tumani iqtisodiy rayonlashtirishning eng pastki quyi bug'ini hisoblanadi.

Iqtisodiy rayonning eng muhim belgisi – uning siyosiy-ma'muriy jihatdan rasmiylashtirilmaganligidadir.

Iqtisodiy rayonlashtirish davlatlarning konstitutsion asoslariga tayanadi. Bunda milliy davlatlarning mavjudligi va shakllari, ularga xos iqtisodiy shart - sharoitlar hisobga olinishi lozim.

Mahalliy tabiiy sharoitlarni iqtisodiy rayonlashtirish jarayonida hisobga olish zarur. Tabiiy sharoitlar iqtisodiy rayon xo'jaligiga, uning ixtisoslashuviga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligini majmuali rivojlanganligi unda mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi. Iqtisodiy rayon xo'jaligini majmuali rivojlanishida mazkur rayon doirasida sanoatning kooperatsiyalashuvi, ya'ni ixtisoslashgan korxonalar o'rtasida barqaror, doimiy ishlab chiqarish aloqalari tizimining mavjudligi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rayonning eng muhim belgisi uning iqtisodiy jihatdan bir butunligi, yaxlitligi bilan asoslangan. Iqtisodiy rayonlashtirish jarayonida rayon ichidagi va rayonlararo iqtisodiy munosabatlar, hududiy mehnat taqsimotini tadbiq etish va baholash muhim o'rin egallaydi. O'zbekistonni iqtisodiy rayonlarga ajratish tartibi ilk bor Z.M.Akramov tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda 8 ta iqtisodiy rayonga ajratilgan. Keyinchalik, mustaqillik yillarida A.S.Soliev tomonidan mamlakat mintaqalari 6 ta iqtisodiy rayonga ajratildi.

- ⊙ Toshkent iqtisodiy rayoni–Toshkent shahri va viloyati;
- ⊙ Mirzacho'l iqtisodiy rayoni–Sirdaryo va Jizzax viloyatlari;
- ⊙ Farg'ona iqtisodiy rayoni–Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari;
- ⊙ Zarafshon iqtisodiy rayoni–Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari;
- ⊙ Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni–Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati;
- ⊙ Janubiy iqtisodiy rayon–Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridan tashkil topgan.

Ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish va iqtisodiy rayonlashtirish masalalari ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida

o'rganilgan. Jumladan E.P.Gorbunov, G.M.Kalashnikova, V.V.Kistanov, N.N.Kolosovskiy, N.I.Larina, N.N.Nekrasov, A.E.Probst, D.Smit, R.French, P.Xoll, D.Endjel va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda mazkur masalalar bo'yicha Z.A.Akramov, A.S.Soliev, M.Abdusalyamov, E.A.Ahmedov, T.M.Ahmedov, K.N.Bedrintsev, R.Ya.Dosumov, Sh.N.Zokirov, S.K.Ziyodullaev, Sh.B.Imomov, I.O. Yakubov, Q.N.Abirqulov, T.J.Jumaevlar tomonidan o'rganilgan.

### **2.3. O'zbekistonda mintaqalarga ajratish va ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishdagi o'ziga xos yondoshuvlar**

Mamlakat mintaqalarining iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shuning uchun har bir mintaqqa faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi. Darhaqiqat, har qanday hudud o'ziga xos iqtisodiy shartsharoitlar asosida mehnat taqsimotini amalga oshiradi. Buning uchun mintaqalarga ajratishda ma'muriy hududiy birliklarga asoslanish, O'zbekiston misolida 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston respublikasi va Toshkent shahri doirasida faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda hudud iqtisodiyoti to'g'risida qisqacha fikr-mulohaza bildirib o'tmoqchimiz. Rossiyalik tadqiqotchi V.V.Mishenko "hudud iqtisodiyoti – bu hududning tarixiy, demografik, milliy, diniy, ekologik, tabiiy-resursli xususiyatlarini hisobga olgan holda hudud xo'jaligining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi jarayoni bilan birga hududning umumdavlat va xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rnini bildiruvchi kompleks sohadir" deb ta'riflaydi. Yaponiyalik professor Yamamoto Xisatoshi hudud iqtisodiyotini asosan sakkizta parametrga bo'lish asosida o'rganishni taklif etib, har qanday investor hududga o'z investitsiyasini kiritish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin ana shu parametrlarni kompleks tarzda o'rganib chiqishi muhim ekanligini asoslab beradi.

## 2.2-jadval.

### Hudud iqtisodiyotini belgilab beruvchi asosiy parametrlar tavsifi.

| №  | Parametrlar                             | Qisqacha tavsif va o'rganish obyekti                                                                                                                                                                               |
|----|-----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Turmush tarzi va jamiyat                | Hudud aholisining savodxonlilik darajasi, hududda madaniyat va ta'lim muassasalarining holati, hudud aholisining ma'naviy qiyofasi.                                                                                |
| 2. | Demografik jarayonlar                   | Hududdagi millat va elatlarning salmog'i, hududdagi tug'ilish va o'lim sur'atlari, hududdagi mehnat migratsiyasining holati, hududdagi demografik muammolarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar. |
| 3. | Tashqi iqtisodiy va savdo munosabatlari | Hududning mamlakat ichidagi boshqa hududlar va xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy hamda savdo aloqalari, hududning eksport va import imkoniyatlari.                                                        |
| 4. | Hududiy boshqaruv                       | Hudud boshqaruvi tuzilmasi, hudud iqtisodiyotiga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilish holati, xususan investitsiyalarning jalb qilinishini hudud boshqaruvi darajasida qo'llab-quvvatlash holati.                |
| 5. | Fan va texnologiyalar                   | Hududda fan va texnologiyalarni rivojlantirish markazlarining faoliyati holati, hududda fan va texnologiyalarni rivojlantirish dasturlarining qabul qilinishi va amal qilish holati.                               |
| 6. | Hududdagi infratuzilmalar               | Transport va logistika kommunikatsiyasining holati, hududdagi ishlab chiqarishlarning elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv resurslari bilan ta'minlanish holati                                                    |
| 7. | Tabiiy resurslar                        | Hududdagi barcha tabiiy resurslar, ulardan foydalanish darajasi.                                                                                                                                                   |
| 8. | Hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari     | Hudud rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari, undagi moliya-kredit tizimi, hududda tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatlari.                                                                             |

Sakkizta parametrning so'nggisi hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblansada, yapon olimi Yamomoto Xisatoshi tomonidan taklif etilgan parametrlar asosan muayyan hududga investitsiyalar



kiritishga qiziqqan tadbirkorlar uchun mo'ljallangan. Olim nafaqat hudud iqtisodiyotini rivojlanishini belgilab beruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ushbu ko'rsatkichlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa bir qancha muhim omillar bilan birga kompleks tarzda o'rganishni ma'qul ko'radi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o'rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim.



**7-rasm. Chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari.**

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Hududlari tabiiy resurs zahiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo,

yoqilg'i, energiya va iste'mol manbalariga yaqinligini ta'minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mehnat taqsimoti mamlakat, mintaq, hududning biror bir maxsulot ishlab chikarish yoki xizmatlar kursatishga ixtisoslashuvi bulib, bu mehnat taqsimoti shakllarini namoyon kiladi. Quyidagi mehnat taqsimoti unumlashgan xolda milliy mehnat taqsimotini namoyon kiladi. Bu jixatdan O'zbekiston yaqingacha jahon bozorida paxta tolasi bilan ishtirok etgan. Ishlab chikarish jarayonida xom ashyodan tayyor mahsulot yaratiladi. Bu jarayonda u takomillashib boradi va texnologik tus oladi. Ayni shu holat ishlab chikarishga bo'lgan turli yondoshuvlarga sabab bo'ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Ishlab chikarish va ishlab chikarish kuchlari tushinchalariga ta'rif bering.

2. Ishlab chikarishning ijtimoiy va hududiy shakllarini yoritib bering.

3. Ishlab chikarish kuchlarini joylashtirishning maqsad mohiyatini ayting?

4. Mehnat taqsimotining bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyatini tushintirib bering.

5. Ixtisoslashuv va uning mazmun mohiyatini iqtisodiy nuqtai nazardan tavsiflang.

6. A.Veberning "Sanoat standortlari" nazariyasining amaliy ahamiyati nimada?

7. A.Lyosh va U.Ayzard nazariyalarining yutug'i nimada deb o'ylaysiz?

8. Iqtisodiy rayonlashtirishning iqtisodiy mohiyatini asoslab bering.

9. Iqtisodiy rayon hosil qiluvchi omillarni mamlakatimiz misolida tushintirib bering.

### **3 BOB. O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI VA ULARNING MINTAQAVIIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Ma'muriy-hududiy birliklarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari**

Mamlakat fuqarolar soni va hudud ko'lamini muayyan chegaraga etganda mamlakat hududini okruglar, viloyatlar, o'lkalar, shtatlar, kantonlar, guberniyalar, uezd singari hududlarga bo'lish zarurati tug'iladi. Shu tariqa hokimiyat va boshqaruvning markaziy hamda mahalliy organlari o'rtasida vakolatlarni bo'lish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ma'muriy-hududiy birlik tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lsada, ularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Ularning qariyb barchasida davlat tuzilishi shakli deganda davlat hokimiyatining mamuriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o'rtasidagi, davlatning alohida qismlari o'rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteri tavsiflanadi.

Davlat tuzilishi davlat shaklining bir turi bo'lib, u uchta asosiy qismlarning yig'indisi hisoblanadi:

- ☐ davlatni boshqaruv shakli;
- ☐ davlat tuzilishi shakli;
- ☐ siyosiy tartib (rejim).

Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Davlat tuzilishiga ko'ra oddiy(unitar) davlat va murakkab – federativ yoki konfederativ davlatlarga bo'linadi. Davlatning tuzilish shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir muhim xususiyati – aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Unitar davlat – oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, to'la siyosiy birligi bilan boshqalardan farq qiladi<sup>3</sup>. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linishga ega, ya'ni tumanlar, viloyatlar, kantonlardan iborat bo'ladi.

---

<sup>3</sup> «Unitar» so'zi lotincha «unus» - «bir» so'zidan olingan bo'lib, «yagona» degan ma'noni anglatadi.

Unitar davlatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ularda markazlashtirish turli shakllarda va turli darajada bo'ladi. Ba'zi unitar davlatlarda mahalliy organlar bo'lmaydi va ma'muriy-hududiy bo'linmalar markaziy hokimiyat vakillari tomonidan boshqariladi. Mahalliy organlar tashkil etilgan unitar davlatlarda esa, ular markaziy hokimiyat nazorati ostida bo'ladi. Markaziy hokimiyat mahalliy organlar ustidan nazoratning qanday turini amalga oshirishiga qarab, markazlashgan va markazlashmagan unitar davlatlarga bo'linadi.

Unitar davlatlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Italiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi. Jumladan Italiya Konstitutsiyasining 5-moddasiga binoan Italiya Respublikasi – yagona va bo'linmasdir, lekin mahalliy avtonomiyani tan oladi va rag'batlantiradi. Italiya Respublikasi Konstitutsiyasining 5-bo'limi 114-133-moddalarida batafsil yoritib berilgandir. Unga ko'ra respublika – viloyatlarga, provinsiyalarga va kommunalarga bo'linadi. Kommunalar – shaharlar yoki ularning bo'laklarini va qishloq aholi manzilgohlarini yoki ularning guruhlarini o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan siyosiy-ma'muriy birliklar ma'lum bir doirada avtonomiya ega.

Asosan viloyatlarning avtonomiyasi kengdir<sup>4</sup>.

Frantsiya Konstitutsiyasining alohida bo'limi hududiy jamoalarga ajratilgan bo'lib, 72-modda birinchi qismiga binoan hududiy jamoalarga – kommunalar, departamentlar va dengiz bo'yi hududlar kiradi. Departamentlar shahar va qishloq kommunalariga (jamoalariga) bo'linadi. Bundan tashqari alohida avtonom maqomiga ega bo'lgan Korsika orolini ham Frantsiyaning siyosiy-hududiy tuzilishiga kiritilgan.

Buyuk Britaniya to'rt qismdan - Angliya, Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyalardan iborat. Davlat tuzilishi shaklining ikkinchisi – bu murakkab davlatlar. Murakkab davlatlarga – federatsiya, konfederatsiya, hamdo'stlik va boshqalar kiradi.

Federativ davlat – bu davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta'sis etishga asoslangan ittifoqdir<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Том 3. Особенная часть.

Страна Европы. Москва, БЕК, 1998 г., с.328.

Demak, o'zaro birlashishga intiluvchi bir qancha mustaqil davlatlar mavjud bo'lgan joydagina federatsiya tashkil etilishi mumkin.

Federativ shakldagi davlat qonun chiqaruvchi organlarga, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'lgan bir necha davlatlar – subyektlar birlashmasidan, ittifoqidan tashkil topadi. Har xil federativ davlatlarda subyektlar o'ziga xos nomlar bilan – respublika, shtatlar, kantonlar, yerlar deb ataladi. AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa ko'pgina davlatlar federativ davlatlar hisoblanadi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi<sup>6</sup>ga binoan Amerika Qo'shma Shtatlari 50 shtatdan va alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan.

Kolumbiya federal okrugidan tashkil topgan<sup>7</sup>. Har bir shtat o'zining Konstitutsiyasi va qonunlariga ega.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 5-moddasiga binoan Rossiya Federatsiyasi – Rossiya Federatsiyasining teng huquqli subyektlari bo'lgan – respublikalardan, viloyatlardan, federal ahamiyatidagi shaharlardan, avtonom viloyatlardan, avtonom okruglardan tashkil topadi<sup>8</sup>.

Germaniya Federatsiyasi o'n oltita «yerlar»dan iborat bo'lib, ularing uchtasini yirik shaharlar - Berlin, Gamburg, Bremen tashkil etadi.

Federativ davlat bir necha suveren davlatlarning ittifoqidan tashkil topgan suveren davlatdir. Federatsiyada umumfederativ davlatning hokimiyati va boshqaruv organlari, Konstitutsiyasi, budjeti, davlat ramzlarini bildiradigan belgilari bo'lishi bilan birga unga kiruvchi davlatlarning ham o'z hokimiyati va boshqaruv organlari, Konstitutsiyasi bo'ladi.

Hozirgi vaqtda davlatlarning rivojlanishi «toza holda»gi unitar va federativ davlatlarning kam uchrashiga olib kelmoqda. Unitar davlatlar ayrim huquqlarini ma'muriy-hududiy bo'linmalariga bermoqda,

---

<sup>5</sup> «Federativ» so'zi lotincha «feodus» so'zidan olingan bo'lib, «ittifoq», «shartnoma» ma'nolarini anglatadi.

<sup>6</sup> AQSh Konstitutsiyasi - ilk yozilgan konstitutsiyalardan biri bo'lib, hozirda ham amaldadir. U 1787 yilda 14 maydan to 17 sentyabrgacha Filadelfiya shahrida tayyorlangan.

<sup>7</sup> Конституции зарубежных государств. Москва, БЕК, 1996 г., с.10.

<sup>8</sup> А.И.Коваленко. Конституционное право России. Учебник, Москва, Право и Закон, 1997 г., с.108.

federativ shakldagi davlatlarda esa ularning markaziy organlari funktsiyalarini butun federatsiya hududida mustahkamlashga harakat qilmoqdalar.

### **3.2. O'zbekistonda ma'muriy – hududiy birliklarni tashkil etilishi va ular dinamikasidagi o'zgarishlar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 123-moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to'rtinchi bo'limi, o'n oltinchi bobi (68-69-moddalari) – O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan bo'lib, shimoli-sharqda Qirg'iziston, shimol va shimoliy-g'arbda Qozog'iston Respublikalari, janubiy-g'arbda Turkmaniston, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan, janubda qisman Afg'oniston bilan chegaradosh.

Hozirgi O'zbekiston hududi 1917- yilgi Oktyabr to'ntarishiga qadar ma'muriy jihatdan Turkiston genyeral-gubernatorligi (Turkiston o'lkasi) hamda Rossiyaning yarim mustamlakalari bo'lmish Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo'lingan.

Asosiy ma'muriy-hududiy birliklar viloyat (oblast), uyezd, volost va qishloq jamoasidan iborat bo'lgan. Xususan, Xiva xonligi 20 beklik, 2 noiblik va Xiva shahriga bo'lingan. Beklik va noibliklar o'z naybatida aminlik va masjidlarga bo'lingan. Buxoro amirligi hududi 28 beklikdan iborat bo'lib, ular amlok va aminliklarga bo'lingan.

1917- yilgi Oktyabr to'ntarishidan keyin podsho Rossiyasi mustamlakachilari o'rni egallagan Sovet Ittifoqi milliy respublikalar tuzish niqobi ostida amirlik va xonliklarni tugatib, Turkiston o'lkasini parchalab yubordi.

1918- yil 30- aprelda Sho'rolar 5-O'lka syezdida tasdiqlangan «Rossiya Federatsiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to'g'risida» qonunida Turkiston Respublikasining davlat tuzumi, uning hududiy chegaralari belgilandi. 1924- yilga kelib Turkiston ASSR olti viloyat- Amudaryo, Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy (Turkmaniston), Yettisuv, Amudaryo viloyatlari, 30 uyezd va 473 volostga bo'lib tashlandi.

1920- yil aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilinib, konstitutsiya qabul qilindi. Respublikaning butun hududi 28 tumanga

bo'lini. 1924- yil respublika 3 viloyat - Qozoq-Qoraqalpoq, Yangi Urganch, Toshhovuz va Xiva tumaniga bo'lini. Viloyatlar sho'ro (volost)larga bo'lini.

1920- yil 8- oktyabrda sobiq Buxoro amirligi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Respublika hududi 15 viloyat, 58 tuman va 197 kentga bo'lini. Shunday qilib, O'rta Osiyoda uchta sotsialistik davlat: Turkiston ASSR, Buxoro XSR va Xorazm XSR tuzildi. Ammo yangi mustamlakachilarni bu ham qanoatlantirmadi. Endi ular mustamlakani boshqarishning ancha qulay shakli - «milliy-hududiy chegaralanish» deb nomlangan keyingi bosqichga o'tishdi.

1924 -yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. 1924-yildan 1929- yilgacha Tojikiston ASSR ham O'zSSR tarkibida bo'lgan.

1925 -yil 29- yanvardan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Markazi Samarqand shahri bo'lgan O'zSSR yetti viloyat - Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlariga, 22 uezd va 241 volostga bo'lini. 1926- yilda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirilib, 1927-yil 1- yanvarda O'zSSR hududi 10 okrug, 87 tuman va 1746 qishloq kengashidan iborat bo'ldi.

1930- yil 17- avgustda okrugga bo'linish bekor qilindi. 1930- yil oxirida O'zSSR tarkibida 9 ta shahar, 73 tuman, 1696 qishloq kengashidan tashkil topdi.

1932- yil 27- iyunda Xorazm okrugi, 1935- yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi.

1936- yilda Qoraqalpog'iston ASSR RSFSRdan olinib, O'zSSR tarkibiga kiritildi. O'zSSRning ma'muriy-hududiy bo'linishi uning 1937- yilgi Konstitutsiyasida rasmiylashtirildi. Bu vaqtga kelib O'zSSR tarkibida bir avtonom respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392 qishloq kengashi bor edi.

1938- yil 14- fevralda O'zSSR tarkibida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tuzildi. 1941- yil 6- martda Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, 1943-yil 20- yanvarda Qashqadaryo viloyati tashkil etildi.

Barcha viloyatlar bir qancha tumanlardan tashkil topdi.

<sup>2</sup> 1934- yil iyunda 447 qishloq kengashi tarqatib yuborildi. 1957- yil 1- yanvarda O'zSSR bir avtonom respublika, 9 viloyat, 6 shahar tuman, 133 qishloq tumani,

29 shahar, 57 shaharcha va 993 qishloq kengashidan tashkil topganligi e'lon qilindi.

1957-1961 yillarda ma'muriy-hududiy birliklar bir qadar qisqartirildi, viloyat, tuman, qishloq kengashlari soni kamaytirildi. Ushbu davrda Namangan va Qashqadaryo viloyatlari bekor qilindi. Natijada O'zSSR tarkibida bir avtonom respublika, 7 viloyat, 117 qishloq tumani, 754 qishloq kengashi qoldi.

Murzacho'lni o'zlashtirish munosabati bilan 1963- yil 16- fevralda Sirdaryo viloyati tuzildi. 1964- yil 7- fevralda Qashqadaryo viloyati, 1967- yil 18- dekabrda Namangan viloyati, shuningdek ilgari bekor qilingan tumanlar qayta tiklandi, yangilari tuzildi. 1973- yil 29- dekabrda Jizzax viloyati, 1982- yil 20- aprelda Navoiy viloyati tuzildi. 1988- yil 6- sentyabrda viloyatlarni yiriklashtirish maqsadida Jizzax viloyati Sirdaryo viloyatiga, 1989- yil may oyida Navoiy viloyati Samarqand va Buxoro viloyatlariga qo'shib yuborildi.

1990- yil 16- fevralda Jizzax va Sirdaryo viloyatlari avvalgi chegarasida, 1992- yil 27- yanvarda Navoiy viloyati qayta tiklandi.

1924- yilda boshlangan va sobiq ittifoq parchalanguncha markaz-Moskva tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy bo'linishlarga ajratish siyosatida milliy va mahalliy xususiyatlarni inobatga olinmaganligi keyinchalik ayrim muammolarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, sho'rolar davrida ommaviy tus olgan va sho'rolar tizimini madh etuvchi joy nomlari qayta ko'rib chiqilib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki yangi nomlar berilmoqda. Biroq, sobiq ittifoq parchalanishi oldidan mavjud ma'muriy hududiy chegaralar daxlsizligini saqlashga oid respublikalararo kelishuv anklav hududlar shakllanishiga olib keldi. Masalan, Qirg'izistonning Barkent viloyatining ichida O'zbekistonga qarashli So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara va Jangayl, shuningdek, Tojikistonga tegishli Vorux va G'arbiy Kalach, O'zbekiston ichida esa Qirg'izistonning Barak va Tojikistonning Sarvak hududlari anklav ko'rinishida saqlanib qoldi.



O'zbekistondan hududiy jihatdan ajralib qolgan So'x - o'n ming aholisi bo'lgan to'laqonli tuman, Shohimardonni chegaradan o'n ming kilometrli masofa ajratib turadi. Mustaqillik yillarida qo'shni davlatlar bilan amalga oshirilayotgan dilemitatsiya siyosati mazkur masalalarning echimiga qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishiga ko'ra - unitar (oddiy) davlat hisoblanadi. Boshqa unitar davlatlardan farq qilgan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki uning tarkibiga mustaqil Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiritilgan.

### **3.3. Ma'muriy-hududiy birliklarning me'yoriy-huquqiy asoslari**

Mustaqillik yillarida mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning huquqiy asoslari takomillashtirildi. Bu borada 1991- yil 20-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga doir masalalarni hal qilish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993- yil 3- sentyabrdagi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi manzilgohlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jo'g'rofiy, geologik va boshqa toponimik obyektlarga nom berish hamda ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida»gi Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 1996- yil 30- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi Qonun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat - o'z tarkibiga boshqa ma'muriy-hududiy bo'laklarning hammasini oladi va shu tariqa muhim tashkiliy funksiyani bajaradi. Bu hududiy bo'linma joylarni markaz bilan bog'lab turadigan aloqachi tuzilmadir.

Viloyat yirik ma'muriy-hududiy bo'linma sifatida barqaror bo'lishi lozim. Uning tuzilishi, mustahkamlanishi, yiriklashishi yoki bo'linishi iqtisodiy jihatdan asoslantirilishi lozim. Mazkur ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotning barcha sohalarini kompleks rivojlantirishiga olib kelishi lozim.

### 3.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi (2019 yil holatiga)<sup>9</sup>.

| Ma'muriy-<br>hududiy birliklar   | Tuman-<br>lar | Jami<br>sha-<br>harlar | shu jumladan,<br>Respublika va<br>viloyat<br>bo'ysu-<br>nuvidagi | Qishloq<br>fuqarolari<br>yig'inlari | Qishloq<br>aholi<br>punktleri |
|----------------------------------|---------------|------------------------|------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------|
| O'zbekiston<br>Respublikasi      | 170           | 119                    | 31                                                               | 267                                 | 11006                         |
| Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi | 15            | 12                     | 1                                                                | 141                                 | 1128                          |
| viloyatlar                       |               |                        |                                                                  |                                     |                               |
| Andijon                          | 14            | 11                     | 2                                                                | -                                   | 455                           |
| Buxoro                           | 11            | 11                     | 2                                                                | -                                   | 1469                          |
| Farg'ona                         | 12            | 6                      | 1                                                                | 76                                  | 519                           |
| Gashqadaryo                      | 13            | 12                     | 2                                                                | 21                                  | 1041                          |
| Jayro'y                          | 8             | 6                      | 2                                                                | 17                                  | 585                           |
| Hamangan                         | 11            | 8                      | 1                                                                | -                                   | 391                           |
| Samarqand                        | 14            | 11                     | 2                                                                | -                                   | 1849                          |
| Surxondaryo                      | 13            | 8                      | 1                                                                | -                                   | 865                           |
| Sirdaryo                         | 8             | 5                      | 3                                                                | 11                                  | 257                           |
| Toshkent                         | 15            | 16                     | 7                                                                | -                                   | 878                           |
| Farg'ona                         | 15            | 9                      | 4                                                                | -                                   | 1021                          |
| Xorazm                           | 10            | 3                      | 2                                                                | 1                                   | 548                           |
| Toshkent sh.                     | 12            | 1                      | 1                                                                | -                                   | -                             |

Guvohi bo'lganimizdek, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri va quyidagi o'n ikkita viloyatdan tashkil topgan:

Andijon viloyati - Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. 1941- yilning 6- martida tashkil etilgan. Maydoni 4,3 ming kv. km. Andijon viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi - Andijon shahridir.

Buxoro viloyati - respublikamizning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan. 1938- yilning 15- yanvarida tashkil

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

etilgan. Maydoni 40,32 ming kv. km. Buxoro viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi -

Buxoro shahridir. Buxoro shahri tarkibida 2 tuman bor.

Jizzax viloyati – 1973- yil 29- dekabrda tashkil etilgan. Maydoni 21,21 ming kv. km.\* Viloyatning ma'muriy markazi – Jizzax shahridir.

Navoiy viloyati – respublikamizning markaziy qismida joylashgan. 1982- yil aprelda Buxoro viloyati va qisman Samarqand viloyati yerlaridan tashkil topgan.

1988- yil tugatilib, 1992- yil qayta tiklangan. Maydoni 110,99 ming kv. km.

Ma'muriy markazi – Navoiy shahri.

Namangan viloyati – respublikamizning sharqiy, Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. 1967- yil 18- dekabrda qayta tashkil etilgan. Maydoni 7,44 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Namangan shahri.

Samarqand viloyati – respublikamizning markaziy qismida, Zarafshon daryosi havzasida joylashgan. 1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan. Maydoni 16,77 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Samarqand shahri.

Sirdaryo viloyati – respublikamizning sharqida joylashgan. 1963- yil 16- fevralda tashkil etilgan. Maydoni 4,28 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Guliston shahri.

Surxondaryo viloyati – respublikamizning janubida joylashgan. 1941- yil 6- martda tashkil etilgan. Maydoni 20,1 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Termez shahri.

Toshkent viloyati – respublikamizning shimoliy-sharqida joylashgan. 1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan. Maydoni, Toshkent shahri maydonidan tashqari, 15,25 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Toshkent shahri.

Farg'ona viloyati – respublikamizning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. 1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan. Maydoni 6,76 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Farg'ona shahri.

Xorazm viloyati – respublikamizning shimoliy-g'arbida joylashgan. 1938- yil 15- yanvarda tashkil etilgan. Maydoni 6,05 ming

ky, km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Uzunoch shahri.

Qashqadaryo viloyati – respublikamizning janubiy-sharqida joylashgan. 1969- yil 7- fevralda qayta tashkil etilgan. Maydoni 28,57 ming kv. km. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi – Qashqadaryo shahri.

Tuman – O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi pog'onalarida ichida o'rta bo'g'in bo'lib, qishloq joylaridagi iqtisodiy, xo'jalik va ijtimoiymadaniy hayotga bevosita rahbarlik qiladi.

O'zbekiston ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, yangi tabiiy resurslarni o'zlashtirish hamda aholi sonining o'sishi bilan ma'muriy-hududiy bo'linmalar chegarasidagi o'zgarishlar, avvalo, qishloqdagi tuman bo'g'inlari hisobiga ro'y beradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida 161 ta tuman mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida shahar tumanlari ham mavjud.

Ma'muriy-hududiy bo'linishning yana bir bo'g'ini bo'lib – shaharlar hisoblanadi. Madaniy va ilmiy markaz bo'lib hisoblangan shaharlar aholisining soni, iqtisodiy va sanoatining rivojlanganligi, madaniy, ilmiy va o'quv maskanlarining mavjudligiga harab farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida respublika, viloyat va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar tizimi mavjud. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30- avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi qonun»<sup>10</sup>da ushbu shaharlar aholisi soni, ishlab chiqarish va sanoatiga qarab toifaga ajratish tartiblari ko'rsatib o'tilgan.

Viloyat va respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar turkumiga hamda 30 ming aholisi bo'lgan, muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan istiqbolli iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan shaharlar kiradi. O'zbekiston Respublikasida bunday shaharlar 51 tadir.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, davlat uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalari, savdo umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish

<sup>10</sup> Hozirgi vaqtning yangi qonunlari, №14. Toshkent, Adolat, 1997 y. II.

korxonalari mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan va uning uchdan ikki qismini ishchi, xizmatchi hamda ularning oila a'zolari tashkil etgan shaharchalar va boshqa aholi manzillari kiritiladi. Bunda mazkur aholi manzilgohining ma'muriy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari e'tiborga olinadi. O'zbekiston Respublikasida 66 ta ana shunday shaharlar mavjud.

Shahar deb – sanoat, tashkiliy-xo'jalik, boshqaruv, madaniy, transport va boshqa funksiyalarni bajaruvchi (qishloq xo'jaligidan tashqari) yirik aholi yashash manzilgohiga aytiladi. Shaharlar shuningdek, aholi soni va bajaradigan funksiyasi bilan boshqa aholi punktlaridan farq qiladi. Shaharchalar ham ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, uning turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda kamida ikki ming aholisi bo'lgan aholi manzilgohlari kiritilishi mumkin. Hozirgi vaqtda

O'zbekiston Respublikasida 106 ta shaharchalar mavjud.

Shaharlarning va shahar aholisining yuqori sur'atlarda o'sishiga, ular rolining kuchayishiga va shahar turmush tarzining tarqalishi-urbanizatsiya deb aytiladi.

Urbanizatsiya nihoyatda murakkab va serqirra, ijobiy va ayrim salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan obektiv jarayondir. Tabiiyki, murakkab hodisa hech vaqt faqat bitta, yagona ko'rsatkich bilan to'la qamrovli aniqlanmaydi. Binobarin, barchaga ma'lum bo'lgan urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi (hudud aholisining necha foizi shaharlarga to'g'ri kelishi) bilan qanoatlanish ma'qul emas. Shu bois, uni shaharlarning katta-kichikligi, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalariga o'xshash murakkab hududiy tizimlar, qishloq va shahar migratsiyasi, jumladan shaharlar atrofidagi tebranma migratsiya, «qishloq urbanizatsiya», qishloq ahlining «shaharchasiga» yashashi kabi ko'rsatkichlar bilan birga baholash lozim. O'zbekistonning urbanizatsiya jarayonida ham o'ziga xos, betakror yo'li bo'lmog'i tabiiydir. Modomiki bizning o'tmishimiz va madaniyatimiz avvalombor sug'orish dehqonchiligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan bog'liq ekan, urbanizatsiyaning o'tmishi, hozirgi holati va qolaversa, uning istiqbolini ham shu nuqtai nazardan qarash to'g'riroqdir. Ana shuni e'tiborga olib, mamlakatimizda qishloq joylarda nisbatan o'tkazilayotgan siyosatning ahamiyatini alohida

ta'kidlash joizdir. Qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'zgartirish borasidagi muhim islohotlar, zamonaviy infrastruktura tizimini shakllantirish, bu joylarga sanoatni olib kirish, aholiga xizmat ko'rsatish sohasini yaxshilash urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos, «ichkaridan» rivojlanishini bildiradi, uning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini ifodalaydi. «Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko'rilmasa, ushbu ko'rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin, mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish zarur. Bu borada faqat poytaxt va viloyat markazlari bo'lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e'tibor markazida turishi kerak.

Qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish dasturlaridan bosqichmabosqich shahar va posyokalarda ko'p qavatli uylar qurishga o'tishimiz lozim. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi darkor»<sup>11</sup>.

Qishloqlar – ma'muriy-hududiy bo'linishning quyi bo'g'inlaridan biridir. Shahar hududlariga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan qishloq markazlari va ma'lum sanoat obyektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo'lishi mumkin.

Ovullar esa qishloqlarga qaraganda kichikroq hajmdagi yashash va turar joylardan iborat aholi manzilgohlaridir. Ovullarda ko'p hollarda chorvador oilalar istiqomat qilib, ular asosan ko'chib yuruvchi bir necha cho'ponlar oilalaridan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasida qishloq va ovullar 1427 tadan oshiqdir.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili asosida qorag'alpoq millati O'zbekiston hududida o'z davlatini muxtor Respublika shaklida tashkil etgan edi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, Qoraqalpog'iston

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

Respublikasini mustaqil-suveren deb e'lon qildi. Bu Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyada, Mustaqillik asoslari to'g'risidagi qonunda va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi<sup>12</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishida viloyatlar mavjud emas, unda eng yirik ma'muriy-hududiy birlik – bu tumandir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan. Maydoni 164,9 ming kv. km. Qoraqalpog'iston Respublikasida 15 ta tuman, 12 ta shahar, 16 ta shaharcha, 112 ovul bor.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti – Nukus shahridir.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishida - Toshkent shahri alohida o'rinni tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri.

Poytaxt shaharda davlat va jamoat tashkilotlarining markaziy idoralari, davlat boshlig'ining qarorgohi, chet el diplomatik vakolatxonalarini joylashadi, davlatning asosiy siyosiy va iqtisodiy tadbirlari amalga oshiriladi.

Toshkent shahri Toshkent viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, maydoni 0,34 ming kv. km.

Ma'muriy-hududiy bo'linish – bu qonun asosida tuzilgan, ma'lum nomga, tegishli davlat-huquqiy maqomga ega bo'lgan va boshqa ma'muriy-hududiy

bo'laklar bilan, hukmronlik va bo'ysunish munosabatlari bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi hududning tarkibiy qismidir.

O'zbekiston Respublikasi hududining ma'lum ma'muriy bo'laklarga bo'linishi, davlatning asosiy funktsiya va vazifalarini amalga oshirishda zarur tadbir bo'lib hisoblanadi.

---

<sup>12</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ma'muriy-hududiy bo'lakda o'z vazifalarini shu davlat hududiy bo'laklari orqali amalga oshiradilar. Demak, ma'muriy-hududiy bo'laklarga mos ravishda davlat apparatining tegishli bo'g'inlari ham takomillashtiriladi.

Ma'muriy-hududiy bo'linish ikki xilda: siyosiy-hududiy bo'linish va ma'muriy-hududiy bo'linish sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy-hududiy bo'linishda davlat hududida siyosiy jihatdan alohida davlat (mustaqil yoki muxtoriyat) namoyon bo'lsa, bunday davlatning hududiy bo'linishi murakkab hisoblanib, uni siyosiy-hududiy bo'linishdagi davlat deyiladi. Agar davlat faqat ma'muriy-hududiy bo'laklardan iborat bo'lsa, bunday davlatni ma'muriy-hududiy bo'linishdagi davlat deyiladi. Ma'lumki, ma'muriy-hududiy bo'linishni amalga oshirishga tabiiy, siyosiy, iqtisodiy omillar ta'sir qiluvchi omillar va tamoyillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- iqtisodiy tamoyil – davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi shu davlatning iqtisodiy sohadagi vazifalarini samaradorlik bilan amalga oshirishni ta'minlashga qaratilishi lozim;

- siyosiy tamoyil – davlatning hududiy tuzilishini shu davlatning siyosiy maqsadlari, davlat hokimiyatini amalga oshirishga mos ravishda tashkil etishdan iborat. Bu tamoyil, birinchidan, har bir ma'muriy-hududiy bo'linma davlatning, uning hokimiyat organlari vazifalarini bajaruvchi mustaqil qismi deb tushunilishi, ikkinchidan, har bir hududiy qism o'z vazifasini bajarishda yuqori davlat hokimiyati organlariga bo'ysunishi;

- milliy-maishiy tamoyil – ma'muriy-hududiy bo'linish jarayonida

aholini milliy tarkibi, o'ziga xos milliy-maishiy xususiyatlari e'tiborga olinadi. Mazkur tamoyilda O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'lagidagi aholining milliy tarkibiga e'tibor beriladi, ularning milliy o'zini o'zi boshqarishlariga ma'lum darajada sharoit yaratib beriladi. Bunday tadbirlar milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos tomonlarini inobatga olishni, madaniy, tarixiy, diniy, estetik tomonlarga e'tibor berishni ta'minlaydi;

- davlat apparatini aholiga yaqinlashtirish tamoyili – ma'muriy-hududiy tuzilishda davlat ishlarini boshqarishda xalqning



ishtirokini ta'minlash va davlat apparatini aholiga yaqinlashtirishdan iborat. Bunday tadbir davlat apparatini aholiga aloqador va qulay sharoitda xizmat qildiradi. Aholining ehtiyoji va talablarini bevosita davlat apparatiga yaqinlashtiradi. Ularga konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda, davlat organlarini saylashda, o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzishda yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining har bir ma'muriy-hududiy birligi-da davlatning mahalliy vakillik organi, hokimiyati yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasining hozirgi ma'muriy-hududiy bo'linishi respublikaning ishlab chiqarish kuchlari ahvolini, ularning joylashish xarakterini, transport va aloqa vositalarining rivojlanishini, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning 69-moddasida ko'rsatib o'tilgan me'yor O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi qonun<sup>13</sup>i orqali amalga oshiriladi. Mazkur qonun viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o'zgartirish, ma'muriy markazlarni ko'chirish hamda aholi manzilgohlarini shahar, shaharchalar turkumiga o'tkazish, ma'muriy-hududiy birliklar, aholi manzilgohlari va ularning tarkibiy qismlariga, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizikjo'g'rofiy, geologik va oshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi.

Viloyatlarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan, tumanlar, qishloqlar, ovullarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli tuman

---

<sup>13</sup> O'zbekistonning yangi qonunlari. №14. Toshkent, Adolat, 1997 y.

hokimlarining iltimosnomasiga binoan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi. Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar, ovullar, shaharchalar, aholi manzilgohlariga odamlarning nomini berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mustaqillik yillarida mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning huquqiy asoslari takomillashtirildi. Bu borada 1991- yil 20-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga doir masalalarni hal qilish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993- yil 3- sentyabrdagi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi manzilgohlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jo'g'rofiy, geologik va boshqa toponimik obyektlarga nom berish hamda ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida»gi Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 1996- yil 30- avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida» gi Qonun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Ma'muriy-hududiy birliklarini klassifikatsiyalang va har biriga misollar keltiring.
2. Davlat tuzilishi va tuzimi shakllarini yoritirib bering.
3. Ma'muriy-hududiy birlikka ajratishning huquqiy asoslarini tavsiflang.
4. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy birliklarini xronologik tarzda tavsiflang.

## **4-BOB. MINTAQALAR TABIIY-RESURS SALOHİYATI VA ULARNING HUDUDIIY TARAQQIYOTDA TUTGAN O'RNI**

### **4.1. Tabiiy resurs salohiyati va uning iqtisodiy mohiyati**

Inson ishtrokisiz, tabiatan mavjud bo'lgan va kishilik jamiyati ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan tabiat ne'matlari – tabiiy resurslar deyiladi.

Tabiiy resurslar – insonlar foydalanayotgan yoki foydalanishi mumkin bo'lgan tabiatning jismi va kuchlaridir. Tabiiy resurslar kategoriyasi birinchi navbatda tabiatning inson xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Tabiat resurslarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga ishlab chiqarilmaydigan, ya'ni tiklanmaydigan resurslar – yer, neft, gaz, ko'mir va boshqa yer osti qazilma boyliklari kiradi. Ikkinchi guruhga tiklanadigan resurslar, yer usti boyliklari – qishloq xo'jaligi xom ashyolari kiradi. Birinchi guruhni, odatda, mineral-xom ashyo resurslari deb atash qabul qilingan.

Tabiiy resurslar bir necha belgilariga ko'ra tasniflanadi.

1. Resursning tabiiy-genetik belgilariga ko'ra;
2. Resurslarning ekologik xarakteriga ko'ra;
3. Iste'mol ahamiyatiga ko'ra;
4. Xo'jalikdagi iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra;
5. Sanoat ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga ko'ra;
6. Resurslarning shakllanish va ishlatilish xarakteriga ko'ra.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari" nomli asarida ta'kidlagan - O'zbekiston, o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi - bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Ularning ta'diqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral-xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak. Mineral-xom ashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik man-

baidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xomashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlari, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xomashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflangan. Ammo yer ostidagi bunday mineral xomashyo zahiralari potentsial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer qa'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xomashyo hisoblanadi. Mineral xomashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. SHunday qilib, yer qa'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.

## **4.2. Mineral xom ashyo resurslari hududiy joylashuvining mintaqaviy taraqqiyotda tutgan o'rni**

Foydali qazilmalar zahiralari va prognoz qilingan resurslarni miqdoriy jihatdan baholash hududiy aspektda amalga oshiriladi, ya'ni o'rganilayotgan hududning tabiiy resurs salohiyati aniqlanadi. Dunyo va ayrim mamlakatlar mineral-xomashyo balansida har bir foydali qazilma turi, zahiralarning 70-80 % dan ortig'i yirik va juda katta konlar hisobiga to'g'ri keladi, qolganlari o'rtacha kattalikdagi va ko'plab mayda konlarga jamlangan.

Mineral resurslarni sanoat yo'sinida o'zlashtirish ularni baholashga va hajmiga, sanoatning o'ziga xos xususiyatlariga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo'jalik mineral-xomashyo sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi roli bilan belgilanadi hamda qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Respublika mineral xom ashyo bazasida strategik jihatdan muhim

bo'lgan metall foydali qazilmalari, neft va gaz, mineral o'g'itlar, yer osti suvlari va qurilish materiallari bo'yicha ijobiy holat kuzatilmoqda.

O'zbekistonda hozirgi kunda 1 ming 800 dan ortiq kon ochilgan. Respublikamiz noyob yoqilgi-energetika resurslariga ega. Hozirgi paytda 160 tadan ortiq neft konlari kidirib topilgan bulib, Respublikamizning 60% hududi neft va gaz qazib olish uchun istiqbolli hisoblanadi va xom-ashyo zahiralarning qiymati 1 trillion Amerika dollariga teng deb baholanmoqda. Keyingi yillarda qator neft-gaz konlari topildi.

Farg'ona viloyati hududida yirik konlardan Shimoliy So'x, Chung'ara, Chimyon, Sho'rsuv, Andijon viloyatida Janubiy Olamushuk, Polvontoshni ko'rsatish mumkin. Farg'ona vodiysidagi konlarda asosan neft uchraydi. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida Mingbuloq neft koni ochildi. Farg'ona nefti asosan yengil, oltingugurti kam, parafini ko'proq. Janubiy neft konlari Surxondaryo viloyatida joylashgan.

Neft konlarining katta zahiralari Ustyurtda topilgan. Bulardan tashqari neft-gaz kondensat konlari Muborak, Sho'rtan,

O'rtauloqda joylashgan.

Qashqadaryodagi Ko'kdumaloq koni ayniqsa istiqbollidir.

O'zbekistonda gazning aniqlangan zahiralari 2 trillion kubometrni, ko'mirniki 2 milliard tonnadan ziyodroqni tashkil etadi. Mamlakatda topilgan konlarning zahiralari nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirishga qodir, balki energiya manbalarini eksport qilish imkonini ham beradi.

Neft va gazga boy beshta mintaqa aniqlangan: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G'arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg'ona. Gazning hozirgi aniqlangan zahiralari mamlakat ehtiyojlarini 35, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga etadi. Shu bilan birga O'zbekistonda gaz va neft zahiralari izlab topish darajasi 30-32 foizdan oshmaydi.

Mamlakatda tabiiy gaz va gaz kondensatini qayta ishlash istiqbollidir. Gazning tarkibida etan, propan va butan bo'lib, ulardan polimer materiallari olinadi. Sho'rtan gaz-kimyoy majmuidan olinmayotgan propandan nitron tolasi ishlab chiqariladi.

Respublikamizning 5 ta asosiy mintaqalarida (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G'arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg'ona) neft va gaz

konlari mavjud. Keyingi yillarda respublikamizda 3 ta neftni qayta ishlash (Buxoro, Farg'ona,

Oltiariq) va 2 ta gazni qayta ishlash (Shurtan va Muborak) zavodlari ishlab turibdi.

#### **4.3. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish**

O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari mavjud, jumladan, 2900 dan ortiq foydali qazilma konlari va ular namoyon bo'lgan istiqbolli joylar, 100 xilga yaqin mineral-xomashyo qidirib chamalangan, shundan taxminan 65 turidan hozirdayoq sanoatda va qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda. 1000 taga yaqin kon, shu jumladan 168 ta neft, gaz va kondesat koni, 51 ta qimmatbaho metallar koni, 41 ta rangli, nodir va radioaktiv metallar koni, 3 ta ko'mir koni, 22 ta kon – ma'dan, 14 ta kon – kimyoviy va 24 ta yarqirama tosh xomashyosi koni, 522 ta turli maqsadda foydalaniladigan qurilish materiallari va 151 ta chuchuk va mineral yerosti suvlari konlari qidirib chamalangan. Hozircha ularning 45 foizi foydalanishga jalb qilingan.

Respublikamizning umumiy mineral-xomashyo salohiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil qiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo'yilgan foydali qazilmalar zahiralari 1025 mlrd. AQSh dollariga baholanmoqda. Shuni qayd qilish kerakki, respublikada nisbatan qisqa muddat ichida 200 mlrd. Dollar miqdorida xomashyo qazib olindi.

Tayyorlab qo'yilgan zahiralari negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, karyer, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. Dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o'rniiga 6-7 mlrd. Dollarlik yangi zahiralari qo'shilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan o'zining juda katta zahiralari bilangina emas, balki quyidagi bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi:

- birinchidan, tabiiy va mineral-xomashyo zahiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina qolmay, katta miqdorda yo'ldosh elementlarga ham ega;

uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy;

to'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Ular qulay transport infratuzilmasi, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvvur transportiga ega.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforit, kaolin bo'yicha O'zbekiston taqdirlangan zahiralar va istiqbolli rudalar jihatidan dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi. Ma'lumki, mineral-xomashyo resurslari ham ildiz, ham tashqi bozorning iste'mol obyekti hisoblanadi. Shu tufayli, to'g'ri kon sanoati ishlab chiqarayotgan mahsulotlar milliy iqtisodiyotni quyidagi muammolarini yechishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- xalq xo'jaligi talabini an'anaviy turdagi mineral-xomashyolar bilan to'liq ta'minlash;
- tashqaridan kirib kelayotgan mineral-xomashyolar o'rnini to'ldirish;
- milliy xo'jalikning yangi sohalarini xomashyo bilan ta'minlash;
- ekologik vaziyatni va sanitar-gigienik vaziyatni (yod, brom, shifobaxsh minerallar) yaxshilanishini tashkil etish;
- tashqi bozorni o'zlashtirish va ijobiy savdo balansini tashkil etish.

### **Qisqacha xulosalar.**

Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. Shunday qilib, yer qanidan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.



### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Tabiiy resurs, tabiiy sharoit, tabiiy boylik, foydali qazilma tushinchalarini tavsiflang.
2. O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyatini iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ifodalang.
3. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasini sxematik tasvirlang.
4. O'zbekiston mineral-xomashyo resurslarining hududiy joylashuvini jadval tarzida ifodalang.
5. O'zbekistonda mustaqillik yillarida aniqlangan zahiralar va istiqbolli konlarning hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini tavsiflang.

## 5 BOB. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

### 5.1. Aholining hududiy joylashuvi. Mamlakat aholisining hududiy tarkibi va mintaqalarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari

Aholining hududiy joylashuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar, tabiiy-iqlimiy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi.

Aholining hudud jihatdan bugungi tarkibi aholi manzilgohlarini rejalashtirish sxemalari va bosh rejalari shuningdek, hududlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlariga bog'liq holda amalga oshmoqda.

Har bir o'lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi.

Sayyoramiz aholisining soni 7576951385 kishidan oshdi. Ko'payish sur'ati birmuncha qisqarayotganligiga qaramay, uning o'sish jarayoni davom etmoqda va 2050-yilga borib, 12 milliard kishiga etishi mo'ljallanmoqda.

MDHning Belorussiya, Ukraina va Qozog'iston kabi mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda aholi soni oshib bormoqda. Bu yerda tug'ilish, tabiiy ko'payishning nisbatan yuqori koeffitsientlari va o'limning past koeffitsienti saqlanib qolmoqda. An'anaviy ko'p farzandli oiladan o'rtacha farzandli oilaga o'ziga xos yo'l bilan demografik o'tish ro'y bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 1926- yilda – 4,6 mln. kishini, 1939- yilda – 6,3 mln. kishini, 1959- yilda – 8,1 mln. kishini, 1970- yilda – 11,8 mln. kishini, 1979- yilda – 15,4 mln. kishini, 1989- yilda esa 19,8 mln. kishini tashkil etgan. Mazkur yillarda respublika aholisining joylashuvi bo'yicha tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan, ya'ni 1926- yilda shahar aholisining jami aholi sonidagi ulushi – 21,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 1939 yilda – 23,4 foizni, 1959- yilda – 33,6 foizni, 1970- yilda – 36,6 foizni,

1989- yilda – 40,7 foizni, 2018- yil 1- yanvar holatiga kelib esa – 50,6 foizni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2019- yil 1- yanvar holatiga 3265,7 ming kishini tashkil etdi.

### 5.1-jadval.

#### Hududlar bo‘yicha aholi soni<sup>14</sup> (ming kishi) 2021\*

|                                 | Jami aholi     | shu jumladan:  |                 |
|---------------------------------|----------------|----------------|-----------------|
|                                 |                | shahar aholisi | qishloq aholisi |
| <b>O‘zbekiston Respublikasi</b> | <b>34558,9</b> | <b>17487,5</b> | <b>17071,4</b>  |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi   | 1923,8         | 942,1          | 981,7           |
| <i>viloyatlar:</i>              |                |                |                 |
| Andijon                         | 3188,2         | 1665,9         | 1522,3          |
| Buxoro                          | 1946,9         | 715,5          | 1231,4          |
| Jizzax                          | 1410,6         | 659,9          | 750,7           |
| Qashqadaryo                     | 3334,5         | 1433           | 1901,5          |
| Navoiy                          | 1013,8         | 495,7          | 518,1           |
| Namangan                        | 2867,4         | 1852,9         | 1014,5          |
| Samarqand                       | 3947,4         | 1458,6         | 2488,8          |
| Surxondaryo                     | 2681           | 971,4          | 1709,6          |
| Sirdaryo                        | 861,1          | 366,9          | 494,2           |
| Toshkent                        | 2994           | 1469,6         | 1524,4          |
| Farg‘ona                        | 3819,9         | 2152           | 1667,9          |
| Xorazm                          | 1893,1         | 626,8          | 1266,3          |
| Toshkent sh.                    | 2677,2         | 2677,2         | 0               |

XX asrda O‘zbekiston aholisining soni bir tekis oshgani yo‘q. Uning dastlab ikki hissa ko‘payishi salkam 60 yil davomida, keyingi ikki hissa ko‘payishi esa 20 yil ichida ro‘y berdi.

Aholining uchinchi marotaba ikki hissa ko‘payishi XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi oxirida ro‘y berishi kutilmoqda.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Aholi ko'payishi bilan uning zichligi ham ancha oshmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shahri aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi. Vaholanki, ular O'zbekiston hududining taxminan choragini, aholi uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa to'rt dan uch qismini egallagan.

## 5.2-jadval.

**Aholining zichligi (1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)<sup>15</sup>**

| Hududiy birliklar                         | 2013 y. | 2014 y. | 2015 y. | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. |
|-------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar: | 10,2    | 10,3    | 10,4    | 10,6    | 10,8    | 10,9    | 11,1    |
| Andijon                                   | 631,2   | 641     | 652,4   | 664,5   | 676,9   | 689     | 700,4   |
| Buxoro                                    | 42,3    | 42,9    | 43,6    | 44,3    | 45      | 45,7    | 46,4    |
| Fizax                                     | 55,9    | 56,8    | 57,8    | 58,9    | 60,2    | 61,3    | 62,5    |
| Qashqadaryo                               | 97,2    | 99,1    | 101,3   | 103,6   | 105,9   | 108,1   | 110,2   |
| Navoiy                                    | 7,9     | 8       | 8,1     | 8,2     | 8,4     | 8,5     | 8,6     |
| Namangan                                  | 325,3   | 330,5   | 336,6   | 343,3   | 349,9   | 356,5   | 362,8   |
| Namangond                                 | 198,3   | 201,6   | 205,5   | 209,6   | 213,7   | 217,8   | 221,8   |
| Surxondaryo                               | 110,4   | 112,5   | 114,8   | 117,3   | 120     | 122,5   | 125,1   |
| Tirdaryo                                  | 172,8   | 175,4   | 178,5   | 181,6   | 184,7   | 187,6   | 190,6   |
| Toshkent                                  | 175,1   | 176,8   | 178,7   | 180,9   | 183,2   | 185,5   | 187,6   |
| Targ'oni                                  | 485,3   | 492,6   | 501     | 509,6   | 518,5   | 527,3   | 535,5   |
| Xorazm                                    | 269,3   | 273,4   | 278,4   | 283,6   | 288,7   | 293,7   | 298,3   |
| Toshkent sh.                              | 6914    | 7009    | 7045    | 7100    | 7165,2  | 7257,9  | 7380,0  |

Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarga butun aholining mehnat resurslari, iqtisodiy faol va ish bilan band aholi, tug'ilgan bolalar va aholi tabiiy ko'payishning beshdan to'rt qismi, yalpi mahsulotning 74 foizi, investitsiyalarining 79 foizi va iste'mol barchalarining 88 foizi to'g'ri kelmoqda.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

## 5.2. Aholining tabiiy harakati va undagi o'zgarishlar

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018- yilda 32763,7 ming kishini, shu jumladan, shahar aholisi soni 16583,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16180,7 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi. Bunda, mintaqalarda amalga oshayotgan tug'ilish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## 5.3.-jadval

Tug'ilganlar soni (yilda; kishi)<sup>16</sup>

| Hududiy birliklar             | Umumiy | shu jumladan: |                |
|-------------------------------|--------|---------------|----------------|
|                               |        | qiz bolalar   | o'g'il bolalar |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 37 754 | 18 367        | 19 387         |
| viloyatlar:                   |        |               |                |
| Andijon                       | 67 368 | 32 418        | 34 950         |
| Buxoro                        | 37 228 | 17 813        | 19 415         |
| Jizzax                        | 30 984 | 14 797        | 16 187         |
| Qashqadaryo                   | 76 687 | 36 897        | 39 790         |
| Navoiy                        | 20 563 | 9 853         | 10 710         |
| Namangan                      | 61 380 | 29 267        | 32 113         |
| Samarqand                     | 89 956 | 42 879        | 47 077         |
| Surxondaryo                   | 64 908 | 30 973        | 33 935         |
| Sirdaryo                      | 17 627 | 8 555         | 9 072          |
| Toshkent                      | 54 794 | 26 327        | 28 467         |
| Farg'ona                      | 75 501 | 36 149        | 39 352         |
| Xorazm                        | 37 619 | 18 095        | 19 524         |
| Toshkent sh.                  | 43 150 | 20 715        | 22 435         |

Tug'ilish darajasining yuqoriliga ko'ra, Samarqand va Qashqadaryo, Farg'ona viloyatlari ajralab turadi. Tug'ilishning eng past darajasi Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida kuzatiladi.

Aholining tabiiy harakatiga tug'ilish bilan bir paytda o'limlar soni ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni tabiiy harakat tug'ilganlardan o'lganlarni ayirib tashlash orqali aniqlanadi.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



**9-rasm. Aholining umumiy o'sish ko'rsatkichlari.**

Yuqorida ko'rib o'tilgan ikki ko'rsatkich aholining o'rtacha umr uzatqiligi bog'liq. Rasmiy statistikada bu tug'ulganda kutilayotgan umr davomiyligi deb beriladi. Bu jihatdan Jizzax va Buxoro viloyatlari peshqadam.


**5.4-jadval.**

**Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi (yosh)<sup>17</sup>**

| Hududiy birliklar               | Umumiy      | shu jumladan: |             |
|---------------------------------|-------------|---------------|-------------|
|                                 |             | ayollar       | erkaklar    |
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b> | <b>73,7</b> | <b>76,1</b>   | <b>71,3</b> |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 72,7        | 75,3          | 70,1        |
| viloyatlar:                     |             |               |             |
| Andijon                         | 72,1        | 74,2          | 70,1        |
| Buxoro                          | 75,5        | 77,4          | 73,6        |
| Jizzax                          | 75,7        | 80,3          | 71,9        |
| Qashqadaryo                     | 74,2        | 76,3          | 72,3        |
| Navoiy                          | 74,1        | 76,1          | 72,2        |
| Namangan                        | 73,1        | 74,7          | 71,7        |
| Namangand                       | 74,0        | 76,3          | 71,8        |
| Surxondaryo                     | 73,2        | 75,3          | 71,3        |
| Sirdaryo                        | 70,6        | 72,6          | 68,5        |
| Toshkent                        | 73,3        | 76,4          | 70,3        |
| Farg'ona                        | 74,3        | 76,2          | 72,4        |
| Xorazm                          | 72,9        | 74,9          | 70,9        |
| Toshkent sh.                    | 74,5        | 78,1          | 70,5        |

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3733,7 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni) va Farg'ona viloyatida 3631,0 ming kishini (11,1 %), aksincha eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida 818,4 ming kishini (2,5 %) va Navoiy viloyatida 961,3 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.



**10-rasm. Doimiy aholi sonining hududla bo'yicha taqsimlanishi.**

Davlat statistika qo'mitasining xabariga ko'ra, hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017- yilning mos davriga nisbatan Surxondaryo viloyatida 2,1 foizga, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida 1,9 foizga, Jizzax, Namangan viloyatlarida va Toshkent shahrida 1,8 foizga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Toshkent viloyatida 1,1 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Buxoro viloyatida 1,4 foizni tashkil etdi.

### 3.3. Mehnat resurslari va ularning rivojlanish xususiyatlari.

Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tadbiq etish, aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Mehnat resurslari esa bugungi iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarida muhim salmoqqa ega bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini mikro, mezo va makro darajalarda ko'rish mumkin.

Mehnati resurslarining mikro darajadagi ahamiyati ularning korxona (tashkilot) faoliyatidagi o'rni hamda ishlab chiqarishdagi ishtiroki bilan belgilanadi. Ma'lumki, mehnat resurslari ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi barcha resurslar bevosita mazkur omil orqali boshqariladi. Hududlar va mintaqalar iqtisodiyotida mehnat resurslarining roli uning mezo darajadagi ahamiyatini ko'rsatadi. Mamlakatning qaysi hududida mehnat resurslari yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, u yerda ishlab chiqarish, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma va kommunikatsiya rivojlanadi. Mehnat resurslarining makro ahamiyati uning mamlakat yalpi iqtisodiyotidagi o'rni va asosiy boylik sifatida e'tirof etilishi bilan asoslanadi. Aynan mehnat orqaligina mamlakatda moddiy va nomoddiy boyliklar yaratiladi. Mazkur mehnatning subyekti (muallif va ijrochisi) esa bevosita inson, ya'ni mehnat resurslaridir. Demak, mehnat resurslarining barcha darajadagi ahamiyati uni tadqiq etishning ham ilmiy ham iqtisodiy dolzarbligini belgilab beradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgacha "mehnati resurslari" tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ularni umumlashtirish va yagona to'xtamga kelish munozarali masala bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida "mehnati resurslari", "ishchi kuchi" kabi iqtisodiy tushunchalarning ma'no va mazmuni birmuncha o'zgarib bormoqda. Bu tushunchalar faqat ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda emas, balki kundalik amaliyotimizda ham keng foydalanila boshlandi.

Ishchi kuchiga iqtisodiyot fanida mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarining



majmuasi sifatida qaraladi. R.J.Erenberg va R.S.Smit “Ishchi kuchi deganda yoshi 16 dan yuqori bo‘lgan xodimlar, ish bilan bandlar, faol ravishda ish qidirayotganlar, ishdan bo‘shatilgandan keyin ish bilan bandlik xizmatlariga yana murojaat etish niyatida bo‘lganlar tushuniladi”, deb hisoblagan.

Ingliz siyosiy iqtisodi asoschilaridan biri A.Smit “iqtisodiy odam” atamasini fanga kiritgan. Uning fikriga ko‘ra, “iqtisodiy odam” o‘z shaxsiy manfaati va maqsadini ko‘zlab, turmushini yaxshilashga intiladi. Shu boisdan, inson bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan mahsulotining qiymati yuqori bo‘lgan va ko‘p foyda keltiradigan faoliyat turini, sohasini tanlashga harakat qiladi. Faqatgina “ko‘zga ko‘rinmas qo‘l”, ya’ni erkin raqobat, bozor qonunlarigina o‘z maqsadlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchilarni tartibga solingan tizimga birlashtiradi. Amerikalik iqtisodchi olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryular iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida mehnat resurslarining soni va sifatini alohida ajratib ko‘rsatgan. Ular nazariyasiga muvofiq mehnat resurslarining soni iqtisodiyotda band bo‘lgan kishilar soni hamda ularning mehnatga layoqatli aholi tarkibidagi ulushi bilan belgilanadi. Mehnat resurslarining sifatini ifodalovchi va mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida esa kishilar salomatligining yaxshilanishi, kasb tayyorgarligi, bilimi va manfaatdorligining o‘sishi ko‘rsatkichlari keltiriladi.

Ishchi kuchi – mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma’naviy qobiliyatlarining majmuasidir.

“Ishchi kuchi” atamasi ko‘p hollarda uch ma’noni anglatishda ishlatiladi:

- organizm, tirik inson shaxsi ega bo‘lgan va har safar u qandaydir iste’mol qiymatini yaratish chog‘ida ishga soladigan jismoniy va ma’naviy qobiliyatlar majmui sifatida;

- aholining ish bilan band bo‘lgan yoki ish izlayotgan qismi – iqtisodiy faol aholining sinonimi sifatida;

- umuman ishlovchilar yoki muayyan bir korxona ishchilari sifatida.

Ammo ayni bir vaqtda “mehnat resurslari” soʻzi va “ishchi kuchi” soʻz birliklari turli variantlarga ega boʻlib, ularni qoʻllashda anʼgʻli va tegishli izohlar berish kerak boʻladi.

Shunday qilib, “mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalari turli manbalarda turlicha ishlatiladi va koʻp hollarda bir-biridan deyarli farqlanmaydi. “Mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalarining farqi quyidagilardan iborat:

- ✓ “Mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalari turli mazmunga ega boʻlib, mehnat resurslarining ishchi kuchiga aylanish jarayoni bir qancha bosqichlarni bosib oʻtadi.

- ✓ dastlabki bosqichda mehnat resurslari ishchi kuchining salohiyatli qismi boʻlib, ular mehnat vositalari va qurollari bilan ishlash tajribasini orttiradi.

- ✓ ikkinchi bosqichda esa mehnat resurslari ish joylariga taqsimlanadi. Shu tariqa jismoniy va aqliy qobiliyatlarning mehnat jarayonida sarflanishi roʻy beradi. Mehnat resurslari bu jarayonda ishchi kuchiga aylanadi.

- ✓ uchinchi bosqichda ishchi kuchi vaqt sarflab, moddiy neʼmat yaratadi va bu neʼmat isteʼmol qiymatiga ega boʻladi.

- ✓ ishchi kuchi mehnat faoliyatini toʻxtatishi bilan yana iqtisodiy nafaol aholi tusini oladi, lekin mehnat resursi tarkibida qoladi.

“Mehnat resurslari” va “ishchi kuchi” tushunchalari oʻrtasida oʻxshashlik mavjud. Mehnat resurslari va ishchi kuchi tushunchalari oʻrtasidagi oʻxshashlik ikkala toifaga kiruvchi kishilar ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashishlari uchun oʻzlarida mehnat layoqatini mujassamlashtirganligidir. Uahbu tushunchasi birinchi marta 1922 yilda rassiyaalik olim S.Strumilin tomonidan fanga kiritilgan. U mazkur tushunchani markazlashgan rejali iqtisodiyot yuritish tizimi nuqtai nazaridan talqin etgan boʻlib, unga koʻra mehnat resurslariga rejalashtiriluvchi passiv ishchi kuchi majmuasi sifatida qaralgan.

Oʻzbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga:

16 yoshdan 60 yoshgacha boʻlgan erkaklar;

16 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan xotin-qizlar kiradi.

Leikin ushbu yosh guruhidagi barcha aholi ham mehnatga layoqatli aholi hisoblanmaydi.

## 5.5-jadval.

**Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha  
taqsimlanishi (ming kishi)<sup>18</sup>**

|                               | 2018 y.        | 2019 y.        |
|-------------------------------|----------------|----------------|
| <b>Jami mehnat resurslari</b> | <b>18488,9</b> | <b>18666,3</b> |
| shahar                        | 9843,3         | 9949,5         |
| jamiga nisbatan foizda        | 53,2           | 53,3           |
| qishloq                       | 8645,6         | 8716,8         |
| jamiga nisbatan foizda        | 46,8           | 46,7           |
| <b>iqtisodiy faol aholi</b>   | <b>14022,4</b> | <b>14357,3</b> |
| shahar                        | 7565,5         | 7474,4         |
| jamiga nisbatan foizda        | 54             | 52,1           |
| qishloq                       | 6456,9         | 6882,9         |
| jamiga nisbatan foizda        | 46             | 47,9           |
| <b>iqtisodiy nafaol aholi</b> | <b>4466,5</b>  | <b>4309,0</b>  |
| shahar                        | 2277,8         | 2475,1         |
| jamiga nisbatan foizda        | 51             | 57,4           |
| qishloq                       | 2188,7         | 1833,9         |
| jamiga nisbatan foizda        | 49             | 42,6           |

Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi bu yoshdagi I va II guruh nogironlari, shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Mehnat resurslariga mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslar kiradi.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

**5.6-jadval.**

**Mehnat resurslari va aholi bandligi (ming kishi)<sup>19</sup>**

| Hududiy birliklar                   | Soni                 |                         |                          |
|-------------------------------------|----------------------|-------------------------|--------------------------|
|                                     | mehnat<br>resurslari | iqtisodiy faol<br>aholi | iqtisodiyotda<br>bandlar |
| <b>O'zbekiston<br/>Respublikasi</b> | <b>18666,3</b>       | <b>14357,3</b>          | <b>13520,3</b>           |
| Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi    | 1054,6               | 688,8                   | 647,2                    |
| viloyatlar:                         |                      |                         |                          |
| Andijon                             | 1722,2               | 1404,1                  | 1319,2                   |
| Buxoro                              | 1073,1               | 874,6                   | 826,5                    |
| Jizzax                              | 756,2                | 492,6                   | 468,2                    |
| Qashqadaryo                         | 1784,6               | 1296,6                  | 1218                     |
| Navoiy                              | 547,2                | 445,7                   | 422,4                    |
| Namangan                            | 1549,5               | 1099                    | 1034,9                   |
| Samarqand                           | 2079,6               | 1629,8                  | 1523,1                   |
| Surxondaryo                         | 1423,9               | 1062,7                  | 991,7                    |
| Sirdaryo                            | 475,2                | 371,9                   | 353,1                    |
| Toshkent                            | 1623,9               | 1360,9                  | 1289,6                   |
| Farg'ona                            | 2031,1               | 1630,5                  | 1525,7                   |
| Xorazm                              | 1000,6               | 773,3                   | 729,3                    |
| Toshkent sh.                        | 1544,6               | 1226,8                  | 1171,4                   |

Mehnat resurslariga kiradigan ikkinchi toifa bular mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslardir. Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. O'n besh yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 77-moddasi). Demak, o'n beshi yoshga to'lib ishlayotgan o'smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslar toifasiga kiradi.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi aholiga 55 yosh va undan yuqori yoshdagi xotin-qizlar, 60 yosh va undan yuqori yoshdagi erkaklar kiradi.

Yoshga doir pensiyani rasmiylashtirib, mehnat faoliyatini davom ettirayotganlar ham mehnat resurslari tarkibida o'tiradi.

Mamlakatning mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholiga taqsimlanadi.

Iqtisodiy faol aholi soni – bu ish bilan band aholi va ishsizlar soni yig'indisidan iboratdir.

Ish bilan ta'minlanish – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Iqtisodiyotda ish bilan band aholi soni iqtisodiy faoliyat turlarining turli sohalarida ish bilan bandlar yig'indisidan tashkil topadi.

Ishsizlar – qonun hujjatlariga muvofiq rasman ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar, shuningdek, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'lmagan, mustaqil ravishda ish izlovchi va bunday ish taklif etilsa, ishga joylashishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi vaqtincha mehnat bilan band bo'lmagan shaxslardir.

Iqtisodiy nafaol aholi – bu mehnat bilan band va ishsizlar deb hisoblanmaydigan shaxslardir. Ularga ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar; bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar; uy bekalari va ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar, shuningdek ko'char va ko'chmas mulkdan daromad oladigan ishlamaydigan shaxslar kiradi.

Mehnat resurslaridan foydalanishga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Geografik va tabiiy omillar. Respublikamiz mintaqalari turli tabiiy va geografik xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat hududiy mehnat bozorlarining tabiiy sharoitga yuqori ta'sirchanligini anglatadi. Masalan, Orolbo'yi mintaqasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ekologik vaziyat bilan asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi tarmog'ining yuqori ulushi respublikada ish bilan bandlikning mavsum va iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligini keltirib chiqaradi. Noqulay kelgan ob-havo sharoiti qishloq xo'jaligi

mahsulotlari etishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosilning keskin kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu holat esa sanoat, jumladan, qayta ishlash, oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari korxonalarining to'la quvvatda ishlamasligi, ishchilarning bo'sh qolishi va qisqartirilishiga olib keladi. Respublikamizning qishloq joylarida mavjud yuqori darajadagi mavsumiy ishsizlik holati ham aynan mavsum va ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar mavsumdan tashqari vaqtda ishsiz qolmoqda yoki nomuayyan, vaqtinchalik va bir martalik ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lmoqda.

2. Mavjudxom ashyo resurslari. Xomashyo resurslari hududiy iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Masalan, tabiiy xom ashyo resurslariga boy bo'lgan Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu mintaqalar ishchi kuchining salmoqli qismi ushbu tarmoqlarda banddir.

3. Demografik omillar. Bunda, demografik omillar ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aholi, jumladan, ishchi kuchining o'lim ko'rsatkichi ish bilan bandlikka sezilarsiz bo'lsa-da ta'sir qiladi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori darajada ro'y bersa, u holda mamlakat ishchi kuchi tarkibining sifat va miqdor jihatdan qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, kasb kasalligi va jarohatlari natijasida ham ish bilan band fuqarolar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari va ishchi kuchi safidan chiqib ketishlari mumkin. Shuningdek, demografik jarayonlar ichida tug'ilish ko'rsatkichi ish bilan bandlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, farzand dunyoga kelishi natijasida ayollar vaqtinchalik ishchi kuchi safidan chiqadi va iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga qo'shiladi. O'zbekistonda ayollar farzandi 2 yoki 3 yoshga etguncha tug'ruq ta'tilida bo'ladi. Demak, bu holatda ayollar kamida 2 yildan so'nggina yana iqtisodiy faol aholi tarkibiga qaytishi mumkin bo'ladi. Shu sababli mamlakatda tug'ilishning yuqori ko'rsatkichi ayollar ish bilan bandligiga ta'sir qituvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada yiliga o'rtacha 700 ming nafardan ortiq chaqaloq tug'iladi, bu esa, o'z navbatida, shuncha miqdordagi ayollarning mehnat bozoridagi faolligiga ma'lum muddat bo'lsada chek qo'yadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi hamda uning darajasi o'zgarishiga sabab bo'luvchi demografik omillardan biri mehnat migratsiyasidir. Mehnat migratsiyasi ishchi kuchining mehnat daromadi keltiradigan ish topish maqsadida bir hududdan boshqa hududga ko'chish harakatidir. Mazkur turdagi migratsiya vujudga kelishining asosiy motivi bo'lib fuqarolarning yuqori miqdordagi ish haqi va qulay mehnat sharoiti ilinjidagi harakatlari hisoblanadi. Mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashda mehnat migratsiyasi quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: ishchi kuchining hududlararo va tarmoqlararo qayta taqsimlanishi ro'y beradi; aholining ishsiz qatlami ish bilan ta'minlanadi; ishlovchilarning mehnat daromadi oshadi va turmush darajasi yaxshilanadi; ishlovchilar yangi kasb va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularning ish tajribalari ortadi.

4. Ta'lim tizimi. Ushbu omilning mehnat resurslaridan foydalanishga ko'rsatadigan ta'sirini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ✓ aholi, jumladan yoshlar savodxonlik darajasining yuqori ko'rsatkichi malakali ishchi kuchi bozorini vujudga keltiradi;

- ✓ mehnat bozorida raqobat ko'rashining paydo bo'lishiga olib keladi;

- ✓ ishchi kuchi taklifining sifat tarkibini takomillashtiradi;

- ✓ ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan yoshlar sonining ko'payishi mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy nafaol aholi ulushining ortishiga sabab bo'ladi;

- ✓ iqtisodiyot tarmoqlarining tegishli yo'nalishlardagi malakali kadrlarga bo'lgan talabini optimal qondirishni ta'minlaydi.

5. Ish haqi. Ish haqi va ijtimoiy transfyert to'lovlari miqdorini muntazam oshirib borish siyosati aholi bandligi muammolarini bartaraf etish, farovonlikni oshirish va ishchi kuchining qayta tiklanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi, shuningdek, qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish mehnat resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa shaxslarning manfaatlari, yashash tarzi, taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari jadal amalga oshirilayotgan bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda mehnat resurslarining o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Mamlakatda mehnat resurslaridan samarali

foydalanish aholi farovonligini oshirishga va iqtisodiy yuksalishga zamin yaratadi.

#### **5.4. Mehnat bozori shakllanishining mintaqaviy xususiyatlari**

Hozirgi vaqtda o'tish davri iqtisodiyotining oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan savodli foydalanish zarur.

Mehnat bozori bozorning boshqa tizimchalari bilan uzviy bog'langan. Haqiqatdan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat o'zini qayta ishlab chiqarish, balki mehnat resurslari va butun aholining sifat ko'rsatkichlarini ham yaxshilanishini oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo'q qilishi mumkin. Ishchi kuchiga jami talab – investitsiya va ishlab chiqarish hajmlari bilan tartibga solinadi.

Mehnat bozori – bu, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida “mehnatga qobiliyatlarini” xarid qilish – sotishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat. “Mehnat bozori” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining tizimtik tadqiqoti mazkur bozorni o'tish davrida bajariladigan asosiy vazifalarni ham aniqlashga imkon beradi:

- ✓ ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

- ✓ bozor uslubida xo'jalik yuritishining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;



✓ mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;

✓ ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;

✓ ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirish.

O'zbekiston mehnat bozori quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar orqali tavsiflanadi.

**5.7-jadval.**

**Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni<sup>20</sup> 2019y.**

| Mintaqalar                      | Iqtisodiy faol aholi jami, ming kishi | ulardan:              |            | Aholining iqtisodiy faollik darajasi, foizda | Aholining bandlik darajasi, foizda | Ishsizlik darajasi, foizda |
|---------------------------------|---------------------------------------|-----------------------|------------|----------------------------------------------|------------------------------------|----------------------------|
|                                 |                                       | Iqtisodiyotda bandlar | Ishsizlar  |                                              |                                    |                            |
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b> | <b>14357,3</b>                        | <b>13520,3</b>        | <b>837</b> | <b>73,5</b>                                  | <b>69,2</b>                        | <b>10,5</b>                |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 688,8                                 | 647,2                 | 41,6       | 62                                           | 58,3                               | 6                          |
| viloyatlar:                     |                                       |                       |            |                                              |                                    |                            |
| Andijon                         | 1404,1                                | 1319,2                | 84,9       | 77,7                                         | 73                                 | 6                          |
| Buxoro                          | 874,6                                 | 826,5                 | 48,1       | 76,7                                         | 72,5                               | 5,5                        |
| Jizzax                          | 492,6                                 | 468,2                 | 24,4       | 63,1                                         | 60                                 | 5                          |
| Qashqadaryo                     | 1296,6                                | 1218                  | 78,6       | 69,6                                         | 65,4                               | 6,1                        |
| Navoiy                          | 445,7                                 | 422,4                 | 23,3       | 76,4                                         | 72,4                               | 5,2                        |
| Namangan                        | 1099                                  | 1034,9                | 64,1       | 67,3                                         | 63,4                               | 5,8                        |
| Samarqand                       | 1629,8                                | 1523,1                | 106,7      | 74,6                                         | 69,7                               | 6,5                        |
| Surxondaryo                     | 1062,7                                | 991,7                 | 71         | 71,3                                         | 66,6                               | 6,7                        |
| Sirdaryo                        | 371,9                                 | 353,1                 | 18,8       | 74,9                                         | 71,1                               | 5,1                        |
| Toshkent                        | 1360,9                                | 1289,6                | 71,3       | 79,4                                         | 75,2                               | 5,2                        |
| Farg'ona                        | 1630,5                                | 1525,7                | 104,8      | 74,7                                         | 69,9                               | 6,4                        |
| Xorazm                          | 773,3                                 | 729,3                 | 44,0       | 71,0                                         | 66,9                               | 5,7                        |
| Toshkent sh.                    | 1226,8                                | 1171,4                | 55,4       | 84,6                                         | 80,8                               | 4,5                        |

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Mehnatning erkinligi va ixtiyoriyligi – mehnat bozori shakllanishining asosiy sharoiti yohud shartidir. Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy iqlimiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni biz quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori (MB) shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur subyektlarni o'zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular ham o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojining ifodalanishi bo'ladi.

MBning vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan o'zaro bog'langan hamda bir-birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish MBning shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi - taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi.

Mehnat bozori kon'yukturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari ichida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlari oshishi yetakchi o'rin egallaydi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) mehnat bozorida ishchi kuchining sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy shart-sharoiti hisoblanadi.

Ishchi kuchiga talab va taklif nisbati yaxshilanishiga tabiiy-iqlim sharoitlari muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqori unumdor qishloq xo'jaligi yerlarida va etarlicha suv bilan ta'minlangan yashash joylarida ishchi kuchi ko'proq jamlanadi va ishchi joylari normal faoliyat ko'rsatadi. Yangi ish joylarini yaratish va

ishlab turgan korxonalarni kengaytirish yo'li bilan ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga ma'lum darajada imkoniyatlar vujudga keltiriladi. Bu esa mehnat resurslarining ortiqchalik darajasini, demak, ishsizlik miqyosini ham keskin kamaytirishga bevosita ta'sir etadi. Shu bilan birga ortiqcha mehnat resurslariga ega respublikamiz hududlarida ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarda yangi ish joylarini yaratish, mehnat qo'llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash, qayta ta'mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko'lamini kengaytirish, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga ehtiyojni pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi: shaxsiy yordamchi xo'jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishning boshqa sohalarini rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nostandart shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish, inflyatsiya va ishsizlikni pasaytirish, mahalliy kadrlarning mobilligini (safarbarligini) hamda malakasini oshirish va boshqalar.

Mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan hududlarda esa bir qator omillar ishchi kuchiga talabning pasayishiga ko'maklashadi. Xususan, bu ijara va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, to'lash qobiliyatiga ega bo'lmagan yoki ekologik zararli korxonalarni yopish, yangi yerlarni o'zlashtirish ko'lamini qisqartirish, moddiy-texnikaviy va moliyaviy resurslar ta'minotini yaxshilash, intensiv texnologiyani qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish va hokazo. Bundan tashqari, mazkur hududlarda ishchi kuchi taklifini oshiruvchi omillar mavjud: kadrlarning malakasi, ma'lumoti, mobillik va eksportabellik darajasining pastligi, mehnat resurslari soni o'sish sur'atining ish joylari miqdoriga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarni ish joyidan ozod etishning ko'payishi, mehnatni qo'llash mintaqalarining etishmasligi va boshqalar. Shu bilan birga shunday omillar

ham bo'lsa, ular kompleks holida ishchi kuchi taklifining shakllanishi belatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: oshlarni xohlovchilar, yollangan xodimlar va ish beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jam'atmasi; yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va belalik ayollarning mehnat va ijtimoiy pensiyalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxona va oilaning moliyaviy imkoniyatlari; shaxsiy yordamchi xo'jaligida va yollanmasdan "uy mehnati"da band bo'lganlar soni; Qurolli Kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati; muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni o'zlashtirish va hokazo.

Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ishchi joylari; investitsiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar; mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va hokazo.

### **5.5. Mehnat bozorini tartibga solish va uni takomillashtirish yo'llari**

Mehnat bozorida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida aholining ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarini belgilash, u yoki bu ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy-mehnat mojarolarini bartaraf etish bo'yicha ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlar markaziy o'rin egallaydi. Mehnat bozorida mazkur munosabatlar jamoaviy, shaxsiy va hududiy usullar asosida tartibga solinadi. Jamoaviy bitimlar tuzilayotganda O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasi va tavsiyalariga asoslaniladi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasida (54-bandida) ta'kidlanganidek, "Jamoaviy muzokaralar, bir tomondan, tadbirlar, tadbirkorlar guruhi bilan, boshqa tomondan esa, mehnatkashlarning bitta yoki bir necha tashkiloti o'rtasida: a) mehnat

sharoiti va bandlikni belgilash; b) tadbirkorlar va mehnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish; v) tadbirkorlar yoki ularning tashkilotlari va mehnatkashlarning tashkiloti yoki tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida olib boriladigan barcha muzokaralarni bildiradi”.

Mehnat bozorida bunday tartibga solishni qo'llanishning eng muhim afzalligi shundaki, unda qabul qilinadigan qarorlar nihoyatda qayishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) bo'ladi, ularni na qonunchilik, na sud va na ma'muriy usullarga qiyoslab bo'lmaydi.

Aholini ish bilan ta'minlash va bandlik masalalari davlat hamda jamiyat uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning taraqqiyot darajasi, barqarorlik, fuqarolar eng muhim huquqlarining amalga oshirilishi ushbu muammo amalda qanday hal etilganligiga bog'liqdir.

Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tadbqiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 8-moddasida ta'kidlanishicha, quyidagi ishlar:

- harbiy yoki mutloq xizmat to'g'risidagi qonunlar asosida;
- favqulodda holat yuz bergan sharoitlarda;
- sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonunning 10-moddasiga binoan, fuqarolarning ishga joylashish huquqi ta'minlanadi. Bunga ko'ra, har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining bepul vositachiligi orqali ish joyini erkin tanlash huquqiga ega. Ish qidirayotgan va mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolar ish turini, ish joyini va mehnat rejimini erkin tanlash maqsadida kasbga doir bepul maslahatlar olish hamda tegishli axborot olish huquqiga ega. Mehnat bo'limlarining maslahatlariga muxtoj bo'lgan fuqarolar ularning yashash joylari qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, istalgan mehnat bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Ularni ro'yxatga olishda yoshi va boshqa jihatlari bo'yicha cheklashlar belgilanmaydi. Ayni vaqtda

fuqarolar mahalliy mehnat organlarining yo'llanmalari asosida kasbga tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o'tish, malakasini oshirish huquqiga ham egadirlar. Mazkur qonunda ilk bor O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida mehnat sohasida faoliyat ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra: "o'n olti yoshdan boshlab to'pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi".

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan davlat ishsiz shaxslarga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasi to'lash;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati; mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

## **5.6. Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisoblash amaliyoti.**

O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, band bo'lmagan aholini hisoblash, uslubiyoti ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan aholi

sonini hududlar bo'yicha hisoblab chiqish, aholi bandligi bo'yicha o'rganish va mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish tartibini belgilaydi, shuningdek, mazkur metodika xalqaro standartlarga muvofiq shakllanadigan statistik metodologiya hisoblanib, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish va hisoblab chiqish, hamda har bir navbatdagi kalendar yilga band aholi sonini baholash uchun qo'llanadi.

Ishga joylashtirishga muhtoj, band bo'lmagan aholi soni va mehnat resurslari balansini hisoblab chiqishda idoraviy statistik ma'lumotlar va bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar natijalaridan foydalaniladi.

Ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar (ishsizlar) soni mehnat resurslari sonidan mehnat bilan bandlar sonini va iqtisodiy faol bo'lmaganlar sonini chiqarib tashlagan holda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$U = LR - E - EIP$ , bunda:

$U$  - ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar

(ishsizlar);

$LR$  - mehnat resurslari;

$E$  - mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar;

$EIP$  - iqtisodiy faol bo'lmagan aholi.

Mehnat resurslari soni mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni va mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar soni yig'indisi sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$LR = WAPM - WTP$ , bunda:

$LR$  - mehnat resurslari;

$WAPM$  - mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi;

$WTP$  - ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar.

$WAPM$  soni mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar) sonidan mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironlari, shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi:

$WAPM = Mp(16 - 59) + Wp(16 - 54) - Ip - PP$ , bunda:

$Mp$  (16 - 59) - 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar;

Wp<sub>(16-54)</sub> - 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar;

Ip - mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironlari;

PP - imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi pensionerlar.

Axborot manbai:

Mp<sub>(16-59)</sub>, Wp<sub>(16-54)</sub> - statistika organlarining ma'lumotlari;

Ip - budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari;

PP - budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

WTP - statistika organlari va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

Mehnat bilan bandlar soni quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$E = EOs + EIs + LM$ , bunda:

Eos - iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

EIs - iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

LM - migrant mehnatchilar — chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellardagi O'zbekiston Respublikasi vakolatxonalarida ishlovchilardan tashqari.

Axborot manbai:

Eos - statistika organlari ma'lumotlari;

EIs - Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari;

LM - ichki ishlar, bojxona organlarining hamda mehnat organlari tomonidan bandlik masalalari bo'yicha o'tkaziladigan o'rganishlarning ma'lumotlari.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni davlat statistika hisoboti, davlat ijtimoiy sug'urta badali o'lovchilarning davlat soliq hisobi hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovi bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlarning soliq hisobotlarida qayd etilgan shaxslar; barcha xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari hamda qonun-



chilikka muvofiq davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovidan ozod etilgan tashkilotlar xodimlari;

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga soliq organlarida hisobga turmagan quyidagi shaxslar kiradi:

- ✓ davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lamasdan haqiqatda dehqon xo'jaliklarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan dehqon xo'jaliklari a'zolari;

- ✓ uyda pulli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan tadbirkorlarda (enagalar, uy xizmatchilari, uy oshpazlari, avtomobil haydovchilar, qorovullar va boshqalar) yollanib ishlash bilan mustaqil band bo'lgan shaxslar;

- ✓ tadbirkorlarga yollanib ishlovchi shaxslar, shu jumladan ularning oila a'zolari hamda davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovisiz va mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan jismoniy shaxslar (quruvchilar, yuk tashuvchilar, farroshlar, ishchilar va boshqalar).

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlik mezonlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ haftasiga kamida ikki soat iqtisodiyotning norasmiy sektorida haq to'lanadigan har qanday faoliyat turi bilan bandlik;

- ✓ bandlik muntazamligi - iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi bandlikdan tushgan har haftalik daromadning mavjudligi;

- ✓ 10 sotix yer maydonida shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan uy xo'jaligi boshqaruvidagi yer maydonining mavjudligi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni mazkur metodikaning ilovasiga muvofiq bir yilda to'rt marotaba mehnat organlari tomonidan o'tkaziladigan bandlik masalalari bo'yicha tanlab o'rganishlar (keyingi o'rinlarda o'rganish deb ataladi) asosida aniqlanadi.

O'rganish ma'lumotlari asosida iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band aholi sonini aniqlash uchun:

a) iqtisodiyotning norasmiy sektorida mazkur metodikaning ilovasiga muvofiq faoliyatning tegishli turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar sonining mehnatga layoqatli yoshdagi so'rab chiqilganlarning umumiy sonidagi salmog'i quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**$RDI = NI : NI * 100$** , bunda:

**RDi** - iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning tegishli turi bilan shug'ullanuvchi so'rab chiqilganlar salmog'i;

**Ni** - iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning tegishli turi bilan shug'ullanuvchi so'rab chiqilganlar soni;

**NI** - mehnatga layoqatli yoshdagi so'ralganlar soni, hammasi;

b) olingan salmoq ko'rsatkichi bo'yicha iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning tegishli turi bilan shug'ullanuvchi aholi sonining hisobi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**EIsi = WAP \* RDi : 100**, bunda:

**EIsi** - iqtisodiyotning norasmiy sektorida iqtisodiy faoliyatning tegishli turi bilan shug'ullanuvchilar soni;

**WAP** - mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni.

v) iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan bandlarning umumiy sonini aniqlash uchun iqtisodiy faoliyatning har bir turi bo'yicha iqtisodiyotning

norasmiy sektorida ish bilan bandlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi:

**EIs =  $\sum^i$  EIsi<sup>1</sup>**, bunda:

**EIs** - iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan bandlar soni, hammasi.

Mehnat resurslarini hisoblab chiqishda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni hisobga olinadi. Ularning soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida» 2007 yil 15 maydagi 97-son qarori bilan tasdiqlangan Sxema bo'yicha, quyidagilarni o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan axborotlar moduli asosida aniqlanadi:

a) chet elga ketganlarning soni va maqsadi to'g'risida bojxona deklaratsiyasining takomillashtirilgan shakli asosidagi har choraklik statistika hisoboti ma'lumotlari;

b) aholi hisobini yuritish bo'yicha ichki ishlar organlari ma'lumotlari;

v) mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirish uchun fuqarolarga Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan berilgan ruxsatnomalar ma'lumotlari;

- g) chet eldagi konsullik muassasalaridan olingan ma'lumotlar;
- d) uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar.

Iqtisodiy faol aholi soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**EP = U + E**, bunda:

**EP** - iqtisodiy faol aholi.

Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**EIP = PS + IW + VUP**, bunda:

**EIP** - iqtisodiy faol bo'lmagan aholi;

**PS** - ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan o'quvchilar va talabalar;

**IW** - bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar;

**VUP** - uy bekalar va mustaqil ravishda ish bilan band bo'lmagan shaxslar, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulkdan daromad oladigan ishlamaydigan shaxslar;

Axborot manbalari:

**PS** - statistika organlarining ma'lumotlari;

**IW** - statistika organlarining hisoblangan ma'lumotlari;

**VUP** - mehnat organlari tomonidan mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari.

Mustaqil ravishda ish qidirayotganlar soni ishga joylashtirishga ehtiyoj sezadigan aholining hisoblangan sonidan hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha tuman va shaharlar Bandlikka ko'maklashish markazlarida rasman ishsizlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**US = U - UO**, bunda:

**US** - ish bilan band bo'lmaganlar, mustaqil ravishda ish qidirayotganlar;

**U** - ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi (ishsizlar);

**UO** - ishga joylashtirishga muhtoj bo'lganlarni aniqlash paytida rasman ro'yxatdan o'tkazilgan ishsizlar.

Bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari ma'lumotlari rasman ro'yxatdan o'tkazilgan ishsizlar bo'yicha axborot olish manbai hisoblanadi.

Aholining ish bilan bandligini o'rganish tanlab olingan uy xo'jaliklari a'zolaridan so'rovnoma o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklari bo'yicha so'rovnoma o'tkazish Bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari xodimlari tomonidan hamda zarurat bo'lgan holatlarda Bandlikka ko'maklashish jamg'arma mablag'lari hisobiga to'lov shartnoma asosida Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi va boshqa tashkilotlarning maxsus tayyorlangan mutaxassislarini jalb etgan holda amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklari bo'yicha so'rovnoma o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan maxsus anketa so'rovnomasi orqali amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklari bo'yicha so'rovnoma o'tkazishning sifati uchun javobgarlik uy xo'jaliklari bo'yicha so'rovni o'tkazgan xodimga yuklanadi.

So'rovnoma o'tkazish, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri bandlik bosh boshqarmalari tomonidan quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

✓ uy xo'jaliklari bo'yicha anketa so'rovnomasi o'tkazish – bir yilda to'rt marotaba (har chorakda);

✓ ma'lumotlar bazasini shakllantirish - hisobot choragining oxirgi oyidan keyingi anketa so'rovnomasi o'tkazish oyining 1-kunigacha;

✓ anketa so'rovnomasi natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish - hisobot choragining oxirgi oyidan keyingi anketa so'rovnomasi o'tkazish oyining oxirigacha;

✓ o'rganish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va jadvallarni tayyorlash - hisobot davridan keyingi oyning 3-kunigacha.

Mamalakat amaliyotiga muvofiq ishlab chiqilgan ma'lumotlar va hisobkitoblar asosida mehnat resurslari, aholi bandligi va ishga joylashtirish baholash (hisob-kitob), hisobot va prognoz balanslari tomonidan ishlab chiqiladi.

Baholash (hisob-kitob) balansi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda har chorakda shakllantiriladi.

Baholash (hisob-kitob) balansi asosida aholi bandligini ta'minlash, zarur holatlarda ish o'rinlari tashkil etish parametrlariga tuzatishlar bo'yicha aniq choratadbirlar ishlab chiqiladi.

Mehnat resurslarining hisobot balansi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda har yili ishlab chiqiladi.

Mehnat resurslarining prognoz balansi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda kelgusi davrga ishlab chiqiladi.

Mehnat resurslarining prognoz balansi ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinadi:

- ✓ mehnat resurslari sonini va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi turli toifalarini

- shakllantiradigan kelgusidagi demografik jarayonlar dinamikasi;

- ✓ ishga joylashtirishga muhtoj bo'lgan mehnat bilan band bo'lmagan aholining (ishsizlarning) amaldagi va kutilayotgan soni;

- ✓ ishlayotganlar sonining belgilangan parametrlari, ish bilan bandlikning o'sishi va investitsiya dasturlari, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning mo'ljallangan natijalari munosabati bilan ish bilan bandlikning o'sishi va uning tarkibiy o'zgarishi;

- ✓ kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish;

- ✓ mehnat resurslari, aholi bandligi va ishga joylashtirish balansining prognoz ko'rsatkichlariga muvofiq ta'lim muassasalarida kadrlarni kasbga tayyorlash yo'nalishlarini qayta ixtisoslashtirishni takomillashtirish.

Mehnat resurslarining prognoz balansidan hududlarning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi ish o'rinlari tashkil etishga ehtiyojlarni va kelgusida hududiy aholini bandligi dasturlari parametrlarini aniqlashda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mehnat bo'limlarining maslahatlariga muxtoj bo'lgan fuqarolar ularning yashash joylari qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, istalgan mehnat bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Ularni ro'yxatga olishda yoshi va boshqa jihatlari bo'yicha cheklashlar belgilanmaydi. Ayni vaqtda fuqarolar mahalliy mehnat organlarining yo'llanmalari asosida ishga tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o'tish, malakasini oshirish huquqiga ham egadirlar. Mazkur qonunda ilk bor O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida mehnat sohasida faoliyat ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga egadirlar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Aholining tabiiy va mexanik harakati va u bilan bog'liq muhimchalarni tavsiflang.
2. Aholi tabiiy harakatining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni asoslab bering.
3. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi aholisining mustaqillik yillaridagi dinamikasini tasvirlang.

## 6 BOB. O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA SAONAT TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI

### 6.1 Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda sanoat siyosatining mohiyati.

**Sanoat siyosati** – bu ishlab chiqarish tizimida milliy maqsadlar va istiqbolni hisobga olgan holda progressiv o‘zgarishlarga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Ishlab chiqarish siyosatining asosiy vazifasi va predmeti sohalar ichidagi raqobat yoki sanoatni rivojlanishi emas, balki sohalaridagi o‘zgarishlarni o‘rganish hisoblanadi<sup>21</sup>.

#### *Mintaqaning sanoat siyosatini ishlab chiqish printsiplari.*

Sanoat siyosatini shakllantirish printsiplari majmuasi mintaqaning o‘ziga hosligini va ihtisosligin ifodalashi mumkin.

Shu bilan birga, har bir mintaqaning sanoat siyosatini amalga oshirishda quyidagi asosiy printsiplarni inobatga olish lozim:

- mahalliy va xorijiy davlatlar iqtisodiyotini hisobga olgan holda, texnologik modernizatsiyani;

- davlat ta‘minoti va boshqaruvi obyektlarini tanlash kriteriyalarini ishlab chiqish va ularga qat‘iyan roya qilish;

- sanoat komplekslarini ko‘p qirrali integratsiyasini;

- asosiy sohalar va texnologik tuzilmalarning hususiyatlarini, hududni ishlab chiqarishining o‘ziga hos sharoitlarni, hamda mintaqaviy xo‘jalik aloqalari tizimini, davlatning boshqa mintaqalari va xorijiy davlatlar bilan aloqasini;

- ishlab chiqilgan texnologik o‘zgarishlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi;

- davlat qiziqishlarini hisobga olish, xo‘jalik subyektlari, mintaq aholisini qiziqishlari bilan mos kelishini;

- davlat tomonidan tartibga solish tizimi yagonaligi va ularga sanoat siyosatining maqsad va vazifalariga bo‘ysunishini<sup>22</sup>.

---

<sup>21</sup> Андреев, А. В. Основы региональной экономики: учебник для вузов /А. В. Андреев. – М.: КноРус, 2017. – 334 с.

<sup>22</sup> Вахромов Е.Н. Региональная экономика в многоуровневой структуре рыночной экономики. Вестник Иркутского государственного университета. 2018. – № 2. –С. 55-80.

sanoat siyosatini ishlab chiqishda quyidagi asosiy printsiplarni va yondashuvlarni talab etadi:

1. Komplekslik va tizimli yondashuv.

Bir tarafdin, sanoat siyosati davlatning umumiy iqtisodiy strategiyasiga mos kelishi, undan chetga chikmasligi kerak. Chunki sanoatning o'zi mintaqa xo'jaligi kompleksining bo'lagi bo'lib doimiy uzviy bog'likda faoliyat olib boradi. Boshqa tomondan, sanoat siyosati umumiy iqtisodiy strategiyaga ko'rsatadi. Uning istiqbolini, maqsad va vazifalarini iqtisodiy siyosatning boshqa qismlari bilan bir yo'nalishdalligi hisobga olinishi kerak (soliq, byudjet, investitsiya, tashqi iqtisodiyot, ijtimoiy va h.k.lar). Bunday yondashuvning maqsadli yo'naltirilganligi sanoatning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni bilan belgilanganligi.

2. Mintaqaning sanoat kompleksining real holatini to'liq baholash, yillar davomida uning rivojlanishidagi umumiy tendetsiyalarni hisobga olinganligi.

3. Mintaqa miqiyosida bozor mexanizmlarini sanoat kompleksini tartibga solishda mavjud bo'lgan boshqaruv dastaklaridan to'liq foydalangan holda yo'naltirilganligi.

4. Siyosatining aktivligi, uning iqtisodiy o'sishga va tuzilmaviy shakllanishiga yo'naltirilganligi. Siyosat baholashga va barcha resurslardan maksimal foydalanishga hamda sanoatning iqtisodiy o'sishiga qaratilgan bo'lishi kerakligi.

5. Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish, jumladan sanoat kompleksining xududiy joylashuvini<sup>23</sup>.

Mintaqaning sanoat rivojlanish ko'rsatkichlari mintaqadagi raqabat sharoiti ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Sanoat rivojining tahlili investor nuqtai nazaridan, qanday iqtisodiy faoliyat turi samaradorligini, bozorda qanday mahsulotlar istiqbolli ekanligini, qanday sektorlarda qondirilmagan talab mavjudligini, hamda aralash iqtisodiy faoliyat turlarini va mintaqaning rivojlanish istiqbollarini aniqlab olish imkonini beradi. Shuningdek, mintaqa sanoatining rivojlanishi taxlili, uning iqtisoslashuvidagi yuqori tavakkalchilikka

<sup>23</sup> Дьяков, А.В. О формировании и реализации активной промышленной политики на региональном уровне // Управление региональным экономическим развитием Юга России: Доклады и сообщения на междунар. конф. – Ростов-на-Дону, 2000. – С. 108-112.



ega bo'lgan tarmoqlarni, qondirilmagan talabni va istiqbollarni aniqlash imkonini beradi.

#### *1. Mintaqa sanoatining ixtisoslashuvi:*

➤ Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mintaqa sanoatining tuzilmasi (Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mintaqaning sanoat tuzilmasi, mintaqada qanday ishlab chiqarish turlari ko'proq rivojlanganligini, yoki yukori tavakkalchilikka egaligini belgilab beradi);

➤ Ishlab chiqarishni rivojlantirish manbalari (Ishlab chiqarishni rivojlantirish manbalari resurslar bazasi hajmi, hom ashyo va inson kapitali hisoblanadi. Bundan tashqari tashkilotlar rivojlanishiga bozorda maxsulotlarning sotilishining samaradorligi ham ta'sir ko'rsatadi);

➤ Ishlab chiqarishning institutsional tuzilmasi (tashkilotlar soni va mulk shakllarini rivojlanishi)<sup>24</sup>.

#### *2. Mintaqning infratuzilmasi darajasi:*

- Bank sohasi;
- Transport infratuzilmasining rivojlanishi;
- Kommunal xo'jaliklar holati;
- Ipoteka kreditlarining rivojlanishi.

Mintaqaning rivojlantirish – bu ko'p qirrali va ko'p tarmoqli jarayon bo'lib, maqsaddan yoki maqsadlar tizimidan kelib chiqib ma'lum sohalarga yo'nalganligini bildiradi. U o'z ichiga ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi, jumladan, ishlab chiqarishning o'sishi va insonlar erkinligi ortishi bilan aholining shart-sharoiti yaxshilanishi davri. Barcha yo'nalishlar (qismlar) doimiy harakatda, amaliyotda progressiv o'zgarishlarni ifodalaydi. Shu bilan birga u rivojlanishning real omili bo'lib, insonlarga amaliyotda o'z aksini topishda bir qancha vositalarni talab etadi<sup>25</sup>.

Zamonaviy bilimlar o'zgarishi va yangiliklarning ko'payishi shunchalik yirikki, har qanday obyektни vaqtga nisbatan uzoq muddatli strategiyasi yoki reja ishlab chiqilishi zaruratga aylanmoqda. Bu to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosi bo'lib, tashkilot, sohalar

---

<sup>24</sup> Куриленко В.В. Основы управления природо- и недропользованием. Экологический менеджмент. СПб., 2001.

<sup>25</sup> Гранберг Л.Г. Основы региональной экономики: Учеб. для вузов. М.: ГУ-ВШЭ, 2015.

va umuman mintaqaning mavjud yo'nalishlari bo'yicha eng ma'qul yo'nalishni topish imkonini beradi. Bundan tashqari, strategiya, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tavakkalchilikni kamaytiradi. Shuning uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasida maqsadlar tizimini kengaytirishi va iqtisodiy dinamikasining sifat ko'rsatkichlarini rag'batlantirishi zarur<sup>26</sup>.

Strategiyani ishlab chiqishda faqat bunday yondashuv orqali, ushbu strategiyani asos sifatida va o'rtacha davriylikdagi yoki makroiqtisodiy siyosat dasturiga qo'shimcha sifatida qarash mumkin. Ushbu bosqichda mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida belgilangan maqsadlar strategiyasidan kelib chiqib, hukumat dasturlarining amalga oshirilishida baholash mezonlari ham shakllanadi.

Qo'yilgan maqsadlarga erishishning sharti strategiya asosida yuqori darajadagi va shu bilan birga erishish mumkin bo'lgan maqsadlar belgilanishi lozim. Jumladan, strategiyaning maqsadi intensiv mehnatga va tashabbuskorlikka asoslangan holda mintaqani dinamik iqtisodiy rivojlangan tizimga aylanishi uchun asos bo'lishi mumkin. Shu bilan birga uning o'ziga hos tabiiy-iqlim va geografik sharoitlarini, imkoniyatlari, ma'lum zaruriy standartlarga erishganligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish natijasi sifatida ko'rilishi mumkin<sup>27</sup>.

Bunday yondashuv strategiyani ishlab chiqishda yetarlicha ob'ektiv yondashishni, mavjud tendentsiyalarga va O'zbekiston iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan sharoitga to'liq javob berib, muozanatni mustahkamlashi va yuksalish nuqtasiga o'tishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, umumiy holat muhim emas, aniq shartlar va maqsadga erishish muhim. Ammo iqtisodiy jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, har bir mintaq turli rivojlanish bosqichida bo'ladi va o'tish davridan keyingi sifatli bosqichga o'tishda turlicha boshlang'ich holatdan boshlaydi. Rivojlanish strategiyasida to'g'ri yo'nalish tanlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada siyosiy hayotda,

---

<sup>26</sup> Гранберг Л.Г. Основы региональной экономики: Учеб. для вузов. М.: ГУ-ВШЭ, 2017.

<sup>27</sup> Дыкань А.В. О формировании и реализации активной промышленной политики на региональном уровне // Управление региональным экономическим развитием Юга России: Доклады и сообщения на междупар. конф. – Ростов-на-Дону, 2000.

iqtisodiyot va davlatning ijtimoiy sohalarida bo‘lib o‘tayotagan o‘zgarishlarni hisobga olish kerak.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aniq chora-tadbirlar<sup>173</sup> belgilab berilgan bo‘lib, tuzilmaviy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va uning yetakchi sohalarini diversifikatsiya qilish:

- ✓ muozanatni va milliy iqtisodiyotning mustahkamligini ta‘minlash, uning tarkibida ishlab chiqarish ulushini oshirish;

- ✓ modernizatsiyaga, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashga yo‘naltirilgan aktiv investitsion siyosatni olib borish, ishlab chiqarish, transportkommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish;

- ✓ avvalambor mahalliy hom ashyolarni qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shilgan qiymat bilan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta ishlash tarmog‘ini zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash orqali sifat jihatidan sanoatni yangi bosqichga modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali olib chiqish;

- ✓ iqtisodiyot sohasida samarali raqobatbardosh muhitni yaratish, tovar va xizmatlar bozorida bosqichma-boschiq monopoliyani yo‘qotish;

- ✓ yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni o‘zlashtirish va shu asosda mahalliy mahsulotlarni tashqi va ichki bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;

- ✓ ishlab chiqarish va importni lokalizatsiyalashni rag‘batlantiruvchi siyosatni davom ettirish, avvalambor iste‘mol maxsulotlari va ularga qo‘shimcha mahsulotlarni, sohalararo kooperatsiyalarni kengaytirish;

- ✓ iqtisodiyotda energiya va resurs sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejovchi texnologiyalarni jalb qilish, yangi quvvat manbalarini kengaytirish, iqtisodiyot sohalarida sanoatning samaradorligini oshirish;

- ✓ erkin iqtisodiy hududlar, texnoparklar, kichik ishlab chiqarish hududlarining yaratish va samaradorligini oshirish.

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan strategik vazifalardan kelib chiqib, jami 40 milliard AQSh dollari qiymatidagi 649 ta investitsion loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Natijada so‘nngi 5 yilda

ishlab chiqarish maxsulotlari 1,5 baravarga, uning YaIMdagi ulushi – 33,6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash sohasi – 80 foizdan 85 foizga oshirishi kutilmoqda.<sup>28</sup>

Umuman olganda mintaqaning iqtisodiy holatini mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib (sifat va son jihatidan) rivojlanishi, zamonaviy ishlab chiqarish yo'nalishlari yuzaga kelishini, ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bir vaqtning o'zida shunday iqtisodiy muhit yaratilishi kerakki, tadbirkorlik faoliyati o'zbek va xorijiy ishtirokchilar uchun boshqa mintaqalar, xatto boshqa davlatlarga nisbatan samaraliroq va xavfsizroq bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda har bir mintaqqa iqtisodiyoti yangi investitsiyalar jalb etish va kapital kiritilishida eng samarali va istiqbolli hududlarga aylanishi kerak.

## **6.2. Mintaqa sanoati siyosatining olib borish mexanizmlari**

Sanoat siyosatini amalga oshirish mexanizmi deganda huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar, sanoat kompleksi raqobatdardoshligini kuchaytiruvchi harakatlar, uning samaradorligini va mintaqqa aholisi ijtimoiy muammolarini yechish tushuniladi.

Sanoat siyosatini amalga oshirishda mexanizmlar tuzulmasini belgilab olish kerak. Mintaqa iqtisodiyotida sanoat siyosatini amalga oshirish mexanizmi o'z ta'minoti, vositalari va jihozlariga asoslanadi.

Mintaqadagi o'ziga hos ishlab chiqarish komplekslari sanoat siyosatini realizatsiya qilishda u yoki bu vositalarni tanlanishini talab etadi.

Shu bilan birga, innovatsion yo'nalishdagi sanoat siyosati innovatsion infratuzilmani shakllantirish, zamonaviy sanoat-mintaqa ishlab chiqarish tashkilotlari (texnopark, texnopolis, klasyerlar) turlaridan foydalanishni talab etadi<sup>29</sup>.

***Mintaqa rivojlanishida sanoatning ustuvorligi.***

***Sanoatning rivojlanish salohiyatiga quyidagilar kiradi:***

<sup>28</sup> 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси (ЎЗР Президентининг 07.02.2017 й. ПФ-4947-сонли Фирмонида 1-илова).

<sup>29</sup> Управление социально-экономическим развитием России: концепции, цели, механизмы / Под ред. Д.С. Львова, А.Г. Поршнева. – М.: Экономика, 2002. – С. 384–385.

1) kapitali tez aylanuvchi ishlab chiqarish sohalari va yirik byudjet samaradorligiga ega sohalarni ko'paytirish, ayniqsa, iste'mol bozorini ta'minlovchi ishlab chiqaruvchi sohalar;

2) ilmiy va yuqori texnologik sohalar, yirik qayta ishlash salohiyatiga ega, jumladan xorijiy davlatlar bilan kooperatsion aloqalarga ega bo'lgan sohalar;

3) iqtisodiyotni texnik qayta qurish asosi sifatida raqobatbardosh mashinasozlik maxsulotlarini ishlab chiqarish;

4) joriy bosqichda texnik ko'rsatkichlari oqsayotgan, boshqa sohalar ta'minoti uchun maqsadli ravishda tovar ishlab chiqaruvchi, maxsulotlarni mintaqaviy va ichki bozoga yetkazi berish bilan shug'ullanuvchi sohalarni qo'llab quvvatlash<sup>30</sup>.

Shunday qilib, mintaqaviy masshtabda asosiy vazifalar sifatida ma'lum hudud ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga qaratilishida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish zarur:

- ❖ alohida tashkilotlarni qayta tuzish;
- ❖ ishlab chiqarilgan maxsulotlarini sotish bozorlarini shakllantirish;
- ❖ raqobat muhitini shakllantirish, maxsulot raqobatbardoshligini oshirish;
- ❖ ishlab chiqarish kompleksi faoliyatini davlat tomonidan tartibga soluvchi tizimni shakllantirish, davlat mulki boshqaruvini tiklash, korporativ tuzilmalarni yaratishda davlat ishtirokini ta'minlash;
- ❖ turli sohalarda va xo'jalik tuzilmalarida yangi iqtisodiy va texnologik aloqalarni shakllantirish;
- ❖ o'zini o'zi moliyalashtirish, boshqarish va rivojlantirishga asoslangan tuzilmalarni yaratish maqsadida asosiy yo'naltirish;
- ❖ ishlab chiqarishda investitsion faoliyatni jonlantirish;
- ❖ ishlab chiqarishning ilmiy-ishlabchiqarish, innovatsion salohiyatini rivojlantirish va saqlab qolish;
- ❖ eksport sektorini davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi (kreditlash, subsidiya berish, soliq imtiyolari va h.k.lar)<sup>176</sup>.

---

<sup>30</sup> <http://old.donland.ru>

### 6.3. O'zbekiston sanoatining mintaqaviy jihatlari

O'zbekiston sanoati tarmoqlari rivojlanmoqda va o'zaro bog'langan kompleksga aylanmoqda. Katta tezlikda mashinasozlik, elektro energetika, rangli metallurgiya, kimyo, metalni qayta ishlash, ya'ni, ilmiy-texnik jarayonni belgilab beruvchi sohalar. So'nggi yillarda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida GRES, Navoiyda elnetroximkombinat, Olmaliq kimyo zavodi, Angrenda rezina kombinati, Toshkent motor zavodi, Samarqand xolodilniklar zavodi, Quvasoy forfor-foyans zavodi va h.k.lar o'z faolitlarini uzluksis amalga oshirishmoqda.<sup>177</sup>

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar – dekabr oylarida Respublika korxonalari tomonidan 331,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2018 yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 106,6 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish tar -kibida eng katta ulush ishlab chiqaradi gan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 79,9 % ni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 9,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 0,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utili - zatsiya qilish - 6,3 % ga o'sishi hisoblandi shuningdek, tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sano atida – 1,0 % ga pasayish kuzatildi. 2019 yilning yanvar - dekabr oylari yakunlariga ko'ra, respublika bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 857,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yuqori ko'rsatkichlari Navoiy (45 067,7 ming so'm), Toshkent (18 470,0ming so'm), Andijon (10 663,6 ming so'm) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (23 121,1 ming so'm), qayd etildi. Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 320,2 ming so'm bo'lga ni holda, Toshkent shahrida – 9 071,6 ming so'mni, Andijon viloyatida –8 594,5 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 3 876,3 ming so'mni tashkil etdi.

Respublikaga hos bo'lgan sohalar keng rivojlandi – yengil va oziq-ovqat sanoati. Ushbu sohalarining yirik ob'ektlari Buxoro paxta qog'oz va Xiva gilam kimbinati, ipak fabrikasi, Jizzaxdagi trikotaj

fabrikasi, Urganchdagi yog‘ ekstraksiyasi zavodi, Qibray pivo alkagol kombinati va h.k.lar.

Sanoat Respublika xalq xo‘jaligidagi yetakchi soha hisoblanadi. Uning rivojlanishi tabiiy-iqtisodiy resurslarni o‘zlashtirish, tezlikda o‘sib borayotgan aholi soni bilan bog‘liq. 60-yillar xo‘jalik ishlariga Buxoro-Xiva tabiiy gazining katta qismini jalb qilish va Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarida rivojlanishning yangi bosqichi bo‘lib xizmat qildi. Ushbu fakt respublikaning boshqa tarmoqlari rivojlanishi uchun ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi<sup>31</sup>.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2018 yil yakuniga ko‘ra, oziq -ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish -ning ulushi 13,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,5 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilning yanvar - dekabr oylari yakunlariga ko‘ra oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - ning ulushi 13,0 % ni, 2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,9 % ga oshdi va 34 483,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.<sup>32</sup>

Zamonaviy ishlab chiqarishning asosiy omili – bu elektroenergiya. Agar 1940 yilda respublikada elektroenergiya aholi jon boshiga 72,5 kVt-s bo‘lsa, 1960 yilda 684,6, 1992 yilda – 2346,1 kVt-s, bugun esa elektro energiya ishlab chiqarish 60 mlrd. kVt-s dan oshdi. Respublikadagi asosiy elektr energiyasi Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Angren va Taxiatoshdagi ishlab chiqariladi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda bir qator gidroelektrstansiyalar ham qatnashmoqda, bular: Chorvoq, Xodjikent, hamda Chirchiq daryosida qurilgan 19 ta GES. SSSR bo‘linib ketishiga qaramay, Markaziy Osiyoda hali ham yagona energo tizim ishlamoqda.

Bu tizim bundan 30 yil avval shakllantirilgan. Energiya quvvat tizimi samaradorligi ularning integratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, yagona quvvat tizimini ifodalaydi. Hozirda birlashgan energo quvvat tizimi odatiy va falokat vaqtlarida davlatlar aro elektr quvvatini almashinishi, samarali va ratsional ravishda bo‘yicha energo resurs sohasida xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. Energo tizimlar bo‘yicha barcha ishlar ob‘ektiv bo‘lib, Markaziy Osiyo tarkibiga kiruvchi barcha davlatlarda energetika rivoji uchun xizmat qiladi.

---

<sup>31</sup> O‘sha manba.

<sup>32</sup> O‘sha manba.

Bu o'z ifodasini bir qator rivojlangan davlatlar orasidagi yirik elektr energiyasi tizimlari misolida tasdig'ini topgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari omonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi. 2019- yilning yanvar - dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,3 % ga oshganligi kuzatildi.<sup>33</sup>

Respublika iqtisodiyotida yoqilg'i sanoati muhim o'rin tutadi. Yoqilg'i-energiya ishlab chiqarish quvvati davlatning qudratini ifodalaydi. Ushbu soha respublikamizda asosan tabiiy gaz qazib olish bilan, hamda angren ko'ng'ir ko'miri qazib olinishi bilan ifodalanadi. Respublikadagi yoqilg'i balansida neftning o'rni hali unchalik katta emas.

O'zbekistondagi yetakchi sohalardan biri bu rangli metallurgiya hisoblanadi. Bu yo'nalishga asosan Angren-Olmaliqdagi tog'-kon-sanoat hududi ixtisoslashgan. Ushbu soha mis, qiyin eruvchi va issiqbardosh metallar, tilla qazib olishga ixtisoslashgan. Sohadagi yirik ishlab chiqaruvchi – Olmaliq tog'-kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi. Respublikada aniqlangan volfram rudasi va molibden asosida, qiyin eruvchi va issiqbardosh o'zbek kombinati (Chirchiq shahri) ishlamoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tilla qazib olishda Qizilqum cho'lida joylashgan tilla koni asosidagi Mauntaun tog'-boyitish kombinati katta ro'l o'ynaydi.

Qora metallurgiya kombinati Toshkent viloyati Bekobod shahrida joylashgan va u hozirga yagona hisoblanadi. Ushbu tashkilot, temir va uni prokati (ishlov berilgan metall) bilan shug'ullanadi. So'nggi yillarda kombinat yangi turdagi xalq xo'jaligi mahsulotlarini ham ishlab chiqara boshladi.

---

<sup>33</sup> <https://stat.uz/uploads/doklad/2019/yanvar-dekabr/uz/3.pdf>.



## 6.1-jadval.

**Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi<sup>34</sup>**  
*(amaldagi narxlarda; mlrd. so'm).*

|                                     | 2015                | 2016                 | 2017                 | 2018                 | 2019                 | 2020 yil<br>yanvar-<br>dekabr |
|-------------------------------------|---------------------|----------------------|----------------------|----------------------|----------------------|-------------------------------|
| <b>O'zbekiston<br/>Respublikasi</b> | <b>97598,<br/>2</b> | <b>111869,<br/>4</b> | <b>148816,<br/>0</b> | <b>235340,<br/>7</b> | <b>322535,<br/>8</b> | <b>367078,<br/>9</b>          |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi       | 2387,6              | 4265,7               | 6773,3               | 10911,9              | 12736,1              | 14144,8                       |
| <i>viloyatlar:</i>                  |                     |                      |                      |                      |                      |                               |
| Andijon                             | 9744,6              | 7965,7               | 13269,8              | 27454,7              | 33122,3              | 35593,3                       |
| Buxoro                              | 5143,9              | 5569,6               | 6422,3               | 8601,2               | 14798,2              | 17567,1                       |
| Jizzax                              | 1474,5              | 2001,2               | 2548,8               | 3581,8               | 4586,1               | 5560,0                        |
| Qashqadaryo                         | 8721,9              | 9632,2               | 10945,9              | 14529,5              | 20360,1              | 14574,8                       |
| Navoiy                              | 9286,9              | 10657,9              | 13072,9              | 22892,4              | 44438,1              | 65116,7                       |
| Namangan                            | 2861,8              | 3475,7               | 4615,5               | 6586,6               | 8818,1               | 10950,8                       |
| Samarqand                           | 6095,5              | 7446,0               | 9242,0               | 13488,1              | 15783,6              | 18072,8                       |
| Surxondaryo                         | 1910,7              | 2200,7               | 2356,4               | 3234,7               | 4231,3               | 5515,9                        |
| Sirdaryo                            | 2820,6              | 3522,3               | 3806,5               | 5163,1               | 7293,0               | 7928,7                        |
| Toshkent                            | 14401,<br>0         | 16864,7              | 21693,4              | 37724,4              | 53484,8              | 64765,3                       |
| Farg'ona                            | 7170,2              | 8040,7               | 9728,5               | 13613,8              | 18661,2              | 21610,6                       |
| Xorazm                              | 2616,0              | 2802,7               | 4070,4               | 6457,2               | 8538,6               | 9417,0                        |
| Toshkent sh.                        | 18986,<br>1         | 23511,9              | 30459,6              | 43274,1              | 52747,5              | 66822,8                       |

Respublika xalq xo'jaligida yetakchi o'rin egallovchi yana bir tarmoq kimyo sanoati hisoblanadi. Ushbu soha uchun hom ashyo gaz, neft, oltinggurt, ozokerit, iste'mol tuzi va turli rangli metallurgiya chiqindilari, paxta va kanop qayta ishlangan maxsulotlari xizmat qiladi. Kimyo sanoati ayniqsa paxta sanoatida va mineral o'g'itlar ta'minotida katta ahamiyatga ega.

Bu sohadagi yirik tashkilotga Chirchiqdagi elektroxim kombinatni, Samarqanddagi superfosfat zavodini, Farg'onadagi azot o'g'itlari zavodi, Navoiy azot, Olmaliq ximzavod, hamda Toshkent

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan

Yantetik yuvish vositalari zavodi, Andijon va Farg'ona gidroliz zavodlari, Jizzax va Toshkentdagi plastmassa zavodlari, Toshkent kimyo-farmatsevtika zavodi va h.k.larni misol keltirish mumkin.

O'zbekiston sanoatida mashinasozlik keng rivojlangan – uning asosi barcha xalq xo'jaligi sohaslarini texnik qayta jihozlash. Bu sohada o'nlab tashkilot va muassasalar birlashmalari ishlaydi.

Respublikada elektrotexnik sanoat ham rivojlangan bo'lib, asosan kabel, elektro lampa, transformatorlar, turli elektro apparatlar va dvigatellar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

O'zbekistonda gaz aparaturasi, xo'jalik muzlatkichlari, lift, kinoaparaturalar, ko'prik kranlari, ekskavatorlar, ta'lim sohai va uskunalar ishlab chiqarish rivojlangan. Respublikadagi sanoat kompleksida qurilish materiallari sanoati o'ziga hos o'ringa ega. ushbu sohada sement, shifer, g'isht, temir-beton konstruksiya va detallar, santexnika vositalari va h.k.larni ishlab chiqarishga ihtisoslashgan. Qurilish mollari sanoati rivojlanishida mramor ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega (Gazgan va Samarqand viloyatlarida). Gazgan mramor ishlab chiqarish asosida G'azalkent, Toshkent, Samarqand, Olmaliq, Nukus shaharlarida toshlarni qayta ishlash zavodlari ishlamoqda. Respublikaning turli rayonlarida qurilish mollari bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan.

O'zbekiston sanoat kompleksi shakllanishi va rivojlanishida yengil va tekstil sanoatiga katta e'tibor qaratilgan. Turli sharoitlardan kelib chiqib respublika hududida turli yengil sanoat sohalari rivojlangan bo'lib, ular paxta-ip yigirish, paxtaqog'oz va ipak sanoati, ipak-homashyolari, kanopli iplar, to'quv-paypoq mahsulotlari, ustki va ichki kiyimlar trikotaji, tikuv ishlari, oyoq kiyim va h.k.larni o'z ichiga qamrab oladi. Engil sanoat sohasiga respublikada gilamlar, attorlik (galanteriya) mollari, farfor-ganchkorlik idishlari ham kiradi. Toshkent, Samarqand va Quvasoy forfor zavodlari O'zbekistonda yaxshi tanilgan. Ularning rangbarang va ajoyib mahsulotlari jahon bozorlarida bemaolol raqobat qila oladi, ular ko'plab davlatlarda o'tkazilgan ko'rgazmalarda ishtirok etgan va tilla medallar, diplomlar va ko'plab boshqa mukofotlarni qo'lga kiritgan.

Paxta-qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarishda Toshkent, Farg'ona, Buxoro kombinatlari eng yiriklari sanaladi. Asosiy ipak-hom

ashyosi markazi va ipak matolar ishlab chiqarish arg'ona, Namangan va Buxoro viloyatlarida joylashgan.

Namangan viloyatida gilam va gazlama matoli ishlab chiqarish, Qoqandda – to'qimachilik-paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Respublika bo'ylab har bir hududda tikuvchilik fabrikalari mavjud, Xiva shahri esa o'zining gilamlari bilan mashhur. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy shahrida katta tekstil kombinati qurilishi boshlangan. U Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi mutaxassisleri tomonidan loyihalashtirilgan. Loyihadagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 3 million ustki kiyim.

Yengil sanoatda paxta tozalash sanoati yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu sohadagi tashkilotlar asosan paxta yetishtiriladigan hududlarga yaqin joylarda qurilgan, ammo yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda ularda yetishmovchilik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Teri mahsulotlari sanoati asosan Toshkent, Samarqand, Qoqand, Farg'ona viloyatlarida keng rivojlangan. Respublikaning ko'plab boshqa shaharlarda oyoq kiyimlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoati ulushi juda katta bo'lib, asosan mahalliy qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslanadi. Ushbu soha hech qachon eskirmaydi, undagi holat doimo qiziqish uyg'otadi, uning mahsulotlari esa katta talab doirasiga ega. Ushbu sohaning rivojlanishiga bo'lgan qiziqish hozirgi murakkab davrda alohida e'tiborni talab etadi. Davlatlar o'rtasidagi eski iqtisodiy aloqalarning uzilishi, xom ashyo, yoqilg'i-energiya resurslarining keskin qimmatlashuvi aholi uchun juda muhim bo'lgan sohada ham o'zining salbiy ta'siri ko'rsatmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki: ushbu sohada har qanday inqiroz omillari va belgilarini tezlikda hal etish zarur. Ushbu sohada u yoki bu tashkilot turlari O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida joylashgan.

Oo'iq-ovqat sanoatining muhim tarkibiy qismlaridan biri – paxta chigitini qayta ishlashga asoslangan yog'-moy ishlab chiqarish sohasidir. Yog'-moy ishlab chiqarish respublikaning ko'plab hududlarida joylashgan – Toshkent, Farg'ona, Kattaqo'rg'on va h.k.

Konserva sanoati bir qancha katta zavodlarga asoslangan, lekin ushbu soha ko'proq Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Andijon viloyatlarida ko'proq rivojlangan.

O'zbekiston azaldan vino ishlab chiqarish sohasi bilan ham tanilgan. Ammo alkogolizmga qarshi mashhur kompaniya ushbu sohaga katta va o'zgartirib bo'lmaz darajada zarar yetkazdi. 1980 yilda respublikamizad uzumdan 13,6 mln. dekalarit mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1986 yilda – 2,7 mln. dekalaritga tushib ketdi. 1988- yildan asta sekin yana ko'tarila boshladi va 7 mln. kalaritdan oshdi.

2019- yili oziq -ovqat mahsulotlari ish lab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,1 % ni (2018 yil yanvar - dekabr oylarida 7,3 %) ni tashkil etdi.

Un mahsulotlari sanoati, go'sht mahsulotlari sanoati, alkagolsiz ichimliklar, non mahsulotlari, qandolat mahsulotlari va boshqa kundalik iste'moldagi mahsulotlar ishlab chiqarish respublikaning barcha hududlarida mavjud.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mehnat bo'limlarining maslahatlariga muxtoj bo'lgan fuqarolar ularning yashash joylari qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, istalgan mehnat bo'limiga murojaat qilishlari mumkin. Ularni ro'yxatga olishda yoshi va boshqa jihatlari bo'yicha cheklashlar belgilanmaydi. Ayni vaqtda fuqarolar mahalliy mehnat organlarining yo'llanmalari asosida kasbga tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o'tish, malakasini oshirish huquqiga ham egadirlar. Mazkur qonunda ilk bor O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida mehnat sohasida faoliyat ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga egadirlar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. "Sanoat siyosati" tushunchasini tushuntirib bering.
2. Mintaqaning sanoat siyosatini ishlab chiqishda asosiy omillarini aytib bering.
3. Mintaqning sanoat bo'yicha ixtisoslashuvi nima?

4. Sanoat siyosatini realizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?

5. Mintaqa siyosatida istiqbolli rivojlanishiga nimalar kiradi?

6. O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining iqtisodligi nimada?

7. Elektro kimyoviy sanoatning joylashuvidagi o'ziga hosliklarni tushuntiring.

8. O'zbekistonda oziq ovqat sanoatining rivojlanish hususiyatlari qanday?

9. O'zbekistonda umumiy sanoat ko'rsatkichlari o'sishining asosiy omillarini sanab bering.

10. Og'ir sanoatni joylashtirish hususiyatlarini tushuntiring.

## **7-BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUVI**

### **7.1. Qishloq xo'jaligi taraqqiyotida mintaqalar tabiiy-iqlim sharoiti va relefning ahamiyati.**

Tabiiy omillar har qanday hudud taraqqiyotining asosini, ya'ni poydevorini tashkil etadi. Ularga joylarning relefi, geologik tuzilishi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Har bir omil ma'lum darajada xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'iga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning markaziy, janubiy va sharqiy qismlari yer yuzasi sharqqa – tog' oldi va tog'larga tomon asta-sekin ko'tarilib boradi. G'arbiy qismi esa cho'ldan iborat. Joy balandlashgan sayin tuproq-o'simliklar o'zgarib dashtga o'tiladi. O'zbekistonning markaziy va sharqiy qismlarida xalq xo'jaligi uchun juda muhim bo'lgan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo, Sirdaryo, Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylari va nihoyat tog'lar o'rtasidagi Farg'ona vodiysi bor. O'zbekistonning qolgan qismi tekislik–cho'ldan iborat. Respublikaning chekka shimoliy–g'arbida Qoraqalpog'iston Respublikasi yerida Orol dengiziga taqalib kelgan cho'l va suvsiz keng Ustyurt platosi joylashgan.

Mamlakatimiz hududini tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l, adir, tog', yaylovlarga bo'lish mumkin. Dengiz sathidan 400 m balandlikgacha bo'lgan joylar cho'l mintaqasi hisoblanadi. Bu yerlardan yaylov chorvachiligida foydalaniladi, ammo cho'lning ozuqa boyligi juda kam. 1 ta qo'y uchun 2–3 gektar o'tloq talab etiladi. SHu hisobdan O'zbekiston cho'llarida 10 mln boshgacha qorako'l qo'y boqsa bo'ladi. Cho'l yaylovlarini yaxshilash va kengaytirish hisobiga qorako'l qo'ylarini soni 11–12 mln boshga etkazish mumkin. O'zbekiston iqlimi keskin kontinental, yozi issiq, qishi ancha sovuq. Mamlakat ichida esa chekka shimol va shimoli-g'arbida mo'tadil, qolgan tekislik hududlarda subtropik xususiyatga ega. Yillik o'rtacha harorat shimoldagi +8,9 janubdagi +18 darajagacha farqlanadi.

Respublikaning boy agroiklim resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim omildir. Agroiklim resurslari issiqsevar texnika ekinlari (paxta, kanop, tamaki, zig'ir), don ekinlari (sholi, makka-

jo'xori) uzum, syershira mevalar (jumladan, subtropik mevalar) va poliz ekinlari ko'plab etishtirish imkonini beradi.

## 7.1-jadval

### O'zbekiston respublikasi yer fondi<sup>35</sup>.

| Egalik qilish va foydalanish turlari                                                            | Umu-miy may-doni | Shun-dan sug'oril adigan yerlar | Qishloq xo'jalik yerlarini ng turlari | Qishloq xo'jali-gida Foydalan ilmay-di-gan yerlar | Umumiy may-doniga nisbatan, %. |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|---------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------------------|--------------------------------|
| Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar<br>JAMI                                               | 32239,6          | 4162,6                          | 25593,2                               | 6646,4                                            | 72,0                           |
| Davlat yer zahirasi                                                                             | 4632,0           | -                               | 616,0                                 | 4016,0                                            | 10,3                           |
| O'rmon xo'jaliklari yerlari                                                                     | 5243,2           | 17,8                            | 1223,0                                | 4020,2                                            | 11,7                           |
| Sanoat, yo'l, dam olish, qo'riqxonalar va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydi-gan boshqa yerlar | 1816,3           | 15,5                            | 61,7                                  | 1754,6                                            | 4,0                            |
| Suv inshootlari va boshqa gidrotexnik qurilmalar                                                | 635,0            | 3,4                             | 10,8                                  | 624,2                                             | 1,4                            |
| Qishloq yerlari (shahar va qishloqlar)                                                          | 215,4            | 38,9                            | 9,9                                   | 205,5                                             | 0,5                            |

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

O'zbekiston ichki suvlariga daryo, ko'l, yer osti suvlari, muzlik, qumbarlari, kanal va ariqlardagi suvlar kiradi. Mamlakat yer maydonining 71 foizini ishg'ol qilgan tekislik qismida va tog'larda yopulgan kelgan suvlar va shimilish natijasida sarflanib ketadi. Chunki tekislik qismida yog'in juda kam, aksincha bulutsiz jazirama issiq kunlarning uzoq davom etishi tufayli mumkin bo'lgan bug'lanishning ko'pligi oqibatida daryolar juda kam, yer osti suvlari nisbatan chuqurda joylashgan, tekislik qismida tranzit daryolarni hisobga olinmaganida doimiy oqimga ega bo'lgan daryolari yo'q hisobi.

O'zbekistonning umumiy yer resurslari 44,9 mln ga atrofida, uning 58-60 foizi qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli.

Sug'orma dehqonchilik maydonlari 4,3 mln gektarga yaqin, uning yarmidan ko'prog'i tekislik hududlarga, qolgan qismi tog' va tog' oldi hududlarga to'g'ri keladi. Lalmikor yoki tabiiy holda namlanib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy maydoni 750 ming ga, ularning 3/5 qismi tabiiy namgarchilik bilan to'liq ta'minlangan. Tabiiy yaylovlar 22 mln. ga yoki respublika umumiy maydonining teng yarmiga yaqinini tashkil qiladi.

O'zbekiston yer fondining 1/10 qismi foydalanilmoqda. Mutaxassislar hisobiga ko'ra, o'zlashtirish mumkin bo'lgan hali anchagina maydonlar bor. Respublikaning mavjud suv resurslaridan to'liq va oqilona foydalanilsa, 5 mln gektar yerni sug'orish mumkin. O'zbekiston hududida yer osti suvlari hajmi 6-7 km<sup>3</sup> ga teng.

## **7.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi**

Respublikamiz uchun qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning muayyan yo'nalishlaridan biridir. U mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning deyarli uchdan bir qismini beradi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan barcha aholining 36 foizidan ortiqrog'i qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi.

O'tgan qishloq xo'jaligi yilida 8,2 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 935 ming tonna bug'doy yetishtirilmoqda, 1,935 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlanmoqda. 12 million tonnaga yaqin sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming



tonna meva eytishtirildi. O'zbekiston 1,3 million gektar sug'oriladigan yerlarga g'alla ekib, 7 million tonnadan ortiq bug'doy yetishtiradi. Shunga qaramasdan, mahalliy unning xususiyatlariga bog'liq holda chetdan juda katta miqdorda ushbu mahsulotni import qilishga majburiy.

Keyingi yillarda paxta va g'alla maydonlarining o'zgarishi kuzatilmoqda. Bu qishloq xo'jaligidagi ixtisoslashuv va yerlardan foydalanish samaradorligiga bog'liq holda amalga oshmoqda. Chunonchi, bir gektar yerdan 40 sentner bug'doy olinsa – daromad jahon bozori narxlarida 800 dollarni tashkil etadi. Shu maydondan olinishi mumkin bo'lgan 7-8 tonna uzumning qiymati taxminan 8 ming dollarga teng. Farq - 10 baravar. G'allani o'rniga 300 ming gektarda yuqorida ko'rsatilgan ekinlar joylashtirilsa, 5 yildan keyin eksport hajmi qo'shimcha 10 milliard dollarga ko'payadi.

7.2-jadval.

**Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)<sup>36</sup>.**

| Hududlar/<br>yillar                 | 2015           | 2016            | 2017            | 2018            | 2019            | 2020 yil<br>yanvar-<br>dekabr |
|-------------------------------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-------------------------------|
| <b>O'zbekiston<br/>Respublikasi</b> | <b>99604,6</b> | <b>115599,2</b> | <b>148199,3</b> | <b>187425,6</b> | <b>216283,1</b> | <b>249754,5</b>               |
| Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi    | 3332,2         | 3929,8          | 4801,3          | 6562,9          | 8208,1          | 9666,5                        |
| <i>viloyatlar:</i>                  |                |                 |                 |                 |                 |                               |
| Andijon                             | 9796,6         | 11873,4         | 15290,9         | 19606,3         | 23686,7         | 26142,8                       |
| Buxoro                              | 8290,5         | 9812,2          | 12968,8         | 17064,6         | 19182,1         | 23556,9                       |
| Jizzax                              | 5685,3         | 6827,1          | 8835,0          | 11448,2         | 13720,1         | 15959,5                       |
| Qashqadaryo                         | 9089,0         | 10863,6         | 14360,6         | 17206,5         | 19933,9         | 23726,8                       |
| Navoiy                              | 4206,1         | 5034,7          | 6470,3          | 8299,8          | 9467,8          | 11346,4                       |
| Namangan                            | 6973,6         | 7973,7          | 10215,7         | 12639,6         | 15509,0         | 17749,3                       |
| Samarqand                           | 14300,0        | 17088,6         | 21506,8         | 25658,0         | 28379,5         | 32310,6                       |
| Surxondaryo                         | 8218,0         | 8737,2          | 11608,1         | 15046,2         | 17844,1         | 19504,6                       |
| Sirdaryo                            | 3581,2         | 4088,4          | 5074,0          | 5654,3          | 7401,5          | 8017,7                        |
| Toshkent                            | 10735,5        | 12034,2         | 15594,8         | 18359,1         | 20417,1         | 24351,7                       |
| Farg'ona                            | 9180,9         | 9824,6          | 12388,0         | 17457,1         | 18532,2         | 21241,6                       |
| Xorazm                              | 6215,7         | 7511,7          | 9085,0          | 12423,0         | 14001,0         | 16180,1                       |

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

O'tgan 2018- yilda 1 million 71 ming gektardan ortiq maydonga paxta etishtirildi. Bu 2017 yilga nisbatan 135 ming gektarga, 2016-yilga nisbatan esa 184 ming gektarga kamdir.

### 7.3.-jadval.

#### Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari<sup>37</sup>

| Ekin ,aydonlari/yillar      | 2014   | 2015   | 2016   | 2017   | 2018   | 2019   | 2020   |
|-----------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Jami ekin maydoni           | 3708,4 | 3601,6 | 3628,1 | 3658,6 | 3678,2 | 3694,2 | 3706,7 |
| Shu jumladan:               |        |        |        |        |        |        |        |
| Don ekinlari                | 1679,4 | 1607,4 | 1628,1 | 1643,9 | 1655,6 | 1671,1 | 1689,4 |
| Texnik ekinlar              | 1417   | 1386   | 1372,4 | 1380,1 | 1372,3 | 1368,8 | 1333,9 |
| paxta                       | 1342,5 | 1329,2 | 1308,3 | 1308,8 | 1301,5 | 1298,1 | 1265,1 |
| Kartoshka va poliz ekinlari | 291,7  | 295,1  | 313,7  | 318,9  | 324,6  | 327,3  | 349,9  |
| shundan:                    |        |        |        |        |        |        |        |
| Kartoshka                   | 70,7   | 73,6   | 76,1   | 78,3   | 80,3   | 80,6   | 84,6   |
| Sabzavotlar                 | 173    | 175,4  | 183,8  | 189,4  | 192    | 194    | 206    |
| Oziqbop poliz ekinlari      | 47,9   | 45,9   | 53,7   | 50,6   | 51,5   | 52     | 58,8   |
| Ozuqa ekinlari              | 320,4  | 313,1  | 313,9  | 315,7  | 325,7  | 327    | 333,5  |

Tabiiy sharoiti, iqlimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik tarmoqlari eng avvalo, paxtachilik tarmog'ini milliy va mintaqaviy ishlab chiqarish tarmoqlari bilan muvofiqlashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "...keyingi yilda klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga etkazish va buning uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, g'alla va meva-sabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerak. Bu soha biz uchun nisbatan yangi ekanini inobatga olib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, jumladan, kredit tizimini

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

soddalashtirish, xarajatlarni subsidiyalash, yer ajratish bilan bog'liq tartiblarni qayta ko'rib chiqish talab etiladi"<sup>38</sup>.

Qishloq xo'jaligi oldida turgan muhim vazifa – suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashdan iborat. Binobarin, mavjud yerlarning 72 foizi qishloq xo'jaligida turli yo'nalishda foydalaniladi hamda respublika suv limitining 86 foizi agrar sektorda ishlatiladi.

### **7.3. Mamlakat agrosanoat majmuisi va uning rivojlanishidagi mintaqaviy xususiyatlar.**

Agrosanoat majmui (ASM) – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan band xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasi hisoblanadi.

Mutaxassislar agrosanoat majmuasini 4 ta sohaga ajratishni ma'qul ko'radi.

**1-soha.** Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, mineral o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omuhta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.


**2-soha.** Qishloq xo'jaligining o'zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini tashkil etib, u dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek, pillachilik, asalarichilik, o'rmonchilik hamda baliqchilikka ajratiladi.

**3-soha.** Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga etkazib beruvchi tarmoqlar – paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog'-moy zavodlari, jun, kanop, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qayta ishlangan mahsulotlarni saqlash, ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.

---

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O'zR Oliy majlisiga murojaatnomasi. 2018 yil, 28 dekabr.

**4-soha.** Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir.




**14-rasm. Agrosanoat majmuasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari.**

O'zbekiston agrosanoat majmuasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlaydigan sohalar – un-yorma, yog'-moy, go'sht, sut, mevakonsyerva, vinochilik hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ikkilamchi qayta ishlaydigan sohalar – non, makaron, konditer, paxta moyi, go'sht-sut konsyervasi va mahsulotlari, oziq-ovqat konsentratlari ishlab chiqarish sohalaridir.

Bu ikki yo'nalish birgalikda oziq-ovqat sanoatini tashkil etadi.

Texnika ekinlarini birlamchi qayta ishlash, ya'ni paxta, lub ekinlari va tamaki ishlab chiqarish va ikkilamchi qayta ishlash, ya'ni ip gazlama, to'qimachilik, lub tolalari, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari engil sanoatni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasida paxtasanoat majmuasi, mevasabzavot majmui, chorvachilik majmuasi hamda don ishlab chiqarish majmuasining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Respublikamiz agrosanoat majmuasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda tarmoqni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.



**15-rasm. Agrosanoat majmuasini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari.**

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan jihozlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va boshqalar.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mamlakatimiz hududini tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l, adir, tog', yaylovlarga bo'lish mumkin.

Dengiz sathidan 400 m balandlikgacha bo'lgan joylar cho'l mintaqasi hisoblanadi. Bu yerlardan yaylov chorvachiligida foydalaniladi, ammo cho'lning ozuqa boyligi juda kam. 1 ta qo'y uchun 2–3 gektar o'tloq talab etiladi. SHu hisobdan O'zbekiston cho'llarida 10 mln boshgacha qorako'l qo'y boqsa bo'ladi. Cho'l yaylovlarini yaxshilash va kengaytirish hisobiga qorako'l qo'ylarini soni 11–12 mln boshga yetkazish mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi tarmoq tarkibining shakllanishida tabiiy-iqlim sharoitning rolini asoslab bering.
2. Mamlakat mintaqalari taraqqiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rnini iqtisodiy raqamlar orqali asoslab bering.
3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iste'mol bozoridagi o'rnini aniq mahsulotlar misolida asoslab bering.
4. O'zbekiston agrosanoat majmuasining rivojlanishidagi mintaqaviy xususiyatlarning tavsiflang.
5. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlanishida klasterlashning ahamiyatini yoritng.

## **8 BOB. TRANSPORT VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINING MINTAQAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

### **8.1. Yo‘l-transport kommunikatsiyalari rivojlanishidagi hududiy xususiyatlar.**

O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri transport sohasi hisoblanadi. Transport iqtisodiyotning ijtimoiy va moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bo‘lib, iqtisodiyot real sektorida ishlab chiqarilgan yuklarni, shuningdek, yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat hududlari o‘rtasida, korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida ayirboshlash va kommunikatsiyani ta‘minlaydigan sohadir.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga jadal va samarali integratsiyalashib borishida transport sohasi faoliyatining ta‘siri yuqori baholanadi.

Mamlakat transport tizimining rivojlanishiga bir qancha ichki va tashqi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Ularga tabiiy-geografik sharoit, yer yuzasining tuzilishi, hududning o‘zlashtirilganlik darajasi, aholi manzilgohlari orasidagi masofa, hudud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasi, hududning xalqaro transtuzulmalaridagi o‘rni va boshqalarni kiritish mumkin.

Transport sohasi ham funktsional vazifalariga ko‘ra yer usti va yer osti transportiga ajratiladi.

Yer usti transporti o‘z navbatida temir yo‘l, avtomobil, quvur transporti, suv transporti (dengiz va daryo transporti), havo transportiga (aviatsiya) ajratiladi.

Yer osti transporti bu metropoletin tizimi bo‘lib, uning iqtisodiy ahamiyati asosan passajir tashish oborti bilan belgilanadi. Shu bois, transport tizimi iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra yuk va yo‘lovchi transportiga ajratilib o‘rganiladi.

Hududiy xarakteriga ko‘ra ichki va xalqaro transport yo‘nalishlari ajratiladi.

Foydalanish darajasiga ko‘ra umumiy foydalaniladigan va umumiy foydalanilmaydigan transport turlariga bo‘linadi.

Umumiy foydalaniladigan transport turi iqtisodiyotning va aholining o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadigan transportdir.

Umumiy foydalanilmaydigan transportga maxsus transport turlariga alohida olingan tarmoq, korxona hududida xizmat ko'rsatadigan transport turlari kiritiladi.

O'zbekistonda transport turlari orasida etakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foizi temir yo'l zimmasiga to'g'ri keladi. Eksport va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi ham temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'l yordamida tashilgan yo'lovchilar soni 15 mln kishini tashkil etadi.

Temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan afzalligi atrof muhitga kam zarar yetkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo'lib, muntazam ravishda harakatda bo'ladi.

Temir yo'llarning yillik yuk aylanmasi 28428,0 mln. tonna-kilometr, yo'lovchi aylanmasi 4,2 mln. yo'lovchi-kilometrni tashkil etadi.

Temir yo'llarda yuk tashishning tannarxi avtomobillarga yuk tashishga nisbatan 35 marta, havo transportiga qaraganda esa 1215 marta arzon tushadi.

Mamlakatimizda ilk temir yo'l 1888 yilda kurilgan. Bugungi kunda temir yo'llarining umumiy uzunligi 6700 km bo'lib, uning 4201,7 km kismi «O'zbekiston temir yo'llari» jamiyati tasarrufida. Shu jumladan, elektrlashtirilgan temir yo'llar uzunligi 587 kmni tashkil etadi.

Mustakillik yillarida 223 kilometrlik «Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on» yangi temir yo'l liniyasi, 342 kilometrlik «Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog'–Nukus» temir yo'l liniyasi ishga tushirildi.

Eksimbankning (Xitoy) 350 mln dollar hamda Jahon banki 195 mln dollar mablag'i doirasida Pop-Angren yo'nalishida 124 kilometrli bir izli temir yo'l tarmog'i qurildi. Tarmoq 19,2 kilometrli Qamchiq dovoni orqali o'tuvchi tunnelni o'z ichiga oladi.



Afg'onistonda ham bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, «Hayraton – Mozori Sharif» yo'nalishida 106 kilometr po'lat izlar yotqizildi.

O'zbekistonda avtomobil yo'llari tarmog'ining zichligi har 1000 km<sup>2</sup> maydonga 210 km ni tashkil etadi. Uning umumiy uzunligi 115 ming km.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Katta O'zbek avtomobil trakti, Toshkent-O'sh, Samarqand-Ashxobod-Turkmanboshi, Nukus-G'uzor, Qo'ng'iro't-Beynov, Toshkent xalqa yo'li katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda Toshkent-O'sh yo'lining Qamchiq (uzunligi 890 m) va Rezak (uzunligi 368 m) dovonlarida avtomobil harakati yo'lga qo'yildi. Amudaryoda qurilgan (umumiy uzunligi 1260 metr) ko'prikdaryoning ikki qirg'og'ini birbiriga uladi.

O'zbekiston avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 183347 km dan oshadi.

Shundan:

42667 km – umumiy foydalanishdagi magistral yo'llar;

3237 km – xalqaro ahamiyatdagi yo'llar;

18772 km – davlat ahamiyatidagi yo'llar;

21458 km – mahalliy, ya'ni viloyatlar darajasidagi yo'llar;

102880 km – ichki xo'jalik va xo'jaliklar o'rtasidagi aloqalarni bog'laydigan yo'llar.

Mamlakatda daryo transporti sohasidagi munosabatlar O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan boshqariladi. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yo'lovchi tashish xizmatlarining 95% hamda yuk tashish xizmatining 85% avtomobil yo'llari orqali amalga oshiriladi. Bu avtomobil yo'llarining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'ta muhim o'rin tutishidan dolalat beradi.

O'zbekiston avtomobil yo'llari 30 dan ortiq xalqaro konvensiya, bitim va shartnomalarning ishtirokchisi, shuningdek, ESKATO, BMTning Evropa iqtisodiy komissiyasi, Xalqaro yo'l federatsiyasi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, TRASEKA, Transafg'on xalqaro yo'lagini rivojlantirish bo'yicha davlatlararo muvofiqlashtirish kengashi kabi nufuzli tashkilotlar hamda mintaqaviy integratsiyalash tuzilmalari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston hududi orqali Osiyo va Evropaning turli tomonlari bilan bog'lovchi 44 ta transport tranzit yo'nalishlari o'tgan. Ular jahon ahamiyatiga molik yo'laklarning uzviy qismi bo'lib, muhim iqtisodiy, ijtimoiy va strategik vazifalarni bajaradi, ishlab chiqaruvchi bilan xaridorni, davlatlar va qit'alarni birbiriga bog'laydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda avtomobil yo'llari tarmog'ining zichligi har 1000 km<sup>2</sup> maydonga 210 km ni yoki umumiy uzunligini 90 ming km tashkil etadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Katta O'zbek avtomobil trakti, Toshkent-O'sh, Samarqand-Ashxobod-Turkmanboshi, Nukus-G'uzor, Qo'ng'iro't Beynov, Toshkent halqa yo'li katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda Toshkent O'sh yo'lining Qamchiq (uzunligi 890 m) va Rezak (uzunligi 368 m) dovonlarida avtomobil harakati yo'lga qo'yildi. Amudaryoda qurilgan (umumiy uzunligi 1260 metr) ko'priklari daryoning ikki qirg'og'ini birbiriga uladi.

Xalqaro avtomobil yo'llari bilan bog'laydigan Andijon-O'sh-Ergashtom Qashqar va TRASEKA (Evropa-Osiyo-Kavkaz orasidagi transport yo'li) loyihasi asosida avtomobil yo'llari qurilishi amalga oshirilmoqda.

Umumiy uzunligi 116 kilometrni tashkil etadigan yangi yo'nalish-Guliston-Ohangaron avtomobil yo'lining qurilishi natijasida Farg'ona vodiysi bilan yurtimizning janubiy, g'arbiy va shimoliy hududlari o'rtasidagi yo'l masofasi 61 kilometrqa qisqardi. Yangi yo'l transport vositalari vaqtini qariyb bir soatga kamaytirgani holda, bir kecha-kunduzda o'rtacha 40 tonna yonilg'i iqtisod qilishga olib keldi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoni markazida, Evropa bilan Osiyo qit'alari o'rtasida joylashganligi uning xalqaro transport tizimidagi o'rni belgilab beradi.

Xitoy o'tgan asrning oxirgi choragidan o'z imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida transkoridorlar tashkil etishga e'tibor qaratgan.

Dastlab, Buyuk ipak yo'li loyihasi bu faoliyatini boshlagan bo'lsa, XXI asrning boshlarida quyidagi uchta trans Evropa-Osiyo iqtisodiy yo'lagiga asos soldi:

- Xitoydan Markaziy Osiyo, Rossiya orqali Evropaga (Boltiq dengizga qadar);

- Xitoydan Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyo orqali Fors ko'rfazi va O'rta yer dengizga qadar;

- Xitoydan Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Hind okeaniga qadar iqtisodiy yo'lak barpo etishni taklif qilgan.

Buyuk ipak yo'li loyihasining mantiqiy davomi, Evroosiyo iqtisodiy yo'lagi traskoridorni to'liq shakllantirish maqsadida 2017- yil may oyida Xitoy xalq respublikasida bo'lib o'tgan «Bir makon, bir yo'l» forumi o'tkazildi.

«Bir makon, bir yo'l» forumida Markaziy Osiyoni Xitoy va Rossiya orqali janubiy, janubiy-sharqiy Osiyo va Evropa mamlakatlari bozorlari bilan bog'laydigan transport-logistika yo'nalishlarini ochish bo'yicha hamkorlik yuzasidan kompleks harakatlar dasturi ishlab chiqildi. «Bir makon - bir yo'l» 60 dan ortiq mamlakatda 900 ga yaqin turli infratuzilma loyihalarini o'z ichiga oladi. Uni hayotga tatbiq etish uchun zarur investitsiyalarni ekspertlar 2 trilliondan 3,5 trillion dollargacha baholamoqda.

Hozirgi paytga kelib, XXR «Bir makon - bir yo'l» doirasida Vengriya, Mo'g'uliston, Rossiya, Tojikiston va Turkiya bilan hamkorlik to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlarni imzolagan. Sharqiy Xitoyni Eron va Evropa mamlakatlariga qadar bog'lovchi temir yo'l tarmoqlarining kengaytirilishi haqida e'lon qilindi. XXRdan Laos va Tailandga, Efiopiya-Jibuti, Vengeriya-Serbiya yo'nalishidagi temir yo'l, Indoneziyaga tezyurar magistrallar qurilishi, XXR-Pokiston, Xitoy, Mo'g'uliston-Rossiya, Bangladesh-Xitoy-Hindiston-Mayanma iqtisodiy yo'laklarini shakllantirish, Gvadar (Pokiston) va Pirey (Gretsiya) portlarini modernizatsiya qilish to'g'risidagi kelishuvlarga erishilgan.

«Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston» temir yo'li qurilishi milliy iqtisodiyotning asosiy sohalariga investitsiyalar jalb qilish, logistik imkoniyatlarini yanada to'liqroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Respublika havo transporti o'z ishini birinchi marta 1924 yili boshlagan edi. O'sha yilning 12 may kuni Toshkent-Bishkek-Oлмаota shaharlari orasida havo transporti aloqasi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy aviakompaniyasi 1992 yil 28 yanvarda tashkil etilgan.

Hozirda «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi NyuYork, London, Tokio, Pekin, Parij, Istambul, Dehli, Tel Aviv, Seul, Kuala Lumpur, Jidda, Urumchi kabi jahonning 100 dan ortiq shaharlari bilan havo transporti qatnovi amalga oshirilmoqda.

Mamlakatning 12 aeroporti «Toshkent», «Buxoro», «Samarqand», «Nukus», Qarshi», «Termiz», «Urganch», «Andijon», «Farg'ona», «Navoiy», «Namangan» aeroportlari xalqaro maqomiga ega. Aviakompaniya tomonidan har yili o'rtacha 25 ming qatnov amalga oshiriladi, 3-3,5 mln. yo'lovchi va 45-50 ming tonna yuk tashildi.

O'zbekiston hududida yirik tabiiy gaz, neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi sababli quvur transporti rivojlandi, muhim ahamiyatga ega bo'lgan gaz quvurlari vujudga keldi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi gaz transport tizimi 13,6 ming kilometrdan ortiqroq magistral gaz quvurlaridan tashkil topgan. Magistral gaz quvurlari orqali gazni transportini amalga oshiradigan turli xil rusumda 252 gaz haydovchi agregatlar ekspluatatsiya qilinadi.

O'zbekiston respublikasi iste'molchilariga tabiiy gazni etkazib berish hamda uni eksporti va tranzitini, sharqiy, shimoliy va janubiy yo'nalishlarda gazni yer ostida saqlash inshootlari va magistral gaz quvurlari boshqarmasi amalga oshiradi. U:

- tabiiy gazni aholiga va sanoat iste'molchilariga sotish;
- magistral gaz quvurlariga bevosita chiqish imkoniyati bo'lgan sanoat korxonalariga tabiiy gazni sotish;
- tabiiy gaz eksporti;
- tabiiy gazni yer osti omborlariga haydash bilan shug'illanadi.

Respublikada elektr tizimi tashkil topishi va rivojlanishi transportning yangi turi elektr transportining vujudga kelishini taqozo etdi. Hozirgi vaqtda transportning bu turi yordamida O'zbekiston O'rta Osiyo elektr tizimiga ulangan.

Elektr va gaz tarmog'ini barpo etish bo'yicha strategik investitsiya loyihalarining mamlakatimizda amalga oshirilishi natijasida:

- ✓ mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog'i tizimlarini tashkil etish ishlari yakunlanib, ulardan uzluksiz va tejamlil foydalanishni nazorat qilish va ta'minlandi;
- ✓ Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlandi;
- ✓ me'yordagidan ortiqcha yoki kam quvvat bilan ishlayotgan 283 ta transformator podstantsiyalarini yangilariga almashtirildi (ushbu tadbirlarga 2,9 mlrd. so'm mablag' sarflandi);

✓ me'yordagidan ortiqcha quvvat bilan ishlayotgan 308 km elektr tarmoqlarini almashtirish ishlari amalga oshirildi (1 mlrd. so'm).

## **8.2. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari**

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayishi, xalqaro maydonda tovar va xizmatlar ayirboshlash, turli jabhalardagi hamkorlikning tobora kengayib borishi bugungi kunda yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirishni muhim strategik vazifaga aylantirdi kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari, Internet, mobil telefon aloqalari sohalari misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etmoqda.

Aloqa turli vositalar yordamida axborot va ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishni bildirib, ushbu vazifalar iqtisodiyotning pochta, telefon, telegraf, radio, televideniya kabi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Telekommunikatsiya turli signal, belgi, matn, tasvir va ovozlarni orqali uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash tizimlari majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Tor ma'noda bir yoki bir necha turdagi telefon, telegraf, faksimil axborotlar almashinuvi, televizion va radio dasturlarni uzatishga mo'ljallangan texnika vositalari to'plami telekommunikatsiya tarmog'i deb yuritiladi.

“Transport tarmoqlari va kommunikatsiyani rivojlantirish masalalari, Respublikaning geografik joylashuvi, dengizga chiqish imkoni yo'qligi, avtomagistral qurilishini ustuvor, istiqbolli va hayotiy ahamiyatga ega masalalardan biri qilib qo'yadi. Kommunikatsiya tarmoqlari rivojlanmasa, O'zbekistonning kelajagi bo'lmaydi. Biz buni aniq anglab olishimiz kerak”.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida «Ushbu dasturlarni amalga oshirishdan ko'zlangan pirovard maqsad – Evropa va Osiyo o'rtasidagi savdo oqimining ma'lum qismini mamlakatimizdagi tranzit yo'nalishlariga burish va shu asosda yurtimizda transport va tranzit xizmati hajmini oshirish, mavjud infratuzilma negizida logistika markazlarini tashkil etish, minglab odamlarni ish bilan ta'minlashdan iborat», deb ta'kidlab o'tdi. Quyida keltirilgan loyihalarning barchasi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, 2009-2014 yillarda

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturiga kiritilganligini qayd etish lozim. Ushbu dasturga umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan ziyod 327 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bo'yicha moliyalash manbalari aniq belgilangan va investorlar konsortsiumlari shakllantirilgan.

Respublikamiz iqtisodiyotiga ham AKTni bosqichma-bosqich joriy qilish, axborotlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Istiqlol yillarida sohaning huquqiy asosi yaratilib, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlar, "Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bunda dasturilamal bo'layapti.

Bu boradagi bugungi dolzarb vazifa iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konseptsiyasini ishlab chiqishdan iborat. SHu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi<sup>39</sup>.

Internet tezkor axborot olish, etkazish va unga ishlov berish manbai hisoblanadi. Shu bois undan foydalanuvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Ayni paytda mamlakatimizda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar 12 million, mobil aloqa abonentlari esa 22 million kishidan oshdi.

"Internet Live Stats" internetdan foydalanadigan aholi soni bo'yicha 201 ta davlatning reytingi tuzib chiqdi. Mazkur reytingda O'zbekiston 37 o'rinda qayd etildi. Unda yurtimizning 51 foiz aholisi ya'ni 15453227 kishi doimiy ravishda internetdan foydalanishi yozib o'tilgan.

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi.  
2018 yil 28 dekabr.

O'zbekistonda bir yilda internetdan foydalanuvchilar soni 6.1 foizga ya'ni 893596 kishiga oshgan.

Internetdan foydalanish bo'yicha Xitoy (721 million), Hindiston (462 million), AQSh (286 million), Braziliya (139 million) va Yaponiya (115 million) dastlabki o'rinni band etgan. MDH davlatlari orasida Rossiya 6-o'rin, Ukraina 34-o'rin, Qozog'iston 47-pog'ona, Belarus 61-o'rin, Qirg'iziston 106 o'rin, Tojikiston va Turkmaniston 114 va 134-pog'onalarda qayd etilgan.

### **8.3. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari**

Mamlakatimizda keyingi yillarda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

"O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bosh ustuvor yo'nalish" tamoyili asosida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratilib, o'zaro ishonch va yaqin qo'shnichilik aloqalarni mustahkamlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida suvdan oqilona foydalanish, chegara, transport qatnovini qayta tiklash va, milliy va mintaqaviy logistika xizmatlarini kengaytirish kabi ko'plab nozik masalalarni samarali echimiga asos bo'lmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik munosabatlarida hamda Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Evropa va Osiyodagi bir qator davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganligi so'zimizning isboti bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni qaytadan boshlash ishtiyoqi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki, tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zahiralar mavjud, borada biz Markaziy Osiyo

mamlakatlari va yirik sheriklarimiz – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo‘laklarini izchil shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Jumladan, milliy yuk tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida «Milliy logistika portalini»ni tashkil etish, tadbirkorlik subyektlari ushbu portal orqali dunyoning barcha nuqtalarida milliy yuk tashuvchilarning transportlari haqida ma‘lumotlarni «onlayn» rejimida tezkor olishi va buyurtma berish imkoniyati yaratilishi, xalqaro logistika kompaniyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Shuningdek, bugungi kunda “...transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko‘plab qiyinchiliklar paydo bo‘lmoqda. Shu bois, “O‘zbekistan Eyrveys” va “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo‘yicha zamonaviy logistika yo‘nalishlarini yaratishlari zarur.

Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo‘shni davlatlardan temir yo‘l orqali imtiyozli narxlarda o‘tkazish bo‘yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu bilan birga, Jahon bankining “Logistika samaradorligi indeksi”dagi mamlakatimiz o‘rnini yuqori pozitsiyaga ko‘tarish choralari ko‘rish lozim.

Kelgusi yilda bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilish zarur”<sup>40</sup>.

Xitoy davlatining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya infratuzilmalari sohasidagi imkoniyatlarini oshirish lozim. Tranzit davlatlar, xususan, Turkmaniston, Eron, Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda prefferentsiyalarga ega bo‘lish dolzarb vazifa hisoblanadi.

---

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr..



Hukumat tomonidan qo'shni Afg'oniston Islom Respublikasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida muhim kelishuvlar amalga oshirildi, yangi iqtisodiy loyihalar bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh va Evropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham samarali bitim va kelishuvlarga erishildi. O'tgan yilda 200 dan ortiq xalqaro shartnomalar, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalarida qiymati qariyb 60 milliard AQSh dollariga teng kelishuv va bitimlar imzolandi. Mazkur hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida respublika hukumati tomonidan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ichki va tashqi bozorlarda jamoat va xususiy sektorlardan ilg'or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatish, bozor ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishiga ko'maklashadigan mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususiy tadbirkorlik va investorlar o'rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, yaqin qo'shnilar bilan ishlab chiqarish aloqalarini tiklash bo'yicha keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>41</sup>.

Bugungi kunda transport sohasida yagona davlat siyosatining shakllantirilishi va uning mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarga yo'naltirilishi O'zbekistonni Yevrosiyaning muhim transport tuguniga va Buyuk Ipak yo'lini yangi shaklda tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston va Xitoy davlat chegaralarida yangi logistika markazlarini ochish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zaro kelishuvlar bu boradagi ijobiy qadam bo'lib xizmat qiladi. Yaqin kelajakda ichki temir yo'llarning jadal rivojlanishi tufayli O'zbekiston va Xitoy temir yo'llarini o'zaro bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi.

Transkavkaz avtomagistralidan foydalanish va Ruminiya, Bolgariya, Rossiya portlariga chiqish masalalari bo'yicha Kavkaz bo'yi davlatlari bilan o'rnatilgan hamkorlik O'zbekistonni qisqa yo'llar orqali savdo-sotiq olib borish imkoniyatini vujudga keltiradi.

---

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-sonli "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

Joriy yilda Amudaryo orqali Turkmanobod-Farob temir yo‘l va avtomobil ko‘priklari ochilishi Turkmanistonning tranzit yo‘llaridan o‘tuvchi yuk oqimlari hajmini bir necha marotaba oshirishga imkon beradi va Kaspiy, Qora va O‘rta yer dengizlari, Evropa, Kavkazorti, Yaqin va O‘rta Sharq davlatlariga to‘g‘ridanto‘g‘ri chiqishga yo‘l ochadi.

Milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lgan transport va logistika sohasi boshqa tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha transport turlarining izchil rivojlanishini va mamlakatimizning xalqaro transport va logistika xizmatlari bozoridagi nufuzini oshirish, iqtisodiyotimiz barcha tarmoqlari uyg‘un rivojlanishiga va mamlakat eksport salohiyatining kuchayishiga yordam beradi<sup>42</sup>.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi jihatidan Buyuk ipak yo‘lining bog‘lovchi markazida ekanligi uning savdo infratuzilmasi logistika markazlari tarmog‘ini rivojlantirishning strategik muhim jihati va rag‘batlantiruvchi omili hisoblanadi. Binobarin, “Afg‘onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta‘lim sohalarida yirik qo‘shma loyihalarni hamda “Termiz-kargo” logistika markazini amalga oshirishga kirishdik”<sup>43</sup>.

O‘zbekistonning transport tarmoqlari va kommunikatsiya-larini rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda. Bunday o‘zaro manfaatli hamjihatlik taraqqiyotiga xizmat qiladigan huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xususan, mamlakatimiz tomonidan transport va tranzit masalalariga doir 100 dan ortiq xalqaro kelishuvlar va bayonlar, shu jumladan, 30 ga yaqin Konvensiyalar imzolandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Xalqaro temir yo‘llari ittifoqi, Temir yo‘llari hamkorlik tashkiloti, Xalqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar a‘zosi hisoblanadi. Hozirgi paytda mamlakat hududidan avtomobil transporti orqali yuklarni olib o‘tuvchi xorijiy avtotashuvchilar uchun respublika tomonidan umumiy uzunligi 37 ming kilometrga teng bo‘lgan 44 ta yo‘nalish belgilangan.

---

<sup>42</sup> Логистика. Владимир Юрьевич Конотопский. Москва. ЮРАЙт. 2017 г., 144 стр.

<sup>43</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

Mamlakat va mintaqalarning dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun istiqbolda quyidagi transport koridorlari xizmat qiladi:

- Tashkent - Ashg'abod - Turkmanboshi porti - Boku porti.
- Olma ota - Toshkent - Istanbul avtomagistrali.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari – Sharqiy Xitoyning portlaridan birigacha.

- Markaziy Osiyo mamlakatlari-Tedjen-Seraxs-Mashxad-Bandar Abbas porti (Eron).

- Markaziy Osiyo mamlakatlari - Eron Islom Respublikasi – Turkiya Istanbul porti. Bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari bilan shug'ullanayotgan tashki iktisodiy faoliyat katnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmokdalar:

1- yo'lak – Boltiqbo'yi davlatlari portlari yo'nalishida (tranzit bilan Kozogiston va Rossiya orqali)-Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

2- yo'lak – Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) - Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara utishlari, keyinchalik Evropa;

3- yo'lak – Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali), Kora dengizga chiqish bilan;

4- yo'lak – TRASEKA yo'lagi deb nom olgan Gruziyaning Porti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga;

5- yo'lak – Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors kurfaziga chiqish bilan;

6-yo'lak – Sharqiy yo'nalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozog'iston orqali) Sariq dengizga;

7- yo'lak – sharqiy yo'nalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) Sariq dengizga;

8- yo'lak – Turkiya va Yevropa (“Boku-Axalkalaki-Kars” yangi temir yo'lida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali).

Hozirgi kunda yana quyidagi yo'nalishlar rivojlantirilmoqda:

- Evropa va Janubi-sharqiy Osiyo yo'nalishida (Turkiyaning Myersin porti, Turkmaniston va Eron orqali tranzit yo'nalish);

- Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirg'iziston orqali) Sariq, Sharqiy - Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan.

Xalqaro ekspertlarning baholariga ko'ra, loyiha amalga oshirilgan yo'lakning o'tkazish qobiliyati 12-14 mln. tonnani (ichki tashishlarni hisobga olmaganda) tashkil etadi hamda Shanxaydan Lissabongacha uzluksiz yer usti yo'nalishi shakllanadi. Tomonlar Andijon, O'sh va Qoshg'ar o'rtasidagi xalkaro avtomobil yo'lini qayta qurish va rivojlantirish bitimini imzolagan.

Afg'on muammosi tartibga solinishi munosabati bilan tranzit bilan Afg'oniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Chahbahor portlariga chiqadigan janubiy muqobil transport yo'laklarini ishlab chiqish buyicha yangi istiqbollar ochilmoqda.

Qamchiq dovoni orqali o'tgan "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasining ishga tushirilishi transport-logistika xizmatlari ko'rsatish va yo'lovchilarni tashish sohasida erishilgan katta yutuq bo'ldi. Bu bilan Xitoy – Markaziy Osiyo – Evropa yangi xalqaro tranzit temir yo'l koridorining eng muhim bo'g'ini barpo etildi. Shu bilan birga, multimodal transport-logistika markazlari tarmog'ini shakllantirish ham tashqi bozorga chiqadigan, eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bo'yicha transport-logistika markazlarini, shuningdek mamlakatimiz tranzit infratuzilmasini rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida hajmi va nomenklaturasi tobora ko'payayotgan mahalliy mahsulotlarning xorijiy bozorlarga eksportini ta'minlash uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilar, yuk saqlovchilar, transport, transport-ekspeditorlik, logistik va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi mexanizmlari va ko'rinishlarini tatbiq etish zaruriyati tug'ilmoqda.

Mamlakatimizda yaxlit temir yo'l tarmog'ini shakllantirish va chet davlatlarga, avvalo, Transafg'on temir yo'l koridori orqali Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish, respublikaning tranzit rolini kengaytirish strategiyasiga asosan uzunligi 700 kilometrga yaqin "Navoiy– Uchquduq–Nukus", "G'uzor–Boysun–Qumqo'rg'on", 125 kilometrlik "Angren–

Pop" elektrlashtirilgan temir yo'l qurilishi amalga oshirildi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Aloqa turli vositalar yordamida axborot va ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishni bildirib, ushbu vazifalar iqtisodiyotning pochta, telefon, telegraf, radio, televidenie kabi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Telekommunikatsiya turli signal, belgi, matn, tasvir va ovozlarni orqali uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash tizimlari majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Tor ma'noda bir yoki bir necha turdagi telefon, telegraf, faksimil axborotlar almashinuvi, televizion va radio dasturlarni uzatishga mo'ljallangan texnika vositalari to'plami telekommunikatsiya tarmog'i deb yuritiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Axborot kommunikatsiyalari tushunchasi va uning mazmun mohiyatini yoritib bering.
2. Yo'l-transport kommunikatsiyalari va uning tarkibiy tuzilmasini tasvirlab bering.
3. Transport tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni tavsiflang.
4. O'zbekistonning xalqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini tavsiflang.

## **9 BOB. O‘ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA, VA MAHALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O‘RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI**

### **9.1. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari**

Turli miqyosdagi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirmay, iqtisodiy rivojlangan davlat qurish, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mushkul. “Davlat boshqaruvi”, “Mintaqaviy boshqaruv” va “Mahalliy boshqaruv” atamalari murakkab tizimni (davlat boshqaruv faoliyatining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari majmui) ni tashkil etadiki, odatda, boshqaruv maqsadlari, vazifalari, prinsiplari, vazifalari, usullari, shakllari, subyektlari va obyektlari mazkur tizimning asosiy unsurlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda Respublikasi mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarni o‘zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati – mahalliy tuzilmalar faoliyatining quyidagi muhim muammolari bilan belgilanadi:

a) mahalliy tuzilmalar va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarini himoya qilish;

b) davlat mulkini respublika, mintaq va mahalliy mulklarga taqsimlash;

v) mahalliy mulkning barcha shakllarini muhofaza qilish mexanizmini ishlab chiqish;

g) mahalliy tuzilmalarning xususiyatidan kelib chiqib, minimal budjet bilan ta‘minlash normativlari asosida belgilanadigan mahalliy budjetlarning minimal zarur xarajatlarini qoplash uchun daromad manbalarini mustahkamlash yo‘li bilan mahalliy budjetlarning minimal miqdorini ta‘minlash;

d) mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror normativ-huquqiy negizini ta‘minlash;

e) mamlakatdagi mahalliy tuzilmalarning negizini tashkil etuvchi

mahalliy o'zini-o'zi boshqarish quyi organlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash;

j) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining sud tartibida himoyalanişga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;

z) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlarning qoplanishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;

i) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari berilgan alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslarning berilishini ta'minlash;

k) huquqning kompleks sohasi sifatida mahalliy huquqni shakllantirish, mahalliy qurilish va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish.

## **9.2. Boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash zaruriyati**

Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaqa boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlashning muhim shartidir.

O'zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning quyidagi asosiy tamoyillariga asoslanadi:

- davlat, mintaqaviy va mahalliy siyosat maqsadlari, yo'nalishlari, vazifalari hamda vakolatlarini taqsimlash mexanizmlarining yagonaligi prinsipi;

- Respublika, mintaqa va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqa o'rnatish prinsipi;

mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlariga davlat hokimiyati yuqori organlarining aralashmasligi prinsipi va h.k.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, har birining mustaqilligini kengaytirish imkonini beradi.

O'zbekistonda respublika mahalliy xo'jalik amaliyoti jahon tajribasidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirishning quyidagi samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutadi:

1) mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy ahamiyatga molik quyidagi masalalarni mustaqil hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish:

a) mahalliy mulkka, shu jumladan yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

b) mahalliy budjetlarni shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish, mahalliy soliqlar va yig'implarni belgilash;

v) jamoat tartibini saqlash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirish;

2) fuqarolarning: turar joyga ega bo'lish; sog'lig'ini saqlash; tibbiy yordam olish; bilim olish huquqlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish;

3) soliq va budjet islohotlari doirasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy negizini shakllantirishni nihoyasiga yetkazish, avvalambor, quyidagilar hisobiga budjet va soliqlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish:

a) davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan alohida davlat vakolatlarining amalga oshirilishi va davlatning minimal ijtimoiy standartlarini belgilash prinsiplarini ishlab chiqish;

b) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish moliyaviy-iqtisodiy negizining muhim tarkibiy qismi – mahalliy mulkni faol shakllantirish;

g) ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish va aholi daromadlarini jalb etish hamda kichik va o'rta biznes vakillarining ishtirokini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish;



d) respublika, mintaqaviy, mahalliy davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarni hamda tegishli moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash;

e) mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishlari ustidan samarali davlat nazorati tizimini shakllantirish;

j) mintaq, respublika va xalqaro miqyosda o'zaro hamkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish;

z) mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini davlat tomonidan ilmiy-uslubiy, tashkiliy-uslubiy va axborot bilan qo'llab-quvvatlash;

i) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida ishlash uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va kadrlarning malakasini oshirish samarali davlat tizimini tashkil etish.

### **9.3. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari**

Davlatning vakolatlarni taqsimlash muammolarini hal qilish borasidagi faoliyati mahalliy boshqaruvni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan kuchli demokratik davlat qurishning zarur sharti sifatida mahalliy boshqaruvning samaradorligi, roli va maqomini oshirishga yo'naltirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi vaqtda 64 ta litsenziya turi mavjud bo'lsa, shundan 21 tasi Vazirlar Mahkamasi va 40 tasi markaziy idoralar tomonidan beriladi. Bu litsenziyalarning uchtasi viloyat hokimliklari va faqatgina bittasi tuman hokimliklari vakolatiga tegishlidir. Xususan, ruxsat berishga oid 220 ta hujjatdan faqatgina 11 tasini tuman yoki shaharlarda olish mumkin. Qolgan 209 tasi uchun respublika va viloyat organlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Masalan, Shovot tumanida xususiy bog'cha ochishga litsenziya olish uchun tadbirkor ming kilometr masofani bosib, Toshkentga kelib-ketishga, 3-4 oylab

kutishga majbur bo'lmoqda<sup>44</sup>. Shuningdek, qurilish sohasida ruxsat berishga oid 17 ta tartib mavjud bo'lib, ularni olish uchun o'rtacha 246 kun sarflanadi, ushbu tartiblarni belgilash yuqori tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, mahalliy hokimliklar vakolatini chegaralab qo'ymoqda<sup>45</sup>. Bu esa o'z navbatida, respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash sohasidagi siyosatni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Boshqaruv aloqalarining asosiy turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vakolatlarni taqsimlash;
- vakolatlarni o'zaro o'tkazish (berish);
- mahalliy hokimiyat organlariga ko'maklashish (davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash);
- turli boshqaruv bo'g'inlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
- turli hokimiyat organlarining faoliyati ustidan davlat nazoratini o'rnatish.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan respublika, mintaqaviy va mahalliy organlarning o'zaro munosabatlari tamoyillarini umumlashtirib, mintaqaviy boshqaruv organlari yuqorida zikr etilgan maqsadlarga erishish tegishli imkoniyat berish zarur. Buning uchun, respublikamiz prezidenti ta'kidlaganidek, "mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik etishmayapti. Ma'lumki, 2018- yilda Toshkent shahrida eksprimet tariqasida davlat boshqaruvining yangi tartibi joriy etilib, shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash vakolati berildi. Natijada 30 dan ortiq komissiya

---

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr.

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

va kengashlar tugatilib, ularning vakolatlari tegishli hududiy organlarga berildi.

Samarasiz ishlayotgan 12 ta davlat unitar korxonasi tugatildi. Davlat budjetiga tushadigan mablag'larning bir qismini mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirish tartibi o'rnatilgani tufayli Toshkentda soliq tushumi prognozga nisbatan 2 trillion so'mga ko'paydi. Davlat boshqaruvi sohasida ijobiy natija berayotgan ana shu eksperimentni endi boshqa hududlarda ham joriy etishimiz zarur"<sup>46</sup>.

### **Qisqacha xulosalar.**

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, har birining mustaqilligini kengaytirish imkonini beradi. Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaq boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlashning muhim shartidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Davlat boshqaruvi bilan mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi farq nimada deb o'ylaysiz?
2. O'zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash tamoyillari.
3. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sohasiga oid huquqiy hujjatlar xronologiyasini tuzing.
4. O'zbekistonda Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojatnomasida mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlariga berilishi nazarda tutilgan vakolatlarni tavsiflang.

---

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

## 10 BOB. MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT

### 10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: ayeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta'minlanishi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy siyosatning o'rganish obyekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar – aholining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va bandlikdagi, alohida hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi va tadbirkorlik sharoitidagi tafovutlar bo'lib hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat hududlar darajasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar majmuasini anglatib, u mohiyatiga ko'ra hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishida namoyon bo'ladi.

Mintaqaviy siyosatning maqsadi – mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, markaziy hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatning quyidagi 2 xil usuli keng qo'llaniladi:

“Adolatli” usul – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turtki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajasi deyarli bir xil sharoit va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi. Masalan, iqtisodiy salohiyati katta, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AQSh, Kanada, Yaponiya va G'arbiy Evropa mamlakatlari mintaqaviy siyosatida “adolatli” usul keng qo'llaniladi.

“Samarali” usul – umumdavlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir.

Ushbu usul G'arbiy Evropa mamlakatlarida, shuningdek, O'zbekistonda ham keng qo'llanilmoqda.

## 10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo'nalish – kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi manzilgohlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomerasiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish – muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirish. Mazkur yo'nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e'tibor beriladigan asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hududlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli mamlakatlarda xilma-xil yo'nalishlar mavjudligiga qaramay, ular

o'rtasida tafovutlar kam, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari esa quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- iqtisodiy qoloq mintaqalar rivojlanishini rag'batlantirish;
- markaziy hokimiyat vazifalarining katta qismini mahalliy davlat organlari zimmasiga yuklash;
- yirik shaharlarda sanoat ishlab chiqarishi to'planishini cheklash;
- yangi o'zlashtirilgan hududlarda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishni rag'batlantirishahri

Ko'plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat ichki imkoniyatlari va shartsharoitlaridan kelib chiqib, turli hududlar uchun turlicha qo'llanilishi mumkin. Masalan, tug'ilishni kamaytirish siyosati nihoyatda qat'iy yo'lga qo'yilgan Xitoyning zichlik ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan Uyg'ur-Syangan avtonom okrugi va Tibet uchun oilada bolalar soni cheklanmagan.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiyaning bu sohadagi tajribasi alohida afzalliklarga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlar izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar safidan joy oldi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri hududiy rivojlantirish jamg'armalarini tashkil etish hisoblanadi.

1975 yilda ilk bor Evropa Ittifoqi qoshida hududiy muvofiqlashtirish jamg'armasi tashkil etilgan. Keyinchalik ayrim hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida davlatlar darajasida tashkil etilgan maxsus jamg'armalar soni ortib bordi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan jamg'armalar:

Italiyada davlat subsidiyasi hisobiga faoliyat ko'rsatadigan va janubiy hududlar infratuzilmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan «Janub xazinasini» jamg'armasi;

Bolgariyada ayrim hududlar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini ta'minlash jamg'armasi;

Vengriyada hududlar rivojlanishining markaziy jamg'armasi.

Xorijiy mamlakatlar mintaqaviy iqtisodiy siyosatining muhim xususiyati ichki ma'muriy-hududiy birliklardan vakolatidan samarali

foydalanish orqali namoyon bo'ladi, ya'ni, yirik ma'muriy-hududiy birliklar guberniya, shtat, provintsiya emas, balki muayyan shahar va munitsipalitetlar hududiy muvofiqlashtirish makonlari sifatida xizmat qiladi. Masalan:

- Frantsiyada kam rivojlangan Janubi-G'arb mintaqasining 9 aglomeratsiyasi va 17 ta shahar;

- Ispaniyada 10 ta "rivojlanish markazlari" va 2 ta "sanoatni rag'batlantirish markazlari";

- Yaponiyada 10 ta "sanoat rivojlanishining alohida rayonlari", 6 ta "yangi sanoat shaharlari";

- Italiyada 12 ta "sanoatni rivojlantirish areallari" va 26 ta "industrializatsiya yadrolari";

- Germaniyada 300 ta "muhim aholi manzilgohlari" mintaqaviy iqtisodiy siyosat obyekti, ayni paytda uni amalga oshirish markazlari bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda har bir mamlakat o'zining mavjud vaziyatidan kelib chiqadi. Xususan:

- ✓ Niderlandiyada aholi manzilgohlari qat'iy markaziy hukumat nazoratida amalga oshiriladi;

- ✓ Belgiyada shahar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirishda Maxsus Qonunga amal qilinadi;

- ✓ Xitoyda oilada farzandlar soni rasmiy cheklangan bo'lsada, Uyg'ur-Syangan avtonom okrugi va Tibet uchun bu taaluqli emas;

- ✓ Yaponiyada mamlakat va mintaqalar bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlar amal qiladi. Uning mintaqaviy iqtisodiy siyosatida yer va tabiiy resurslarning cheklanganligi va mamlakat hududlari aholisining turmushi bo'yicha bir xil sharoit yaratish ustivor ahamiyatga ega.

Jahon mamlakatlarining ko'rib o'tilgan amaliyotidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham o'ziga xos mintaqaviy siyosat yuritiladi.

### **10.3. Mamlakat mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Respublikamiz iqtisodiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan boshqa mamlakatlardagi singari "samarali" usulni qo'llash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ko'plab foydalanil-mayotgan zahiralarda ishga tushirilmoqda, yangi korxonalar asosan



kommunikatsiyalar bilan yaxshi ta'minlangan kichik va o'rta shaharlarga joylashtirilmoqda, qishloq xo'jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hudud va shaharlarni rivojlantirish, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mintaqaviy siyosat hududlararga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi. Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- ❖ hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;

- ❖ mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;

- ❖ mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;

- ❖ joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;

- ❖ shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;

- ❖ ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;

- ❖ aholi bandligini yaxshilash va h.k.

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq

ko'rinishda tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o'sish qutbi va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so'ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o'tadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning 140 ga yaqin mamlakatida 3,5 mingdan ziyod EIZ mavjud. Ularning 400 tasi erkin savdo hududlari, 400 tasi ilmiy-ishlab chiqarish hududlari, 300 tasi ishlab chiqarish eksport hududlari, 100 tasi esa maxsus hududlardan (offshor markazlar, rekreatsiya va turistik hududlaridan) iborat.

Dunyodagi EIZlarda salkam 70 million kishi mehnat qiladi. Ularning yillik savdo aylanmasi 500 mlrd. dollardan ziyod.

“Erkin iqtisodiy zonalar” kategoriyasiga “erkin savdo zonasi”, “maxsus iqtisodiy zona”, “maxsus industrial zona” kabi 30 dan ziyod nomdagi maxsus iqtisodiy-ma'muriy hududlar kiritiladi.

Erkin iqtisodiy zona xaqida tushuncha 1973- yil 18- maydagi Kioto konvetsiyasida berilgan bo'lsada, birinchi erkin iqtisodiy zonalar 1934- yil AQShda tashkil etilgan. Ularning asosiy yo'nalishi tashqi savdoni faollashtirish bo'lgan.

Buyuk Britaniya qo'shma qirolligida 1965 yilda qabul qilingan Moliyaviy qonun (Finance act) kompaniyalar faoliyati va soliq tizimini xalqaro maydonda takomillashuviga asos bo'ldi, bu qonun qoidalar ayniqsa offshor zonalarining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy Xalq Respublikasida 1979- yilning o'rtalaridan “tashqi dunyoga oyna” sifatida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etila boshlagan. Xozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar dunyodagi eng samarali EIZlar hisoblanadi.

Sobiq “ittifoqdosh” respublikalardan Moldova, Belarus, Ukraina, Qirg'izistonda o'tgan asrning 90-yillarida iqtisodiy zonalarini tashkil etilsada ularda bozor infratuzilmasi va munosabatlarining shakllanmaganligi oqibatida sarflangan mablag'lar va moddiy

resurslar samara bermadi va EIZlarning aksariyati o'z faoliyatini to'xtatdi.

Bugungi kunda O'zbekistonning 10 ta mintaqasida 21 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda (15-jadval).

EIZlardan 9 tasi sanoat, 7 tasi farmaseftika, 2 tasi qishloq xo'jaligi, bittasi turizm, bittasi transport-logistika va yana bittasi sport anjomlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. EIZlarda 402 ta korxona, firma ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiy siyosat yurgizishda texnoparklar tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda bu borada Toshkent shahrining Yashnobod va Olmazor tumanlarida innovatsion texnoparklar tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Iqtisodiyot vazirligi tomonidan qaror loyihasi tayyorlandi. Unga ko'ra, Yashnobod tumanida materialshunoslik, elektron jihozlar va kontrollerlar, oziq-ovqat va biologik faol qo'shimchalar hamda dori vositalari sohasida tadqiqotlar o'tkazish, kichik innovatsion ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga mo'ljallangan innovatsion texnopark bunyod etish rejalashtirilmoqda.

#### 10.1-jadval

##### O'zbekistonning iqtisodiy zonalari

| №  | EIZ nomi       | Tashkil etilgan vaqti |
|----|----------------|-----------------------|
| 1. | Navoiy EIZ     | 02.12.2008 yil        |
| 2. | Angren EIZ     | 13.04.2012 yil        |
| 3. | Jizzax EIZ     | 18.03.2013 yil        |
| 4. | Urgut EIZ      | 26.10.2016 yil        |
| 5. | G'ijduvon EIZ  | 26.10.2016 yil        |
| 6. | Qo'qon EIZ     | 26.10.2016 yil        |
| 7. | Hazorasp EIZ   | 26.10.2016 yil        |
| 8. | Nukus-farm EIZ | 03.05.2017 yil        |
| 9. | Zomin-farm EIZ | 03.05.2017 yil        |

|     |                                   |                 |
|-----|-----------------------------------|-----------------|
| 10. | Kosonsoy-farm EIZ                 | 03.05.2017 yil  |
| 11. | Sirdaryo-farm EIZ                 | 03.05.2017 yil  |
| 12. | Boysun-farm EIZ                   | 03.05.2017 yil  |
| 13. | Parkent-farm EIZ                  | 03.05.2017 yil  |
| 14. | Bo'stonliq-farm EIZ               | 03.05.2017 yil  |
| 15. | «Sport» EIZ                       | 5.03.2018 yil   |
| 16. | «Baliq ishlab<br>chiqaruvchi» EIZ | 6.04.2018 yil   |
| 17. | Sirdaryo EIZ                      | 12.04.2018 yil  |
| 18. | Chorvoq EIZ                       | 15.05.2018 yil  |
| 19. | “Buxoro-agro” EIZ                 | 10.07.2018 yil  |
| 20. | “Termiz” EIZ                      | 18.09. 2018 yil |
| 21. | “Andijon-farm” EIZ                | 14.01. 2019 yi  |

Olmazor tumanidagi innovatsion texnoparkda esa metallarni qayta ishlash, energiyani tejash texnologiyalari, muqobil energiya manbalari va elektron o'lchash jihozlari, robot texnikasi, mashinasozlik va elektronika sohasidagi tadqiqotlar olib boriladi.

Texnoparklar qurilishi va faoliyati davlat budjeti, innovatsion tadqiqotlar va mahsulotlar buyurtmachilari, chet el grantlari, investorlar va tijoriy banklarning imtiyozli kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat olib borishning uchunchi yo'nalishi kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularga imtiyozlar berishdan iborat.

Mintaqalardagi bo'sh turgan yoki samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolaridan samarali foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida ular negizida kichik sanoat zonolari (KSZ) tashkil etilmoqda. KSZ faoliyati Vazirlar

Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrda 378-son qarori bilan tasdiqlangan “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”iga \_muvofig amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, 10 gektar va undan ko‘p bo‘linmas hududga ega sanoat zonalar uchun – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi kichik sanoat zonalarini boshqarish direktsiyalari, 10 gektardan kam hududga ega bo‘lgan, bitta tuman (shahar) doirasida joylashgan sanoat zonalar uchun – tegishli tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzurida kichik sanoat zonalarini boshqarish yagona direktsiyalari tashkil etilishi belgilangan.

Mamlakatda bugungi kunda 96 ta kichik sanoat zonalar tashkil etilgan bulib, ularda umumiy qiymati 535 milliard so‘mga teng 1021 loyiha amalga oshirildi. Yangi korxonalar ishga tushishi tufayli 9,6 mingdan ziyod ish o‘rni yaratildi.

Loyihalar doirasida ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo‘lgan engil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, 248 loyihani amalga oshirish natijasida 11 ming yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Toshkentda 3 ta kichik sanoat zonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, joriy yil 5 ta, 2018 yilda 2 ta zonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Prezidenti 2017 yil 10 avgustdagi 3194-sonli qaroriga muvofig, Toshkent viloyatining boy tabiiy-iqtisodiy, mineral-xomashyo, ilmiy-texnik va mehnat salohiyatidan to‘liq foydalanish, yangi raqobatbardosh sanoat korxonalari hamda kichik xususiy korxonalar rivojini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlanitirish, aholi daromadlarini oshirish maqsadida viloyat hududida 17 kichik sanoat zonasi tashkil qilinmoqda.

### **Toshkent viloyati kichik sanoat zonalarini**

1. Bekobod shahar KSZ – «Bekobod yo‘l sanoat» korxonasi hududi;

2. Bekobod tuman KSZ – mexanik-ta‘mirlash korxonasining sobiq garaji;

3. Ohangaron tuman KSZ – sobiq «O‘zbekiston» kollektiv xo‘jaligi inshooti;

4. Olmaliq shahar KSZ – sobiq UQKning ishlab chiqarish maydoni;

5. Yuqorichirchiq tuman KSZ – tuman shifoxonasining sobiq tug‘ruq bo‘limi

binosi;

6. Yangiyo‘l tuman KSZ – Yangiyo‘l 2503 - avtokolonyasi;

7. Angren shahar KSZ – sobiq «Rezinotexnika» AJ qozonxonasi binosi;

8. Oqqo‘rg‘on tuman KSZ – «Oqqo‘rg‘on MTYo»ning bo‘sh binosi va inshooti;

9. O‘rtachirchiq tuman KSZ - «Toshkent temir-beton buyumlar zavodi» MChJ binosi va inshooti;

10. Quyichirchiq tuman KSZ – «Do‘stobod tajriba mexanika zavodi» MChJ binosi va inshooti;

11. Chirchiq shahar KSZ – «Suvoqava» DUKning qurilishi tugallanmagan obyekti,

12. «Chirchiqselmash» zavodi ishlab chiqarish hududining bir qismi;

13. Bo‘ka tuman KSZ – «Bo‘ka MTK»ning bo‘sh binosi va inshooti;

14. Pskent tuman KSZ – bo‘sh bino va «Pskent MTK» inshooti; Bo‘stonliq tuman KSZ – «G‘azalkent oyna» AJ, shuningdek «O‘zenergosanoat» BBning bino va inshootlari;

15. Qibray tuman KSZ – sanatoriy-profilaktoriy qurilishi tugallanmagan binosi;

16. Parkent tuman KSZ – «Parkent MTK»ning bo‘sh binosi va inshooti;

17. Chinoz tuman KSZ – «Qishloq xo‘jalik mahsulot ta‘minot bazasi» DUKning foydalanilmagan binolari va inshootlari.

KSZ hududida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilanadi, kichik sanoat zonolari ishtirokchilari ular uchun belgilangan soliq imtiyozlariga ega bo‘lishadi. Buning uchun prezident topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Rekonstruktsiya va rivojlanish fondidan 50 million

dollar hajmidagi kredit liniyasini ochish rejalashtirilgan. Bu pullar import uskunalar va butlovchi qismlar xaridiga yo'naltiriladi.

### **Qisqacha xulosalar.**

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqaviy siyosat va mintaqaviy iqtisodiy siyosat tushinchalarining mazmun mohiyatini yoriting.
2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qiling.
3. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish usullari va dastaklari bo'yicha xorij tajribasi va O'zbekistonni taqqoslang.
4. O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilayotgan mintaqaviy iqtisodiy siyosatni tahlil qiling.

## **11 BOB. MINTAQALAR MOLIIYASI VA BUDJETLARARO MUNOSABATLAR**

### **11.1. Mintaqalarning moliyaviy mablag‘lari va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati**

Mintaqaviy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy budjetlar, nobudjet fonlari, mintaqa ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo‘jalik subyektlarining moliyaviy vositalaridan iborat.

Hududiy moliya aholiga ijtimoiy-madaniy va kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi.

Hududiy moliya–hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Hududiy moliya orqali davlat o‘zining ijtimoiy siyosatini faol amalga oshirmoqda. Mintaqaviy hokimiyat organlarining budjetlari uchun ajratilgan vositalar asosida xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmat sohaslarini moliyalashtirish amalga oshiriladi.


Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida hukumat taraqqiyoti turlicha bo‘lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag‘lar muayyan ma’muriy-hududiy birliklar budjetlarining daromad manbalari hamda yuqori budjetlarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladi.

Hududiy moliyaviy vositalarning bir necha manbalari hisobidan shakllanadi. “Mahalliy budjet – davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”.

Mahalliy budjetlar orqali mahalliy hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni moliyaviy manbalar bilan ta’minlab boriladi. Mahalliy budjetlar xarajatlarining keyingi yillarda ildamroq o‘sib borishi ularning davlat budjetidagi salmog‘ini ham oshib borishiga olib



kelgan, bunga sabab asosan 1995 - yildan boshlab mahalliy budjetlar tomonidan oldingi yillarda respublika budjeti hisobidan moliyalashtirib kelingan kadrlar mutaxassislar tayyorlash, ya'ni o'rta maxsus o'quv yurtlari xarajatlarini moliyalashtirilishini berilishi davlat kapital qo'yilmalarining mahalliy budjetlardagi hajmi ortib borishi hisobiga hamda 1994 - yildan davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining keskin oshib borishi va xarajatlarni moliyalashtirish asosan mahalliy budjetlar tomonidan amalga oshirilishi ham mahalliy budjetlar xarajatlari salmog'ining oshishiga olib keldi.



**17-rasm. Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari.**

Mahalliy budjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalarini, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarini, kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar moliyalashtirib boriladi. Shu bilan birga mahalliy budjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosati joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining deyarli 100 foizi mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladi. Budjet subvensiyasi qonun hujjatlarida nazarda

tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladi.

Budjet dotatsiyasi o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladi.

Budjet ssudasi yuqori budjetdan quyi budjetga yohud respublika budjetdan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

## **11.2. Budjetlararo munosabatlar**

O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni tashkil etuvchi muhim qismlardan biri-budjet tizimini va uning muhim qirasi bo'lmish budjetlararo munosabatlarni isloh qilishdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi yutuqlar ko'p jihatdan budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning eng maqbul mexanizmini yaratish, turli darajadagi budjetlar daromad va xarajatlarini va uni qonuniy asosda birliktirib, respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida alohida ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar yuzasidan javobgarlikni belgilab qo'yish, har bir darajadagi budjet tizimi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan xarajat vakolatlarini aniqlab berish kabi chora-tadbirlarga bog'liqdir.

Davlat budjeti – moliyaviy tizimning asosiy va markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U o'zida pul daromadlari va jarajatlarini mujas-samlashtiradi. Budjet o'zida asosiy moliyalash kategoriyalarni, ya'ni soliqlar tushumlar, yig'implar hamda davlat xarajatlarini aks ettirib ular harakati orqali resurslarni shakllanishiga va jarajatlarni amalga oshirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilmasi:

Davlat budjeti:

- Respublika budjetini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

Davlat maqsadli budjetdan tashqari jamg'armalari – Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

2018 yil yakunigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda 5 ta davlat maqsadli jamg'armalar (Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami, Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'arma) faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ– 4086-son qaroriga asosan bunday jamg'armalar soni kamaytirilib, tugatilayotgan davlat maqsadli jamg'armalari va Respublika yo'l jamg'armasiga tushadigan majburiy ajratmalar summasini 2019-yil 1-yanvardan keyin to'liq miqdorda Pensiya jamg'armasiga o'tkazish amaliyoti joriy etildi<sup>47</sup>.

Davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondi – davlat budjeti modeli hisoblanadi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Davlat budjetida markazlashtirilgan pul mablag'larini tarmoqlar iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, boshqaruv organlarining xarajatlarini, aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini, mudofaa xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirib, ular orqali davlatning ma'muriy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi va tartibga soladi.

Budjet mablag'lari budjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda budjet ijrosi jarayonida belgilangan tartibda ularga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida amalga oshiriladi. Bunda xarajatlarning 1 va 2 guruhlari birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi.

---

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ–4086-son qarori. "Xalq so'zi", 2018 yil 28 dekabr.

Xarajatlarning 3 guruhi budget tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida joriy moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida mablag' bilan ta'minlanadi.

«Boshqa xarajatlar» 4 guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

-ovqatlantirish;

-dori-darmon;

-kommunal xizmatlar;

-benzin va boshqa turdagi YaMM, boshqa xarajatlar;

Budget xarajatlarining muhim tamoyili himoyalanganlik hisoblanadi. Bu tamoyil budget xarajatlarining ma'lum moddalari ularning inflyatsiya natijasida ko'payishini hisobga olgan holda to'liq xajmda moliyalashtirishni ko'zda tutadi. Budget xarajatlarining himoyalangan moddalarga ish haqi, nafaqa, stipendiya, davlat nafaqalari va aholiga boshqa to'lovlar, ovqatlanish uchun xarajatlar, doridarmon va bog'lovchi vositalar, yumshoq anjomlar va uskunalar sotib olish, xo'jalik xarajatlarining ma'lum qismi va boshqa turlari kiradi.

Budget xarajatlari hududlarni qamrab olishi yoki moliyalashtiriladigan tashkilotlarning kimga bo'ysunishiga ko'ra respublika va mahalliy budget xarajatlariga ajratiladi.

Budget xarajatlarini amalga oshirishga budgetdan moliyalashtirish yordamida erishiladi. Budgetdan moliyalashtirish deganda, budgetda ko'zda tutilgan tadbirlarni o'tkazish uchun korxonalar, tashkilotlar va muassasalariga pul mablag'ini berish tizimi tushuniladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetini hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlarini o'z ichiga oladi.

Viloyatning budgeti viloyat budgetini, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanlarga bo'linadigan shaharning budgeti shahar budgetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budgetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budgeti tuman budgetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budgetlarini o'z ichiga oladi hamda shunga muvofiq shakllanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyati va manfaatdorligini

kuchaytirish, ularning daromadlar bo'yicha vakolatlari va xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini oshirishga zamin hozirlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ–4086-son qaroriga asosan mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirildi<sup>48</sup>.

Ushbu qarorga ko'ra 2019-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi daromadlar:

➤ jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlaridan olinadigan soliq, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stantsiyalaridan tashqari), yagona yer solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'imlar, bozorlardan tushadigan daromadlar, shuningdek, ayrim noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari, qonunbuzarliklarning ayrim turlari uchun jarimalar tumanlar va shaharlar budjetlariga;

➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida taqsimlagan holda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovidan ajratmalar, alkohol mahsulotlari, pivo, benzin, dizel yoqilg'isi va gazning chakana realizatsiyasiga aktsiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga o'tkazilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining bir qismi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bundan

---

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ–4086-son qarori. "Xalq so'zi", 2018 -yil 28- dekabr.

mustasno), yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan to'lanadigani, shuningdek, norezidentning daromadlaridan to'lov manbasida ushlab qolinadigani bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjeti o'rtasida taqsimlanishi;

➤ budget tashkilotlarini moliyalashtirishni tegishli tartibga muvofiq O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga o'tkazish; O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetlari o'rtasida taqsimlanadigan soliqlardan mahalliy budjetlarga ajratmalar 50 foizdan kam bo'lgan taqdirda, ushbu soliqlar bo'yicha daromadlarning prognozdan oshirib bajarilishidan hosil bo'lgan mablag'larning 50 foizi mahalliy budjetlarga qaytarilishi belgilab qo'yilgan.

➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga xarajatlarning etishmayotgan summasini alohida tumanlar va shaharlar budjetlarini rejalashtirishda shakllanadigan ortiqcha daromadlarni Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida qayta taqsimlash hisobidan qoplash;

➤ qo'shilgan qiymat solig'i (import qilinadigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (moldmulkni ijaraga berishdan olgan daromadlaridan olinadigan soliq bundan mustasno), yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining bir qismini tegishli hududlarda qolayotgan daromadlar doirasida yo'naltirish;

➤ daromadlar prognozining oshirib bajarilgan mablag'lardan bir qismini hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini

amalga oshirish uchun tegishli tumanlar va shaharlar budjetlariga o'tkazish bo'yicha vakolatlar berilishi nazarda tutilgan.

### **11.3. Mahalliy budjet, uning tushumlari va xarajatlari**

O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni tashkil etish va boshqarish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-sonla «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish choratadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-sonli «Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zahiralari aniqlash ishlarini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ–4086-son qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida "Mahalliy budjetlar" to'g'risida tushuncha berilgan. Unga ko'ra "Mahalliy budjet – Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi" deb ta'kidlangan.

Mahalliy budjetlar – mahalliy hokimiyat idoralarining asosiy moliyaviy bazasidir. Soliq kodeksi, Budjet tizimi to'g'risidagi qonun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan mahalliy hokimiyat idoralariga berilgan budjet va mulkiy huquqlar ularga o'z budjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish, tasarrufidagi korxonalarni idora etish va ulardan daromad olish imkoniyatini yaratadi.

Mahalliy budjetlarning iqtisodiy mohiyati ularning ahamiyatida namoyon bo'ladi. Mahalliy budjetlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatining moliyaviy ta'minotiga xizmat qiluvchi pul fondlarini shakllantirish:

mazkur fondlarni xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida taqsimlash va ulardan foydalanish;

mahalliy hokimiyat idoralariga tobe bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy - xo'jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

Mahalliy hokimiyat organlariga davlat ijtimoiy ta'minot dasturini amalga tadbiq etish bo'yicha muhim vazifa yuklatilgan. Aholining ijtimoiy ta'minotiga doir muhim tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy rivojlanish borasidagi davlat dasturini amalga oshirish katta hajmdagi moliyaviy va moddiy resurslarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi unitar davlat bo'lganligi sababli mahalliy budjetlar umuman mustaqil hisoblanmaydi. Ularga bir qator cheklovlar qo'yilgan.

□ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlar balansli daromad va xarajatlarga ega bo'lishi kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi;

□ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni qabul qilish va ijro etishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi;

a) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg'armalarni tashkil qilish;

b) mablag' jalb qilishni amalga oshirish (yuqori budjetlardan budjet ssudalari olish bundan mustasno);

v) budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'dan ortiqroq mablag' sarflash (ushbu qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

g) budjet mablag'lari hisobiga boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;

d) yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjetlarida ba'zi hollarda mablag' yetishmasligi kuzatiladi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjetga to'lanadigan soliqlar, to'lovlar va yig'imglar to'liq amalga oshirilmaydi va tushumlar barqaror emas;



- mamlakat hududlarining salohiyati turlicha va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tengsizlik mavjud;

- tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, suv toshqini va boshqalar), shu jumladan, ulardan kelgan zararlar ham mahalliy budjet zimmasiga tushadi.

O'zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mahalliy budjetlar taqchilligi davlat budjetidan olingan dotatsiyalar va subventsiyalar hisobiga tartibga solinadi.

Mahalliy budjet davlat budjetining tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga mahalliy hokimiyat hududida joylashgan xo'jalik sub'ektlarining va aholining daromadlariga ham bog'liq. Odatda mahalliy budjet davlat budjetining ajralmas qismi bo'lsada, u o'ziga xos mustaqillika ega. Barcha mahalliy budjetlarning daromad va xarajat qismlari mustaqil va shu bilan birga o'zaro bir biriga bog'liq kategoriyalar hisoblanadi, ulardan har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Daromadlar mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi bo'lib, xarajatlar esa hududiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan mahalliy budjetlarning mustaqil bo'lishishini moliyaviy jihatdan qo'llabquvvatlash va daromadlar manbalarining hududi shakllantirish tamoyillaridan kelib chiqib, ularning daromadlari umumdavlat va mahalliy soliqlar hisobiga shakllanadi.

Mahalliy budjet daromadlarining shakllanish mexanizmi quyidagicha:

- mahalliy soliqlar;
- umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;
- mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovutni qoplashga byudet dotatsiyasi;
- mahalliy budjetda ko'zda tutilgan maqsadli xarajatlarni amalga oshirishga subventsiya.

Mahalliy budjetlarning daromadlar qismini tahlil qiladigan bo'lsak, ayni vaqtda Soliq kodeksiga muvofiq mahalliy budjetlarga quyidagi soliqlar to'lig'icha:

- ✓ mol-mulk solig'i;
- ✓ yer solig'i;
- ✓ obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

- ✓ jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ✓ ayrim turlardagi tovarlar bilan savdo qilish huquqi uchun yig'im;
- ✓ tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im kiradi.

Umumdavlat pul mablag'larini budget tizimlari o'rtasida taqsimlanishining asosini hududiy birliklarni davlat tomonidan moliyaviy, qo'llab-quvvatlanishi va ular daromadlarini hududiy manbalar hisobidan shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy budgetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqa manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi. Mahalliy hokimiyatlar faoliyati, ularga tegishli hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Aholi yashash sharoitini yaxshilash, turar joy va kommunal xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish mahalliy budgetlar xarajatlarining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Budgetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy budgetlar rioya qilishi lozim bo'lgan muayyan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida hukumat taraqqiyoti turlicha bo'lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag'lar muayyan ma'muriy-hududiy birliklar budgetlarining daromad manbalari hamda yuqori budgetlarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqaviy moliyani davlat moliya tizimidagi o'rnini asoslab bering.
2. Mahalliy budget va nobudget fondlarni shakllanish manbalarini Toshkent shahri misolida tushintirib bering.

3. 3. Budget subvensiyasi, budget dotatsiyasi, budget ssudasi tushinchalari mazmun, mohiyatini mahalliy budjetlar misolida asoslab bering.
4. 4. Mahalliy budjet, uning tushumlari va xarajatlarini asoslab bering.

## 12 BOB. DUNYO XO‘JALIGINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

### 12.1. Dunyo xo‘jaligi va uni rivojlanishi bosqichlari

Dunyo xo‘jaligining rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Buyuk geografik kashfiyotlar, Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi xalqaro savdoning mintaqaviy markazlari, so‘ngra xalqaro savdo va xalqaro bozorning shakllanishiga, transportning, ayniqsa, dengiz transportining rivojlanishi, XVIII asr oxiri va XIX asrda Yevropada va AQSh da yirik mashinalashgan ishlab chiqarish tizimi (“sanoat inqilobi”) dunyo xo‘jaligining shakllanishiga olib keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yirik sanoat industriyasi, transport va xalqaro bozor negizida – *dunyo xo‘jaligi* yuzaga keldi.

**Dunyo xo‘jaligi** – bu xalqaro iqtisodiy aloqalar (tashqi savdo aloqalari, kapital chiqarish, valyuta-kredit munosabatlari, ishchi kuchlari migratsiyasi, iqtisodiy integratsiyalar va h.k.) orqali bir-birlari bilan o‘zviy chambarchas bog‘langan turli milliy xo‘jaliklarni o‘z ichiga olgan global xo‘jalik mexanizmidir.

Dunyo xo‘jaligi – milliy xo‘jaliklarning umumlashmasi bo‘lib - barqaror sur‘atda rivojlanib borayotgan, bozor iqtisodiyotining ob‘yektiv qonunlariga bo‘ysungan holda xalqaro aloqalarning o‘sib borishi bilan birgalikda o‘ziga xos qarama-qarshiliklarga ham ega bo‘lgan yaxlit xo‘jalik tizimidir.

Dunyo xo‘jaligining iqtisodiy-geografik modeli bosqichma-bosqich murakkablashib bormoqda. Agar XIX asr oxirida “Yevromarkaz” asosiy o‘rin tutsa, XX asr boshlarida ikkinchi xalqaro markaz AQSh, XX asr 50-yillarida yangi xalqaro markazlar SSSR va Yaponiya, so‘ngra Xitoy, Hindiston, neftni eksport qiluvchi Janubiy-G‘arbiy Osiyo mamlakatlari, Kanada, Avstraliya, Braziliya, XX asrning 80yillarida esa yangi industrial mamlakatlar yoki “Osiyo yo‘lbarzlari” – Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong va Singapur yuzaga keldi va ko‘p markazlilik shakllandi hamda barqaror rivojlanib bormoqda.

Yaqingacha dunyo xo‘jaligi ichki tizimda to‘rtta “qutb” – kapitalistik G‘arb va Sotsialistik Sharq “boy” Shimol va “kambag‘al”

Janub mavjud edi. Hozir ham Shimol va Janub o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish farqlari, yoki "markaz" va "chekka o'lka"lar o'rtasidagi farqlar asosiy qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Chunki, 90-yillarda dunyo xo'jaligining "chekka" hududlariga xalqaro yalpi ichki mahsulotlarning 15 % va 30 % sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki aholi jon boshiga o'rtacha 1 ming dollar yalpi ichki mahsulot to'g'ri kelsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga o'rtacha 15 ming dollar ortiq yalpi ichki mahsulot to'g'ri kelgan.

**Dunyo xo'jaligining rivojlanishi.** Zamonaviy dunyo xo'jaligi birinchi sanoat inqilobi davridan boshlab shakllana boshladi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi ma'lum mamlakatlarning va hududlarning u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga "ixtisoslashuvi", "mehnatning geografik taqsimoti"ni hamda mahsulotlarni xalqaro ayirboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Alohida davrlarda texnik yangiliklardan foydalanish vaqtining turlicha bo'lganligi, ichki va dunyo bozorida narxlarning tebranib turishi hamda ishlab chiqarishning asosiy omillari – yer, mehnat va kapital o'rtasidagi mutanosiblikning o'zgarib turishi, dunyo iqtisodiyotidamilliy xo'jaliklar va tarmoq tarkiblari rivojlanishining davriy xarakterga ega bo'lishini keltirib chiqaradi.

Rivojlanish davrlari XIX asrning boshlarida ya'ni birinchi sanoat inqilobidan keyinroq nazariy va amaliy jihatdan asoslana boshlandi. Kapitalizmning davriy bo'ronlari nazariyasi birinchilardan bo'lib K.Marks tomonidan ishlab chiqildi, uning fikricha ushbu bo'hronlarning asosiy sababi *ishlab chiqarishning asosiy fondlari (jihozlar) ning almashtirish muhlati bilan bog'liqdir*. Keyinchalik ortiqcha ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ronlarning tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy asarlar ko'plab e'lon qilindi.

Biroq dunyo xo'jaligining uzoq muddatli rivojlanishi shkalasidagi o'rnini aniqlashda 1892-1928 yillarda rus iqtisodchisi Kondratev N.D. tomonidan birinchi marta katta bosqichlar nazariyasi "*uzun to'lqin*"lar taklif etildi. Keyinchalik bu nazariya yanada rivojlantirildi va qisman dunyo xo'jaligi tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda.

Kondratev N.D. nazariyasi va boshqa qator tadqiqotlar asosida dunyo xo'jaligi rivojlanishida 3 ta katta bosqichni – industriyalashgacha bo'lgan rivojlanish, industriyalash bosqichi,

industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichini, uchta - birinchi, ikkinchi va uchinchi sanoat inqiloblarini hamda “uzun to‘lqinlar” davrlarini, ya’ni Kondratev N.D. belgilagan besh davrni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Hunarmandchilik va manufaktura ishlab chiqarishi hukmronlik qilgan industriyalashgacha bo‘lgan bosqichni boshlangich davr deb ataladi.

***To‘rtta “uzun to‘lqin” ga teng keluvchi birinchi va ikkinchi sanoat inqiloblari davrida quyidagilar yetakchi mavqega ega bo‘ldilar:***

- birinchi davrda – tikuvchilik va hunarmandchilik;
- ikkinchi davrda – ko‘mir ishlab chiqarish, qora metallarni eritish, tikuvchilik;
- uchinchi davrda – metallurgiya, kimyo va og‘ir mashinasozlik;
- to‘rtinchi davrda – avtomobilsozlik, elektronika, organik kimyo, mashinasozlikning turli tarmoqlari.

Ushbu to‘rt davr industriyalash bosqichiga to‘g‘ri keladi. beshinchi davr esa rivojlangan davlatlarda industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichiga to‘g‘ri keladi va uchinchi sanoat inqilobini anglatadi. Ushbu davrda elektronika, lazer texnikasi, murakkab kimyo, biotexnologiya va gen injeneriyasi kabi tarmoqlar yetakchi mavqega ega bo‘lishdi.

Har bir bosqich, sanoat inqilobi va Kondratev N.D. davrlarining boshlanish va tugallanish vaqti keskin belgilab qo‘yilmaydi. Ushbu masalada ilmiy-texnik progressning tezlashuvidan kelib chiquvchi noa’anaviy yondashuv muhim ahamiyatga egadir. Ushbu yondashuvga asosan G‘arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida bu davrlarni quyidagicha belgilash mumkin.

Birinchi davr – 1770-1830 yillar;

Ikkinchi davr – 1830-1880 yillar;

Uchinchi davr – 1880-1930 yillar;

To‘rtinchi davr – 1930-1970 yillar;

Beshinchi davr – 1970 yildan hozirgi davrgacha.

Har bir davr uchun o‘zining o‘rtacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi ( o‘zgarmas narxlar bilan), “texnologik narvon” pog‘onalari hamda ishlab chiqarishning tashkiliy shakllariga xosdir.

Masalan, boshlang'ich davr uchun (aholi jon boshiga 50-80 AQSh doll. (1960 yil kursi bo'yicha) to'g'ri kelgan.

Kondratev N.D. fikricha "uzun to'liqlar" endogen xarakterga ega, ya'ni u bozor iqtisodiyoti xo'jaligiga xos bo'lib, ushbu xo'jalikning o'z - o'zini tartibga solishi uchun sharoit yaratadi. Rivojlanishdagi ko'tarilish va pasayish davrlari tabiiy holdir, ularni oldindan bashorat qilish mumkin hamda ularga moslashish va ushbu bosqichlarni tashqi ta'sir, ya'ni davlat tomonidan boshqarish yo'li bilan tartibga solish mumkin. Mazkur mexanizmining bir ko'rinishi sifatida 30-yillarda J.Keyns tomonidan taklif etilgan va 1929-1933 yillardagi kapitalizm bo'hronidan so'ng qo'llanilganssuda foizi stavkalari yordamida tartibga solish uslubini ko'rsatish mumkin.

Kondratev N.D. fikricha, taxminan 40-50 yil davom etadigan "uzun to'liqlar" ning moddiy sabablari "kapitalning asosiy ne'matlari" ning o'zgarib turishi bilan bog'liqdir. Ushbu o'zgarishlardan uzoq, muddatli iqtisodiy mutanosiblikni buzuvchi hamda nisbatan osoyishta evolyutsion va ekstensiv rivojlanish bosqichlarini, revolyutsion va intensiv rivojlanish bosqichlari bilan almashtiruvchi ilmiy-texnika taraqqiyoti (progressi) alohida rol o'ynaydi.

Revolutsion bosqichlarning boshlanishi dunyo xo'jaligining energetik, texnik va ishlab chiqarish asosi hamda hududiy tarmoq tarkibi va tashkiliy tuzilmasini keskin o'zgartirishga sharoit yaratuvchi yangiliklar majmuasini joriy etish bilan bog'liqdir. Kondratev N.D. nazariyasi, boshqa tadqiqotchilarning gipotezalaridan farq qilib, yangi "turtki" boshlanishini bildiruvchi ichki va tashqi omillar mutanosibligi mavjudligiga e'tiborini qaratadi.

Yangi to'liq ekstensiv bosqichda keng tarqalgan texnologiyalarning ma'naviy eskirishi sababli uning rivojlanish cho'qqisiga erishilgan vaqtdan boshlanadi. Kapitalning to'planishi uning nisbatan qadrsizlanishiga olib keladi. Ssuda foizlari va foyda me'yorlari shu darajada pasayadiki, bu hol yangi texnika va texnologiyaga tavakkaliga investitsiya solishning samaraliligini ta'minlaydi.

Katta hajmdagi yangi qurilishlar ko'lamli yangi korxonalarning ishga tushishi, yangi tarmoqlarning yuzaga kelishi, bozorlarda yangi mahsulotlarni paydo bo'lishi va boshqalar ko'tarilish bosqichi

boshlanganligidan dalolat beradi. Ko'tarilish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga etgandan so'ng kapital va yangiliklarning tatbiq qilish zahiralari tugaydi va ekstensiv rivojlanish bosqichi boshlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Kondratev N.D. fikricha insoniyat hayotida daromad, qo'l mehnati va manufaktura muhim ahamiyatga ega (2-jadval)

Birinchi davr uchun – aholi jon boshiga 80-200 AQSh doll.daromad,

mexanizatsiya, erkin raqobat va xususiy firmalar;

Ikkinchi davr uchun – aholi jon boshiga 200-700 AQSh doll. daromad ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishning davom etishi va monopolizm;

To'rtinchi davr uchun – aholi jon boshiga 2000-4000 AQSh doll. daromad ishlab chiqarishda yuqoridagi jarayonlarning davom etishi va davlat monopolistik birlashmalarining rivojlanishi;

Beshinchi davr uchun – aholi jon boshiga 4000-20000 AQSh doll. daromad, mutassil avtomatlashtirish, transmilliy kompaniyalar va kichik firmalarning birikuviga xosdir.

Asta-sekin keskin raqobat kurashlari ostida, yuksalish va bo'hronlar sharoitida milliy va xalqaro mahsulotlar va fondlar birjalari tizimi shakllandi, busiz yirik ko'lamdagi xalqaro savdoni iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli sifatida aksionerlik jamiyatlarini tashkil etish va kapitalni jalb etish aslo mumkin emas. Milliy xo'jaliklarning turli sur'atlarda rivojlanishi va umumiy rivojlanishdagi har- xil sur'atlar mavjudligi qonuniyati Kondratev N.D. davrlarining turli mamlakat va hududlarda "kapitalizmning notekis rivojlanishi" ga mos tarzda kechishda yaqqol namoyon bo'ldi va dunyo xo'jaligi tizimida bu turlicha nazariy va empirik tadqiqotlar obyekti ga aylandi (qarang jadval- 12.1.1).

Umuman olganda, alohida mamlakat yoki hududlar rivojlanishining muayyan bosqichi yoki davrini boshdan kechirayotganligini aniqlash uchun aholining tarmoqlar bo'yicha bandligi statistikasi tahlil etiladi. Eng yaqqol ko'rsatkich – bu milliy xo'jalikning birlamchi(qishloq xo'jaligi,tog'-konchilik), ikkilamchi (qayta ishlash sanoati), uchlamchi (transport, xizmat ko'rsatish, aloqa, madaniyat, ta'lim va h.k), to'rtlamchi (yuqori texnologiyalar) sektorlarida ish bilan mashg'ul bo'lgan aholi sonining mutanosibligidir. Masalan,



birlamchi sektor qishloq xo'jaligi va qazib olish sanoatida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 2-8 % aholi band xolos.

## 12.1- Jadval

### SIKLARNING ASOSIY TURLARI

| Sikl turlari    | Siklning davomiyligi | Asosiy xususiyatlari                                                     |
|-----------------|----------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| Kitchin sikli   | 2-4 yil              | Zahiralar miqdori, bandlikning tebranishi, inflyatsiya, tijorat sikllari |
| Kondratev sikli | 40-60 yil            | Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar                               |
| Forrester sikli | 200 yil              | Energiya va materiallar                                                  |
| Toffler sikli   | 1000-2000 yil        | Sivilizatsiyalarning rivojlanishi                                        |

Birlamchi sektordagi ish bilan band aholi sonining qisqarishining barham topishini bildirmaydi, zero, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektor ishlab chiqarish hajmi va jahon bozorlariga mahsulot yetkazib berish hajmi jihatidan yetakchi mavqeini egallaydi. Agrar sektorda ishlovchilar sonining qisqarishi, eng avvalo, samarali texnologiyalarning qo'llanilishi, o'simliklarni himoyalash vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ish bilan band aholining asosiy qismi agrobiznesning boshqa sohalari sanalmish ilmiy-tadqiqot, maslahat xizmati, saqlash va qayta ishlash, marketing va h.k.da xizmat qilishadi.

Rivojlangan davlatlardagi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi dunyo xo'jaligining dinamikasini belgilaydi. Tashkiliy jihatdan esa xalqaro mehnat taqsimoti ko'proq trans milliy korporatsiyalar (TMK) majmuasi bilan bog'liqdir. 1980-yillarda mahsulot ayirboshlashning 2/3 qismi aynan TMK larga to'g'ri keldi shu bilan birga ushbu ayirboshlashning 1/3 qismi TMK larning turli mamlakatlarda joylashgan filiallari o'rtasidagi aloqalari hissasiga to'g'ri keldi. Zamonaviy dunyo xo'jaligi tizimining shakllanishi ko'p bosqichli jarayon bo'lib, ko'p ukladli xo'jaliklarning saqlanib qolishi va dunyo mamlakatlari rivojlanishining turli bosqichlarida bo'lishlari asosida amalga oshadi.

Dunyo xo'jaligining faoliyat ko'rsatishida asosiy rol o'ynovchi uchta geografik, iqtisodiy va axborot (informatsion) makonlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi tizimlar muhim ahamiyatga ega.

*Geografik makon* – bu zamonaviy aloqa va transport turlari bo'lib, busiz birorta iqtisodiy markaz faoliyat ko'rsata olmaydi. Hozirgi paytda dunyoda aloqaning barcha turlari – xalqaro, milliy va mahalliy temir yo'l, avtomobil, daryo, dengiz, havo transporti, quvur transporti va EUL<sup>49</sup> yo'lga qo'yilgan aloqa yo'ldoshlari va zamonaviy qabul sistemalari yordamida yer yuzining xohlagan nuqtasi bilan aloqa o'rnatish imkoniyati yaratildi.

Yuk tashuvchi va yo'lovchi tashish transportlari turli xil yuklar va yo'lovchilarni istalgan joyga yetkazib borish imkoniyatiga egadir. Transport va aloqa tizimchasi (podsystemasi)ning tashkiliy shakllari aviakompaniyalar, suv transporti firmalari, temir yo'l kompaniyalari, aloqa tizimlari bo'lib, ularning faoliyati xalqaro shartnomalar majmuasi asosida tartibga solib boriladi.

*Iqtisodiy makon* – tizim tashkil etuvchi vazifasini dunyo moliya muassasalari amalga oshiradi. Ular o'rtasida quyidagilar yetakchi mavqega egadirlar. Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, xalqaro savdo tashkilotiga (XST) aylantirilgan ta'riflar va savdo bo'yicha Bosh shartnoma – hozirgi XST hamda AQSh (federal rezerv tizimi) Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Yaponiya markaziy banklaridir.

Aynan ushbu tashkilotlar "*oltin standartlar*" dan voz kechilganidan so'ng moliyaviy hisob-kitobning asosi sanalmish AQSh dollari, funt-sterling, frank, Germaniya markasi va yena kabi valyutalarning roli va mavqeyini ta'min etadi. XXI asr boshlanishi bilan ushbu vazifalarni Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi sanalmish "yevro" muvaffaqiyatli bajarishi mumkin (salbiy migratsion jarayonlarni inobatga olmasa). Dunyo moliyaviy tizimining muntazam faoliyat ko'rsatishda

"xalqaro seyf" Shvetsariya banklari konsorsiumi va Angliyaning "Lloyd" kompaniyasi kabi yirik sug'urta kompaniyalarining ham xizmati beqiyosdir.

Qatortadqiqotchilarning fikrlaricha, dunyo xo'jaligini shakllantirishda *axborot makoni* – ya'ni hulk-atvor stereotiplari, g'oyalar va

---

<sup>49</sup>Eul- elektr uzatish liniyalari

insonning ma'naviy hayotining boshqa qirralari kabi qadriyatlar tizimi ham yetakchi mavqeiga ega bo'lmoqda. Ushbu muammolar falsafa, jamiyatshunoslik, ruhiyatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlar tomonidan yetarlicha o'rganilgan bo'lsada, biroq ularning dunyo taraqqiyoti hamda dunyo xo'jaligi hududiy – tarmoq tuzilmasini faoliyat ko'rsatishdagi rolini har tomonlama aniqlash alohida e'tibor berishni taqozo qiladi.

Dunyo xo'jaligining axborot makonida integratsion rolni, eng avvalo, iste'mol jamiyati stereotiplari o'ynaydi. Industrialashgan jamiyatning shakllanish davridayoq ommaviy ishlab chiqarish va "davlatning umumiy farovonligi" (Gelbreyt) stereotiplarining faol rivojlanishi kuzatildi va bu "iste'mol obro' - e'tibori"dan boshlab ishlab chiqarishni gurkirab rivojlanishi bozorlarni mahsulotlar ayniqsa uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlar bilan to'lib toshishi kuzatildi.

Keyinchalik iqtisodiy rivojlangan davlatlarning o'rtamiyona qatlamini ehtiyoj darajasiga va tarkibiga erishi ko'plab mamlakatlar aholisining asosiy maqsadlariga aylandi. Bu holat birinchi marta 1940-yillar oxirlarida Amerika iqtisodchi olimi J.Djenberri tomonidan asoslangan "*namoyish samarasi*" bilan bog'liqdir. Dastavval matbuot vositalari orqali gollivud filmlarining namoyish etilishi, keyinchalik esa televizion seriallar va boshqa turdagi reklama mahsulotlarining paydo bo'lishi ushbu ustuvor ehtiyojning shakllanishi va rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi.

"Talab-taklif" zanjiridagi qayta aloqalarning qonuniyatlari axborot makonning ishlab chiqarishning o'sishi va iste'mol mahsulotlari xalqaro bozorlarini rivojlantirishdagi rolini yanada orttiradi va tarmoqlararo aloqalarning mavjudligi sababli dunyo xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Hozirgi paytda eng avvalo katta xarajatli reklama kompaniyalari hisobiga bu jarayon dunyo xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratdi va agar, tabir joiz bo'lsa, o'ziga xos "doping" ga aylandi. Hozirgi zamonda xo'jalik yuritishning biror bir turi busiz faoliyat ko'rsata olmaydi.

Shu tariqa, iqtisodiy manfaatlar nuqtayi nazaridan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tizimchalar, elementlar va oqimlar dunyo xo'jaligining hududiy – tarmoqli tuzilmaga ega ekanligidan dalolat

beradi. Ushbu tizimning o'ta murakkabligi va yuqori darajadagi noaniqligi dunyo xo'jaligining, xususan, uning eng nozik sanalgan moliya-valyuta tarmog'ini tartibga solib turuvchi turli - tuman mexanizmlarga ehtiyoj seziladi. Shu bilan birga dunyo xo'jaligining rivojlanishi uning shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari va ichki qarama-qarshiliklari bilan bog'liqdir.

***Dunyo xo'jaligining XX asrda rivojlanish jarayonlarini uch bosqichga bo'lish mumkin.***

Birinchi bosqich – XX asrning 20-30 yillari oralig'ida bo'lib dunyo xo'jaligining rivojlanishida inqirozli jarayonlar bilan ajralib turadi. Rossiyadagi 1917-yil voqealari va G'arb mamlakatlarining iqtisodiy xalqaro aloqalarning avvalgi holatlarini tiklay olmaydi. Chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz dunyo xo'jaligi tizimidagi barcha mamlakatlarni qamrab oldi va iqtisodiy aloqalarning beqarorligini kuchaytirdi. Birinchi Jahon urushi va Buyuk turg'unlik davri barcha bosh mamlakatlar iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

*Ikkinchi bosqich* – XX asrning 40-80 yillarini o'z ichiga oladi va xalqaro iqtisodiyotda tadbirkorlik kapitalining intensiv o'sishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar dunyo xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish aloqalarida transmilliy korporatsiyalar - mahsulot ishlab chiqarish, uning realizatsiyasi, hisob-kitobi, kreditlash tizimidan iborat baynalminal (xalqaro) ishlab chiqarish majmualarini shakllantiradilar. Bu bosqichda dunyo xo'jaligida muhim jarayonlar:

a) AQSh ning iqtisodiy qudrati yuksaldi va ikkinchi jahon urushidan keyin

G'arbiy Yevropa mamlakatlariga (Marshal rejasi. 1951-yil) katta iqtisodiy yordam ko'rsatdi;

b) Mustamlakachilik tuzumi yemirilgandan so'ng bunday iqtisodiy yordam suveren davlatlarga qaratildi va 90-yillarda dunyo xo'jalik tizimida rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi yuzaga keldi.

50-80 yillarda AQSh iqtisodiy rivojlanish darajasiga boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar (G'arbiy Yevropa va Yaponiya) iqtisodiy rivojlanish darajasining yaqinlashuv jarayoni boshlandi.

Ammo, har bir alohida mamlakat Amerika iqtisodiyotidagi rivojlanish darajasiga yetarli darajada yaqinlasha olmadi. Bu bilan

birga AQSh ning iqtisodiy ustunligi ko'p tomonlama tizimda yanada kuchaydi.

70-80 yillardagi jahon iqtisodiyotidagi taraqqiyot iqtisodiy avtarkiya tendensiyasini davom etdirmadi. Aksincha, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishning barqaror jarayonlari yuzaga keldi. Shunday qilib, 60-80 yillarning 1-yarmida sanoati rivojlangan mamlakatlarning eksport kvotasi kamaymadi, aksincha, 11 % dan, 21 % gacha o'sdi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 18-20 % ga o'sdi.

Dunyo xo'jaligining rivojlanishidagi yangi *uchinchi bosqich* boshlanishi XX asrning oxirgi 10 - yilligiga to'g'ri keldi. Bu davrda geografik kengliklarni o'zlashtirish darajasi o'sdi, iqtisodiy o'zaro hamkorlik va o'zaro bog'liqlik kuchaydi. Hozirgi zamon dunyo xo'jaligi bir xil bo'lmay, g'oyat turlichadir. Unga ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzilishi, rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtiroki, ko'lami, xarakteri va uslublari xilma-xil mamlakatlar kiradi.

Tovar ishlab chiqarishning o'sishi, jahon bozorida davlatlar o'rtasida xomashyo va mahsulot bozorining raqobatini keltirib chiqardi. Xalqaro mehnat taqsimotning vaqti keldi. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro geografik mehnat taqsimotining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Geografik mehnat taqsimoti bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Geografik mehnat taqsimoti miqyosiga ko'ra rayonlararo va xalqaro mehnat taqsimotiga bo'linadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining harakatlantiruvchi kuchi va negizidir.

Dunyo mamlakatlari milliy xo'jaliklarining jahon xo'jaliklarini birlashtirish asosida xalqaro mehnat taqsimoti (XMT ) yotadi.

## **12.2. Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi tendensiyalari**

Jahon xo'jaligi tarmoqlari – korxonalarning ma'lum o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi tushuniladi.

*Sanoat tarmoqlari odatda uch asosiy mezon asosida ajratiladi:*

1. Xomashyo birligi bo'yicha ajratilgan sanoat tarmoqlari (mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoati va hk.);

2. Iste'mol birligi, ya'ni muayyan maqsadda mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (yengil va oziq-ovqat, qurilish, elektr energetika va b.);

3. Texnologik jarayon asosida tashkil etilgan sanoat tarmog'i (kimyo va neftni qayta ishlash)

Sanoatning tarmoqlar tizimi nihoyatda murakkab va u borgan sari o'zgarib bormoqda. Eng yirik tarmoqlar sifatida yoqilg'i, energetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo va neftni qayta ishlash, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, selluloza-qog'oz, yengil sanoat, oziqovqat, poligrafiya va boshqalar ajratiladi. Ular ham o'z navbatida tarmoq va tarmoqchalardan iborat. Bu jihatdan mashinasozlik sanoatining turlanishi ayniqsa boy; faqat transport mashinasozligining o'zi bir nechta qismlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tarmoqlar orasida eng an'anaviy, qadimiy tarixga ega bo'lgan, shubhasiz, yengil (to'qimachilik) sanoatidir. U dastavval manufakturadan boshlanib, so'ngra yirik mashina industriyasiga o'tdi, boshqa sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga turtki berdi. Albatta, oziq-ovqat, metallni qayta ishlash sanoatlari ham ancha qadimiy. Ayni vaqtda mashinasozlik, elektr energetika va kimyo nisbatan «yangiroq» bo'lib, ular hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotini aks ettiruvchi tarmoqlar jumlasiga kiradi.

Sanoat tarmoqlari og'ir va yengil, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlariga (A va V) ajratiladi. Biroq bunday ajratish shartli xususiyatga ega bo'lib, ular orasidagi farq borgan sari kamayib, «yupqalashib» bormoqda.

*So'ngi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:*

- sanoat tarmoqlarining yanada parchalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi;
- fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarning tezroq rivojlanishi.

Sanoatning tarmoqlar tizimini baholashda, eng avvalo, uning turlanganligini (diversifikatsiyalashuvi) hamda yangi texnologiyalarga asoslangan, «yuqori qavat» tarmoqlarining mavjudligini e'tiborga olish kerak. Ba'zi rayonlar faqat tog'-kon, xomashyo qazib olishga ixtisoslashgan, boshqalarida esa asosan ta'mirlovchi sanoat korxonalari bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday rayonlarning sanoati yaxshi rivojlanmagan!

Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish o'ziga xos xususiyatga ega. Ular iqtisodiy geografik makonda yoki xaritada nuqtasimon shaklga ega. Demak, mazkur tarmoqda ishlab chiqarish va hududiy mujassamlashuv darajasi ancha yuqori. Bu esa sanoat ishlab chiqarishining qishloq xo'jaligiga ko'ra iqtisodiy samaradorligini yuqori bo'lishiga olib keluvchi sabablardan biridir.

Sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar soni ko'p. Ular asosan xomashyo, yoqilg'i, energetika, iste'mol, ishchi kuchi, iqtisodiy geografiko'rin va boshqalardan iborat. Bu borada ekologiya va bozor iqtisodiyoti omillarining ahamiyati tobora kuchaymoqda. Shu bilan birga qayd etish joizki, turli xil sanoat tarmoqlarini joylashtirish muayyan omillar asosida amalga oshirildi. Ularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

*Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi.*

- 1) iqtisodiy geografik o'rin, hudud omili, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar, birinchi o'rinda mineral resurslar;
- 2) hududning o'zlashtirilganlik va o'rganilganlik darajasi; transport omili;
- 3) xemografik omil(aholi soni, mehnat resurslari va uning sifat darajasi, urbanizatsiya);
- 4) ilm talab omili; ekologik omil.

Dunyo xalq xo'jaligida sanoat tarmog'i yetakchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, u iqtisodiyotning hamma tarmoqlari shakllanishiga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, transportning barcha turlariga, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlariga to'g'ridan-to'g'ri va kuchli ta'sir etadi.

Dunyo sanoat tarmog'ida bugungi kunda 350 milliondan ortiq kishi xizmat qiladi, bu jahon qishloq xo'jaligi tarmog'ida

ishlayotganlarga nisbatan 3 barobarga kam degani. Moddiy ishlab chiqarishning asosi hisoblangan sanoat tarmog'i ikkiga bo'linadi:

- qazib oluvchi;
- qayta ishlovchi.

Mazkur tarmoqlardan *qazib oluvchi* (qora va rangli metallar, ko'mir, torf, tabiiy gaz, neft, slanets va b.) birlamchi ahamiyatga ega.

Qayta ishlovchi tarmoqlar esa ikkilamchi tarmoqlar bo'lib, har ikkalasining ham hozirda umumiy dunyo iqtisodiyotida ulushining kamayib borishiga xosdir. Faqat, ikkilamchi, ya'ni qayta ishlovchi tarmoqlarning qazib oluvchi tarmoqlarga nisbatan jahon iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasida kamayish biroz sekinroq kechmoqda. Jahon sanoat rivojlanishida yetakchi tarmoqlar yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, yengil, yog'ochni qayta ishlash, metallurgiyadir.

1951-1980 yillarda dunyo sanoat tarmog'ining o'rtacha o'sish sur'ati rivojlangan davlatlarda 4,2 foizni, 1981-1998 yillarda 2,3 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda esa, mos ravishda, 6,1 va 5,4 foizni tashkil etgan. 1900-2000 yillarda Jahon sanoat ishlab chiqarishi 26 martaga ortdi. Bu, G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida 22 martaga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 62 martaga teng bo'ldi. Ayni shu davrda, sanoat ishlab chiqarishi hajmi AQShda – 23, Kanadada – 90, Xitoyda – 106, Braziliyada – 125 martaga ko'paydi. Ammo shunga qaramasdan, Jahon sanoat ishlab chiqarishining 56 foizdan ko'pi g'arbning rivojlangan davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Dunyo iqtisodiyotining asosini *yoqilg'i-energetika kompleksi* (YoEK) va uning uchta bo'g'ini:

- a) yoqilgi energetika resurslarini qazib olish;
- b) resurslarni qazib olingan joyidan iste'mol joyiga yetkazish;
- v) elektr va yoqilg'i energiyalarini ishlab chiqarishni tashkil etadi. Iste'molda birlamchi energoresurslarga neft, gaz, ko'mir, yadro va qayta tiklanadigan energiya turlari kiradi. Birlamchi energoresurslar iste'moli va ishlab chiqarishida neftning hissasi 42 foiz, tabiiy gazniki 25 foiz, ko'mir28 foiz, atom elektrostansiyasiniki 2,3 foiz, gidroelektrostansiyasiniki 3,3 foizga teng. Jumladan, ko'mir sanoati dunyoning 70 dan ortiq davlatlarida turli darajada rivojlangan. Yillik ko'mir qazib olish 5 mlrd tonnadan ortadi, shundan qazib olishning



yarmi beshta davlatlarga to'g'ri keladi: Bu Xitoy (qazib olish hajmiga ko'ra birinchi o'rinda), AQSh, Rossiya, Germaniya va Avstraliyadir.

Bulardan tashqari, ko'mir qazib oluvchi yirik o'nlik davlatlarga Hindiston, Polsha, JAR, Ukraina va Qozog'iston ham kiradi. Ko'mirning asosiy qismi qazib olinayotgan davlatlarning o'zida iste'mol qilinadi. Atigi, 10 foizgina dunyo eksportiga chiqariladi. Chetga chiqarilayotgan ko'mir Avstraliya, AQSh, JAR, Hindiston va Xitoydan G'arbiy Yevropa, Yaponiya va Koreya Respublikasiga jo'natiladi.

Jahonda *toshko'mir* va *qo'ng'ir ko'mirni* qazib olish va iste'mol qilish hajmi birmuncha kamayib bormoqda. Bu ularning geologik zahirasi bilan umuman bog'liq emas. Chunki, aksariyat tarqalgan mineral yoqilg'i turlarida qattiq turdagi yoqilg'ining geologik zahirasi 90 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda ko'mir qazib olish 4,4 mln.tonnaga yetdi<sup>50</sup>. Neft va gazniki 10 foizdan ham kam, ularning zahirasi 10 yilga, yaxshi foydalanilsa, 100-150 yilga etadi, xolos. Aholi va xo'jalikning birlamchi yoqilg'i turlariga bo'lgan talabi hali yetarlicha qondirilmayapti. Shu boisdan, ham tabiiy muhitga katta zarar yetkazilishga qaramasdan, juda ko'p miqdorda qazib olinayotgan bir paytda neftning narxi kelgusida oshib boradi.

*Neft sanoati* dunyoning 80 dan ortiq davlatlarida keng rivojlangan. Yiliga 3,7 mlrd tonna va undan ko'p neft qazib olinmoqda. Saudiya Arabistoni (1 o'rinda) dunyoda qazib olinayotgan neftning 15 foizini bermoqda. Umuman olganda, Fors ko'rfazidagi beshta davlatga yer yuzida qazib olinayotgan neftning (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliqi, Iroq, Eron) taxminan 25 foizi, OPEKga a'zo davlatlarga esa 40 foizi to'g'ri keladi. Sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar AQSh bilan birgalikda barcha yer sharidagi neftning taxminan 25 foizini qazib olishmoqda. Dunyodagi qazib olinayotgan neftning taxminan 10 foizi MDHga kiruvchi mamlakatlarga tegishli.

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda neft qazib olish hajmi kamaygan (zahiralangan). Bu asosan AQSh va Buyuk Britaniyada neft qazib olish qisqarishi bilan bog'liq, vaholanki, AQSh dunyoda neftning katta zahiralarga ega mamlakat hisoblanadi. Ammo shunga

---

<sup>50</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – O'zbekiston raqamlarda, T.

qaramasdan, Jahonda barcha iste'mol qilinayotgan neftning taxminan 52 foizini import qiladi. Asosiy neft import qiluvchi mamlakatlarga Yaponiya, AQSh, G'arbiy Yevropa va Koreya Respublikasi kiradi. Eksport qiluvchi davlatlar esa OPEK a'zolari, Rossiya, Xitoy hisoblanadi.

Jahonda 2,4 mlrd m<sup>3</sup> tabiiy gaz qazib olinadi. Asosiy gaz qazib oluvchi davlatlarga Rossiya, AQSh, Kanada, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Jazoir, Iroq kiradi. Jami bo'lib dunyoda 60 dan ortiq davlatlarda gaz qazib olinadi. Tabiiy gazning tarqalishiga ko'ra hamda kelgusidagi zahirasi bo'yicha Rossiya yetakchi hisoblanadi. Rossiya katta gaz zahirasi ega bo'lishiga qaramay, qazib olinayotgan gazning 40 foizga yaqinini chetga chiqaradi. Vaholanki, bu ko'rsatkich, Kanadada – 47 foiz, Niderlandiyada – 49, Jazoirida – 62, Norvegiyada – 87 foizga teng.

Yoqilg'i-energetika kompleksining muhim bo'g'ini *atom energiyasidir*.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar yadro yoqilg'i resurslariga ega. Bulardan uran rudasining yirik konlari JAR, Avstraliya, AQSh, Rossiya, Kanada, Niger, Namibiya, Fransiyada joylashgan. Uran rudalari Gabon, Shvetsiya, Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Paragvay, Ekvador, Ispaniya va boshqa qator davlatlarda ham qazib olinmoqda. Bundan tashqari, dunyoning 20 dan ortiq mamlakatida uran rudasi qazib olinadi.

XX asrga kelib energiya resurslari ko'mir, neft va tabiiy gaz bilan birgalikda *noan'anaviy energiya* manbalaridan, yadro va suv resurslaridan keng foydalanish yo'lga qo'yildi. Jahon sanoat ishlab chiqarishida noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish muammosi muhim o'rin tutadi. Noan'anaviy energiya manbalariga dengiz va okean to'liqlaridan olinadigan energiya, shamol energiyasi, yerning geotermal energiyasi, bu hozirda dunyoning 90 ta mamlakatida mavjud, uchinchisi quyosh energiyasi. Jumladan, quyoshdan yerga tushayotgan 0,01 foiz energiya, energiya resurslariga bo'lgan barcha ehtiyojni ta'minlagan bo'lardi.

*Elektroenergetika* olishga asoslangan quvvatli elektrostansiyalar tezlik bilan o'smoqda. Asosiy elektroenergiyani (60 foiz) neft, gaz, k o'mir, yonuvchi slanetsga tayanadigan issiqlik elektrostansiyalari (IES) beradi. Gidroelektrostansiyalar 20 foiz, atom elektrostansiyalari

17 foiz, noan'anaviy elektr energiya manbalari 3 foiz elektr energiyani berishadi. Germaniya, Polsha, JAR, Ukraina, Belorussiya, Daniya, Gretsiya, Niderlandiya, Italiyada asosiy elektroenergiya shulardan olinadi. Boshqa davlatlar energobalansida AESlarning ham hisssasi bor. Masalan, Fransiya barcha elektroenergiyaning 75 foizi, Belgiya va Yaponiyada esa yarmi AESga to'g'ri keladi. Dunyoda yillik elektroenergiya ishlab chiqarish 12 trln kvt soatdan oshib ketdi. Asosiy yirik elektroenergiya ishlab chiqarish AQSh (25 foiz), Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiya, Braziliya, Norvegiya, Hindistonda yo'lga qo'yilgan.

O'tgan asrning 60-80 yillarida atom energetikasi tezlik bilan rivojlandi. 80 yillarning oxirida dunyoda 335 ta atom reaktorlari 300 mln kvt. quvvat bilan ishlar edi. 1999 yilda dunyoning 28 ta davlatida 351 kVt quvvatiga ega 434 ta AESning energoblokida energiya ishlab chiqarilgan. AQSh (quvvati 85 mln kVtga yaqin), Fransiya (50 mln kVt), Yaponiya (bu yerda 43 atom reaktorlari umumiy quvvati 35 mln kVt bilan ish olib boradi), Germaniya, Rossiya, Shvetsiya, Ispaniya, Ukraina, Qozog'iston, Armaniston, Braziliya, Chili, Argentina, Peru, Urugvay, Kuba, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, JAR, Hindiston, Pokiston, Litva, Sloveniya va boshqa qator davlatlarda atom elektr stansiyalari ishlab turibdi. AESlarga qiziqish Lotin Amerikasi, janubiy, janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida hamon yuqori. Aksariyat, Yevropa davlatlarida esa aksincha, hatto 1998-yil 1-iyulda Shvetsiyada «Barsebek» AESi o'z ish faoliyatini to'xtatgan. Ko'pgina mamlakatlarda gidroenergetika tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bunday davlatlarga Yevropadagi Avstriya (ishlab chiqarilayotgan barcha elektroenergiyaning 2/3 qismini beradi), Portugaliya taxminan (40%), Lyuksemburg (58%), Shveysariya (70%), Norvegiya (99%) kiradi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari energetika xo'jaligida GESlar asosiy rol o'ynaydi. Masalan, Braziliyada ishlab chiqarilayotgan barcha elektroenergiyaning 80 foizini, Surinamda 75 foiz, Kolumbiyada 70 foiz, Peru, Chili, Boliviya 50-55 foizini GESlar beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'pgina davlatlarda noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Xitoy, Fransiya, Kanada, AQSh, Rossiyada to'liq inergiyasidan foydalanish

rivojlangan bo'lsa, shamoldan energiya olish AQSh, Belgiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiyada keng yo'lga qo'yilgan. Geotermal energiya ishlab chiqarish manbalari AQSh, Meksika, Islandiya, Italiya, Yaponiya, Vengriya, Rossiya, Filippin, Yangi Zelandiya, Markaziy Amerikada yo'lga qo'yilgan. Energiya resurslari va ulardan foydalanishda birlamchi energiya manbalari neft, ko'mir, gaz, yadro yoqilg'isi, noan'anaviy energiya manbalariga talab oshib boraveradi. Jahon iqtisodiyoti instituti olimlarining prognoziga ko'ra 1995-2017 yillarda birlamchi energiya manbalari iste'moli 1,7 martaga ortdi. Aksincha, iste'molda neftning hissasi kamayib, gazniki o'sishi, ko'mirniki esa hozirgi miqdorda saqlanib qolinishi kutilmoqda.

*Metallurgiya-mashinasozlik sanoati.* Metallurgiya sanoat tarmog'i hamisha ikkita, ya'ni qora va rangli metallurgiyaga ajratilgan (maktab darsliklarida batafsil ma'lumot berilgan). Qora metallurgiya tarmog'iga kiruvchi temir rudasi 50 ga yaqin mamlakatlarda qazib olinadi. Dunyoning yetakchi metallurgiya markazlari G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiya va Yaponiya hisoblanadi. Yaponiya metallurgiyasi to'liq import temir rudasiga tayanadi. Qora metallurgiya oxirgi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga kengayib, o'sib bormoqda. Braziliya va Hindiston po'lat quyish bo'yicha Yevropa mamlakatlarini quvib o'tdi.

*Rangli metallurgiyada* rangli metallar ikkiga og'ir va yengilga ajratiladi. Og'ir rangli metallar ko'p miqdorda yoqilg'i, xomashyo va suvni talab etsa, yengil rangli metallarga juda ko'p elektr-energiyasi zarur. Masalan, 1 tn. alyuminiy olish uchun 16-18 ming kVt. soat elektro-energiya sarflanadi. Shu boisdan, alyuminiy ishlab chiqarish korxonalari arzon elektroenergiya manbalariga yaqin joylashtiriladi. AQSh, Yaponiya, Rossiya, Kanada, Germaniya, Norvegiya, Fransiya, Italiya asosiy alyuminiy ishlab chiqaruvchi davlatlardir. Ko'p miqdorda mis qazib oluvchi va ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga Chili, Peru, Zambiya, Kongo (Kinshasa), Rossiya, AQSh, Xitoy, Qozog'iston kiradi.

Jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i *mashinasozlik* hisoblanadi. Unga barcha sanoat mahsulotining 1/3 qismi to'g'ri keladi.

Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, aviasozlik, temiryo'l mashinasozligi, kemasozlik),

qishloq xo'jaligi, energetika, stanoksozlik, priborsozlikdir. Mashinasozlik davlatlarning ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilaydi, shu boisdan ham bu tarmoq unda band bo'lganlar va mahsulot narxi bo'yicha Jahon sanoatida birinchi o'rinni egallaydi. Dunyoda mashinasozlik asosan to'rtta mintaqada: G'arbiy Yevropa, AQSh, Yaponiya va Sharqiy Yevropada rivojlangan. Yiliga Jahonda taxminan 50 mln. dona avtomobil ishlab chiqariladi, uning katta qismi yengil avtomobillardir. Oxirgi yillarda AQSh va Yaponiya avtomobilsozlik bo'yicha o'zining yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda, ya'ni yiliga 22 mln. dona avtomobil ishlab chiqaradi. Germaniya va Fransiya dunyo bozoriga 8,5 mln. dona avtomobil yetkazib beradi. Hozirda Lotin Amerikasi davlatlari yiliga 2,5 mln. dona avtomobil ishlab chiqarish bilan ushbu davlatlarga etib olishga harakat qilishmoqda. «Ford», «Djeneral motors», «Kraysler» (AQSh), «Nissan», «Xonda», «Toyota» (Yaponiya); «Folksvagen», «Daymler-Bens» (Germaniya); «Fiat» (Italiya); «Reno» i «Pejo-Sitroen» (Fransiya) kabi avtomobil konsernlari va firmalari dunyoga mashhur. Dunyo kemasozligida Yaponiya (Jahon ishlab chiqarishining 52 foizi), AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Norvegiya, Germaniya, Buyuk Britaniya yetakchi hisoblanadi.

Jahon industriyasining yangi tarmog'i elektron sanoati hisoblanadi. Elektron sanoati ko'pgina mamlakatlarda mashinasozlik sanoatidan keyin yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bularga Osiyodagi Singapur, Koreya Respublikasi misol bo'ladi. Elektron sanoati mashinasozlikning eng yangi ko'p bilim-ilm talab sanoat tarmog'i bo'lib, ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Aholi va o'jalikning aniq hisoblash mashinalariga, kompyuterlarga, aloqa apparaturalariga, maishiy elektron texnika buyumlariga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda AQSh murakkab elektron mashinasozlik sanoati o'ta taraqqiy etgan mamlakat hisoblanadi. Mintaqa dunyoda kompyuter soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi, masalan, har 100 ta biznesmenga 50 ta personal kompyuter to'g'ri keladi.

Yaponiya Jahonda elektron mashinasozlik rivojlanish darajasiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi. Elektron mashinasozlik sanoatining 1000 ga yaqin korxonalari Yaponiyadan tashqarida ham juda keng faoliyat

olib boradi. 500 ga yaqini Osiyoda, 150 ga yaqini AQShda, 100 tasi Yevropada va hokazo. Yaponiyaning o'zida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar, ya'ni integral sxemalar, kompyuterning yangi avlodlarini ishlab chiqarish qolgan, xolos. G'arbiy Yevropa elektron mashinasozlik sanoati rivojlanishi uchun yetarli ilmiy, moliyaviy, texnik va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqalardan biridir. Bu yerda telekommunikatsion apparaturalar, hisoblash texnikasi, turli elektron priborlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. O'tgan asrning 80-yillarida Finlyandiya va Shvetsiyada quvvatli mobil aloqa vositalari ishlab chiqarish korxonalari barpo bo'ldi. Asosan elektron mashinasozlik sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Niderlandiyada rivojlangan bo'lib, ularga jami mintaqa elektron sanoati mahsulotining 90 foizi to'g'ri keladi.

Yaponiya va Amerika janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarining qulay geografik, iqtisodiy va demografik imkoniyatlarini hisobga olgan holda XX asrning 80-yillarida o'zlarining ko'pgina elektron mashinasozlik sanoat korxonalarini, filiallarini mazkur mintaqada joylashtira boshladi. Bu esa ushbu hududlarda nafaqat sanoat tarmog'i rivojlanishiga, balki milliy kadrlar etishib chiqishiga, eksportdan yuqori daromad olishga imkon berdi.

*Kimyo sanoati* elektroenergetika va mashinasozlik bilan birga iqtisodiyotning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Kimyo sanoatining xomashyo bazasi xilma-xil bo'lib, eng avvalo tabiiy xomashyolardan foydalaniladi. Bularga, tuz, oltingugurt, neft, gaz, ko'mir, yog'och hamda qator ishlab chiqarish chiqindilari kiradi. Kimyo sanoati tog' kimyo (mineral xomashyo qazib olish), asosiy kimyo (mineral o'g'itlar, kislota, soda ishlab chiqarish), organik sintez kimyosi (polimer material mahsulotlari uchun zarur yarim fabrikat materiallar), polimer materiallar (shinalar, polietilen plyonkalari) ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Kimyo sanoati korxonalari ham xuddi mashinasozlik korxonalaridagi joylashtirish qonuniyatiga amal qiladi va mashinasozlik tarmog'i singari tarkibiga ko'ra o'ta murakkab sanoat tarmog'idir. Jumladan, tog'-kimyo xomashyo, asosiy kimyo iste'molchi va xomashyo, organik sintez kimyo ko'p suv, xomashyo, energiya manbalariga yaqin joylashtiriladi.

*Kimyo sanoati rivojlanishiga ko'ra dunyo mamlakatlari quyidagi uchta guruhga ajratiladi:*

1) kimyo sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar; AQSh, Kanada, Yaponiya, G'arbiy Yevropa davlatlari, Rossiya, Ukraina, Avstraliya, Xitoy, Koreya, Singapur.

2) kimyo ishlab chiqarishi rivojlanayotgan davlatlar Hindiston, JAR, Jazoir, Marokko, Liviya, Misr, Pokistan, Meksika, Eron, Turkiya, Nigeriya, Qozog'iston, Turkmanistan, Ozarbayjon, Filippin, Sharqiy Yevropa va boshqa mintaqalar;

3) kimyo sanoati past darajada rivojlangan davlatlar (tropik Afrika, Okeaniya, qator Markaziy Amerika davlatlari, Nepal, Butan va boshqalar). Shuningdek, dunyoda kimyo industriyasining yirik rayonlari va markazlari ham mavjud, bularga

AQShdagi Texas, Pitsburg, Rossiyadagi Volgabo'yi, Ukrainadagi Donbass, Germaniyadagi Rur va boshqalar kiradi.

G'arbiy Yevropa kimyo sanoatida bandlar soni AQShdan 2 marta, Yaponiyadan 4 marta ko'p. Yevropada AQSh va Yaponiyaga nisbatan sezilarli darajada ko'p sintetik bo'yoqlar, yuvuvchi vositalar, boshqa tarmoqlar uchun zarur bo'lgan maxsus ximikatlar, plastmassa, sintetik kauchuk, kimyoviy tolalar ishlab chiqariladi. Xuddi shunday Shimoliy Amerika ham dunyo kimyo sanoati rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda. Bu yerda kimyo sanoati taraqqiyoti uchun yetarli shart-sharoit mavjud.

Masalan, mintaqaning tog'kimyo xomashyosiga (osh va tosh tuzi, fosforit, neft, gaz, oltingugurt boyligi), yirik energiya manbalariga egaligi, AQSh va Kanadada tarmoqni joylashtirish uchun suvning yetariligi, innovatsion texnologiya yaratish va jihozlar bilan ta'minlash uchun baquvvat ilmiy-texnika salohiyatining borligi, mashinasozlik sanoati salohiyati va uning ishlab chiqarish jihozlari bilan ta'minlash qobiliyati kabi xususiyatlari.

Yaponiya kimyo sanoati rivojlanishiga ko'ra AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Juda kam miqdorda mineral-xomashyo va yoqilg'i resurslariga tayangan holda, to'liq neft, gaz, tog' kimyo xomashyosini import qilsada, mamlakatda juda baquvvat kimyo sanoati tarkib topgan. Osiyoda yaratilayotgan kimyo sanoati mahsulotining 62 foizi Yaponiyaga to'g'ri keladi. Ammo oxirgi yillarda Xitoy va boshqa industrial davlatlarda kimyo sanoatining

rivojlanishi uning hissasini kamaytirmoqda. Biroq, Osiyo dunyoda hamon asosiy kimyo mahsulotlarini import qiluvchi mintaqa sifatida qolmoqda.

Kimyo sanoati Jahon iqtisodiyotida yetakchi tarmoq bo'lishiga qaramay, asosiy tabiiy muhitni ifloslantiruvchi, inson sog'ligiga katta xavf tug'diruvchi ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib qoladi.

Sanoatning yana bir tarmog'i bu *yengil sanoatdir*. Yengil sanoat tarmog'i aholini turli predmetlar, buyumlar bilan ta'minlovchi xilma-xil tarmoqlarni o'ziga birlashtiradi. Yengil sanoat tarmog'i qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati va mashinasozlik bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanadi. Mazkur tarmoqlar yengil sanoatni xomashyo, tabiiy va sun'iy tolalar, teri mahsulotlari, bo'yoqlar, mashina va jihozlar bilan ta'minlaydi.

Yengil sanoatning eng muhim tarmog'i to'qimachilikdir. To'qimachilik sanoati unda ishlovchilar soni bo'yicha va ishlab chiqarish hajmiga ko'ra yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, unda sun'iy, kimyoviy tolalar ishlab chiqarish bugungi kunda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Ayniqsa, dunyo bo'yicha AQSh, Hindiston, Yaponiya davlatlari eng ko'p kimyoviy tolalar ishlab chiqaradi. Bularidan keyingi o'rinlarda Osiyo yo'lbarzlari, Koreya Respublikasi va Tayvan turadi. Ip gazlama mahsulotlari ishlab chiqarish esa asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, so'zsiz bunda Hindiston yetakchi, so'ngra AQSh va Xitoy turadi.

Ipak gazlama ishlab chiqarish an'anaviy Osiyo mamlakatlariga tegishli bo'lsa, jun gazlama ishlab chiqarish AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya davlatlarida yaxshi rivojlangan. Jun gazlamani chetga eng ko'p aynan shu davlatlar eksport qiladi. Zig'ir(lyon) tolasi va undan gazlamani Rossiya, Belorussiya, Fransiya va Polshada ishlab chiqariladi. Turli gilamlar AQSh va Hindistonda ishlab chiqariladi. Ammo qo'l mehnatida yaratilgan gilam mahsulotlari Jahon bozorida eng qimmat mahsulot hisoblanadi. Dunyo bozoriga qo'l mehnatida yaratilgan gilam mahsulotlarini Eron, Afg'oniston va Turkiya davlatlari yetkazib beradi.

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarning Jahon to'qimachilik sanoatiga qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaydi. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, arzon ishchi kuchiga tayanilayotgan janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa uning ulushi



ortib bormoqda. To'qimachilik bilan baravariga tikuvchilik sanoati ham sharqqa tomon siljib, taraqqiy etmoqda. Dunyo bozorida Xitoy va Hindistonning tayyor tikilgan kiyimlari bugungi kunda Yevropa, Amerika mahsulotlari bilan raqobatlashmoqda.

*Charm va oyoq-kiyim* sanoati rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, AQSh va Italiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu davlatlar yiliga har biri 600 mln juft oyoq kiyim ishlab chiqaradi. Dunyoda arzon va sifatli oyoq kiyim ishlab chiqaruvchi Xitoy va Tayvan Jahon bozorida eksport bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi. Tabiiy mahsulotlar ichida mo'yna eng qimmatbaho hisoblanadi. Rossiya, AQSh, Xitoy va Germaniya Jahon mo'yna bozorini to'liq egallashgan. Gretsiya turli mamlakatlardan keltirilgan mo'yna parchalarini qayta ishlash bilan dunyoda dong taratgan bo'lsa, qolgan ko'pgina davlatlar sun'iy arzon mo'ynadan kiyim ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan.

Yengil sanoatning yana bir muhim tarmog'i *yuvelir mahsulotlari* ishlab chiqarish, qimmatbaho toshlarga va metallarga ishlov berishdir. Bu tarmoq AQShda, Isroil, Hindiston va G'arbiy Yevropa davlatlarida yaxshi rivojlangan.

*O'rmon sanoati* sanoatning eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalari asosan yog'och, o'rmon yaqinida, dengiz, daryo bo'ylarida, temir yo'llar atrofida joylashtiriladi. Yog'och tayyorlash shimoliy yarim sharda joylashgan Kanada, Rossiya, AQSh, Shvetsiya va Finlyandiyada yaxshi yo'lga qo'yilgan. Aholi jon boshiga yog'och tayyorlash, yog'och mahsulotlarini chetga eksport qilish, qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha Kanada dunyoda birinchi o'rinda turadi. Oxirgi yillarda janubiy Braziliya, Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi o'rmonlardan foydalanish jadallashib bormoqda. Afsuski, bu yerdagi qimmatbaho yog'ochlar, daraxtlardan mahalliy aholi faqat o'tin sifatida ishlatishadi xolos. So'ngi vaqtlarda dengiz va okeanlar orqali yog'ochni Yaponiyaga eksport qilish yo'lga qo'yildi. *Mebel* ishlab chiqarish o'rmon sanoatining boshqa tarmoqlariga nisbatan birmuncha farqli ravishda joylashtirilgan. An'anaviy mebel mahsulotlarini AQSh va G'arbiy Yevropa ishlab chiqaradi. Ofis mebellari ishlab chiqarish va uni Yaponiya hamda Yevropaga eksport qilish bo'yicha Xitoy birinchi o'rinda turadi.

*Dunyo qishloq xo'jaligi.* Qishloq xo'jaligi-Jahon xo'jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri. Aholi ehtiyojini oziq-ovqat

mahsulotlari bilan, sanoatni xilma-xil xomashyo bilan ta'minlovchi, milliy ishlab chiqarish va aholi bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida aholining bandligi bo'yicha rivojlangan davlatlar rivojlanayotgan davlatlardan farq qiladi. Masalan, Osiyo va Afrika davlatlarida aholining taxminan 3/5 qismi, Janubiy Amerika va Okeaniyada 1/5, Yevropa va Shimoliy Amerikada 1/10 qismi band. Dunyodagi iqtisodiy faol aholining deyarli yarmi mehnat qilayotgan qishloq xo'jaligi Jahon eksportining 1/10 ga yaqini beradi.

Qishloq xo'jaligi asosan dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. *Dehqonchilik tarmog'i* oziq-ovqat va nooziq-ovqat ahamiyatga ega bo'lib, o'z navbatida, donchilik

(bug'doy, sholi, makkajo'xori, suli, boshoqlilar va boshqalar), texnika (qand lavlagi va shakar qamish, kungaboqar, yeryong'oq, paxta tolasi, jun va boshq.), sabzavot va poliz, kartoshka, ko'p yillik ekinlarga (bog'lar, uzumzorlar, mevalar, kauchuk plantatsiyalari) ajratiladi.

*Chorvachilik* – qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik baliqchilik va baliq xo'jaligidan iborat.

*Qishloq xo'jaligi ikkita yo'l bilan, ya'ni intensiv va ekstensiv yo'l bilan rivojlantiriladi.*

**Intensiv yo'l** – fan va texnologiya bilan eng so'nggi yutuqlarini qo'llagan holda, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish, chorvachilikda samaradorlikka erishish orqali rivojlantirish. Intensiv yo'l rivojlangan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yuqori darajada qayta ishlash, saqlash mexanizatsiyalash, kimyolash ishlari amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika taraqqiyoti o'tgan asrning ikkinchi yarmidan juda jonlandi. 60-yillardan ushbu tarmoqni kimyolashtirish boshlandi, ya'ni mineral o'g'itlarni qo'llash, o'simliklarni kimyoviy yo'l bilan himoyalash, 80-yillardan rivojlangan davlatlarda biotexnologiya, gen injeneriyasi, kompyuterlash, hatto robotlash ishlari yo'lga qo'yildi. Kimyolashtirish asosan qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlarni qo'llash, ekinlarni kimyoviy himoyalashga qaratilgan bo'lib, shu yo'l bilan ekinlar hosildorligini oshirish, yer unumdorligiga erishish maqsad qilib belgilandi. XX asrning ikkinchi yarmidan mineral o'g'itlarni ishlatish 10 marta ko'paydi.

Natijada, 1kg.mineral o'g'it ishlatish ekinlar hosildorligining donli ekinlarda 8-12 kg, moyli ekinlarda 4-8 kg, qulupnayda 30-50 kg ortishiga olib keladi.

Mineral o'g'itlarni ishlatish rivojlanayotgan davlatlarda tezlik bilan o'sib, ya'ni hatto Osiyo Yevropa va Shimoliy Amerikani quvib o'tib, dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Osiyo qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar ishlatish Xitoy hisobiga (oxirgi 10 yilda Xitoyda 2 martaga ortdi) o'sdi. Shu vaqtning o'zida sobiq SSSR davlatlarida bu ko'rsatkichda pasayish ro'y beradi. Ekin ekiladigan yerga mineral o'g'it solish bo'yicha G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya yetakchi o'rinni egallaydi, Jumladan, 1 gektar yerga Niderlandiyada-770 kg, Buyuk Britaniyada 350 kg va Yaponiyada 450 kg o'g'it solinadi.

Mexanizatsiyalash ixtisoslashishga, tabiiy sharoiti va qishloq xo'jaligi korxonalarining sotsial-iqtisodiy holatiga chambarchas bog'liq. Hozirda dunyo bo'yicha traktorlar miqdori ortdi, ya'ni Osiyoda (7 marta), ayniqsa, Hindistonda va Xitoyda ko'paygan. Mexanizatsiyalash bo'yicha Yevropa birinchi, Osiyo ikkinchi o'rinda.

**Ekstensiv** yo'l ekin maydonlarini kengaytirish, qoramollar sonini oshirish hisobiga qishloq xo'jaligini yuritishdir. Hozirda dunyo yer fondining 35 foizi qishloq xo'jaligi va turli oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan band.

Turli maqsadlarda ishlatiladigan eng qimmatbaho va hosildor yerlar 1,5mlrd.ga bo'lib, ular sifatiga, samaradorligiga ko'ra materiklar miqyosida notekis taqsimlangan. Dunyo bo'yicha, taxminan har bir kishiga 0,3 ga ekin maydoni to'g'ri keladi, shundan Osiyoga 31 % (0,15 ga) bo'lib, bu eng kichik ko'rsatkich. Sababi, Osiyoda 1 ga yer 7 kishini boqishi kerak. Aholisi zich joylashgan Yevropada 1 ga yer 4 kishini boqadi, Janubiy Amerikada-2kishiga, Shimoliy Amerikada1,5 kishiga to'g'ri keladi. Osiyoda 4,3 mlrd aholi yashaydi, umumiy yer maydonining 18 foizi haydaladigan yerlar, shu boisdan ham jon boshiga yer maydoni kichikdir. Yevropada dehqonchilikni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit eng qulay, yer maydoni sezilarli darajada o'zlashtirilgan, ammo aholisi o'ta zich joylashgan, aholi jon boshiga yer miqdori Osiyoga nisbatan ko'p.

Afrika va Janubiy Amerikada qayta ishlanadigan yer maydoni juda kam, o'zini - o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay

olmaydi. Afrikada umumiy yer maydonining 6%, Janubiy Amerikada 8%, haydaladigan yerlar. Bu haydaladigan yerlardan ham bir xil foydalanilmaydi. Ko'pgina rayonlarda sug'oriladigan yer maydoni kengayib bormoqda. Oxirgi 25 yilda ekin ekiladigan yer maydoni 140 million gektarga, ya'ni 10 foizga o'sdi, aholi esa 50 foizga ortdi. Ko'payib borayotgan aholini faqat qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanmoqda.

Yaylovlarni asta - sekinlik bilan haydaladigan yerlar egalladi. Bunday yerlar o'rmonlar, hosildorligi past yaylovlar hisobiga o'rtacha yiliga 5-10 million gektarga ortib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda 1ta traktor o'rtacha 34 gektar yerni qayta ishlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlarda, bu ko'rsatkich 620 gektar, Hindistonda 3000 gektarga teng. Uchinchi dunyo davlatlarida hamon dala ishlari qo'lda amalga oshiriladi. Shu boisdan ham bu mamlakatlarda 1 gektar yer past darajada 0,61 kishini, o'rtacha darajada 2,1 kishini, yuqori darajada 5,05 kishini boqadi. *Dehqonchilik.* Qishloq xo'jaligining asosini don ishlab chiqarish tashkil etadi.

Har yili dunyo bo'yicha 2,5 milliard tonna don mahsuloti yig'ib olinadi, qayta ishlanadigan yerlarning yarmini donli ekinlar egallaydi. Donli ekinlarning uchta asosiy turi ajratiladi: bug'doy (don yalpi mahsulotining 28 foizini), sholi (26 foiz) va makkajo'xori (25 foiz). Bug'doy dunyoning 70 ta mamlakatida yetishtiriladi. Asosiy don yetishtiruvchi davlatlar AQSh, Xitoy, Ukraina, Rossiya, Qozog'iston, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Argentina, Fransiya hisoblanadi. Bug'doy eksport qiluvchi davlatlarga AQSh, Kanada, Avstraliya, Argentina, Fransiya kiradi. Don va don mahsulotlari tannarxiga ko'ra Jahon qishloq xo'jaligi tovar aylanmasida go'sht va go'sht mahsulotlaridan s'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Dunyo don xo'jaligi geografiyasida o'zgarishlar ro'ybermoqda. Osiyo hozirda jami don mahsulotining teng yarmini bermoqda.

Donli ekinlardan ikkinchisi – bu makkajo'xori ekinidir. Makkajo'xori Shimoliy Amerika hindularining oziq-ovqati bo'lgan bo'lsada, keyinchalik butun dunyoga, nafaqat, oziq-ovqat, balki ozuqa va texnika ekini sifatida tarqalgan. Hozirgacha ham Shimoliy Amerika makkajo'xori eng ko'p ekiladigan mintaqalardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo makkajo'xori hosilining 40 foizi, Jahon eksportining 75 foizi

AQShga to'g'ri keladi. Ammo shunga qaramasdan, oxirgi yillarda bu ekin turi bo'yicha, Osiyo davlatlari salmog'i biroz ortib bordi va Jahon makkajo'xori mahsulotining  $\frac{1}{4}$  bera boshladi. Yer sharidagi yirik makkajo'xori yetishtiruvchi davlatlarga AQSh, Xitoy, Braziliya, Meksika, Ruminiya va Fransiya kiradi.

Makkajo'xorini \* asosan Yaponiya, Koreya Respublikasi, Malayziya va G'arbiy Yevropa davlatlari (Ispaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya) sotib olishadi. Asosiy sholi yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, Bangladesh, Indoneziya, Yaponiya, Tailand, Myanma, Vetnam, Fillipin va Janubiy Koreyadir. Shuningdek, AQSh, Meksika, Braziliya va O'rta Osiyoning ba'zi respublikalarida ham sholi yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Qandaylari mo'tadil kengliklar ekini bo'lib, uni asosan Fransiya, Ukraina, Rossiya, AQSh, Polsha, Germaniya, Vengriya, Italiya va Xitoy yetishtiradi.

Shakarqamish bundan farqli ravishda tropik kengliklarda, eng avvalo Lotin Amerikasi-Braziliya, Kuba, Meksika, Kolumbiya hamda Osiyo davlatlari, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Indoneziyada o'stiriladi. Rivojlangan davlatlardan AQSh va Avstraliyada yirik shakarqamish plantatsiyalari mavjud.

Paxta tolasi qadimda Hindiston va Meksikada ekin sifatida kiritilgan. Bu issiqni, namni sevuvchi mo'tadil iqlim mintaqasining ekini tuproqqa, o'g'it va sug'orishga alohida e'tibor talab qiladi. Dunyoda yiliga 20 mln tonna paxta tolasi yetishtiriladi. Yetakchi paxta tolasi ishlab chiqaruvchilarga: Xitoy (jami dunyo mahsulotining 25 foizi) AQSh, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Turkiya, Misr, Avstraliya va O'rta Osiyo respublikalari, xususan, O'zbekiston kiradi. Asosiy paxta tolasini chetga eksport qiluvchi davlatlar birinchi o'rinda AQSh (Jahon eksportining  $\frac{1}{4}$ ), O'zbekiston esa uchinchi o'rinda. An'anaviy uzun tolali Misr paxtasi qimmatligi jihatdan alohida ajralib turadi. Ko'pgina davlatlarda o'rta tolali paxta yetishtiriladi. Moyli ekinlardan eng muhimi kungaboqar (Rossiya, Ukraina, Bolgariya, Qozog'iston, Vengriya, Ruminiya), soya (AQSh, Xitoy, Braziliya, Meksika), yeryong'oq (G'arbiy Afrika, Hindiston) ham dunyo bo'yicha ko'p miqdorda ekiladi. Shuningdek, yer sharida choy ishlab chiqarish (3mln tonna) Hindistonda, Xitoyda, Shri-Lankada, Keniyada, Indoneziyada, Turkiyada, Yaponiyada, Eronda, Bangladesh, Gruziya, va Rossiyada, kofe esa (yer shari bo'yicha 3 mln tonna kofe ishlab chiqariladi)

Braziliya, Kolumbiya, Indoneziyada, Meksika, Gvatemala, Efiopiya, Uganda, Hindiston va Kosta- Rikada yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Amerikaliklar ekini bo'lgan kartoshka mo'tadil mintaqada yetishtiriladi. Uni ozuqa sifatida, spirt va kraxmal olishda keng foydalanishadi. Bundan tashqari, hozirgi kungacha kartoshka kambag'al aholining eng muhim oziq-ovqati bo'lib xizmat qilib kelmoqda. 90- yillargacha kartoshka Rossiya, Polsha va Xitoyning asosiy ekini bo'lib kelgan bo'lsa, keyinchalik Xitoy yetishtirish bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi.

Issiq talab janubiy amerikaliklar ekini bo'lgan tamaki mo'tadil iqlim mintaqasida ko'plab yetishtiriladi. Ammo shunga qaramasdan, yer sharining barcha mintaqalarida tamaki ekiladi. Inson sog'lig'iga tamakining salbiy ta'siri keng targ'ib qilinishiga qaramay, uni yetishtirish sezilarli qisqarganicha yo'q. Tamaki sanotida va xalqaro savdoda Angliya va Amerikaning yirik kompaniyalari hukmronlik qilishadi. Tamakichilik Osiyoda (dunyo hosilining 3/5), Shimoliy va Janubiy Amerikada, Sharqiy va G'arbiy Yevropada keng rivojlangan. Asosiy tamaki eksport qiluvchi davlat AQShdir.

Tabiiy kauchuk olish XIX asrdan yo'lga qo'yilgan bo'lib, qishloq xo'jaligining yangi tarmog'i hisoblanadi. Dastlabki davrlarda bu ekin Janubiy Amerikada ekilar edi, keyinchalik kontrabanda yo'li bilan Osiyoga keltirilgan. Avtomobil sanoatining keng taraqqiy etishi tropik mintaqalarda kauchuk plantatsiyalarining Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikada keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Sun'iy kauchuk ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi tabiiy kauchukka nisbatan 3 marta ko'p mahsulot ishlab chiqarish ortishiga olib keldi. Natijada, hozirda tabiiy kauchuk yetishtirish geografiyasi o'zgardi. Dunyodagi jami kauchukning 9/10 qismi Osiyoda, qolgani Afrika va Janubiy Amerikada yetishtiriladi.

*Chorvachilik.* Qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i chorvachilik bo'lib, u jami dunyo qishloq xo'jaligi mahsulotining 1/5 ni beradi. Asosiy chorva mahsulotlarini rivojlangan mamlakatlar yetkazib beradi va o'z navbatida, import qiluvchi davlatlar sirasiga ham aynan ular kiradi. Chorva mollarining bosh soni dunyoda 4 milliardni tashkil etadi. Eng ko'pi yirik shoxli qoramollardir. Ular chorva mollarining 1/3 ga to'g'ri keladi. Asosiy yirik shoxli qoramollar joylashgan

mintaqalarga Hindiston, Braziliya, AQSh, Xitoy, Rossiya, Argentina, Ukraina kiradi.

O'zbekistonda chorvachilik muhim o'rin egallaydi. Shuni aytish lozimki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, so'ngra dehqonchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

*Yirik shoxli qoramollaryer* sharida ishlab chiqarilayotgan sutning 90 foizini, go'shtning 1/3 ni beradi. Yirik shoxli qoramollarning eng ko'p joylashgan joyi Hindiston bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmigacha ikkinchi o'rinni AQSh egallab kelgan edi, keyinchalik sobiq SSSR davlatlari egalladi.

Sut chorvachiligi yer sharining asosan mo'tadil mintaq, o'rmon va o'rmon dasht rayonlarida, tabiiy o'tloqlarga boy, yog'ingarchilik bir xil bo'lib turadigan, suvli ozuqa manbalarida yaxshi rivojlangan. Sut chorvachiligi sanot jihatdan taraqqiy etgan Shimoliy Amerika, Shimoliy Yevropa, Yangi Zelandiya va boshqa qator davlatlarda (Boltiqbo'yi davlatlari, Belorussiya, Rossiya, Yangi Zelandiya) nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda sut chorvachiligi intensiv ravishda rivojlantirishga asoslanadi. Shu boisdan ham sut chorvachiligida yuqori hosildorlikka erishilmoqda. AQSh, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiyada sut sog'ib olish 1 ta sigirdan 6 ming kg, Yaponiyada 5 ming kg, Rossiyada 2,8 ming kg, Argentinada 2,6, Xitoyda 1,6, Mongoliyada 0,35 ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlarda sut chorvachiligi asosan tog' oldi zonalarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sigirlardan yiliga 500 million tonna sut sog'ib olinadi yoki kishi boshiga 100 kg dan kam. Kishi boshiga sut ishlab chiqarish bo'yicha Yangi Zelandiya birinchi o'rinda turadi (2400 kg), Irlandiya (1500 kg), Niderlandiya (900kg), Belorussiya (700kg), Daniya (500kg), Fransiya (490kg), Germaniya (450kg) ham bu sohada yetakchi davlatlar sirasiga kiradi.

Yirik shoxli qoramollarga dunyoda yetishtirilayotgan go'sht mahsulotining 30 foizi to'g'ri keladi. Mol go'shti yetkazib beruvchi yetakchi davlatlar Avstraliya, Braziliya, Niderlandiya, Kanada, AQSh va Argentina hisoblanadi.

Cho'chqachilik, ko'pgina davlatlarda rivojlangan, cho'chqa bosh soni bo'yicha Xitoy birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, AQSh, Rossiya, Polsha, Germaniya, Braziliya, Meksika, Ispaniya, Fransiya, Ukraina davlatlarida ham cho'chqachilik yaxshi rivojlangan.

Musulmon davlatlarida din ta'qiqlaganligi munosabati bilan cho'chqa boqilmaydi. Cho'chqachilik dunyo go'sht mahsulotining 40 foizini va ma'lum bir miqdordagi teri mahsulotlarini beradi. Xitoy, AQSh, Braziliya, Meksika, GFR, Polsha, Rossiya, Ukraina, Yaponiyada cho'chqalar bosh soni ko'p. Yer sharida cho'chqa go'shtini chetga asosan Niderlandiya, Polsha va AQSh eksport qiladi.

Dasht va chala cho'l zonalarida hamda tog' oldi mintaqalarda qo'ychilikning muhim areallari joylashgan. Qo'ylarning dag'al junli, mayin junli, yarim dag'al junli turlari ajratiladi. Dunyoda 1 milliard bosh qo'y soni mavjud bo'lib, ular Avstraliya,

Yangi Zelandiya, Xitoy, Qozog'iston, Rossiya, Argentina, Urugvay, Ispaniya, Gretsiya, Buyuk Britaniya, Mongoliya, Marokko, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya davlatlarida tarqalgandir. Yer yuzining dasht, quruq dasht, chala cho'l va tog'li rayonlarida bu tarmoqning ozuqa bazasi yaxshi rivojlangan. Qimmatli qorako'l junini beradigan qorako'l qo'ylari dunyoning ayrim mintaqalarida boqiladi, xolos. Bularga, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina va JAR kiradi.

Chorvachilikning kuchsiz rivojlangan tarmog'i bo'lgan echkichilik rivojlanayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan. Jahonda, echkilar soni 700 milliondan ortadi, eng ko'p echkilar Xitoy va Hindistonda boqiladi. Shuningdek,

Eron, Pokiston, Bangladesh kabi Osiyo mamlakatlarida ham echkilar bosh soni ko'p.

XX asrning ikkinchi yarmidan parrandachilik dunyoda tezlik bilan rivojlanmoqda, birgina tovuqlarning soni yer yuzida 14 milliard boshga yaqin.

Dunyoda ishlab chiqarilayotgan go'shtning 20 foizini parrandachilik tarmog'i beradi. AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda sanoat tipidagi yirik korxonalar jo'janing go'shtga mo'ljallangan turini, ya'ni broyler jo'jalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Xitoyda, AQShda tovuqlar bosh soni eng ko'p, shuningdek, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Meksika ham tovuqlar soni bo'yicha yetakchi davlatlarga kiradi.

Jahon xo'jaligida baliqchilik eng qadimgi tarmoqlardan hisoblanadi. Bu sohada 13 million kishi band. Jahon bo'yicha baliq va baliq mahsulotlarini tutish 80-90 million tonnani tashkil etadi. Asosiy baliq



mahsulotlarini (55-60 foiz) Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Koreya, AQSh, Chili, Peru, Norvegiya, Islandiya, Vetnam, Malayziya, Fillipin beradi. 90 foiz baliqlar yer sharining kontinental shelf zonasidan tutib olinadi.

### 12.3. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga otganidan buyon tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakatning o'z elchixonasi ochilgan.

12.2-jadval.

**Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi<sup>51</sup>**  
(amaldagi narxlarda; mlrd.so'm)

|                                 | 2015            | 2016            | 2017             | 2018             | 2019             | 2020             |
|---------------------------------|-----------------|-----------------|------------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b> | <b>71 184,1</b> | <b>88 071,6</b> | <b>105 229,9</b> | <b>133 195,2</b> | <b>166 094,4</b> | <b>194 843,5</b> |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 2 397,7         | 2 950,4         | 3 527,8          | 4 496,8          | 5 705,8          | 6 604,6          |
| viloyatlar:                     |                 |                 |                  |                  |                  |                  |
| Andijon                         | 5 564,3         | 6 777,8         | 8 124,9          | 10 367,9         | 12 704,3         | 14 574,4         |
| Buxoro                          | 4 481,8         | 5 611,9         | 6 578,5          | 8 375,1          | 10 309,2         | 11 811,9         |
| Jizzax                          | 2 320,5         | 2 912,3         | 3 442,8          | 4 373,4          | 5 883,0          | 7 159,1          |
| Qashqadaryo                     | 5 042,8         | 6 202,9         | 7 187,3          | 8 818,5          | 10 639,7         | 12 458,0         |
| Navoiy                          | 3 001,9         | 3 684,7         | 4 348,5          | 5 436,3          | 6 776,0          | 7 775,0          |
| Namangan                        | 4 166,7         | 5 253,4         | 6 334,2          | 7 829,0          | 9 962,2          | 11 531,9         |
| Samarqand                       | 6 078,2         | 7 605,2         | 8 973,5          | 11 123,1         | 13 877,3         | 16 555,1         |
| Surxondaryo                     | 4 766,4         | 6 015,1         | 7 149,0          | 8 846,2          | 11 055,7         | 12 352,6         |
| Sirdaryo                        | 1 246,5         | 1 547,4         | 1 836,8          | 2 295,5          | 2 872,6          | 3 587,1          |
| Toshkent                        | 7 663,3         | 9 223,0         | 11 149,5         | 14 101,0         | 17 420,0         | 21 073,4         |
| Farg'ona                        | 6 150,8         | 7 655,7         | 9 020,4          | 11 277,6         | 13 744,3         | 15 771,8         |
| Xorazm                          | 2 723,5         | 3 365,9         | 3 948,5          | 5 269,2          | 6 915,5          | 7 911,1          |
| Toshkent sh.                    | 15 579,7        | 19 265,9        | 23 608,2         | 30 585,5         | 38 228,9         | 45 677,4         |

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

- o'zaro manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;
- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

**Tashqi savdo aylanmasi.** 2020-yil yanvar - mart oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 8 140,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 924,1 mln. AQSh dollariga yoki 10,2 % ga kamaydi. TSA da eksport hajmi 3 374,7 mln. AQSh dollariga (10,9 % ga kamaydi) va import hajmi 4 765,7 mln.

AQSh dollariga (9,7 % ga kamaydi) etdi . Hisobot davrida –

1 390,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.<sup>52</sup>

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab – quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora -tadbirlar natijasida,

---

<sup>52</sup> [https://stat.uz/uploads/doklad/2020/yanvar-mart/uz/13.Tashqi\\_iqtisodiy.pdf](https://stat.uz/uploads/doklad/2020/yanvar-mart/uz/13.Tashqi_iqtisodiy.pdf)

2020 yilning yanvar - mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi o'tgan yilga nisbatan ulushi 2,5 % ga oshgan.

Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020 yilning yanvar -mart oylarida MDH davlatlariga nisbatan kamaydi (13,6 % ga kamaydi) va jami TSA dagi ulushi 63,8 % ni tashkil etdi. Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iz, Tojikiston va Afg'oniston bilan oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor -davlatlar orasidan yettita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (151,1 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (121,2 mln. AQSh dollari), Tojikiston (78,8 mln. AQSh dollari), Turkiya (62,3 mln. AQSh dollari), Eron (16,4 mln. AQSh dollari), BAA (15,7 mln. AQSh dollari) va Frantsiya (10,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 13 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston, jahonning 150 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya

Federatsiyasida (16,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (16,8 %), Qozog'istonda (8,3 %), Koreya Respublikasida (6,7 %), Turkiyada (5,8 %), Qirg'iz Respublikasida (2,3 %) va Germaniyada (2,1 %) qayd etilgan.

**Eksport.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida mamlakatning eksportyorlar soni 3298 tani tashkil etib, ular 2 368,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta'minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 81,4 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,7 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (9,0

%), oziq -ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.<sup>53</sup>

**Import.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi pasayishini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 4 765,7 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asBOB - uskunalari (36,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (16,1 %) hamda xizmatlar (9,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 480,1 mln. AQSh dollariga kamaydi va 4 310,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 454,8 mln. AQSh dollariga etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmlarining kamayishiga shakar va shakar xom ashyosi (39,1 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (20,8 % ga), ichimliklar (18,5 % ga), sabzavotlar va mevalar (5,8 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.<sup>202</sup>

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar importi kamayishiga esa, neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar importining kamayganligi (7,6 %) bevosita ta'sir etgan.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Jahon xo'jaligida hududning o'zlashtirilganlik va o'rganilganlik darajasi; transport omilining roli qanday?

2. Demografik omil(aholi soni, mehnat resurslari va uning sifat darajasi, urbanizatsiya) xo'jalik tarmoqlari rivojlanishida va joylanishida qanday ahamiyatga ega .

3. Dunyo xo'jaligidagi 'zgarishlarga baho bering.

4. Jahon sanotidagi eng yirik tarmoqlar qaysilar?

5. AES lar rivojlangan davlatlarni ko'rsating?

6. Jahon qishloq xo'jaligida kimyolashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?

7. Tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishbo'yicha yetakchi davlatlarga qaysilar kiradi?

---

<sup>53</sup>[https://stat.uz/uploads/doklad/2020/yanvar-mart/uz/13.Tashqi\\_iqtisodiy.pdf](https://stat.uz/uploads/doklad/2020/yanvar-mart/uz/13.Tashqi_iqtisodiy.pdf) 202 O'sha manba.

## **13-BOB. MINTAQALAR TARAQQIYOTINI PROGNOZLASH VA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI**

### **13.1. Mintaqalarni rivojlantirish strategiyalari. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilish va prognozlash mintaqaviy rivojlanishni boshqarish bo'yicha tayanch nuqta hisoblanadi. Asosli prognoz orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadi belgilanadi, dasturiy choratadbirlari va mintaqaviy xo'jalik majmuasini rivojlantirishdagi ustuvorliklar aniqlashtiriladi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilish-iqtisodiyot va ijtimoiy soha holatini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mintaqaviy majmuasini rivojlantirish yo'nalishi va uning tarkibiy tuzilishini aniqlaydigan tarkibiy qismni oldindan ko'rishdir. Prognoz hisob-kitoblar natijalari davlat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsad va vazifalarini belgilash, hukumat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish va asoslash uchun foydalaniladi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozining tarkibiga jamiyat alohida tomonlari kelajagini aks ettiradigan xususiy prognozlar to'plami va mintaqa iqtisodiyoti hamda ijtimoiy soha rivojlanishini umumlashgan shaklda aks ettiradigan kompleks iqtisodiy tahlil qilish kiradi.

Xususiy prognozlarda quyidagilar baholanadi:

- mintaqadagi demografik vaziyat;
- tabiiy muhitning holati, jumladan, tabiiy qazilmalar, yer, suv va o'rmon resurslari zahiralari;
- ilmiy-texnika yutuqlarining kelajakdagi holati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati;
- asosiy ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, investitsiyalar);
- aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabining miqdori va dinamikasi;

– aholining tovar va xizmatlarning alohida turlariga bo‘lgan to‘lovga qobil talabi;

– xalq xo‘jaligi alohida tarmoqlarini, hududlar va boshqa ijtimoiy foydali faoliyat sohalarining rivojlanish sur‘atlari.

Kompleks iqtisodiy prognozda mintaqa iqtisodiyotining bir butun tuzilma sifatida rivojlanish istiqboli aks ettiriladi. Kompleks prognozni ishlab chiqish ilmiy asoslarga tayanib, ular mintaqaviy xo‘jalik majmualarining amal qilishi va rivojlanishini tegishli izohlaydi. Vaqtinchalik gorizont bo‘yicha mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining kompleks prognozlarini uch xil turga ajratish mumkin: uzoq, o‘rta va qisqa muddatli.

Uzoq muddatli prognoz o‘n yillik davrga besh yilda bir marta ishlab chiqiladi. U uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning qabul qilinuvchanligini ta‘minlash maqsadida uzoq muddatli prognoz ma‘lumotlari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘rta muddatli prognozlarini, kontseptsiya va dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘rta muddatli prognozi ma‘lumotlarni har yillik tuzatishlar bilan uch yildan besh yilgacha bo‘lgan muddatlarga ishlab chiqiladi. U o‘rta muddatli istiqbol doirasida iqtisodiyotni rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uzoq va o‘rta muddatli prognoz hisob-iktoblari ma‘lumotlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiyalari bilan umumiy tanishtirish maqsadida ochiq matbuotda chop ettiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qisqa muddatli prognozi har yili ishlab chiqiladi va davlat budjeti loyihasini tuzishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublika hukumati ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur deb hisoblaydigan qonun loyihalarini taqdim qiladi. Kompleks prognozning ishchi vositalari sifatida iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishida o‘tmishda vujudga kelgan jarayonlarning kelajakka ekstrapolyatsiyasi, milliy hisobchilik tizimi ma‘lumotlari asosida iqtisodiy hisob-kitoblar, tarmoqlararo balansning yangilangan modelini, iqtisodiyot real sektoriga investitsiyalar va kapital

dinamikasi modelini o'z ichiga olgan makrotarkibiy modellar tizimidan foydalaniladi. Bu model hali tugallangan ko'rinishga ega emas va faqat Perimental prognoz hisob-kitoblari uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy obyektlarni prognoz qilishga prinsip jihatdan farqlanadigan ikki xil yondoshuv mavjud:

Genetik yondoshuv – obyekt rivojlanishi tarixi oldidan tahlil qilishga asoslanadi, rivojlanish xususiyatlarini belgilaydigan asosiy omillarni qayd etadi. Shu asosda kelajakda prognoz qilinayotgan obyekt holatiga nisbatan xulosalar qilinadi. Ushbu yondoshuv ko'p darajada kechayotgan jarayonlarning “begona kuzatuvchilari”ga xosdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadli tuzilishi mazkur yondoshuvda alohida rol o'ynamaydi. N.D.Kondratevning “uzun to'lqinlar” nazariyasi mazkur yondoshuvga yaqqol misol bo'la oladi.

Teleologik yondoshuv (grekcha telos - maqsad so'zidan olingan) – iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarning faol ishtirokchilariga ko'proq xos. U mazkur obyekt rivojlanishining maqsadli tuzilishi va qo'yilgan vazifalarga uning yaqinlashish darajasiga asoslanadi. Iqtisodiyotni prognozlashga ushbu yondoshuvning tarafdori va namoyandasi S.G.Strumilin hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning metodologik va uslubiy muammolari davlat prognozlarni ishlab chiqishni topshirayotgan tashkilotlarning alohida huquqlari hisoblanadi. Xususan, yig'ma iqtisodiy prognoz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi. Aynan u prognozlarni ishlab chiqish uslubi va uslubiyatiga javobgardir.

Mintaqani kompleks iqtisodiy prognozlashni ishlab chiqish ikkita maqsadni ko'zlaydi:

Birinchidan, u mintaqa hokimiyatiga iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak.

Ikkinchidan, uning ko'rsatkichlari mintaqa budjeti loyihasi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat prognozlashi O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati tegishli organlari tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga tayanadi. Ma'lumotlarni taqdim qilish bo'yicha asosiy organ Davlat statistika qo'mitasi hisoblanib, u o'zining mintaqaviy organlari tarmog'i orqali birlamchi ma'lumotlarni to'playdi, ularni umumlashtiradi va rasman

chop etadi. Boshqa vazirlik va idoralar ularni yuritish sohalari bo'yicha axborotlarni taqdim qilish ustidan javobgar bo'ladi.

Milliy hisoblar tizimi iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borishning yig'ma va umumlashtiruvchi vositasi hisoblanadi. Milliy hisoblarning mintaqaviy tizimi, eng avvalo, moliyaviy resurslar oqimlari shaklida iqtisodiy jarayonlarni bir butun ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Bu esa asosan, bozor turidagi iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarning mazmunini yoritadi. U takror ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida tarmoqlar, sohalar va institutsional birliklarni umumlashtiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash bu ko'rsatkichlarni o'zaro bog'lash imkoniyatini beradi. Takror ishlab chiqarishning har bir bosqichiga maxsus hisob yoki ularning guruhi mos keladi. Bu esa ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar miqdorining hamda ishlab chiqarishdan to foydalanishgacha takror ishlab chiqarish sikli orqali qo'shilgan qiymat harakatini kuzatish imkonini beradi. Milliy hisoblar tizimi yig'ma jadvallari majmui makroiqtisodiy hisob-kitoblarni olib borishda ham, prognoz alohida bo'limlarini yagona bir butunga umumlashtirish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin.

Mintaqani rivojlantirishning strategik rejasi – bu boshqaruvchilik hujjati bo'lib, mintaqani rivojlantirish bo'yicha faoliyat turli jihatlarini o'zaro bog'liq tasvirlashdan iborat. Bunday hujjatning tayyorlanishi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- mintaqani rivojlantirish maqsadlarining qo'yilishi;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarining belgilanishi;
- potentsial imkoniyatlarni tahlil qilish bo'lib, uning natijalari muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi;
- tanlangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlarni tashkil qilish usullarini ishlab chiqish;
- resurslardan foydalanish oqilona usullarini asoslash.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejasi-bu indikativ hujjat bo'lib, u mintaq hokimiyatiga va mintaqaviy hamjamiyatga birgalikda harakatlanish imkoniyatini beradi. Bu–mutlaqo mahalliy hokimiyatninggina emas, balki ko'p darajada mintaqaviy rivojlanish jarayoni barcha subyektlarining ham, jumladan, siyosiy jarayon ishtirokchilari va iqtisodiy sheriklarning ham hujjatidir. Bu mintaq hokimiyatidan tadbirkorlar va mintaq aholisiga yuqoridan yo'naltirilgan buyruq emas, balki iqtisodiy faoliyat barcha



subyektlari ishtirokida ishlab chiqilgan mo'ljaldir. Bunday reja mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha barcha sub'ektlarning tortilgan va kelishilgan harakatlarini ko'zda tutadi. U sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish vositasini, mintaqa hayotining barcha sohalarida samarali strategik harakatlarni aniqlash va amalga oshirish mexanizmini o'zida mujassamlashtiradi.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategik rejasining asosiy tavsiflariga quyidagilar kiradi:

- mintaqaviy iqtisodiyotning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajratish, eng avvalo, fuqarolar hayoti uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan mintaqaning raqobatdagi ustunliklarini shakllantirish, rivojlantirish, kuchaytirishga urinish;

- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar, investorlar, istiqboldagi rivojlanishni ko'rishga asoslangan qarorlarni amalga oshirishda ularga yordam bergan holda ma'muriyat va aholini yo'naltiradigan qisqa g'oyalar va tamoyillar;

- barcha mintaqaviy kuchlarning sheriklik o'zaro aloqalari. Mintaqani rivojlantirish strategik rejasining tarkibiy qismi unga ilova qilinayotgan ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha hokimiyat harakatlarining rejasi bo'lib qolishi kerak. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategik rejasini ishlab chiqish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) mintaqaviy rivojlanish resurs asosining tahlilini o'tkazishni ko'zda tutadigan mintaqaga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining erishilgan darajasi va xususiyatlarini baholash;

- 2) mintaqaga iqtisodiyotini rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish, mintaqalararo aloqalar va o'zaro bog'liqliklar yangi tizimiga mintaqaviy xo'jalikni moslashtirish maqsadida uni modernizatsiyalash stsenariylarini ishlab chiqish;

- 3) mintaqaning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini tanlash va asoslash.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismi quyidagilar bo'lishi kerak:

- maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy, ilmiy-texnika va investitsiya siyosatini olib borish;

- iqtisodiyotni isloh qilishdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;

– iqtisodiyot real sektori ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantirish.

### **13.2. Hududiy rivojlanish strategiyalari**

Hududlarning rivojlanishini tizimli boshqarishini loyihalashtirishda rivojlanish jarayoni modelining tuzulmasini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Ushbu jarayonni oldindan prognoz qilishning iloji bo‘lmaganligi uchun ham modelni turli xil vaziyatlarda tezda moslasha oladigan tuzulma va parametrlar bilan loyihalashtirish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, modelda ishtirok etadigan tuzulma va parametrlar jarayonning o‘zgarishiga qarab tezda moslashuvchan, zaruriy paytlarda ularning o‘zi ham o‘zgara oladigan darajada bo‘lishi muhimdir. Buning uchun hududlar rivojlanishining har bir davrida tanlangan modelning parametrlari o‘zgaruvchilarning kirish va chiqishi bilan baholanishi zarur. Ma’lumki, hududiy tizim bir qancha elementlardan tashkil topadi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi ham yuqori hisoblanadi, shuningdek, elementlar o‘rtasida nofunktsional bog‘liqlik mavjud bo‘ladi, aynan ushbu aloqalar ham ularni bir butun tarzda rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Hududlarning rivojlantirish strategiyasining maqsadi davlatning mintaqaviy siyosatiga tayangan holda hududiy rivojlanishning yo‘nalishini tanlash va uni asoslash hisoblanadi. Umuman kontseptsiyani ishlab chiqish ma’lum bir kelajak (davr) uchun hudud rivojlanishining muqobil strategiyasini o‘rganish demakdir.

Hududning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish quyidagi minimum vazifalarni hal etishni talab etadi:

- strategiyani amalga oshirishni ta’minlaydigan boshqaruv tuzulmasini yaratish;

- hududning rivojlanishini boshqarish reglamentini ishlab chiqish;

- strategik rejalashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshishiga imkoniyat yaratadigan tizimning tarkibiy elementlarini yaratish; strategik rejalashtirishning amalga oshishini kuzatish (monitoringini olib borish) va qo‘shimcha o‘zgarishlarni kiritib borish.

**13.1-jadval**

**Hududni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bosqichlari.**

| <b>Strategiyani amalga oshirish bosqichi</b>                                                           | <b>Natijalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Strategik ahamiyatga molik bo'lgan faoliyat yo'nalishlari uchun resurslarni safarbar etish.</p>     | <p>Strategik rejalashtirishni amalga oshirish uchun budjetni tahlil qilish va resurslarni ajratish. Muhim va maqsadli kompleks dasturlarni tanlash va ularni moliyalashtirishni rejalashtirish.</p> <p>Hududda joylashgan tarmoqlarni buyurtmalar berish, rag'batlantirish va soliqlar orqali tartibga solish. Milliy iqtisodiyot darajasida hududning raqobatbardoshligini ta'minlash.</p> <p>Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash.</p> <p>Strategik boshqaruvda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan hududning aholisi va mehnat resurslarini rag'batlantirish, ularni qiziqtirish.</p> <p>Strategik maqsadni amalga oshirish uchun ish haqi va boshqa turdagi daromadlarni muvofiqlashtirish.</p> |
| <p>Hukumat organlarining samarali hamkorligini ta'minlash asnosida boshqaruv sistemasini yaratish.</p> | <p>Yuqori boshqaruv organining hududiy, shahar va rayon darajasida ko'ra oladigan strategiyasini shakllantirish.</p> <p>Davlat va o'z-o'zini boshqara oladigan darajada mujassam etilgan hududlarni boshqarishning yangi tuzulmasini joriy etish.</p> <p>Hududning raqobatbardoshligini namoyon etadigan (kuchli tomonlari va imkoniyatlarini) ijobiy qadriyatlarini yuzaga chiqarish.</p> <p>Strategik maqsadni amalga oshirishni ta'minlash uchun aniq va puxta kadrlar siyosatini yuritish, liderlarni saralab olish va komandani shakllantirish.</p> <p>Boshqaruvning barcha darajasida (yuqori, o'rta va quyi bo'g'inda) korporativ madaniyatni shakllantirish.</p> <p>Boshqaruv sistemasining tashqi va ichki muhit o'zgarishlariga moslashuvi.</p>    |

|                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qo'yilgan maqsad va tamoyillar asosida strategik natijaga erishish. | Hududiy yalpi mahsulotning doimiy o'sishi.<br>Korxona va tashkilotlar foyda normasining oshishi va tannarxning pasayishi.                                                                                                                                                                                       |
|                                                                     | Mehnat unumdorligining o'sishi.<br>Ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar sifatining oshishi.<br>Hududda sog'lom investitsion muhitning shakllanishi.<br>Kichik biznesning yanada rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan sog'lom muhitning yaratilishi.<br>Hudud aholisi turmush darajasining oshishi. |

Yuqoridagi jadval hududning rivojlanish strategiyasi – bu hududiy tizimning samarali rivojlanish yo'nalishini ta'minlaydigan, hududiy yirik muammolarni hal etishga qaratilgan hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtiradigan konseptual tizimning tartibi ekanligidan dalolat beradi. Suuning uchun ham hududning rivojlanishini strategik boshqarishni strategik rejalashtirishni amalga oshiruvchi, strategik g'oyaning shakllanishi va uning amalga oshirishini tahlil qiluvchi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozini ishlab chiquvchi jarayon sifatida talqin etish to'g'ri bo'ladi. Umuman olganda, hudud rivojlanishini strategik boshqarish jarayoni murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi.

Strategiyalarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan tashkil topadi:

- mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniy-huquqiy jihatdan ta'minlanganligi;

- hududiy rivojlanishning yagona siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish, shuningdek mintaqalarning majmualiy rivojlanishini muvofiqlashtirish va tartibga solish maqsadida markaz yoki agentliklar tashkil etish;

- mintaqalarning tabiiy resurs salohiyatini inobatga olgan holda maqsadli dasturlar, yirik investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda samarali kelishuv mexanizmini shakllantirish;

- byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, sust rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy tashkil etish va joylashtirish borasidagi ilmiy – tadqiqot va loyiha ishlarini kengaytirish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini, hududlar resurslaridan foydalanish holatini, mintaqalar majmuali rivojlanishidagi muammolar va farqlanishlarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida axborot mexanizmini kuchaytirish va boshqalar.

Mintaqalarning jahon va davlat miqyosida iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishi tarmoq va hududlarning innovatsion yo'nalishi hamda ularning dasturlariga asoslanadi. Hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishining sharti aynan, innovatsion salohiyatning rivojlanishi hamda iqtisodiy omillardan oqilona foydalanishga bog'liq.

### **13.3. Hududlarni innovatsion strategiyasini aniqlash va uni amalga oshirish yo'nalishlari. Hududlar innovatsion strategiyasining nazariy asoslari**

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi.

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilanish” (yoki “oʻzgarish”), “in” qoʻshimchasi esa lotinchadan “yoʻnalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” koʻrinishida tarjima qilsak – “oʻzgarishlar yoʻnalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi boʻlib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boʻldi.

“Innovatsiya” tushunchasi oʻzining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi oʻzgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va Amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. SHumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qoʻllashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar

kashfiyotlardan farq qiladi

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi

Ilm-fan – bu maʼlum mablagʻlarni bilimlar va gʻoyalarga aylantirish.

Innovatsiyalar – bu bilimlar va gʻoyalarni mablagʻlarga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyani yaratish demak.

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib koʻrsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Rivojlanayotgan davlatlarning barchasida hududlarning notekis rivojlanayotganligini, aholi turmush tarzining keskin farqlanishini kuzatish mumkin. Ushbu holat mamlakatimiz uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bu oʻz oʻrinda, mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning nechogʻli toʻgʻri va aniq olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Jamiyatda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tub oʻzgarishlarning qiyinligi, turli-tumanligi, ziddiyatlarning mavjudligi, ularning yangiligi va doimiy harakatda boʻlishi bozor transformatsiyasi sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion salohiyatidan maksimal foydalanishni taqozo etadi.

D.I.Kakurinning fikriga ko'ra "innovatsion salohiyat" tushunchasi "innovatsion faoliyatning kontseptual akslantiruvchi fenomeniga" aylanib ulgurgan. Innovatsion salohiyat tushunchasi, uning mohiyatini talqin qilishdan oldin, avvalo, "innovatika", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat" tushunchalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Respublikamiz uchun innovatsiyani tadqiq qilishning ikki turdagi nazariy yo'nalishi muhimdir. Nazariy tadqiqotning birinchi yo'nalishi – bu innovatsiyaning o'z holicha rivojlanishi, ya'ni yaralgan g'oyadan uni tatbiq etishgacha bo'lgan harakat jarayoni. Innovatsion jarayonning yuzaga kelishi, hayotda o'z tasdig'ini topib tatbiq etilishi omillarning murakkab bo'lgan o'zaro ta'siri natijasida amalga oshadi.

Ikkinchi yo'nalish – innovatsion menejment doirasida amalga oshadigan jarayon. Aynan ushbu nazariya "innovatika" nomini oldi va o'z navbatida bir qancha mustaqil yo'nalishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan:

- yangiliklarning shakllanishi, yangiliklarning tarqalishi; insonlarning yangilikka moslashishi;
- yangiliklarning insonlarning ehtiyojlariga aylanishi;
- innovatsion qarorlarning yaralishi va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyaning ikkinchi nazariy tadqiqotlar yo'nalishi bo'lmish "innovatika"ga ilmiy jihatdan yangiliklarning amalga oshishi, innovatsion jarayonlar rivojlanishining qonuniyati, innovatsion jarayonlarning bosqichi, innovatsion salohiyat va innovatsion infrastruktura kabi tushunchalarni keltirgan holda majmuaviy talqin etish o'rinli bo'ladi.

Innovatikani va innovatsion jarayonlarni nazariy jihatlari I.Shumpeter, N.D.Kondratev, G.Mensh va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

N.D.Kondratev o'z tadqiqotlarida asosiy e'tiborni iqtisodiy rivojlanish davrlari, uning davomiyligi va ularning rivojlanish sabablari sifatida innovatsiyalarni misol qilib keltiradi. N.D.Kondratevning ushbu g'oyasi avstriya maktabi namoyandasi I.Shumpeterning ilmiy tadqiqotlari rivojiga asosiy turtki bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda I.Shumpeter innovatsiya, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalarni iste'molga kiritgan yirik olim sifatida e'tirof etiladi. Uning 1939- yilda chiqargan "Iqtisodiy davrlar" deb

nomlangan asarida innovatsion jarayonlarning nazariy asoslari, yaratilgan yangiliklarning (innovatsiya) texnologik jarayon hamda boshqaruvga samarali ta'sir ko'rsatishi, iqtisodiy resurslar ishlatilishining yangicha kombinatsiyasi natijasida ishlab chiqarish hajmi o'sishining vujudga kelishi kabi masalalar qamrab olingan.

Qiyosiy tahlillarni davom ettirib, boshqa bir etakchi olimning tadqiqotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, nemis olimi G.Mensh o'z asarlarida iqtisodiy o'sish darajasi va davriyligi o'rtasida vujudga keladigan fundamental va innovatsion tadqiqotlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini keltiradi. Uning ta'kidlashicha, "yaratilgan yangilik va ixtirolar natijasida yangi korxonalarning vujudga kelishi, bu esa o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish holati va davrlariga ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Yaratilgan yangi tovar (xizmat) dastlabida unga bo'lgan talab hajmidan orqada qoladi, bu esa ishlab chiqarish hajmining yuqori sur'atda o'sishiga olib keladi" deb ta'kidlaydi.

K.Frimen, D.Klark, L.Soete o'z tadqiqotlarida esa texnologik tizim, texnologik va sotsial innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar xususiyatlari kabi tushuncha va qarashlarni ilgari surganlar. Ularning nazdicha, iqtisodiy o'sish sur'ati texnologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va eskirishiga bog'liq. Diffuziya yoki innovatsiyalarning yoyilishi texnologik tizim mexanizmining rivojlanishi orqali namoyon bo'ladi. Yangiliklar diffuziyasining sur'ati bozor munosabatlari mexanizmiga bog'liq, shuning uchun ham yangiliklar diffuziyasi o'ziga xos shart va rag'batlantirishni talab etadi, deb ta'kidlaydilar. Bundan ko'rinadiki, biror davlatda yangicha bo'lgan texnologik tizimning vujudga kelishi davlatlararo notekis rivojlanishni yuzaga keltiradi. Umuman "innovatsiya" so'zi yangiliklarning yaralishi, noan'anaviy bo'lgan jarayonlarning paydo bo'lishi, tashkil etish va boshqaruv samaradorligi oshishiga olib keladigan o'zgacha usul, vositalarning paydo bo'lishini anglatadi. Bu so'z bizning atamashunosligimizda ingliz tilidan kirib kelgan "innovation" so'zidan olingan bo'lib, baynalminal so'z sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda olimlarimiz innovatsiyaga turlicha ta'riflarni, talqinlarni, qarashlarni, nuqtayi nazarlarni, fikr-mulohazalarni bildirib kelmoqdalar.

Bir guruh olimlar (A.N.Folomev, G.Ya.Kiperman) innovatsiyani yangi mahsulotlar, texnologiyalar hamda xizmatlarni yaratishga



qaratilgan va ma'lum bir imkoniyatlarga ega bo'lgan ijodiy mehnat mahsuli deb qarashadi. Boshqa mualliflar (P.F.Drukyer, A.I.Muravyev, N.I.Lapin) esa, innovatsiyani biznesni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan murakkab tizim sifatida qarash lozimligini uqtirishadi.

Yana bir guruh olimlar (A.Xarman, R.Djonsa) innovatsiya ostida ishlab chiqarish jarayoniga yangi yoki mavjud bo'lgan eskisining takomillashgan variantini tatbiq etishni tushunadilar.

Olimlar tomonidan innovatsiyaga berilgan ta'rif va qarashlar qisman bo'lib, ammo innovatsion jarayonga berilgan batafsil ma'lumotlar sifatida qayd etishimizga asos bo'lmaydi. Innovatsiyani tahlil etishning muhim asosiy bosqichi sifatida tasniflashning bir qator tub alomatlarini o'rganish talab etiladi.

"Innovatsiya" dinamik va statistik jihatdan yaratilgan yangilik va ilm-fan yutug'ining oxirgi bosqichigacha borishini ta'minlashga qaratilgan va buning natijasida ma'lum bir iqtisodiy samarani yuzaga keltiradigan jarayon hisoblanadi. Shuni nazarda tutish lozimki, innovatsiyani joriy etish natijasida tez fursatda iqtisodiy samaraga erishish mumkin emas, chunki innovatsiyani joriy etish bosqichida uning kapital sig'imi yuqori va uni ekspluatatsiya qilish davomida esa kapital tejamkorligi yuqori bo'ladi.

Innovatsiya innovatsion jarayonning mahsuli sifatida uni hududiy bozorlarda "ishlab chiqaruvchi" va "iste'molchi" o'rnida ko'rish tahlilni anchagina osonlashtiradi. Buning uchun "innovatsion salohiyat" kategoriyasi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani-shiga baho berishda undan keng foydalanish ilmiymetodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Innovatsion salohiyat kategoriyasini batafsil talqin qilish uchun quyidagi asosiy qarashlarni keltiramiz:

1. Innovatsion salohiyat bu ilmiy, intellektual, ijodiy va ilmiy-texnikaviy ixtirolarning yig'indisi;
2. Innovatsion salohiyatga innovatsion faoliyatni amalga oshirishni ta'minlovchi mavjud resurslar sifatida qarash;
3. Innovatsion salohiyat–innovatsiyani amalga oshirishda resurslardan unumli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladigan yalpi imkoniyatlar;
4. Innovatsion potentsialning integrallashgan ko'rinishi–resurslarning joriy qiymati va unday foydalanish imkoniyati;

5. Innovatsion potentsialni innovatsion faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan iqtisodiy subyektning tayyorgarligi va qobiliyati sifatida ko'rish.

Ko'pgina mintaqashunos olimlar hududning rivojlanishini ikkiga bo'lib ya'ni, birinchidan, innovatsion rivojlanishga o'tish uchun hududda mavjud bo'lgan barcha sharoit va imkoniyatlar; ikkinchidan, innovatsion faoliyatni faollashtirishga qodir bo'lgan iqtisodiy subyektlarning mavjud bo'lgan qobiliyatlari yo'nalishida o'rganishni tavsiya etadilar.

Hududlarni innovatsion rivojlanishining asosini mavjud resurslardan samarali foydalanish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishi tashkil etadi. Natijaviy ko'rsatkichlarning ta'minlanishi passiv yoki aktiv usullarda amalga oshirish mumkin. Passiv usulda davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan foydalanish, davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik, huquqiy baza, soliq imtiyozlari hamda infrastrukturaning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Aktiv usulda esa natijaviy ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun hududda mavjud bo'lgan rag'batlantiruvchi funktsiyaga asosiy urg'u beriladi.

Innovatsion salohiyat zahirida, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning hudud sub'ektlarining mavjud yoki yangi vujudga kelayotgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan yangi holatga o'ta olish salohiyatini tushunish darkor bo'ladi.

Hududiy iqtisodiy siyosat mazmun jihatidan hududning innovatsion salohiyatiga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida, hududning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oldindan belgilab beradi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchta manbaga asoslanishi mumkin:

- ishlab chiqarish omillari (o'sishning ekstensiv turi);
- investitsiyalar (rivojlanish o'rta darajasi, o'sishning ekstensiv-iqtisodiy turi);
- innovatsiyalar (oliy daraja, iqtisodiy o'sishning intensiv turi).

Har bir hudud bir vaqtning o'zida ushbu rivojlanishning uch manbasidan foydalanadi, bir vaqtning o'zida, qoida tariqasida ulardan biri ustuvor hisoblanishi sababli, hududlarni iqtisodiy o'sish darajasi va sifati bo'yicha tasniflash imkoniyatini beradi.

Global raqobat rivojlanishining zamonaviy sharoitlarida ijro hokimiyatining ustuvor yo‘nalishlari va harakatlari iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlantirishning innovatsion rivojlanishiga, ilmiy salohiyatning mavjud sohalardagi innovatsion faoliyatni faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Hozirda respublikamizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida bir qancha kompleks va uzoq muddatga mo‘ljallangan tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga baho berishda hududda mavjud bo‘lgan iqtisodiy resurslar, hududning intellektual salohiyati va ushbu salohiyatdan amalda nechog‘lik darajada foydalanayotganligi, hududning resurs salohiyatidan texnik va texnologik jihatdan foydalanish imkoniyatlari hamda mavjud resurslarning ko‘lamidan kelib chiqib investitsion dasturlarning ishlab chiqilishi va boshqa bir qancha omillarning inobatga olinishi asosiy o‘rin tutadi.

Hududning resurs salohiyati tahlili va prognozi modeli – bu hududiy tizimning samarali rivojlanish yo‘nalishini ta‘minlaydigan, hududiy yirik muammolarni hal etishga qaratilgan hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtiradigan konseptual tizimning tartibi hisoblanadi. Shuning uchun ham hududlar rivojlanishini konseptual boshqarish asoslarini quyidagi bosqichlardan tarkib topishi, bizningcha, maqsadga muvofiq hisoblanadi (13.2-jadval).

### 13.2-jadval.

#### Hudud rivojlanishini konseptual boshqarish asoslari.

| № | Bosqichlar          | Mohiyati                                                                                                                                            |
|---|---------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Maqsad va vazifalar | Maqsad – hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali ta‘minlash.<br>Vazifalari:<br>– hududning resurs salohiyatidan samarali foydalanish; |

|   |                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|---|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   |                                         | <ul style="list-style-type: none"> <li>– hududni rivojlantirish dasturlarini huquqiy jihatdan ta'minlash;</li> <li>– hududning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasini tarkibiy jihatdan o'zgartirish;</li> <li>– respublika va mahalliy budjetdan sarflanayotgan mablag'larni optimallashtirish;</li> <li>– iqtisodiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;</li> <li>– Aholini ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish va b.q.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| 2 | Tashqi va ichki muhitni tahlil qilish   | <p>Baholash:</p> <p>1. Tashqi muhitning iqtisodiy komponenti:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– YaIM, YaMD va YaHM qiymati;</li> <li>– inflyatsiya sur'ati va darajasi;</li> <li>– ishsizlik darajasi;</li> <li>– foiz stavkasi; – mehnat unumdorligi; – soliq solish normasi.</li> </ul> <p>2. Ijtimoiy komponent:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– aholining hayot sifati va ish o'rinlariga bo'lgan munosabati;</li> <li>– mavjud urf-odatlar va qadriyatlar;</li> <li>– jamiyatning demografik tarkibi;</li> <li>– aholining o'sish va savodxonlik darajasi;</li> <li>– aholining o'zgarishlarga bo'lgan munosabati va tayyorligi.</li> </ul> <p>3. Huquqiy komponent:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– partiyalarning faolligi;</li> <li>– davlat va o'z-o'zini boshqaruvchi organlarning tutgan o'рни;</li> <li>– aholining huquqiy savodxonligi va jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy-huquqiy o'zgarishlarga bo'lgan munosabati va b.q.</li> </ul> |
| 3 | Kuchli va zaif tomonlarini tahlil etish | <p>SWOT matritsasi;</p> <p>Imkoniyatlar matritsasi;</p> <p>Xavf-xatarlar matritsasi;</p> <p>Muhitning shart-sharoitlari.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |

|   |                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|---|-------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 4 | Alternativ variantlar-ning tahlili va kontsepsiyani tanlash | <p>Muqobil variantlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– cheklangan o'sish sur'ati – inflyatsiyani inobatga olgan holda kelajakdagi o'sish sur'atini belgilab olish;</li> <li>– o'sish – o'tgan yilga nisbatan ko'proq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish;</li> <li>– pasayish – o'tgan yilgi qayd etilgan natijaga nisbatan kamroq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish;</li> <li>– uchta komponentni – cheklangan o'sish, o'sish va pasayishni qo'shgan holda harakatlanish.</li> </ul>                                                                                                                            |
|   |                                                             | Muqobil kontsepsiyani tanlashdan maqsad – hududning iqtisodiy rivojlanish samaradorligini maksimal darajaga yetkazish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| 5 | Konsepsiyani amalga oshirishni boshqarish                   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aniq maqsadni qo'yish;</li> <li>2. Maqsadning realligini baholash;</li> <li>3. Vujudga kelishi aniq bo'lgan muammolarni va ularning oqibatlarini belgilab olish;</li> <li>4. Maqsadni samarali amalga oshirish yo'llarini qidirib topish;</li> <li>5. Ishlar va natijalarni tizimli nazorat qilish va ularni baholab borish;</li> <li>6. Rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirish jarayonida kuzatuv va zaruriy qo'shimchalarni kiritib borish;</li> <li>7. Maqsadni amalga oshirish jarayonida hisobga olinishi zarur bo'lgan ko'zda tutilmagan holatlarni yuzaga chiqarish.</li> </ol> |
| 6 | Konsepsiyani baholash                                       | Konsepsiyaning bahosi qo'yilgan maqsad bilan amalga oshirilgan ishlar va qo'lga kiritilgan natijalarni solishtirish orqali chiqariladi. Konsepsiyani baholash tizimli va uzluksiz ravishda amalga oshirishni talab etadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |

Global innovatsiyalar indeksi – bu dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi global tadqiqotlar va uning reytingi hisoblanadi. Tadqiqotlar INSEAD xalqaro biznes maktabi, Kornel universiteti va Jahon intellektual mulk tashkiloti qo'shma loyihasi doirasida 2007- yildan buyon o'tkazib kelinadi hamda u bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarining keng qamrovli majmuini ifodalaydi.

Global innovatsiyalar indeksi 82 xil parametrlardan tashkil topgan bo'lib, unda dunyoning iqtisodiy rivojlanishi turli darajalarda bo'lgan mamlakatlarida innovatsion rivojlanish holati batafsil ifoda etilgan. Tadqiqot mualliflari iqtisodiyotning muvaffaqiyatli bo'lishi innovatsion salohiyat va uni amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlar bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Shu bois, indeks ikki guruhdan iborat o'lovlar bilan baholanadi:

- Innovatsiya uchun mavjud resurslar va sharoitlar (Innovation Input). Bu o'z navbatida quyidagilarga ajratiladi
  - institutlar;
  - inson kapitali va tadqiqotlar;
  - infratuzilma; ichki bozorni rivojlantirish; biznesni rivojlantirish.
- Innovatsiyalarni amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Output):
  - texnologiyalar va iqtisodiyot bilimlarini rivojlantirish; - ijodiy faoliyat natijalari.

Shu tarzda, yakuniy indeks u yoki bu mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlar samaradorligini obyektiv baholash imkonini beradigan xarajatlar va samaradorlik ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Global innovatsion indeks reytingida O'zbekiston innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha 2015- yilda 122-o'rinni egalladi, 2016 va 2017- yillarda ko'pgina ko'rsatkichlar mavjud bo'lmaganligi bois mazkur reytingga kiritilmadi. Hukumati tomonidan 2021 yilgacha O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish strategiyasini, shuningdek uni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqlash rejalashtirilmoqda. Mutaxassislar tomonidan innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanishi taklif etilmoqda:

- barcha darajada ta'lim sifatini oshirish va u bilan qamrab olish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash tizimi moslashuvchanligini ta'minlash;
- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyati va samaradorligini mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-

konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng miqyosda joriy etish uchun fan, ta'lim va biznesni

integratsiyalashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

➤ innovatsiyalar hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari davlat tomonidan va xususiy yo'l bilan moliyalashtirilishini oshirish, innovatsiyalarni moliyalashtirishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

➤ hukumatning roli va faoliyat samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvining zamonaviy usullari va dastaklarini joriy etish;

➤ mulkiy huquqlar himoyalanişini ta'minlash, raqobat bozorlarini va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlarni yaratish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

➤ barqaror faoliyat yurituvchi infratuzilmani yaratish.

Hudud rivojlanishini konseptual boshqarish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni amalga oshirishdan kutiladigan eng asosiy maqsadlardan biri bu – mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish, hududiy investitsion dasturlarni ijtimoiy-iqtisodiy samara beradigan sohalarga ko'proq yo'naltirish va pirovardida aholining turmush sifatini ko'tarish, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

### **Qisqacha xulosalar.**

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilish– iqtisodiyot va ijtimoiy soha holatini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mintaqaviy majmuasini rivojlantirish yo'nalishi va uning tarkibiy tuzilishini aniqlaydigan tarkibiy qismni oldindan ko'rishdir. Prognoz hisob-kitoblar natijalari davlat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsad va vazifalarini belgilash, hukumat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish va asoslash uchun foydalaniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishning turlari va ularning maqsad, vazifalari nimalardan iborat?
2. Mintaqa iqtisodiyotining bir butun tuzilma sifatida rivojlanish istiqbollari qanday aniqlanadi?
3. Uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozlashlarning bir-biridan farqli jihatlarini aniqlang.
4. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish nima maqsadda amalga oshiriladi?
5. Hudud rivojlanishini kontseptual boshqarishning bosqichlari va ularda amalga oshiriladigan tadbirlarni asoslab bering.



## **14- BOB. MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGI VA RAQOBAT USTUNLIGI**

### **14.1. Mintaqalar raqobatdoshligi va raqobat ustunligining nazariy asoslari**

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksport salohiyati yuqori bo'lgan hududlarni qo'llab-quvvatlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mintaqalar raqobatdoshligini oshirish va raqobat ustunligining nazariy asoslari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, mamlakat va hududlarning raqobat ustunliklari nazariyasi, iqtisodiy klasterlar konsepsiyasi, raqobatdoshlik rombi modeli, qo'shilgan qiymat zanjiri asosida hududlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni tartibga solishning nisbatan past darajasida mintaqa raqobatdoshligini oshirishning institutsional omillari, raqobatdoshlikni oshirishda innovatsiya va tadbirkorlikning intellektual jihatlari, investitsion faollik, innovatsion iqtisodiyot va inson kapitali omillarining mintaqa raqobatdoshligiga ta'siri, atrof muhit omillari va ijtimoiy kapitalning hududlar raqobatdoshligiga ta'siri, texnologik omillar va urbanizatsiyaning mintaqalar raqobatdoshligiga ta'siri, mintaqalar va shaharlarni rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishda raqobatdoshlik hududiy strategik rejalashtirishning maqsadli funktsiyasi; mintaqalar raqobatdoshligi va mintaqalararo raqobatni tadqiq etishda sinergetik metodologik yondashuvning qo'llanilishi, mintaqalarni rivojlantirish va ularning raqobatdoshligini oshirishda hududiy, texnologik (klaster) va iqtisodiy-geografik kontsepsiyalarni qo'llashning samaradorligi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar aynan hududlar raqobat ustunligini oshirish uchun xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda dunyoda mintaqalar raqobatdoshligini o'rganish bo'yicha ustuvor ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va shu jumladan: iqtisodiy o'sishning samaradorlik omillarini tizimli tadqiq etish; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish sifati va mexanizmlari; raqobatdoshlikni oshirishning turli xil boshqariladigan

va o'zini o'zi jalb qiluvchi omillarini tahlil qilish va baholash kabi izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hudud raqobatdoshligining ilmiy asoslarini tadqiq etish va mintaq hamda hududlararo miqyosda raqobatdoshlik nazariyasi yaqin davrdan boshlab o'rganila boshlandi. Neoklassik va zamonaviy Evropa maktabi vakillari bo'lgan klassiklarning nazariy qarashlarida iqtisodiy jarayonlardagi raqobat munosabatlari an'anaviy tarzda, ya'ni hududiy omillar va mintaqalararo munosabatlarni hisobga olgan holda tadqiq etilgan. Mavjud nazariy qarashlarga muvofiq ularni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

a) makroiqtisodiyot kontseptsiyasi nuqtayi nazaridan hudud raqobatdoshligini

o'rganish;

b) tashqi ta'sir omillari nuqtayi nazaridan hududiy raqobat munosabatlarini o'rganish;

v) raqobat va raqobatdoshlikni (biznes darajasidagi) mikroiktisodiy omillari.

#### **14.2. Mintaqalarda raqobatdoshlik va raqobat ustunliklari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar**

O'zbekistonda mintaqalar raqobatdoshligini oshirish, hududlar iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy kapitali va yashirin raqobat ustunliklaridan samarali foydalanishning mexanizmlari va chora-tadbirlari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun globallashtirish sharoitida mintaqalar raqobatdoshligining ilmiy asoslarini tadqiq etish, mintaqalar raqobatdoshligini oshirish jarayonlarini tahlil qilish, baholash va boshqarish metodlarini ishlab chiqish, mintaqalar raqobat salohiyati, raqobat ustunliklari va raqobatdoshligini baholashning mezonlari va ko'rsatkichlarini shakllantirish, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishbilarmonlik muhiti va iqtisodiyotning ochiqligi omillari ta'sirini tizimli tadqiq qilish asosida O'zbekiston mintaqalari raqobatdoshligining hozirgi holatini baholash va iqtisodiy diagnostika qilish, hozirgi sharoitda mintaqalarning istiqbolli rivojlanish salohiyatini baholash va mintaqalar raqobatdoshligini oshirishning tashkiliy-funksional jihatlarini tahlil qilish, yashirin raqobat ustunliklarini

aniqlash asosida mintaqalar raqobatdoshligini oshirish bo'yicha strategik qarashlar va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash hamda ularni amalga oshirishning chora-tadbirlari va mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqa raqobatdoshligini oshirish jarayonida hududiy boshqaruv organlarining tashkiliy-funksional salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish, olingan tadqiqot natijalarini O'zbekiston mintaqalarini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llash talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010- yil 15-dekabrda PQ1442 sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori, 2015 yil 6 martdagi PF-4707-sonli "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlash chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni, 2015- yil 5 maydagi PQ-2343-sonli "2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 yanvardagi 3-sonli "Shaharlar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tirtibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida qo'yilgan vazifalar mintaqalar raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda:

- hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy kapitali va yashirin raqobat ustunliklaridan samarali foydalanishni aniqlash maqsadida mintaqa raqobat salohiyatini uning omilli va natijaviy jihatlarni hisobga olgan holda baholash metodikasi qo'llanilmoqda;

- iqtisodiy o'sish, modernizatsiya va diversifikatsiya darajasi, ishbilarmonlik muhiti va iqtisodiyotning ochiqqligini yuqori uyg'unlashgan koeffitsientlar bilan avtonom baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali mintaqalarning raqobat ustunliklarini iqtisodiy diagnostika qilish bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan;

- mintaqalarning imitatsion va innovatsion qobiliyatidan kelib chiqib, raqobatdoshlikning ustuvor omillarini aniqlashda iqtisodiy rivojlanish asimmetriyasi va uning mintaqalar raqobatdoshligiga ta'sirini baholash metodikasidan foydalanilmoqda;

- turli xil jarayonlar va holatlar, boshqariladigan va o'zini o'zi jalb qiluvchi omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxema asosida mintaqalar raqobatdoshligini oshirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda;

- strategik boshqarish, monitoring va koordinatsiya qilish bo'yicha vazifalarni tizimlash orqali mintaqalar raqobatdoshligini oshirish jarayonlarini boshqarishning tashkiliy-funksional sxemasi amaliyotda qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, raqobatdoshlik – bu rivojlanishning ma'lum darajasi bo'lib, unga ko'ra mintaqalar o'zining tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan, raqobat ustunliklari va institutsional imkoniyatlaridan samarali foydalanishi hisobiga aholi turmush darajasi va sifatining barqaror o'sib borishini ta'minlaydi.

Mintaqalar raqobatdoshligini baholashda, uning ko'p jihatlilik va ko'p omillilikini hisobga olgan holda, mantiqiy ketma-ketlik asosida hamda tizimli baholash usuli hamda, iqtisodiy - matematik modellarni qo'llagan holda mintaqalar raqobatdoshligini iqtisodiy diagnostika qilishning metodikasi ijobiy natija beradi.

Aholi jon boshiga YaHMni xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha hisoblaganda, Toshkent shahri va Navoiy viloyati boshqa mintaqalarga nisbatan sezilarli darajada ajralib turibdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha variatsiya ko'lam salkam 4,3 martaga teng bo'lib, mintaqalar o'rtasida ishlab chiqarish hamda daromadlar bo'yicha ham yuqori tafovut mavjudligidan dalolat beradi. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuqori integrallashgan koeffitsientlarini avtonom baholashning empirik natijalari o'rta va uzoq muddatda mintaqalar raqobatdoshligini oshirishda iqtisodiy o'sishning intensiv manbalariga tayanish kerakligidan dalolat bermoqda. Mintaqalarda mehnat unumdorligini baholash natijalariga ko'ra yirik sanoat korxonalari joylashgan Toshkent shahri, Navoiy, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari bu borada yetakchilik qilmoqda. Biroq, mehnat unumdorligi bo'yicha O'zbekiston mintaqalarini yangi sanoatlashgan mamlakatlar

bilan solishtirganda tashqi bozorda raqobatdoshlikni ta'minlash uchun bu hali etarli emas. Mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari bo'yicha Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri sanoatning yoqilg'i-energetika, qazib olish va qayta ishlash tarmoqlaridagi yuqori unumdorlik hisobiga Rossiya va Ukraina va Moldova kabi mamlakatlar bilan raqobatlasha oladi. Biroq asosiy fondlarning eskirishi, eskirgan va past samarali texnologiyalardan foydalanish, yuqori malakali kadrlar etishmovchiligi sharoitida ortiqcha ish kuchi kabi omillar uzoq muddatli istiqbolda ma'lum darajada muammolar keltirib chiqarishi tabiiy. Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo, Namangan va Jizzax viloyatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sohasining ustunligi saqlanib qolayotganligi ularning raqobatdoshligini susaytiradi.

Mintaqalar energiya iste'moli va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya sig'imdorligiga ko'ra, O'zbekistonda energiya sig'imdorligi ko'rsatkichi (XQP) bo'yicha MDH davlatlari ko'rsatkichidan 2,3 marta katta. Bunday vaziyatda mintaqalar raqobatdoshligini oshirishning asosiy omili sifatida energiya samaradorligi hamda mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishining resurs tejamkorligi ssenariylari maqbul bo'ladi.

Mutaxassislar tomonidan mintaqalarning raqobat ustunliklari aniqlanib, natijalarga ko'ra O'zbekiston mintaqalarining aniqlangan raqobat ustunliklariga (RCA) ega bo'lgan tovarlar guruhi ajratildi. RCA indeksi hisob-kitoblariga ko'ra, xomashyo va an'anaviy tovarlar guruhi bo'yicha mintaqalarning imkoniyatlari ortib borayotgan bir paytda, yuqori texnologiyali tarmoqlarda ayrim viloyatlardagina raqobat ustunligiga ega tovarlar ishlab chiqarishga asos solinmoqda, xalos, asimmetriyaning «ortda qolish» holatini Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatish mumkin. Simmetrik rivojlanish faqat Andijon viloyatida kuzatilib, Samarqand viloyatida shunga yaqinroq holatni ko'rish mumkin. Shu o'rinda, asimmetriya holatini deyarli barcha viloyatlarning qishloq tumanlarini sanoatlashtirish hamda iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganlik darajasida kuzatish mumkin. Mamlakat ayrim mintaqalarining surunkali ortda qolayotganligi istiqbolda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin.

Mintaqalarning raqobat salohiyati va ularning umumiy raqobatdoshligi natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlari uchun raqobatdoshlikni oshirishda raqobat salohiyatining omillar tarkibi (resurslar va vositalar), Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida esa raqobat salohiyatining natijaviy jihatlari ustunlik qilmoqda. Qolgan mintaqalar uchun esa raqobat salohiyatining ikkala jihati ham deyarli bir xil darajada ta'sir o'tkazadi. Mintaqa raqobatdoshligini oshirish jarayonini boshqarishning tashkiliy-funksional asoslarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni boshqarish borasida asosan o'rta va uzoq muddatda iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni maqsadli dasturlash usullari qo'llanilmoqda. Shu o'rinda mintaqaning o'ziga xos jihatlari va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati har doim ham va to'liq holda hisobga olinmayapti. Yuqorida keltirilgan muammolar mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buni resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan o'zaro hamkorlikda foydalanish bo'yicha mintaqalararo loyihalarning deyarli yo'qligida ko'rishimiz mumkin. Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda tarmoq yondashuvi ustunlik qilmoqda, dasturlarni amalga oshirish mexanizmi va ularni monitoring qilish mexanizmlari amalda qo'llanilmayapti.

### **14.3. Mintaqalar raqobat ustunliklarini takomillashtirish yo'nalishlari**

Raqobat muhiti va raqobatdoshlik o'zining ko'p omilliligi va ko'p jihatlilik bilan ijtimoiy va iqtisodiy jarayon va hodisalarni kompleks qamrab olib, bular mintaqarivojlanishining turli jihatlariga multiplikativ va sinergetik ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mintaqaranoqobatdoshligining holatini ham boshqariladigan, ham o'zini - o'zi jalb etuvchi omillarni hisobga olgan holda tizimli va dinamikada baholash zarur.

Raqobatdoshlikning boshqariladigan va o'zini o'zi jalb qiluvchi omillarini, ularning "jarayonga", "obyektga", "loyihaga" va "muhitga" yo'naltirilganligi tarafidan tadqiq qilish tabiiy-xomashyo resurslaridan samarali foydalanishda "obyektga" yo'naltirilgan modelni qo'llash

maqsadga muvofiqdir. Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanishda iqtisodiy o'sishning ham "obyektga" ham "loyihaga" yo'naltirilgan modellarini teng darajada qo'llash zarur.

Raqobatdoshlikning iqtisodiy diagnostika asosida o'rganish uni innovatsion rivojlanishga bo'lgan moyilligini asniqlash imkonini beradi. Masalan, hududning texnologik jihatdan sust iqtisodiyotini bevaqt "innovatsion rivojlanishga" yo'naltirish samarasiz harajatlarga olib kelishi mumkin. Innovatsion rivojlanish modelini qo'llash iqtisodiy o'sish bilan endogen omillar o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniq kuzatilayotgan hududlarda o'zini oqlaydi.

Hududlar iqtisodiy o'sishining endogen modeli natijalari iqtisodiyotning xomashyo etishtiruvchi tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligi, uzoq istiqbolida ishlab chiqarish miqyosidagi o'zgarishlarni va endogen o'sish omillariga ta'sir darajasini ko'rsatadi.

Mintaqalarning sanoatlashish darajasini oshirishda qishloq tumanlari salohiyatidan yetarlicha foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta ishlash sanoati, bozor va autsorsing xizmatlari bilan uzviy bog'lanishini nazarda tutuvchi, qishloq tumanlari va shahar posyolkalarini uyg'unlashgan holda rivojlantirish borasidagi jahon tajribasini qo'llash lozim.

Tumanlarning industrial rivojlanishi mahalliy xomashyo va materiallarni chuqur qayta ishlash imkonini beruvchi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish uchun qulay sharoit yaratishni taqazo qiladi. Bu esa sanoatni yanada rivojlantirish va hudud aholisining turmush sifatini oshirish imkonini beradi.

Qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan va eksportga yo'naltirilgan hamda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish hududiy klasterlar asosini shakllantirish imkonini beradi. Buning uchun yangiliklarni yaratish va joriy etish bilan bog'liq faoliyatlarni kengaytirish yuzasidan pragmatik choralar qabul qilish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga imtiyozlar berish hamda kichik biznesni yirik sanoat korxonalari bilan uyg'unlashtirish zarur.

O'zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning strategik yo'nalishlari va ustuvor vazifalari belgilangan bo'lib, mintaqalarning milliy va hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning

raqobatdoshligini oshirishda strategik yo'nalishlar, mintaqarivojlanishida modernizatsion strategiyaning asosiy maqsad va yo'nalishlari ifodalangan. Mintaqalar raqobatdoshligini oshirishning strategik maqsadlari modernizatsion strategiyani shakllantirishdan iborat bo'lib, u tuzilmaviy va institutsional o'zgarishlarga yo'naltirilgan hamda faol investitsion faoliyatga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning endogen omillari vositasida mintaqalarning raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan. Modernizatsion strategiya tarkibi asosan to'rt yo'nalishdan iborat. Birinchi yo'nalish mintaqaning aniqlangan ustunliklari va raqobat salohiyati samarasini oshirish hisobiga tarmoq va faoliyat turlarining nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ikkinchi yo'nalish ishlab chiqarishning texnik va texnologik modernizatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan zamonaviy innovatsion loyiha va g'oyalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Uchinchi yo'nalish yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarning faol rivojlanishini nazarda tutuvchi investitsion faoliyatni amalga oshirishdan iborat. To'rtinchi yo'nalish zamonaviy boshqaruv hamda kadrlar salohiyatini oshirish orqali iqtisodiyotni boshqarish tizimini modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Modernizatsion strategiyaga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni faollashtirish hamda ushbu mintaqalar uchun noan'anaviy bo'lgan ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish maqsadida tabiiy xomashyo resurslaridan samarali foydalanishga ustuvor yo'nalish sifatida qaratilgan. Samarqand, Andijon, Xorazm, Namangan va Farg'ona viloyatlarining nisbatan yuqori tadbirkorlik salohiyatini hisobga olgan holda, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni yanada kengaytirish, mintaqalarning shaxsiy brendlarini joriy etish maqsadida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yangi g'oyalarni tatbiq etish, boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tish lozim bo'ladi. Bu tizimning ma'no-mohiyati birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot



ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Xolbuki, bugungi kunda Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari iqtisodiyotining xomashyoga yo'naltirilganligi iqtisodiy o'sish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu mintaqalar uchun qayta ishlash sanoati va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni joylashtirishda tadbirkorlik tashabbuskorligini rivojlantirish zarur. Sirdaryo va Toshkent viloyatlarining poytaxt Toshkent shahriga yaqinligini hisobga olib, ularda sanoatda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan loyihalar va yangi g'oyalarni hamda uzviy bog'langan tarmoqlarni rivojlantirishda yirik aglomeratsiyaning iqtisodiy salohiyatidan va mahalliy tadbirkorlarning tashabbuskorligidan yanada samarali foydalanish lozim. Toshkent shahrining esa, undagi mavjud innovatsion salohiyatni hisobga olgan holda, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, yuqori texnologiyali loyihalarning amalga oshiruvchi yangi g'oyalatni atrofga yoyuvchi "o'sish nuqtasi"ga aylantirish maqsadga muvofiq.

Mintaqalar raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni uch bosqichda amalga oshirish mumkin. Birinchi bosqichda mintaqalarni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konseptsiyasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda tashqi va ichki omillarning ta'sirini hamda rivojlanish ssenariylarini hisobga olgan holda strategik qarashlar shakllantiriladi. Uchinchi bosqichda esa aniq strategiyalar, uzoq muddatli dasturlar va loyihalar shakllanadi.

#### **14.4. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmining qonuniy asoslari**

O'zbekiston Respublikasida yaqin davrlarga qadar DXSH munosabatlarini amalga tadbiq etilishida bir qator tizimli muammolar mavjud edi. Asosiy muammolardan biri bu – DXSH faoliyatining prinsiplari va mohiyatini belgilovchi keng qamrovli huquqiy bazaning yo'qligi edi. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bir qator qonun hujjatlari va DXSH munosabatlarini tashkil etishda davlat vakili sifatida ishtirok etuvchi agentlik tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.12.2018 yilda 1009-sonli O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarori qabul qilindi. Ushbu Agentlikning vazifalari DXSH munosabatlarini tartibga solish, xususiy sherik tanlashda

tenderlar o'tkazish va loyiha ijrolarini monitoring qilish, shartnomalar tuzish, ularga o'zgartirishlar kiritish va davlat ikki sherik manfaatlarini himoya qilish va shu kabi tashkiliy ishlarda davlat vakili sifatida ishtirok etishdan

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubini ishlab chiqish, ushbu loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, shuningdek, loyihalar to'g'risidagi axborotni ochiq holda joylashtirish va ularning restrini yuritish;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan muayyan loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashish;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va taqsimlash yuzasidan ularning takliflarini ko'rib chiqish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, loyihalarga jalb qilingan byudjet tizimi mablag'laridan foydalanilishini, shuningdek, tegishli tarmoqlardagi xalqaro tajribani inobatga olgan holda loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish amaliyotini monitoring qilish.

- O'zbekiston Respublikasida DXSH munosabatlarini taghshkil etish, xuquqlarni ximoya qilish, xususiy sektor faolligini rivojlantirish va xisobotlar shaffofligini ta'minlashga doir bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Umladan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2018-yilda imzolagan PQ-3980 sonli "davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.12.2018- yilda 1009-sonli O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarori;

3. Aholi punktlari qismlarining batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarori 26.02.2019 g. N 169 son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "sog'liqni saqlashda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 16.04.2019 yilda imzolangan PQ-4290 sonli qarori;

5. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi 10.05.2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 26 aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019- yil 3-mayda ma'qullangan).

O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 10- mayda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni 10 bob, 44 moddadan iborat bo'lib, unda, umumiy qoidalar, DXSH munosabatlari davlat tomonidan tartibga solish tamoillari, DXSH shartnomalari turlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, loyihani amalga oshirish tartiblari, xususiy Sherikni tanlash tartibi, bitimlar to'g'risidagi qonunlar, tomonlarni haq-huquqlari, moliyalashtirish kabi huquqiy normalari belgilab qo'yilgan.

DXSH shartnomasi – davlat organi yoki davlat tashkiloti va xususiy biznes subyekti (yuridik yoki jismoniy shaxs) vakili o'rtasidagi o'zaro kelishuvdir. Va bu kelishuv shartnomasi qonun bilan ximoyalanaadi. Xususiy sherik davlat organi vazifasini bajaradi, yoki, davlat mulkidan ijtimoiy maqsadlarda foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Bunday shartnomalar odatda, loyihalash ishlarida, moliyalashtirish ishlarida, qurilish, rekonstruktsiya, kapital ta'mir, eksplutatsiya, bino va inshootlardan foydalanish yoki ularni boshqarish kabi sohalarda amalga oshiriladi. Xususiy investitsiya bunday ishlarga jalb

qilish orqali davlat tomonidan taklif etilayotgann ijtimoiy tovar va xizmatlar hajmi ortadi va sifat darajasi takomillashadi.

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmining shakllari. Oxirgi 25yil mobaynida DXSH munosabatlarining turli xiy yo'nalishdagi shakllari vujudga keldi. Bu shu omil bilan bog'liqqi, bu turdagi investitsiya Xatiri qolgan yo'nalishlardagiga nisbatan kamligi va sheriklik qoidasi tushunchasiga ega xamkorlar bilan ish yuritishdadadir. O'zbekistonda DXSH munosabatlarining keng tarqalgan soxasi bu mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlash soxasidadir. DXSH ning boshqa shakllari esa ( erkin iqtisodiy zonalar, imtiyozli loyixalar va xokazo) kutilganidek samara bermadi.

Shunday bo'lsada ijtimoiy soxada axoli ijtimoiy farovonligini ta'minlovschi bir qator investision loyixalar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri, 2017 yil 9 sentyabrda imzolangan, PQ-3261 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorni 2018 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni to'liq qamrab olish jarayonini tezlashtirish, yangi avlod vakillarini bolaligidanoq sifatli kadr bzlib kamol topishlari uchun, shu bilan birga, xususiy sektor biznes saloxiyatiini rivojlantirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, shu bilan birga axolining ijtimoiy extiyojlarini qondirish maqsadida, ushbu loyixa qonun bilan belgilandi va ximoyaga olindi.

Ushbu qonunga ko'ra, xususiy sherik davlat balansidagi bo'sh binoni tekinga foydalanish xuquqini kiritadi, 50 yil muddatga shartnoma tuziladi, maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etishda investisiya kiritadi, imtiyozli kredit olish xuquqiga ega bo'ladi. O'z navbatida, nogironligi mavjud va boquvchisini yo'qotgan oila farzandlarini qabul qilish, soliq to'lash, ish o'rinlari yaratish, sifatni nazorat qilish, va boshqa belgilangan majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi. Ushbu loyixa kichik biznes vakillari uchun qulay imkoniyat xisoblanib, bir yil davomida bir necha kelishuvlar ishga tushirildi. Hozirgi vaqtda respublikada 9774ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda MTT) o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini olib bormoqda. (Shundan: davlat tashkilotlari – 5832ta, nodavlat – 3942ta (xususiy – 753, DXSH – 419, oilaviy – 2770). Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar soni 6,1 foizga o'sgan va 2019- yil 1- yarim yilligi natijasiga ko'ra, 1 066 353 nafarni tashkil etadi,

respublika bo'yicha 3-7 yoshli maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy soni - 2 631 708 nafardir. Ma'lumki, 2018- yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 34,4 foizni tashkil etgan. 2019 yil yarim yilligi yakuniga kelib, davlat Mttlarida yaratilgan o'rinlar soni maktabgacha yoshdagi bolalarning 40,5 foizini qamrab olishga imkon beradi.

### **Qisqacha xulosalar.**

Raqobatdoshlikning boshqariladigan va o'zini o'zi jalb qiluvchi omillarini, ularning “jarayonga”, “obyektga”, “loyihaga” va “muhitga” yo'naltirilganligi tarafidan tadqiq qilish tabiiy-xomashyo resurslaridan samarali foydalanishda “obyektga” yo'naltirilgan modelni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanishda iqtisodiy o'sishning ham “obyektga” ham “loyihaga” yo'naltirilgan modellarini teng darajada qo'llash zarur.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqalar raqobatdoshligi bilan raqobat ustunligini farqli va o'xshash jihatlarini tavsiflang.
2. Mintaqalar raqobatdoshligi va raqobat ustunligining nazariy asoslarini xronologik tarzda yoriting.
3. Mintaqalar ustunliklarini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni tasvirlab beradi.
4. Iqtisodiy diagnostika va uni amalga oshirish texnologiyalarini asoslab bering.
5. Raqobatdoshlikning iqtisodiy diagnostikasi asosida hududlarning innovatsion rivojlanishga bo'lgan moyilligini asoslab bering.

## **15 - BOB. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI**

### **15.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi**

Tashqi iqtisodiy aloqalar – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ko'zgusi hisoblanib, sanoat va qishloq xo'jaligi – tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi asosiy omillaridir.

Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi – uning tabiiy va iqtisodiy geografik imkoniyatlari hamda geografik jihatlari bilan uzviy bog'liq.

Iqtisodiyotda xalqaro teng manfaatli hamkorlikni o'rnatishga intilish – yangi ishlab chiqarish munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik va tovar ayriboshlashda xalqaro hurmat tamoyillariga rioya etish, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish garovidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ko'zgusi hisoblanib, sanoat va qishloq xo'jaligi – tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi asosiy omillaridir.

Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi – uning tabiiy va iqtisodiy geografik imkoniyatlari hamda geografik jihatlari bilan uzviy bog'liq.

Iqtisodiyotda xalqaro teng manfaatli hamkorlikni o'rnatishga intilish – yangi ishlab chiqarish munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik va tovar ayriboshlashda xalqaro hurmat tamoyillariga rioya etish, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanish garovidir.

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganidan buyon tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakatning o'z elchixonasi ochilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat

tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

- ✓ o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;

- ✓ teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- ✓ mafko'raviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

- ✓ xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

- ✓ tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshiruvchi va bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bo'lib, uning tashkiliy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- Tashqi iqtisodiy hamkorlik bosh boshqarmasi va uning tuzilmasiga kiruvchi:

- Xorijiy investitsiyalar va moliyaviy-texnikaviy ko'mak vositalarini jalb qilish boshqarmasi;

- Eksport va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish boshqarmasi;

- Hukumatlararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi;

- Turizmni rivojlantirish sohasidagi xalqaro hamkorlik boshqarmasi;

- Tashqi ishlar vazirligi Matbuot xizmati negizida Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi;

- Konsullik boshqarmasi negizida Konsullik-huquq departamenti;

- Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar bo'limi;

- Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi va uning tarkibida Murojaatlarni qabul qilish sektori ;

- Diplomatik syervis xizmati negizida Diplomatik korpusga xizmat ko'rsatish byurosi;

- “Jahon” axborot agentligi negizida “Dunyo” axborot agentligi va Mediamarkaz;
- Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi negizida Tahlil va prognozlashtirish markazi;
- Tashqi ishlar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘limlari.

## 15.2. Mintaqalarning eksport salohiyati

Mamlakat va mintaqalar eksport salohiyati ko‘p jihatdan ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri va oqilona tashkil etilishiga bog‘liq. Bu borada ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, birgina 2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirildi. Shu yili 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

1990- yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 805,6 million dollarni, jumladan, eksport - 442,7 million dollarni, import - 362,9 million dollarni tashkil etgan. Ijobiy saldo esa 80 million dollar atrofida bo‘lgan edi. Bugungi kunda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 27,1 barobar o‘ydi, shu jumladan, eksport hajmi - 29,5 barobar, import - 24,2 barobar oshdi. Bu jarayonda tashqi savdoning ijobiy saldosi 53 barobar ortib, oltin-valyuta zahiralarining yuqori darajada o‘sishi va milliy valyuta barqarorligini ta‘minladi.

Eksport va import tarkibi tub dan o‘zgardi. O‘zbekiston mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste‘mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko‘proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormokda. Eksportning tovar tarkibini



diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakka hokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi.

Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida engil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi - 4,7 barobar, trikotaj matolar - 156 barobar, mineral o'hitlar - 11,7 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar, sement - 6,3 barobar, sabzavot va mevalar eksporti 14,1 barobar o'sdi. Kichik biznes korxonalarining eksport hajmi 10 barobardan ko'proq oshdi.

### **15.3. Mintaqalarda qo'shma korxonalarni rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari**

Tashqi bozorni tadqiq etish O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda zarur masaladir. Bozorni batafsil o'rganish uni iste'molchilar guruhlariga va tovarlarning iste'mol xususiyatlariga muvofiq sigmentlashni talab qiladi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, eng muvofiq sigment deb ushbu bozorning taxminan 20 % xaridorlari firma taqdim etgan tovar hajmining 80 foizini xarid qilganlari hisoblanadi. Tovar bilan bog'liq bo'lgan masala uni oldindan aniqlangan bo'lajak xaridorlarning ayrim guruhlariga aniq mo'ljallab loyihalashtirishning zarurligidir. Masalan, u tor guruh Belgiyadagi 15–17 yoshli o'smirlar yoki keng – Germaniya bozoridagi kam yoqilg'i sarflaydigan avtomobillar va hokazolar bo'lishi mumkin.

2018-yilda respublika tashqi savdo aylanmasi 2000-yildan buyon birinchi marta eng katta ko'rsatkichga etdi va 14,2 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi, shu qatorda eksport - 8,9 mlrd. doll., import - 5,2 mlrd. AQSh doll., savdo balansi 3,8 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi. O'tgan yil bilan qiyoslanganda tashqi savdo aylanmasi 27,4 foizga oshdi. Bunda eksport operatsiyalari tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmining 63,2 foizini va import operatsiyalari - 36,8 foizini tashkil etadi.

Tovar ayirboshlash aktiv saldosinga 58,7 foiz yoki 2,2 mlrd. doll. xorijiyi mamlakatlar bilan savdo qilish hisobiga to'g'ri keldi. Ma'lumki, 2018 yilda mamlakatimizda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret choratadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Xususan:

– aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo‘lmagan stavkalarda 12 oygacha bo‘lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni budjetga barcha turdagi soliq va to‘lovlardan ozod qilish shular jumlasidandir.

Eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida tijorat banklari tomonidan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun 233,5 mlrd. so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilganligi, 105,8 mlrd. so‘m miqdorida budjet oldidagi va yetkazib berilgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar qarzlarini to‘lash muddatlarini keyinga surilganligi, barcha turdagi energiya manbalari va asosiy kommunal xizmatlar uchun narxlar o‘sishi o‘rtacha 7,7 foiz, ya‘ni past darajada saqlab qolinganligini ta‘kidlash mumkin.

### **Qisqacha xulosalar.**

Tashqi iqtisodiy aloqalar – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ko‘zgusi hisoblanib, sanoat va qishloq xo‘jaligi – tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi asosiy omillaridir. Iqtisodiyotda xalqaro teng manfaatli hamkorlikni o‘rnatishga

intilish – yangi ishlab chiqarish munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik va tovar ayriboshlashda xalqaro hurmat tamoyillariga rioya etish, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanish garovidir. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi – uning tabiiy va iqtisodiy geografik imkoniyatlari hamda geografik jihatlar bilan uzviy bog‘liq. Iqtisodiyotda xalqaro teng manfaatli hamkorlikni o‘rnatishga intilish – yangi ishlab chiqarish munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik va tovar ayriboshlashda xalqaro hurmat tamoyillariga rioya etish, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanish garovidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalardagi imkoniyatini baholang.
2. Mintaqalarning eksport salohiyati baholang.
3. Eksport qilinayotgan mahsulotlar va uni eksport qilayotgan mintaqalarni jadval usulida tasvirlang.

## **16-BOB. HUDUDLAR TARAQQIYOTINING EKOLOGIK JIHATLARI VA TABIATDAN FOYDALANISHNING MINTAQAVIY MUAMMOLARI.**

### **16.1. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ekologik jihatlari**

Tabiat", "jamiyat", "tabiiy sharoit", "tabiiy resurs", "tabiatdan foydalanish" va boshqa qator tushunchalarni bilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Koinotning tuzilishi murakkab bo'lib, uning eng kichik zarralaridan, osmon jismlarigacha paydo bo'lish va yo'q bo'lib ketishining, doimiy harakat va o'zgarishlarning abadiy jarayoni ta'sirida bo'ladi.

Tabiat – keng ma'noda Koinotning barcha moddiy-energetik va axborot olami hisoblanadi. Tabiat kishilik jamiyati mavjudligining tabiiy sharoitlari majmuasi bo'lib, unga insoniyat bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi hamda xo'jalik faoliyati orqali uzviy bog'langan.

Inson tabiatning elementi sifatida murakkab "tabiat - jamiyat" tizimining bir qismi hisoblanadi. Insoniyat tabiat hisobiga o'zining ko'plab ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Tabiiy muhit – abiotik va biotik tizimlar va umuman, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosferaning murakkab va xilma-xil birikmalari hamda o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Unda ekzogen, endogen va kosmik omillar va jarayonlar ta'sir ko'rsatib, g'oyat xilma-xil fizik, kimyoviy va biologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi va ular relifning rivojlanishini, jinslarning emirilishi va minerallarning paydo bo'lishi moddalar migratsiyasining geokimyoviy jarayonlarini va ularning tarqalishi va konsentratsiyasini, organik dunyoning rivojlanishini, quruqlik va Dunyo okeani uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos landshaft tiplarining shakllanishini belgilab beradi. Tabiiy sharoit – tabiatning jismi va kuchi, sifati bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida inson faoliyatida bevosita ishtirok etmasada, jamiyatning hayoti va faoliyatini belgilab beradi.

"Tabiiy resurslar" kategoriyasi birinchi navbatda tabiatning inson xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ularga foydali qazilmalar, tuproq, o'simlik va hayvonot olami, atmosfera havosi, suv, iqlim, quyosh va kosmik radiatsiya kiradi.

Tabiatdan foydalanish – tabiiy-resurslardan foydalanish va ularni saqlab qolish tadbirlarining barcha shakllari majmuidir.

Tabiatdan foydalanish tabiiy-resurs potentsialining keskin o'zgarishiga olib kelmasa, u tabiatdan ratsional foydalanish hisoblanadi.

Inson xo'jalik faoliyati – kishilik jamiyatining tabiatdan foydalanish jarayoni bo'lib, unda ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar vujudga kelib, uning natijasida modda va energiya, mahsulot, xo'jalik va maishiy chiqindilarning xo'jalik aylanishi sodir bo'ladi, xo'jalik tuzilmalari shakllanadi: ishlab chiqarish va ijtimoiy tuzilmalar (shaharlar, qo'rg'onlar, qishloqlar). Tabiiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimlar birgalikda inson yashaydigan va mehnat qiladigan muhitni tashkil etadi.

Odam o'z xo'jalik faoliyati jarayonida ekotizimlarga yoki uning ayrim bo'g'inlariga doimiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda Yerda odamning ta'siriga uchramagan ekotizimlar amaliy jihatdan qolmagan. O'rmonlarni kesish, tuproq eroziyasi, tabiiy landshaftni qurilish obyektlari, o'zlashtirilgan konlar, shaharlar bilan almashtirish fotosintetiklarning umumiy massasini kamaytiradi, biotik aylanib yurishni odatga aylantiradi, insonning hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Sivilizatsiya tarixi mobaynida o'rmonlarning 2/3 qismi kesib yuborilgan, 200 turdan ortiq hayvon va o'simliklar yo'qotilgan, atmosferadagi kislorod zahirasi 10 mlrd. tonnaga kamaygan, qishloq xo'jaligini noto'g'ri olib borish oqibatida 200 mln. gektar qishloq xo'jalik yerlari foydalanishdan chiqqan.

So'nggi chorak asrda insoniyatning noratsional xo'jalik faoliyati oqibatida har yili 44 ming ga yer cho'lga aylanmoqda, 690 ming ga o'rmon yo'qotib yuborilmoqda.

Hududlar ekologik vaziyatining buzilishi ularning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan hisoblanadi. Bu mamlakatimiz mintaqalari uchun ham xos. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ekologik jihatlari deganda atrof muhitning buzilishi, dastavval atmosfera havosining ifloslanishi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Atmosfera – yer kurrasining tashqi qobig'i, u yer sathining umumiy issiqlik rejimini bir maromda saqlaydi, koinotdan keladigan turli zararli osmon jismlari va ular ta'siridan asraydi. Atmosfera tsirkulyatsiyasi mahalliy iqlim sharoitlariga ta'sir etadi va u orqali

daryolarning suv rejimi, tuproq-o'simlik sharoitlariga, shuningdek relef hosil bo'lish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Atmosferaning gaz tarkibida azot-78 foiz, kislorod-21 foizni, argon, uglerod ikki oksidi va boshqa gazlar bir foizni tashkil etib, shu nisbatlarning buzilishi uning ifloslanishidan dalolat beradi.

Atmosferaning ifloslanishi tabiiy va antropogen turlarga bo'linadi. Tabiiy ifloslanish tabiiy jarayonlar natijasida amalga oshadi. Atmosferaning antropogen ifloslanishi changli, gazli, kimyoviy (shu jumladan, tuproqning ximikatlar bilan ifloslanishi), aromatik, issiqlik (suv, havo, tuproq haroratining o'zgarishi), radiktiv turlarga bo'linadi. Ifloslanishning manbai inson xo'jalik faoliyati hisoblanadi (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport).

Atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish uning gaz tarkibini o'zgartiradi va fotosintez reaksiyasiga to'sqinlik qiladi. Industrial rayonlarda tuproqlarda marganets, xrom, nikel, mis, kobalt, qo'rg'oshin miqdorining oshishi qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini pasaytiradi. Masalan, bug'doy hosildorligi 20-30 foizga, kartoshka 47 foiz, qand lavlagi 35 foizga kamayadi. Bunday to'siqlar ekotizimning emirilishiga, trofik daraja – productsentlar yo'qotilishiga va biosfera mahsulдорligini ancha pasayishiga olib keladi.

Atmosferani ifloslantiruvchi chiqindilar ikki qismga – gazsimon va qattiq moddalarga ajratiladi. Gazli moddalar butun chiqindilarning 90 foizini, qattiq moddalar esa 10 foizni tashkil etadi. Atmosferani ifloslantiruvchi manbalarni tabiiy va ishlab chiqarish-maishiy jarayonlar tashkil qiladi. Tabiiy manbalarga chang, chang-to'zon, vulqonlarning otilishi, koinot changlari va boshqalar xos.

Jami chiqindilarning 51,9 foiz uglerod oksidi, 16,0 foiz - oltingugurt dioksidi, 17,9 foiz - uglevodorodlar, 8,9 foiz - okidli azoti, 6,1 foiz - qattiq chiqindilar va 0,2 foiz - boshqa turli zararli chiqindilar hisobiga to'g'ri keladi. Stantsionar manbalar chiqindilari orasida oltingugurt dioksidi, uglevodorodlar, qattiq chiqindilar, harakatlantiruvchi manbalar orasida esa uglerod oksidi va uglevodorodlarning ulushi katta.

Stantsionar manbalardan atmosferaga 150 dan ko'p turdagi ifloslantiruvchi chiqindilar, shu jumladan, yuqori darajali xavfli - og'ir metallar, pyatiokis vanadiy, benz(a)piren, ozon, mishyak va boshqalar chiqadi. Ushbu manbalar tomonidan chiqarilayotgan zararli

moddalarning 34,1 foiz energetika korxonalari, 31,9 foiz “O‘zbekneftgaz”, 16,5 foiz metallurgiya, 3,8 foiz qurilish sanoati, 3,6 foiz kommunal xizmat ko‘rsatish, 2,6 foiz kimyo sanoati hissasiga to‘g‘ri keladi. Boshqa korxonalarning ulushi 7,4 foiz dan ortmaydi.

#### 16.1-jadval

#### Atmosfera havosida mavjud bo‘lgan ayrim moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyasi (REK)<sup>54</sup>

| Moddalar                        | REK, har mg da m <sup>-3</sup> |                   |
|---------------------------------|--------------------------------|-------------------|
|                                 | Bir marta eng ko‘p             | O‘rtacha sutkalik |
| Azot qo‘sh oksidi               | 0,085                          | 0,085             |
| Azot ishqori                    | 0,4                            | 0,4               |
| Ammiak                          | 0,2                            | 0,2               |
| Atseton                         | 0,35                           | 0,35              |
| Benzol                          | 1,5                            | 0,8               |
| Geksaxlorsiklogeksan            | 0,03                           | 0,03              |
| Kaprolaktam (bug‘lar, ayerozol) | 0,06                           | 0,06              |
| Karbofos                        | 0,2                            | 0,2               |
| Metafos                         | 0,008                          | -                 |
| Mishyak                         | -                              | 0,003             |
| Simob metalli                   | 0,15                           | 0,05              |
| Qo‘rg‘oshin                     | -                              | 0,0007            |
| Oltingugurt qo‘sh oksidi        | 0,008                          | 0,008             |
| Oltingugurt vodorodi            | 0,03                           | 0,005             |
| Uglerod oksidi                  | 3                              | 1                 |
| Fenol                           | 0,01                           | 0,01              |
| Formaldegid                     | 0,035                          | 0,012             |
| Ftoridlar                       | 0,02                           | 0,005             |
| Xlor                            | 0,1                            | 0,03              |
| Xlorofos                        | 0,04                           | 0,02              |

<sup>54</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

Hududiy jihatdan ularning taxminan 90 foizi Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aynan ushbu mintaqalarda ekologik «iflos» mahsulotlar ishlab chiqaradigan respublikaning asosiy sanoat salohiyati to'plangan. Bular qora va rangli metallurgiya, kimyo neft kimyosi, gaz va neft qazib chiqarish hamda uni qayta ishlash, energetika va qurilish materiallari sanoati korxonalarini tashkil etadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 81 mingdan ortiq atmosferani ifloslantiruvchi stantsionar manbalarga ega bo'lgan 1971 ta korxona ro'yxatga olingan. Ular umumiy quvvati 192822,1 ming m<sup>3</sup> bo'lgan 11756 ta gaz va changdan tozalash uskunalari (GCHTU) bilan jihozlangan. 2000 dan ortiq korxona chang ushlagich va gaz tozalagich vositalar yetarli darajada ta'minlanmagan. Zararli chiqindilarni tozalash samaradorligi 70,1 foizni tashkil etadi, chunki 77 foiz asbob-uskunalar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan.

XX asr boshlarida atmosfera ifloslanishining o'rtacha darajasi (AII - 5-6) Nukus, Olmaliq, Toshkent, Farg'ona shaharlarida kuzatildi. Atmosfera yuqori ifloslangan shahar – Navoiy (AII - 7,62). SHu bilan birga, ayrim shaharlarda sanitar-gigiena me'yoring o'rtachadan ortib ketishi kuzatiladi. Xususan, chang – Olmaliq, Buxoro, Guliston, Qarshi, Qo'qon, Navoiy, Nukus, Samarqand, Toshkent; oltingugurt dioksidi - Olmaliq; azot dioksidi – Olmaliq, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Termiz; fenol – Angren, Navoiy, Farg'ona; ammiak – Andijon, Navoiy, Chirchiq, Toshkent; troposfera ozoni – Olmaliq, Angren, Bekobod, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Chirchiq shaharlarida me'yordan ortmoqda.

Avtotransport majmuasi – atmosfera havosining ifloslantiruvchi asosiy harakatlanuvchi manba bo'lib, uning salmog'i yalpi sanoat va energetika chiqindilariga nisbatan ikki marta ko'pdir. Avtotransport chiqindilari havoni is gazi, azoti, oksidi, uglevodorodlar, benz(a)piren, aldegidlar, hamda qo'rg'oshin bilan ifloslantiradi.

## 16.2. Yer va suv resurslaridan foydalanishdagi mintaqaviy xususiyatlar

Yer insonning bebaho boyligi, yer o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, kiyintiradi, qurilish materiallari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlaydi. Shuning uchun ona –yerni muhofaza qilish har bir qaddas burchidir.

Quruq iqlim sharoitida sug'oriladigan yerlar beqiyos ahamiyatga ega. Obikor yerlar Respublikada yer maydonining 10 foiz qismini egallagan holda ziroatchilikda etishtiriladigan barcha mahsulotning 95 foizini yetkazib beradi.

### 16.2-jadval

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi, ming ga<sup>55</sup>.

| Viloyatlar        | Sug'oriladigan yerlar maydoni | Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha taqsimlanishi |         |           |                       |
|-------------------|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------|-----------|-----------------------|
|                   |                               | sho'rlan-magan                                                        | kuchsiz | o'rta-cha | kuchli va juda kuchli |
| Andijon           | 275,1                         | 245,2                                                                 | 14,9    | 14,9      | -                     |
| Buxoro, Navoiy    | 271,8                         | 15,4                                                                  | 160,1   | 62,5      | 33,8 4,1              |
| Jizzax            | 290,6                         | 51,7                                                                  | 161,1   | 73,3      | 13,7                  |
| Qashqadaryo       | 497,4                         | 275,1                                                                 | 162,3   | 45,9      | 0,9                   |
| Namangan          | 270,3                         | 233,6                                                                 | 33,1    | 2,7       | 0,9                   |
| Samarqand         | 370,3                         | 351,2                                                                 | 12,9    | 5,3       | 3,8                   |
| Surxondaryo       | 326,2                         | 196,8                                                                 | 75,4    | 50,2      | 13,9                  |
| Sirdaryo          | 296,5                         | 12,9                                                                  | 220,9   | 48,7 2,1  | 0,3                   |
| Toshkent          | 377,1                         | 366,9                                                                 | 7,8     | 32,0      | 5,7                   |
| Farg'ona          | 351,6                         | 140,8                                                                 | 173,1   | 77,5      | 31,0                  |
| Xorazm            | 270,8                         | -                                                                     | 162,3   |           |                       |
| Qoraqalpog'iston  |                               |                                                                       |         | 181,9     | 53,0                  |
| Respublikasi      | 500,9                         | 35,9                                                                  | 230,1   | 628,0     | 165,6                 |
| Mamlakat bo'yicha | 4220,2                        | 1942,9                                                                | 1483,9  |           |                       |

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



O'zbekistonda barcha sug'oriladigan yerlarning maydoni 4,2 mln. ga dan ortiq. Sug'oriladigan yerlardan joylarning litologik-geomorfologik xususiyatlariga qarab foydalanish samaradorligi turlicha. Ekinlarni sug'orishda gidromorf meliorativ usulning qo'llanilish grunt suvlari sathining yer betiga yaqin joylashishi (1-3 m) ga olib kelgan. Respublikamizdagi jami sug'oriladigan yerlarning qariyb yarmi turli darajada sho'rlangan. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Markaziy Farg'onaning yerlarini sho'r bosgan (16.2-jadval).

Sug'oriladigan yerlar suv va shamol eroziyasi tufayli ham jiddiy zarar ko'radi. Respublika Fanlar akademiyasi tuproqshuoslik va agrokimyo institutining ma'lumotiga ko'ra, barcha haydaladigan yerlarning 1422 ming gektarida suv eroziyasi ro'y beradi. Shu jumladan lalmi yerlarda 700 ming ga maydonda jala eroziyasi, 722 ming ga maydonda sug'orma eroziya, 40 ming ga dan mo'lroq maydonda jar eroziyasi sodir bo'lmoqda. Shamol eroziyasi ham 2 mln. ga maydonda ro'y beradi. Eroziyaga duchor bo'lgan yerlarda hosil eroziyaga uchramagan yerlarga pisbatan ikki uch marta kam bo'ladi. Sug'orma eroziya ko'proq Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi tog' etaklari va adirlar qiya yon bag'irlarini o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi arafasida paxta va sholi yakka hokimligi barcha sug'oriladigan yerlarning oriqlanishiga olib keldi. Hosil miqdorini ko'paytirish orqasidan quvish natijasida o't almashlab ekish tartibi (dehqonchilikning tuproqni saqlash tizimi) buzib kelingan, chorvachilikni rivojlantirishga (nafaqat go'sht, sut, tuxum, hattoki organik o'g'it - go'ngning miqdori chegaralab qo'yilgan edi) e'tibor berilmagan, buning oqibatida tuproq oriqlanib borgan, uning mahsuldorligini oshirish maqsadida ko'plab miqdorda turli mineral o'g'it va har xil pestitsidlar tuproqqa solib kelingan. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra hozirgi vaqtda paxta va boshqa ekinlar hosilining yarmi mineral o'g'itlardan foydalanish hisobiga olinmoqda.

Bu hol hosil sifatining pasayishiga sabab bo'lgan, mikroorganizmlarning zaharlanishi natijasida ular qirilib ketgan, tabiiy chirindi miqdorining kamayishi ro'y bergan, chunki undagi. Bular

oqibatida paxta etishtiriladigan asosiy och va tipik boʻz, oʻtloq tuproqlarda chirindi (gumus) miqdori deyarli yarmiga qisqargan.

**16.3-jadval**

**Eroziyaga va tuproq shoʻrlanishi darajasi(sugʻoriladigan maydonlarga nisbatan foiz nisbati)<sup>56</sup>.**

| Mamlakat mintaqalari          | Tuproq eroziyasi (%) |        | Tuproq shoʻrlanishi (%) |                                  |
|-------------------------------|----------------------|--------|-------------------------|----------------------------------|
|                               | Suv                  | Shamol | Jami shoʻrlangan        | Shu jumladan, oʻrtacha va kuchli |
| Qoraqalpogʻiston Respublikasi | 21,4                 | 97,6   | 90                      | 38,9                             |
| Viloyatlar                    |                      |        |                         |                                  |
| Andijon                       | 7,2                  | 27,2   | 9,2                     | 4,6                              |
| Buxoro                        | 2,2                  | 58,5   | 95,7                    | 37,6                             |
| Jizzax                        | 17,0                 | 73,7   | 97,9                    | 39,3                             |
| Qashqadaryo                   | 14,6                 | 74,0   | 47,9                    | 13,2                             |
| Navoiy                        | 0,9                  | 11,3   | 86,9                    | 33,5                             |
| Namangan                      | 22,1                 | 50,7   | 23,6                    | 4,1                              |
| Samarqand                     | 28,6                 | 18,2   | 3,6                     | 1,4                              |
| Surxondaryo                   | 57,2                 | 52     | 42,9                    | 16,5                             |
| Sirdaryo                      | 14,6                 | 68,8   | 83,1                    | 30,9                             |
| Toshkent                      | 24,9                 | 3,8    | 2,4                     | 0,4                              |
| Fargʻona                      | 5,7                  | 55,3   | 52,3                    | 27,0                             |
| Xorazm                        | 0,0                  | 91,6   | 100                     | 53,1                             |
| Mamlakat boʻyicha             | 18,8                 | 55,7   | 52,2                    | 18,4                             |

Hozir oʻsimlikning azot oʻgʻitlaridan foydalanish koeffitsienti 30 % ni tashkil qiladi, fosfor oʻgʻitlaridan 12-15 %, kaliydan 30 % foydalanadi, ularning qolgan miqdori esa tuproqda foydalanmay qoladi va grunt suvlarida hamda qishloq xoʻjalik ekinlari tarkibida toʻplanadi.

<sup>56</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qoʻmitasi maʼlumotlari asosida hisoblangan.

Yaqin yillargacha O'zbekiston hududida agrolandshaftlarning har bir gektariga ishlatiladigan pestitsidlarning o'rtacha miqdori 54 kg atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 1-2 kg ni, AQSh da 2-3 kg ni tashkil etgan. O'tgan asrning 80 yillarda Respublikada pestitsidlardan foydalanish eng yuqori darajaga etgan (paxta etishtiriladigan mintaqada gektariga 54,4 kg), shundan so'ng uning miqdori borgan sari kamayib bormoqda.

O'zbekiston suv resurslarining asosiy qismi ikki yirik daryo: Amudaryo va Sirdaryo hissasiga to'g'ri keladi, ularning suv olish havzalari Tyan-Shan va PomirOloy tizimi tog'larida joylashgan. O'zbekistonda eng yirik daryo Amudaryo hisoblanadi. Uning tog' qismida suv oluvchi havzasi 227 ming km<sup>2</sup>, uning havzasidan har yili o'rtacha 79 km<sup>3</sup> suv oqib o'tadi.

Shundan respublika hududida taxminan 6 km<sup>3</sup> (7,5 %) suv oqimi vujudga keladi. Sirdaryoning tog'li qismidagi suv oluvchi havzasi maydoni 150 ming km<sup>2</sup>, ushbu havzada har yili o'rtacha 38 km<sup>3</sup> suv oqib o'tadi. Shundan taxminan 4 km<sup>3</sup> (qariyb 10 %) suv O'zbekistonda vujudga keladi. Qirg'iziston va Janubiy Qozog'istondagi berk botiqlarining suv oqimi 10,2 km<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

O'zbekiston hududida vujudga keladigan yer usti suvlarining o'rtacha yillik oqim hajmi 10 km<sup>3</sup>, atrofdan qo'shimcha 89 km<sup>3</sup> suv keladi. Daryolar oqimini tartibga solish, irrigatsiya va energiya ishlab chiqarish maqsadida mamlakatda 53 ta katta-kichik suv ombori va 28 ta selxona qurilgan, suv omborlarining jami suv sig'imi 16 km<sup>3</sup>dan ziyod.

| O'zbekistonning suv omborlari. |                      |                     |                          |                            |                        |
|--------------------------------|----------------------|---------------------|--------------------------|----------------------------|------------------------|
| Suv ombori nomi                | Ombor qurilgan daryo | Maydoni, km. kv. da | Suv hajmi, mln. m. kubda | Chüqurligi o'rtacha, m. da | Eng chuqur joyi, m. da |
| Tuyamo'yn                      | Amudaryo             | 700                 | 7000                     | 20                         | 40                     |
| Chirdara                       | Sirdaryo             | 900                 | 5700                     | -                          | -                      |
| Qayrag'ush                     | Sirdaryo             | 313                 | 4500                     | -                          | -                      |
| Chirchik                       | Chirchik             | 403                 | 1900                     | 50                         | 160                    |
| Kattaqo'rg'on                  | Zarafshan            | 813                 | 8200                     | 20,1                       | 28                     |
| Tuyabog'iz                     | Ohangar              | 260                 | 250                      | 11,2                       | 11,5                   |

17-rasm. O'zbekistonning yirik suv omborlari.

O'zbekistonda yiliga 71,69 km kub suv sarflanib, shuning 60,39 km kubi sug'orishga, qolgan qismi esa (11,30 km kub) sanoat, maishiy-kommunal va boshqa sohalarga ishlatiladi. Mamlakat chuchuk suvining 92 foiz qishloq xo'jaligida, 6 foiz sanoatda, 0,5 foiz kommunal xo'jaligida, 1,5 % bug'lanib ketib sarflanadi. Ichki suv resurslari organik, noorganik, mexanik, bakteriologik moddalar to'planishi va har xil bakteriyalarning paydo bo'lishi orqali ifloslanadi. Shu bois, suv havzalarining antropogen ifloslanish manbalari-tabiiy, sun'iy mineral va radioaktiv ifloslanish turlariga ajratiladi.

Suvni ifloslovchi manbalar orasida sanoat ishlab chiqarishi va maishiykommunal xo'jaligining ulushi yuqori. Sanoat chiqindi suvlari tarkibida tirik organizm uchun xafli bo'lgan fenol, vodorod sulfati, ammiak, mis, rux, simob, tsionid, mishyak, xrom va boshqa zaharli hamda biogen moddalar uchrab, ular oqava suvlar bilan birga daryo, ko'l va suv omborlariga qo'shiladi. Natijada suv tarkibidagi zaharli ximikatlar konsentratsiyasi miqdori normadan 1,8 - 3,0 marta oshib ketdi. Xalqaro amaliyotda suv resurslarini tozalash va uni iste'molga jalb etish muhim ahamiyat kasb etib, hozirda mexanik, kimyoviy, elektroliz, biologik kabi tozalash usullaridan keng foydalanilmoqda.

### **16.3. Hududlar ekologik vaziyatini sog'lomlashtirish yo'llari**

Sobiq ittifoq davrda O'zbekiston hududidagi tabiiy resurslardan noratsional foydalanish, ma'naviy eskirgan ishlab chiqarish ob'ektlariga mavjud tabiiy salohiyatni jalb etilishi uning ekologik vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqillik yillarida atrof-muhit muhofazasi sohasida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan chorak asr davomida ishlab chiqarish obyektlari modernizatsiya qilinmoqda, korxonalar avtomobil parklari yangilanmoqda, natijada atmosferaga chiqarib yuboriladigan zaharli moddalar miqdori 1,7 marta qisqardi. Lekin, atrof-muhit muhofazasi sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan ishlar ko'lami kattaligicha qolmoqda.

Mintaqalar tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanilmaslik, atrof-muhit holati, ijtimoiy-ekologik vaziyatni inobatga olinmasligi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan:

✓ motor yoqilg'isi sifat talablariga javob bermaydi, tarkibida ko'p miqdorda oltingugurt moddasi bo'lgan etilli benzin va dizel yoqilg'isidan keng foydalanilmoqda;

✓ avtotransportdan ko'p miqdorda zararli chiqindilar chiqishiga asosiy sabablardan biri ularning eskirganligi bilan bog'liq. Davlat sektorida 50 foiz, xususiy sektorda 40 foiz avtotransport vositalaridan 10 yildan ko'p vaqt davomida foydalanib kelinmoqda.

✓ korxonalarning diagnostika negizlari juda zaif bo'lib, ularda yoqilg'i sifatini nazorat qiluvchi asboblari etishmaydi. Natijada, har kuni davlat sektoriga qarashli 150 mingdan ortiq avtotransport vositalari ekologik nazoratdan o'tkazilmasdan reyslarga chiqarilmoqda;

✓ avtotransportlarning siqilgan tabiiy va yoqilgan neftli gazlarga o'tish jarayoni nihoyatda sekinlik bilan amalga oshirilmoqda;

✓ sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasining pastligi, modernizatsiya qilish darajasining sust kechayotganligi;

✓ tabiiy resurslar va ulardan foydalanish uchun belgilangan to'lovlarning bozor mexanizmini mavjud emasligi;

✓ tabiatga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlik mexanizmining takomillashmaganligi.

Mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash va ekologik muammolar echimini hal etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

✓ mintaqalarining tabiiy va mehnat resurslari salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish;

✓ sanoatning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish;

✓ eski korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yangi zamonaviy korxonalar qurilishini jadallashtirish,

✓ ichki tarmoq va tarmoqlarora kooperatsiya va kasanachilikni rivojlantirish;

✓ sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibini takomillashtirish;

✓ xomashyo va energiya sig'imini kamaytirish;

✓ mahsulotlarning yangi raqobatbardosh, eksportbop turlarini ko'paytirish;

✓ ekologik noqulay mintaqalarda atrof-muhit muhofazasi sohasida qator tadbirlarni amalga oshirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda atrof muhitni himoya qilish sohasida iqtisodiy dastaklardan samarali foydalanish zarur. Ayniqsa, moliya resurslaridan tabiat muhofazasi muammolarini regional, hududiy (mahalliy) ahamiyatga molik darajada yechishda, tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarish va muhofaza qilish, yangi chiqindisiz, energiya va resurslarning tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, ifloslantiruvchi moddalarni tozalash va zararsizlantiruvchi samarali uskuna va inshootlarni qurishda foydalanish muhimdir. Binobarin, iqtisodiy omil va dastaklarni qo'llashdan asosiy maqsad ham tabiiy resurslarning narxini aynan belgilash va ulardan samarali, maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlashdir.

### **Qisqacha xulosalar.**

Tabiiy muhit – abiotik va biotik tizimlar va umuman, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosferaning murakkab va xilma-xil birikmalari hamda o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Unda ekzogen, endogen va kosmik omillar va jarayonlar ta'sir ko'rsatib, g'oyat xilma-xil fizik, kimyoviy va biologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi va ular relefnining rivojlanishini, jinslarning emirilishi va minerallarning paydo bo'lishi moddalar migratsiyasining geokimyoviy jarayonlarini va ularning tarqalishi va konsentratsiyasini, organik dunyoning rivojlanishini, quruqlik va Dunyo okeani uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos landshaft tiplarining shakllanishini belgilab beradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar.**

1. Mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotida ekologik vaziyatning ta'sirini aniq misollar yordamida tavsiflang.
2. Ekologik muammolarning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini jadval asosida tasvirlang.
3. Atmosfera havosi ifloslangan mintaqalarni ajrating va uning sabablarini asoslab bering.

## GLOSSARIY

| Inglizcha                              | Rus                                                  | O'zbek-kirill                                | Ma'nosi-lotin                                                                                                                                               |
|----------------------------------------|------------------------------------------------------|----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Agrarian crises                        | Аграрные кризисы                                     | Аграр инқирозлар                             | – qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo'lib, siklli tavsifga ega bo'lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi. |
| Agrarian relations                     | Аграрные отношения                                   | Аграр муносабатлар                           | – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.          |
| Agricultural production infrastructure | Сельскохозяйственная Производственная инфраструктура | Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш инфратузилмаси | – bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.                                                                                |
| Agro-industrial complex                | Агропромышленный комплекс                            | Агросаноат мажмуаси                          | – qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi. |
| Budget deficit                         | Бюджетный дефицит                                    | Бюджет тақчиллиги                            | – davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.                                                                                                |
| Business activities                    | Предпринимательская деятельность                     | Тадбиркорлик фаолияти                        | – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.                                     |

|                          |                       |                       |                                                                                                                                                          |
|--------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Business cycle           | Экономический цикл    | Иқтисодий цикл        | – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liq inqisimon harakati.                           |
| Climb                    | Подъём                | Юксалиш               | – iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to'liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib                             |
|                          |                       |                       | ketishi va to'lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.                                                                          |
| Commodity exchange       | Товарная биржа        | Товар биржаси         | – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.                                                                            |
| Comparable prices        | Сопоставимые цены     | Қиёсий нарх           | – ishlab chiqarishning natijalari ma'lum yil (basis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx.                               |
| Competition              | Конкуренция           | Рақобат               | – bozor subektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafsilikka ega bo'lish uchun kurash. |
| Concentration of capital | Концентрация капитала | Капиталнинг тўпланиши | – qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.                                                 |



|                             |                            |                             |                                                                                                                        |
|-----------------------------|----------------------------|-----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Concentration of production | Концентрация производства  | Ишлаб чиқаришнинг тўпланиши | – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishi.  |
| Consumer spending           | Потребительские расходы    | Истеъмол сарфлари           | – aholi daromadlarining tirikchilik ne‘matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan                                       |
| Consumption                 | Потребление                | Истеъмол                    | – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.                                    |
| Consumption                 | Потребление                | Истеъмол                    | – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni. |
| Corporate sector            | Предпринимательский сектор | Тадбиркорлик сектори        | – iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo‘g‘ini.                                    |
| Credit                      | Кредит                     | Кредит                      | – bo‘sh turgan pul mablag‘larini fondi ssuda shaklida to‘plash ularni va                                               |
|                             |                            |                             | takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.                                                               |
| Current prices              | Текущие цены               | Жорий нарх                  | – yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblashda qo‘llaniluvchi amaldagi narx.                                 |

|                       |                             |                          |                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------|-----------------------------|--------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Cyclical unemployment | Циклическая безработица     | Циклик ишсизлик          | – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.                                                                                                   |
| Demand for labor      | Спрос на рабочую силу       | Ишчи кучи талаби         | – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.                                                |
| Depreciation rate     | Норма амортизации           | Амортизация нормаси      | – amortizatsiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.                                                                                     |
| Depression            | Депрессия                   | Турғунлик (депрессия)    | – ishlab chiqarishning bir joyda deqsiniб turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi. |
| Direct methods        | Прямые методы               | Бевосита усуллар         | – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma'muriy vositalari.                                                                            |
| Disposable income     | Располагаемый доход         | Ихтиёрида бўлган даромад | – barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.                                                 |
| Disposal of property  | Распоряжение собственностью | Мулкни тасарруф этиш     | – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.                                                                                                                                                 |

|                         |                             |                          |                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|-------------------------|-----------------------------|--------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Distribution            | Распределение               | Тақсимот                 | – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni.                                                                                                                                         |
| Diversi-<br>fication    | Диверсификация              | Диверсификация           | – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirish. |
| Economic<br>categories  | Экономические<br>категории  | Иқтисодий<br>категория   | – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.                                                                                                                                 |
| Economic<br>crisis      | Экономический<br>кризис     | Иқтисодий<br>инкироз     | – ishlab chiqarish hajmi-ning keskin tushib ketishi.                                                                                                                                                                                                               |
| Economic<br>development | Экономическое<br>развитие   | Иқтисодий<br>rivojlanish | – ko'p qirrali jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.                                                                                                                                                                 |
| Economic<br>equilibrium | Экономическое<br>равновесие | Иқтисодий<br>muvozanat   | – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.                                                                                                                                                                 |

|                          |                                  |                                  |                                                                                                                                                            |
|--------------------------|----------------------------------|----------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Economic growth          | Показатели экономического роста  | Иқтисодий ўсишнинг кўрсаткичлари | – iqtisodiy o‘rtni aniq-lashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.                           |
| Economic or pure profit  | Экономическая или чистая прибыль | Иқтисодий ёки соф фойда          | – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan                                                                               |
| Economic proportionality | Экономическая пропорциональность | Иқтисодий мутаносиблик           | – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasida miqdor va sifat o‘lchamlarning mos kelishlik darajasi.                                             |
| Economic reforms         | Экономические реформы            | Иқтисодий ислохотлар             | – iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.                                                          |
| Economic savings         | Экономическое сбережение         | Иқтисодий жамғариш               | – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ko‘paytirish uchun sarflanib borishi.                                       |
| Economy stabilizing      | Стабилизация экономики           | Иқтисодиётни барқарорлаштириш    | – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish shart-sharoitlarni vujudga keltirish. |
| Emigration               | Эмиграция                        | Эмиграция                        | – fuqarolarning o‘z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib                                                                      |

|                           |                                 |                                     |                                                                                                                                           |
|---------------------------|---------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                           |                                 |                                     | o'tishi.                                                                                                                                  |
| Exchange                  | Обмен                           | Айирбошлаш                          | – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.                    |
| Exchange                  | Биржа                           | Биржа                               | – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.                   |
| Exchange rate             | Валютный курс                   | Валюта курси                        | – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.                                                               |
| Export                    | Экспорт                         | Экспорт                             | – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. |
| Extended reproduction     | Расширенное воспроизводство     | Кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш | – ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.                                      |
| Extensive economic growth | Экстенсивный экономический рост | Экстенсив иқтисодий ўсиш            | – ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.                        |
| Factoring                 | Факторинг                       | Факторинг                           | – bos                                                                                                                                     |

|                            |                                          |                               |                                                                                                                                                              |
|----------------------------|------------------------------------------|-------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                            |                                          |                               | subyektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.                                                              |
| Factors of Economic Growth | Факторы экономического роста             | Иқтисодий ўсиш омиллари       | – iqtisodiy o‘‘sishga ta‘sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.                  |
| Final product              | Конечный продукт                         | Пировард махсулот             | – ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va umumli iste‘mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlar.                                                     |
| Financial system           | Финансовая система                       | Молия тизими                  | – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.                                                            |
| Fiscal (fiscal) policy     | Фискальная (налогово-бюджетная) политика | Фискал (солик-бюджет) сиёсати | – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha qo‘llaniluvchi chora-tadbirlar. |
| Forfeiting                 | Форфейтинг                               | Форфейтинг                    | – uzoq muddatli faktoring munosabatlari.                                                                                                                     |
| Frictional unemployment    | Фрикционная безработица                  | Фрикцион ишсизлик             | – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o‘rinlar bo‘shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.                                                     |

|                              |                                    |                            |                                                                                                                                                                              |
|------------------------------|------------------------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| General equilibrium          | Общее равновесие                   | Умумий мувоза-натлик       | – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati.                              |
| Government sector            | Государственный сектор             | Давлат сектори             | – o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli budjet tashkilotlari va muassasalarining majmui. |
| Gross domestic product (GDP) | Валовой внутренний продукт (ВВП)   | Ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)   | – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va                                                                                                     |
|                              |                                    |                            | xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.                                                                                                                                    |
| Gross national product (GNP) | Валовой национальный продукт (ВНП) | Ялпи миллий маҳсулот (ЯММ) | – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.     |
| Households                   | Домашние хозяйства                 | Уй хўжаликлари             | – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik.                                                                                            |
| Immigration                  | Иммиграция                         | Иммиграция                 | – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko'chib kelishi.                                                                                                     |
| Import                       | Импорт                             | Импорт                     | – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.                                                                                        |

|                           |                                |                         |                                                                                                                                                                                   |
|---------------------------|--------------------------------|-------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Incomes                   | Доходы населения               | Аҳоли даромадлари       | – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.                                                                                                |
| Indirect methods          | Косвенные методы               | Билвосита усуллар       | – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.                                                                                                               |
| Inflation                 | Инфляция                       | Инфляция                | – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.                                                                                                                                          |
| Inflation gap             | Инфляционный разрыв            | Инфляцион фарқ          | – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori.                                                                                                        |
| Intensive economic growth | Интенсивный экономический рост | Интенсив иқтисодий ўсиш | – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.                         |
| Intermediate              | Промежуточный продукт          | Оралик маҳсулот         | – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.                                                                                            |
| Investments               | Инвестиции                     | Инвестиция              | – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.                                                   |
| Joint-stock company       | Акционерное общество           | Акция-дорлик жамияти    | – ko'proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma. |



|                               |                          |                            |                                                                                                                                                                                                                                        |
|-------------------------------|--------------------------|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Labor exchange                | Биржа труда              | Мехнат биржаси             | – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchini oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.                                                                        |
| labor Objects                 | Предметы труда           | Мехнат предметлари         | – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.                                                                                                                                                           |
| Labor supply                  | Предложение рабочей силы | Ишчи кучи таклифи          | – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.                                                                                                       |
| Laffer curve                  | Кривая Лаффера           | Лаффер эгри чизиги         | – davlat budjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi.                                                                                                                                               |
| Leasing                       | Лизинг                   | Лизинг                     | – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli. |
| Liberalization of the economy | Либерализация экономики  | Иқтисодиётни эркинлаштириш | – bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga                                                                                 |

|                       |                      |                      |                                                                                                                                                          |
|-----------------------|----------------------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                       |                      |                      | yo'naltirilgan chora-tadbirlar                                                                                                                           |
| Macroeconomics        | Макроэкономика       | Макроиктисодиёт      | – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. |
| Market                | Рынок                | Бозор                | – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.   |
| Market economy        | Рыночная экономика   | Бозор иктисодиёти    | – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy                          |
| Market infrastructure | Инфраструктура рынка | Бозор инфратузилмаси | – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.                                        |
| Market mechanism      | Рыночный механизм    | Бозор механизми      | – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalar.           |

|                                            |                                                 |                                                       |                                                                                                                                                                                         |
|--------------------------------------------|-------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Market Objects                             | Объекты рынка                                   | Бозор объекти                                         | – ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.                              |
| Market participant                         | Субъект рынка                                   | Бозор субъекти                                        | – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.                                                                                                                                              |
| Market price                               | Рыночная цена                                   | Бозор нархи                                           | – bir tomondan, tovarlarning sotilishi ta'minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.                                       |
| Market reforms                             | Рыночные реформы                                | Бозор ислохотлари                                     | – bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.                                                                        |
| Materially                                 | Материально                                     | Моддийбуюмлашган                                      | – milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan                                                                                                                                      |
|                                            |                                                 | бойлик                                                | ashyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi.                                                                                                                                         |
| Methods of state regulation of the economy | Методы государственного регулирования экономики | Иқтисодий ва давлат томонидан тартибга солиш усуллари | – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.                                                                                                                         |
| Modernization                              | Модернизация                                    | Модернизация                                          | – jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining |

|                                     |                                   |                                           |                                                                                                                                                                                                                                    |
|-------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                     |                                   |                                           | majmui.                                                                                                                                                                                                                            |
| Moderni-<br>zation of<br>production | Модернизация<br>производства      | Ишлаб<br>чиқаришни<br>модернизаци<br>ялаш | – ishlab chiqarishni<br>zamonaviy<br>texnologiyalar bilan<br>jihozlash, uni ma'naviy<br>jihatdan yangilash,<br>tarkibiy jihatdan texnik<br>va texnologik qayta<br>tuzish kabi chora-<br>tadbirlarni o'z ichiga<br>oluvchi jarayon. |
| Monetary<br>system                  | Денежная система                  | Пул тизими                                | – tarixan tarkib topgan<br>va milliy qonunchilik<br>bilan mustahkamlangan,<br>mamlakatda pul<br>muomalasini tashkil<br>qilish shakli.                                                                                              |
| Money                               | Деньги                            | Пул                                       | – umumiy ekvivalent<br>rolini bajaruvchi maxsus<br>tovar.                                                                                                                                                                          |
| Money<br>turnover                   | Денежное<br>обращение             | Пул<br>муомаласи                          | – tovarlar aylanishiga<br>hamda notovar<br>tavsifidagi to'lovlar va<br>hisoblarga xizmat<br>qiluvchi naqd pullar va<br>unga tenglashtirilgan<br>moliyaviy aktivlarning<br>harakati.                                                |
| Natality                            | Естественный<br>прирост населения | Аҳолининг<br>табиий<br>ўсиши              | – bu aholining emig-<br>ratsiya va immig-<br>ratsiyadan tashqari<br>harakati.                                                                                                                                                      |
| National<br>income (ND)             | Национальный<br>доход (НД)        | Миллий<br>даромад                         | – yangidan vujudga<br>keltirilgan mahsulotning<br>puldagi ifodasi bo'lib,<br>hozirgi hisoblar tizimida                                                                                                                             |
|                                     |                                   |                                           | SMMdan egri soliqlarni<br>chiqarib tashlash yo'li<br>bilan aniqlanadi.                                                                                                                                                             |

|                            |                                   |                           |                                                                                                                                                                                      |
|----------------------------|-----------------------------------|---------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| National wealth            | Национальное богатство            | Миллий бойлик             | – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in'omlari. |
| Natural monopoly           | Естественная монополия            | Табиий монополия          | – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.      |
| Natural wealth             | Природное богатство               | Табиий бойлик             | – milliy boylikning tabiatda mavjud bo'lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiat ashyolari va kuchlari (yer, qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va boshqalar).      |
| Net National Product (NNP) | Чистый национальный продукт (ЧНП) | Соф миллий маҳсулот (СММ) | – yil davomida jonli mehnatning unumli harakati bilan yaratilgan yangi mahsulotdir.                                                                                                  |
| Nominal GDP                | Номинальный ВВП                   | Номинал ЯИМ               | – joriy narxlarda hisoblangan                                                                                                                                                        |
| Nominal income             | Номинальный доход                 | Номинал даромад           | – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.                                                                                                                          |

|                       |                         |                       |                                                                                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------|-------------------------|-----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Off-farm credit       | Межхозяйственный кредит | Хўжаликлар аро кредит | – bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo‘jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo‘jalik hisobi bo‘g‘inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag‘lari.                  |
| Okun's Law            | Закон Оукена            | Оукен қонуни          | – ishsizlik darajasi va YAIM hajmining orqada qolishi                                                                                                                                                                                                     |
|                       |                         |                       | o‘rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.                                                                                                                                                                                                                 |
| Ownership of property | Владение собственностью | Мулкка эгалик қилиш   | – mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning iqtisodiy shakli.                                                                                                                         |
| Partial equilibrium   | Частное равновесие      | Хусусий мувозанатлик  | – bu ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.                                                                                                                                         |
| Personal income       | Личный доход            | Шахсий даромад        | – milliy daromaddan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo‘liga kelib tushadigan ijtimoiy to‘lovlar summasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. |

|                        |                               |                              |                                                                                                                                     |
|------------------------|-------------------------------|------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Price                  | Цена                          | Нарх                         | – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.             |
| Private consumption    | Личное * потребление          | Шахсий истеъмо               | – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi. |
| Privatization          | Приватизация                  | Хусусийлаштириш              | – mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o'tishi.                                                   |
| Privatization          | Разгосударствление            | Давлат тассарруфидан чиқариш | – mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.                                      |
| Production             | Производство                  | Ишлаб чиқариш                | – kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.                  |
| Production function    | Производственная функция      | Ишлаб чиқариш функцияси      | – ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o'rtasidagi bog'liqlik.                                                            |
| Productive consumption | Производительн ос потребление | Унумли истеъмо               | – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.                                           |
| Productivity           | Производительность труда      | Меҳнат унумдорлиги           | – ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati.                                                             |
| Profit rate            | Норма прибыли                 | Фойда нормаси                | – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlarga bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi.                                             |

|                     |                              |                               |                                                                                                                                                                                               |
|---------------------|------------------------------|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Property relations  | Отношения собственности      | Мулкчилик муносабатлари       | – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.                                                                     |
| Public reproduction | Общественное воспроизводство | Ижтимоий такрор ишлаб чиқариш | – jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib                                                                                |
| Real GDP            | Реальный ВВП                 | Реал ЯИМ                      | – narxlarning o'zgarishini hisobga olib, o'zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan                                                                                                         |
| Real income         | Реальный доход               | Реал даромад                  | – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga etadigan quvvati, ya'ni aholi daromadining xarid quvvati. |
| Real wages          | Реальная заработная плата    | Реал иш хақи                  | – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.                                                         |
| Recessionary gap    | Рецессионный разрыв          | Рецессион фарк                | – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo'lgan miqdori.                                                                                                                         |
| Recovery            | Оживление                    | Жонланиш                      | – iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini                                                                                                               |



|                       |                           |                            |                                                                                                                                                            |
|-----------------------|---------------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                       |                           |                            | tavsiflovchi fazasi.                                                                                                                                       |
| Reexport              | Резэкспорт                | Резэкспорт                 | – biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi. |
| Reimport              | Реимпорт                  | Реимпорт                   | – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.                                                                                                |
| Saving                | Сбережение                | Жамғариш                   | – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.          |
| Shadow economy        | Теневая экономика         | Хуфёна иқтисодиёт          | – YAIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.                                                       |
| Simple reproduction   | Простое воспроизводство   | Оддий такрор ишлаб чиқариш | – ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishi.                                                                                         |
| Social infrastructure | Социальная инфраструктура | Ижтимоий инфрагузилма      | – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.                                                                    |
| Social payments       | Социальные платежи        | Ижтимоий тўловлар          | – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.                                                       |

|                             |                             |                             |                                                                                                                                                    |
|-----------------------------|-----------------------------|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Social politics             | Социальная политика         | Ижтимоий сиёсат             | – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat. |
| Soundness of investments    | Эффективность инвестиций    | Инвестициялар самарадорлиги | – milliy daromad (foйда) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.                                             |
| Stocks and bonds market     | Рынок ценных бумаг          | Қимматли қўғозлар бозори    | – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya, veksell, chek, depozit                                                             |
|                             |                             |                             | kabilar)ni oldi-sotdi munosabati.                                                                                                                  |
| Structural crises           | Структурные кризисы         | Таркибий инқирозлар         | – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.                    |
| Structural unemployment     | Структурная безработица     | Таркибий ишсизлик           | – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan                                                            |
| System of National Accounts | Система национальных счетов | Миллий ҳисоблар тизими      | – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.                  |
| Tax                         | Налог                       | Солиқ                       | – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli.                                                           |
| Tax rate                    | Ставка налога               | Солиқ ставкаси              | – soliq summasining soliq olinadigan sumмага nisbatining foiz-                                                                                     |

|                                     |                                     |                                      |                                                                                                                                                                           |
|-------------------------------------|-------------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                     |                                     |                                      | dagi ifodasi.                                                                                                                                                             |
| The criterion of economic growth    | Критерий экономического роста       | Иқтисодий ўсиш мезони                | – iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkichni xarakterlaydi.                                                                    |
| The economic functions of the state | Экономические функции государства   | Давлатнинг иқтисодий вазифалари      | – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan choratadbirlar.             |
| The economic growth                 | Экономический рост                  | Иқтисодий ўсиш                       | – YaIM, SMM, MD miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi. |
| The external debt of the state      | Внешний долг государства            | Давлат ташқи карзи                   | – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.                                             |
| The marginal propensity to consume  | Предельная склонность к потреблению | Истеъмолга кейинги қўшилган мойиллик | – daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.                                                                                |
| The marginal propensity to save     | Предельная склонность к сбережению  | Жамғаришга кейинги қўшилган мойиллик | – daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arish hajmining o'zgarishi darajasi.                                                                                       |
| The market of loan capital          | Рынок ссудного капитала             | Ссуда капитали бозори                | – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi-sotdi                                                                                  |

|                                      |                              |                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------|------------------------------|--------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                      |                              |                                | munosabati.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| The method of scientific abstraction | Метод научной абстракции     | Илмий абстракция<br>узули      | – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rgani-layotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratish.                                                                                                                                          |
| The multiplier effect                | Эффект мультипликатора       | Мультипликат<br>ор самараси    | – bu sof milliy mahsu-lotdagi o'zgarishning yalpi sarflardagi o'zga-rishga nisbati.                                                                                                                                                                                                                                         |
| The norm (rate) percent              | Норма (ставка) процента      | Фоииз нормаси (ставкаси)       | – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.                                                                                                                                                                                                                               |
| The production process               | Процесс производства         | Ишлаб чиқариш жараёни          | – kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat.                                                                                                                                                                    |
| The reproduction of the labor force  | Воспроизводство рабочей силы | Ишчи кучини такрор ҳосил қилиш | – insonning mehnatga bo'lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, qarigan ishchilar o'rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini etishtirish jarayoni. |
| The state                            | Государствен-                | Давлат                         | – davlat daromadlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |

|                       |                            |                    |                                                                                                                                                                                                                     |
|-----------------------|----------------------------|--------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| budget                | ный бюджет                 | бюджети            | xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.                                                                                                                              |
| The total labor force | Совокупная рабочая сила    | Ялпи ишчи кучи     | – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste'mol qiymatlarini aratishda ishtirok etuvchi birbiri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui. |
| The use of property   | Пользование собственностью | Мулкдан фойдаланиш | – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.                                                                  |
| Tools                 | Орудия труда               | Меҳнат куроллари   | – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalar.                                                                                                                                  |
| Total product         | Общий продукт              | Умумий маҳсулот    | – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi.                                                                                                          |
| Total supply          | Совокупное предложение     | Ялпи таклиф        | – mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilgan va sotishga tayyor bo'lgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmi.                                                                                       |
| Unemployed            | Безработные                | Ишсизлик           | – mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi                                                                                                                              |
| Unemployment rate     | Уровень безработицы        | Ишсизлик даражаси  | – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.                                                                                                                                                            |

|            |                  |           |                                                                                                                                          |
|------------|------------------|-----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Wage       | Заработная плата | Иш ҳақи   | – ishchi va xizmat-chilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi. |
| Work force | Рабочая сила     | Ишчи кучи | – insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.                                                      |

## Test savollari.

1. Mintaqaviy strategiyaning qo'llanish va amalga oshirish zarurligi jihatdan muvofiqlashtiruvchi to'rt omilni ko'rsatadi:

- A. Barcha javoblar to'g'ri;
- B. Mintaqaviy rivojlanishning davlat siyosati, korxonalarning mikroinnovatsiyasi strategiyasi;
- C. Mintaqalar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqsadlari;
- D. Makroinnovatsiya mintaqaviy strategiyaning nuqta-inazarlari;

2. Import - ...

- A. iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha tuzilgan shartnoma;
- B. xorijiy mamlakatlarga sotilgan maqsulot, ish va xizmatlarning umumiy miqdori;
- C. maqalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovar va xizmatlar umumiy miqdori;
- D. hammasi to'g'ri;

3. Hududiy siyosat nima?

- A. Markaziy hokimiyat organlarining hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xar tomonlama ta'sir o'tkazish maqsadidagi xatti xarakatlar;
- B. Iqtisodiyotni davla tomonidan tartibga solish;
- C. Hududiy-iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish;
- D. Bandlik va farovonlikni muvozanatlashgan taqsimotini o'rnatish bilan shug'ullanuvchisiyosat;

4. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi necha bo'g'indan iborat?

- A. Markaziy bank, tijorat va xususiy banklar;
- B. Markaziy bank va tijorat banklari;
- C. Davlat, xususiy, chet el va tijorat banklari;
- D. hammasi to'g'ri;

5. Real YaMM nima?

A. baholarning o'zgarishini hisobga olib doimiy baholarda hisoblangan YaMM;

B. ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati;

C. joriy bozor narxlarida hisoblangan YaMM;

D. ulgurji narxlarda hisoblangan YaMM.

6. Soliq stavkalarini toping.

A. oddiy, imtiyozli

B. proportsional, progressiv, regressiv

C. ekvivalent, to'qri, egri

D. aktsiz, qo'shilgan qiymat, boj

7. Subvensiya nima?

A. xalqaro shartnoma

B. qimmatli qog'oz turi

C. davlat tomonidan beriladigan moliyaviy yordam puli

D. nafaqa turi

8 Tarixan ishchi kuchining qishloq xo'jaligidan sanoatga ko'chib o'tishi:

A. inflyatsiya qolatlarini yuzaga keltiradi;

B. o'rtacha meqnat unumdorliging pasayishiga olib keladi;

C. aholi jon boshiga to'qri keladigan YaIM qajmining pasayishiga olib keladi;

D. o'rtacha meqnat unumdorliging o'sishiga olib keladi;

9. "Mustahkam oila yili" davlat dasturini amalga oshirish uchun qancha mablaq rejalashtirilgan?

A. 4 mlrd.dollar

B. 4 trillion 400 milliard so'm va 370 million dollar

C. 5 trillion 300 milliard so'm va 470 million dollar

D. 5 mlrd.dollar

10. Bozor muvozanati- bu



- A. talab va taklif miqdorining tengligi;
- B. talabning taklifdan ortda qolishi;
- C. haddan tashqari ko'p ishlab chiqarish;
- D. narx bilan tovarlar miqdori o'rtasidagi bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik.

11. 65000 so'm shaxsiy daromaddan 13000 so'mi jamg'arma sifatida ishlatilsa, jamg'armaga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil etadi?

- A. 20%;
- B. 50%;
- C. 25%;
- D. 80%.

12. Agarda potentsial maqsulot ishlab chiqarish 550, haqiqiy ishlab chiqarish esa 500 ga teng bo'lsa, unda YaMMdagi uzilish yoki orqada qolish nimaga teng?

- A. 9%;
- B. 5%;
- C. 10%;
- D. 1,1%.

13. A mamlakat bir birlik resursdan foydalangan qolda 2 t. paxta yoki 8 tonna buqdoy ishlab chiqara oladi. B mamlakat esa bir birlik resursdan foydalanib 4 t. paxta yoki 10 t. buqdoy ishlab chiqarishi mumkin. Bunday holatda:

- A. A mamlakat bu ikki mahsulotni eksport qilmaydi va paxta import qiladi;
- B. A mamlakat paxta eksport qiladi va bug'doy import qiladi;
- C. B mamlakat paxta eksport qiladi va bug'doy import qiladi;
- D. B mamlakat eksport qilmaydi va bug'doy import qiladi.

14. Agar iqtisodiyot muvozanat holatida turgan bo'lsa, ta'kidlash mumkinki:

- A. iste'mol xarajatlari investitsiyalarga teng bo'lishi lozim;
- B. davlat budjeti balanslashgan;

C. iste'mol xarajatlarini har qanday oshirish inflyatsion uzilishga olib keladi;

D. barcha keltirilgan javoblar noto'g'ri.

15. Agar iste'molchilar daromadlaridan joriy iste'molga sarfi ulushini ko'paytirsalar, qisqa davrda:

A. avvalam bor ishlab chiqarish qajmi va bandlilik darajasi oshadi;

B. avvalam bor ishlab chiqarish qajmi va bandlilik darajasi kamayadi;

C. ishlab chiqarish qajmi va bandlilik darajasi o'zgarmagani holda baqolar darajasi ko'tariladi;

D. ishlab chiqarish qajmi va bandlilik darajasi o'zgarmagani qolda baqolar darajasi pasayadi.

16. Agar mamlakatda milliy valyutaning real almashinuv kursi ko'tarilsa, boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda

A. bu mamlakat fuqarolari uchun import tovarlari nisbatan arzonlashadi;

B. mamlakat sof eksporti qisqaradi;

C. to'lov balasining joriy schyoti taqchilligi ko'payadi;

D. barcha javoblarda keltirilgan holatlar ro'y beradi.

17. Agar Markaziy Bank milliy valyutani revalvatsiya qilsa :

A. mamlakatdagi import qilinadigan xomashyodan foydalanidigan tarmoqlar zarar ko'radi;

B. eksportga yo'naltirilgan maqsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar zarar ko'radi;

C. bu mamlakatning savdo qamkorlari bo'lgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi o'sishi mumkin;

D. mamlakatning sof eksporti ko'payadi.

18. Agar milliy daromaddan korporatsiya foydasidan olinadigan soliqni, taqsimlanmagan foydani hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlarini ayirsak, so'ngra sof transfert to'lovlarini yuqoridagilarga qo'shilsa, olingan miqdor teng bo'ladi?

- A. shaxsiy daromadga;
- B. amortizatsiyaga;
- C. yalpi ichki maqsulotga;
- D. sof ichki maqsulotga.

19. Agar nominal daromad 5% ga , baqo darajasi esa 10% oshsa, u qolda real daromad:

- A. 2% ga oshadi;
- B. 5% oshadi;
- C. 2% ga kamayadi;
- D. 5% ga kamayadi.

20. Agar real ish haqi muvozanat darajasidan yuqori bo'lsa, unda bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda mehnat taklifi

- A. minimal ish haqiga boqliq
- B. minimal bo'lgan talabdan kichik
- C. mehnatga bo'lgan talabga teng
- D. mehnatga bo'lgan talabdan katta

21. Agar umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi korxona 2012 yilda ishlab chiqargan mahsulotining 35 foizini chetga eksport qilsa, ushbu korxona necha foizlik stavkada foyda solig'i to'laydi?

- A. 4,50%
- B. 5%
- C. 9%
- D. 3,50%

22. Agar yil boshida budjet taqchiligi yil ohiriga borib 180 mlrd. dollarga etishishni tahmin qilsak, haqiqatda esa taqchillik 220,7 mlrd. dollarni tashkil etsa. Budjet taqchilligi yil oxirida

- A. 23 mlrd. dollarga
- B. 30 mlrd. dollarga
- C. 40, 7 mlrd. dollarga
- D. 20 mlrd. dollarga

23. Agarda eksport qajmi 80, import qajmi 60ga teng bo'lsa, tashqi savdo aylanmasi qaysi miqdorga teng bo'ladi?

- A. 20;
- B. 70;
- C. 4800
- D. 140

24. Agarda potentsial maqsulot ishlab chiqarish 550, haqiqiy ishlab chiqarish esa 500 ga teng bo'lsa, unda YaMMdagi uzilish yoki orqada qolish nimaga teng?

- A. 9%;
- B. 5%;
- C. 10%;
- D. 1,1%.

25. Agrosanoat integratsiyasi nima?

A. qishloq xo'jalik maqsulotlarini etishtirish, uni qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan shuqullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuasi;

B. ishlab chiqarishning to'planishi va kapitalning markazlashishi;

C. qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va maqsulotini iste'molchiga etkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi qamda ularning uzviy birikib borish jarayoni;

D. yuqoridagilarning barchasi.

26. Aksiyaning daromad keltirishiga ko'ra qanday turlari mavjud?

- A. qisqa muddatli
- B. uzoq muddatli
- C. oddiy va imtiyozli
- D. yutuqli va yutuqsiz

27. Aktsiya paketi bu...

- A. sotib olingan aktsiyalar miqdori
- B. nominal aktsiya
- C. sotilgan aktsiya miqdori
- D. tashkilotlar aktsiyasi

28. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishning qanday yo'llari mavjud?

- A. induktiv va deduktiv;
- B. evolyutsion va inqilobiy;
- C. «karaxt qilib davolash»;
- D. barcha javoblar to'g'ri.

29. Boshqa sharoitlar o'zgarmagan vaziyatda milliy valyutaga bo'lgan talab ko'payadi, qachonki:

- A. bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi nisbatan yuqori, inflyatsiya darajasi esa nisbatan past bo'lsa;
- B. bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi nisbatan past, inflyatsiya darajasi esa nisbatan yuqori bo'lsa;
- C. bu mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda real foiz stavkasi qamda inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lsa;
- D. barcha javoblarda keltirilgan qo'llatlarda milliy valyutaga bo'lgan talab kamayadi.

30. Bozor iqtisodiyoti sharoitida:

- A. narx-navo davlat tomonidan o'rnatiladi;
- B. narxni narx qo'mitasi belgilaydi;
- C. narx erkin shakllanadi;
- D. narx markazlashgan tarzda belgilanadi;

31. Bozor mexanizmlarini joriy etish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?

- A. davlat mulkini xususiylashtirish;
- B. yadrosiz qududni yaratish;
- C. insonlarni ijtimoiy qimoyalash tadbirlarini amalga oshirish;
- D. milliy valyutani joriy etish;

32. Bozorni segmentlash (tabaqalash) deganda:

- A. milliy bozor eksport-importini davlat tomonidan qimoya qilinishi tushuniladi;
- B. ma'lum belgi, alomatlar va savdo-sotiqning shart-sharoitiga karab bozorni qar xil bo'qinlarga ajratish, tabaqalash tushuniladi;

C. milliy yoki regional bozorga tashqaridan suqulib kirish va u bozorni o'ziga tobe' etish tushuniladi;

D. bozordagi holat ya'ni muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi tushuniladi;

33. Bozorni davlat tomonidan tartibga solish siyosatiga:

A. pul-kredit, budjet-soliq siyosati

B. tashqi iqtisodiy siyosat

C. narx va ish qaqi siyosati

D. barcha javoblar to'g'ri.

33. Bozorni tartibga solish mexanizmi:

A. talab, taklif, baqo, raqobat;

B. monopoliya, oligopoliya, monopsoniya;

C. tadbirkorlik, biznes, foyda;

D. to'g'ri javob yo'q.

34. Bugungi kunda jismoniy shaxslarning daromad solig'ining eng past stavkasi necha foiz?

A. 10%

B. 9%

C. 11%

D. 11

35. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi qancha?

A. 30 mln.

B. 29 mln.

C. 28 mln.

D. 27 mln.

36. Bugungi kunda mamlakatimizda soliq yuki necha foizni tashkil etadi?

A. 20%

B. 22%

C. 25%

D. 30%

37. Budget – bu...

A. davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi daromad va sarf-xarajatlari;

B. davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi sarf-xarajatlari;

C. davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi daromadlari;

D. to'g'ri javob yo'q.

38. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan maxsus arzonlashtirilgan baholar qanday nom bilan ataladi?

A. ulgurji baho;

B. demping baho;

C. dotatsiyalangan baho;

D. nufuzli baho;

39. Davlat iqtisodiyotni qanday yo'llar bilan tartibga solishi mumkin?

A. Iqtisodiy

B. Ma'muriy

C. Iqtisodiy, Ma'muriy

D. Tog'ri javob yo'q

40. Davlat mulkini xususiylashtirishning dastlabki bosqichida qanday vazifa amalga oshiriladi?

A. ommaviy xususiylashtirish amalga oshiriladi;

B. kichik xususiylashtirish amalga oshiriladi;

C. ko'p ukladli iqtisodiyot real shakllanadi;

D. xususiy mulk hukmron shaklga aylanadi.

41. Davlatlararo bitimlarga ko'ra ikki tomonlama soliq solinmasligi qaysi soliq imtiyozini belgilash myezoniga ko'ra belgilanadi?

A. Soliq to'lovchilarning invyestitsiya mavqeyi myezoniga ko'ra;

B. Sohani rivojlantirish ustuvorligi myezoniga ko'ra;

C. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni darajasi me'zoniga ko'ra;

D. Hamma javob to'g'ri.

42. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifasi bo'lib hisoblanadi:

A. narxlar darajasini barqarorlashtirish va inflyatsiyaning oldini olish

B. atrof muqitni asrash, ishchi kuchlarini to'liq bandligini taminlash

C. investitsion iqlim yaratish

D. barcha javoblar to'g'ri

43. Doimiy sarflar nima?

A. ishlab chiqarish xajmiga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish sarflari

B. ishlab chiqarish xajmiga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish sarflari

C. ishlab chiqarish sarflari

D. xomashyo sarflari

44. Doimiy xarajatlar 72 ming so'm, o'zgaruvchan xarajatlar 188 ming so'm bo'lganda 520 dona mahsulot ishlab chiqarilsa, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan umumiy xarajatlar necha so'mni tashkil qiladi?

A. 5000 so'm;

B. 500 so'm;

C. 5 so'm;

D. 550 so'm.

45. Eksportga subsidiyalar:

A. mamlakat ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorlardagi pozitsiyasini zaiflashtiradi;

B. Butunjaqon savdo tashkiloti tomonidan qo'llab quvvatlanadi;

C. ishlab chiqarish omillaridan oqilona (ratsional) foydalanishga ta'sir etmaydi;

D. budjetdan moliyalashtirish imkoniyatlariga boqliq ravishda cheklangan.



46. Ekstensiv iqtisodiy o'sishga qanday erishiladi?
- A. ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli;
  - B. ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtirish tufayli;
  - C. ishchi kuchiga yuqori darajada ish qaqi to'lash tufayli;
  - D. takomillashgan texnika-texnologiyadan foydalanish tufayli.

47. Hozirgi kunda respublikamizda qaysi mintaqa yoki hudud dotatsiyada o'tiribti?
- A. Namangan
  - B. QQR
  - C. Xorazm
  - D. Tog'ri javob yo'q

48. Hukumat ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalarni oshirdi. Bu yalpi taklif egri chizig'i holatiga qanday ta'sir qiladi?
- A. u o'zgarishsiz qoladi
  - B. u o'ngga siljiydi
  - C. u chapga siljiydi
  - D. YaIM xajmiga bog'liq

49. Ijtimoiy jiqatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti nimalardan iborat bo'ladi?
- A. markazlashtirilgan rejali bozordan;
  - B. erkin bozordan;
  - C. iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning sintezi bo'lgan bozordan;
  - D. davlatning ishtiroki anchagina katta bo'lgan bozordan;

50. Import kvotalari to'g'risidagi qaysi ta'kid noto'qri?
- A. kvota, tarifdan farqli o'laroq, davlatga qech qachon foyda keltirmaydi;
  - B. import kvotalarini joriy qilishdan davlat oladigan daromad import litsenziyalarini joylashtirish usuliga boqliq;
  - C. kvota mamlakatga tovarlar importi miqdorini cheklash uchun qo'llaniladi;
  - D. import kvotalarining joriy etilishi mamlakat ichidagi bu tovarni ishlab chiqaruvchinig monopol hukmronligini kuchaytiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T: “O'zbekiston”, 2018.–76b.

2. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 25 yanvarda qabul qilingan “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun.lex.uz Senat tomonidan 2018 yil 29 martda ma'qullangan

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari**

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF4947- sonli Farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis a'zolariga an'anaviy murojaatnomasi.2020 yil 24 yanvar. Xalq so'zi gazetasi,40 son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida 2018 yil 26 dekabr, PQ4086-sonli Qarori

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-sonli Qarori

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-sonli Qarori

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Qarori 2019-yil 8-yanvar, PQ-4102son

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida” 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qarori

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari**

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiriq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 12 yanvardagi 24son Qarori

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Mirzo Ulugbek innovation center" innovatsiya markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 15 avgustdagi 631-son Qarori

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida" 2017 yil 19 maydagi 302-son Qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 04.04.2017 yildagi PQ-2868-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doyr qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 22-sonli qarori

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ishtirokidagi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish to'g'risida Qarori 2019 yil 18 may, 417-son

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 23 martdagi "Viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shahar hokimliklarining hududlarni kompleks rivojlantirish yig'ma boshqarmalari va bo'limlari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 82-sonli qarori

### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari**

15. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekitson", 2017.

16. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'mindash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).

17. Sh.M. Mirziyoev Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai//Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

18. Sh.M. Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

19. Sh.M. Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'i tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T: O'zbekiston, 2017.

20. Sh.M. Mirziyoev Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz.//Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

21. Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2018.

**V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar** 23. Armstrong, J.Taylor. Regional economics and policy. 3 edition. WilleyBlackwell publisher, 2010- 448 p.

24. Roberta Capello. Regional Economics. USA: Routledge, 2016.

25. Ведяпина В.Н. Региональная экономика. - М.: «ИНФРА», 2008. – 510 стр.

26. I.O .Yakubov, H.A.Hakimov "Mintaqaviy iqtisodiyot". O'quv-uslubiy majmua. T.: TDIU, 2016 yil

27. M.R. Rahimova Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: O'zRYoUAI, 2004. – 128 bet.

28. M.R.Rahimova, A.E.Ishmuxamedov. Mintaqaviy iqtisodiyot. Lotin alifbosida darslik. T .TDIU, 2010. 335 bet.

29. A.Soliev va boshqalar. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Monografiya T. "Mumtoz so'z" 2010. 100 bet.

30. A.E.Ishmuhamedov, Z.A.Djumayev, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 bet.

31. B.Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006.

32. K.X .Абдурахмонов, О.Абдуллаев , Дадабоев Ш.

"Региональная экономика и управление" Учебник. ТГЭУ 2007. 730

## **VI. Statistik ma'lumotlar to'plami**

33. Yillik statistik to'plam 2017. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent. 2018. O'zbekiston Almanaxi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent. 2018.

34. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot - tahliliy byulleten. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent. 2019.

35. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990 - 2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011 - 2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. - T.: O'zbekiston. 2011.

36. Yillik statistik to'plam 2017. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent. 2018.

## **VII. Internet tarmog'i veb - saytlari va manzillari**

37. [www.lex.uz](http://www.lex.uz). O'zbekiston Respublikasi elektron qonun hujjatlari to'plami.

38. [www.uza.uz](http://www.uza.uz). O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligining rasmiy veb - sayti.

39. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz). O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining rasmiy veb - sayti.

40. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz). O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb - sayti.

41. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb - sayti.

42. [www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz). - Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy sayti

43. [www.ima.uz](http://www.ima.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentliginnig rasmiy sayti
44. [www.economy.gov.ru](http://www.economy.gov.ru)
45. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
46. [www.uzland.uz](http://www.uzland.uz)
47. Ekonomiki Rossii. "<http://www.imce.ru>"
48. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).
49. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
50. <http://www.mf.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi veb portali.
51. [www.internetindicators.com](http://www.internetindicators.com) – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.
52. <http://www.jstor.org/stable/2564954>
53. <http://www.jstor.org/page/info/about/policies/terms.jsp>.
54. <http://www.jstor.org/action/showPublisher?publisherCode=aea>.
55. <http://www.jstor.org>

## **MUNDARIJA**

### **MUNDARIJA**

|                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish.....                                                                                                                | 3  |
| I. BOB. “MINTAQAVIY IQTISODIYOT” FANINING<br>PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....                                          | 6  |
| 1.1. “Mintaqa” tushunchasi, mintaqalarning milliy iqtisodiyotni<br>rivojlanishdagi roli va ahamiyati.....                  | 6  |
| 1.2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan<br>o‘rni.....                                                  | 7  |
| 1.3. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari.....                                                                     | 8  |
| II. BOB. ISHLAB CHIQUVCHI KUHLARNI<br>JOYLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI ....                                      | 12 |
| 2.1. Ishlab chiqarish chiqarish kuchlari va ularni joylashtirish<br>to‘g‘risida tushincha .....                            | 12 |
| 2.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyalari.....                                                           | 14 |
| 2.3. O‘zbekistonda mintaqalarga ajratish va ishlab chiqaruvchi<br>kuchlarni joylashtirishdagi o‘ziga xos yondoshuvlar..... | 22 |
| III. BOB. O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIIY<br>TUZILISHI VA ULARNING MINTAQAVIY RIVOJLANISH<br>XUSUSIYATLARI.....          | 26 |
| 3.1. Ma’muriy-hududiy birliklarning shakllanish va rivojlanish<br>xususiyatlari.....                                       | 26 |
| 3.2. O‘zbekistonda ma’muriy - hududiy birliklarni tashkil etilishi<br>va ular dinamikasidagi o‘zgarishlar .....            | 29 |
| 3.3. Ma’muriy-hududiy birliklarning me’yoriy-huquqiy<br>asoslari.....                                                      | 32 |
| IV. BOB. MINTAQALAR TABIIY-RESURS SALOHIYATI<br>VA ULARNING HUDUDIIY TARAQQIYOTDA TUTGAN<br>O‘RNI.....                     | 43 |
| 4.1. Tabiiy resurs salohiyati va uning iqtisodiy mohiyati .....                                                            | 43 |

4.2. Mineral xom ashyo resurslari hududiy joylashuvining mintaqaviy taraqqiyotda tutgan oʻrni.....44

4.2. Mineral xom ashyo resurslari hududiy joylashuvining mintaqaviy taraqqiyotda tutgan oʻrni.....46

## V BOB. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.....49

5.1 Aholining hududiy joylashuvi. Mamlakat aholisining hududiy tarkibi va mintaqalarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari.....49

5.2. Aholining tabiiy harakati va undagi oʻzgarishlar.....52

5.3. Mehnat resurslari va ularning rivojlanish xususiyatlari....55

5.4. Mehnat bozori shakllanishining mintaqaviy xususiyatlari.....63

5.5. Mehnat bozorini tartibga solish va uni takomillashtirish yoʻllari..... 67

5.6. Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band boʻlmagan aholini hisoblash amaliyoti.....69

## VI BOB. OʻZBEKISTON MINTAQALARIDA SAONAT TARMOGʻINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI.....78

6.1 Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda sanoat siyosatining mohiyati .....78

6.2 Mintaqa sanoati siyosatining olib borish mexanizmlari .....83

6.3 Oʻzbekiston sanoatining mintaqaviy jihatlari .....85

## VII. BOB. QISHLOQ XOʻJALIGINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUVI.....93

7.1. Qishloq xoʻjaligi taraqqiyotida mintaqalar tabiiy-iqlim sharoiti va relefning ahamiyati.....93



7.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi.....95

7.3. Mamlakat agrosanoat majmuisi va uning rivojlanishidagi mintaqaviy xususiyatlar.....110

## VIII. BOB. TRANSPORT VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINING MINTAQAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....102

8.1. Yo'l-transport kommunikatsiyalari rivojlanishidagi hududiy xususiyatlar.....102

8.2. Axborot-telekommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanish xususiyatlari. ....108

8.3. Transport, axborot kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari.....110

## IX. BOB. O'ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA, VA MAHALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O'RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI.....117

9.1. Davlat hokimiyatining turli pog'onalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari.....117

9.2. Boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash zaruriyati..... 118

9.3. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari.....120

## X BOB. MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT.....123

10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari.....123

10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar.....125

10.3. Mamlakat mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari.....127

XII BOB. MINTAQALAR MOLIYASI VA  
BYUDJETLARARO MUNOSABATLAR.....135

- 11.1. Mintaqalarning moliyaviy mablag'lari va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati.....135
- 11.2. Byudjetlararo munosabatlar.....137
- 11.3. Mahalliy byudjet, uning tushumlari va xarajatlari.....142

XII BOB.DUNYO XO'JALIGINING MINTAQAVIY  
XUSUSIYATLARI.....147

- 12.1. Dunyo xo'jaligi va uni rivojlanishi bosqichlari .....147
- 12.2. Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlanishi tendensiyalari.....156
- 12.3. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi .....176

XIII BOB. MINTAQALAR TARAQQIYOTINI  
PROGNOZLASH VA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH  
STRATEGIYALARI .....180

- 13.1. Mintaqalarni rivojlantirish strategiyalari. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.....180
- 13.2. Hududiy rivojlanish strategiyalari.....185
- 13.3. Hududlarni innovatsion strategiyasini aniqlash va uni amalga oshirish yo'nalishlari. Hududlar innovatsion strategiyasining nazariy asoslari.....188

XIV BOB. MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGI VA  
RAQOBAT USTUNLIGI.....200

- 14.1. Mintaqalar raqobatdoshligi va raqobat ustunligining nazariy asoslari.....200
- 14.2. Mintaqalarda raqobatdoshlik va raqobat ustunliklari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.....201
- 14.3. Mintaqalar raqobat ustunliklarini takomillashtirish yo'nalishlari.....205

|                                                                       |     |
|-----------------------------------------------------------------------|-----|
| 14.4. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmining qonuniy asoslari..... | 208 |
|-----------------------------------------------------------------------|-----|

|                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| XV BOB. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI..... | 213 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

|                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 15.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi.....                                                | 213 |
| 15.2. Mintaqalarning eksport salohiyati.....                                                                | 215 |
| 15.3. Mintaqalarda qo'shma korxonalarni rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari..... | 216 |

|                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| XVI BOB. HUDUDLAR TARAQQIYOTINING EKOLOGIK JIHATLARI VA TABIATDAN FOYDALANISHNING MINTAQAVIY MUAMMOLARI..... | 218 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

|                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 16.1. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ekologik jihatlari..... | 218 |
| 16.2. Yer va suv resurslaridan foydalanishdagi mintaqaviy xususiyatlar.....     | 223 |
| 16.3. Hududlar ekologik vaziyatini sog'lomlashtirish yo'llari.....              | 227 |

|                |     |
|----------------|-----|
| Glossariy..... | 230 |
|----------------|-----|

|                                 |     |
|---------------------------------|-----|
| Foydalanilgan adabiyotlar ..... | 265 |
|---------------------------------|-----|

## CONTENTS

|                                                                                                                           |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| INTRODUCTION .....                                                                                                        | 3  |
| I. CHAPTER. "REGIONAL ECONOMY" ITS SUBJECT, GOALS AND OBJECTIVES.....                                                     | 6  |
| 1.1. The concept of "region", the role and importance of the national economic activity of the region in development..... | 6  |
| 1.2. The role of regional economics in the system of sciences.....                                                        | 7  |
| 1.3. Research methods of regional economics .....                                                                         | 8  |
| II. CHAPTER. LAWS AND PRINCIPLES OF LOCATION OF PRODUCTION FORCES                                                         |    |
| 2.1. The concept of productive forces and their location.....                                                             | 12 |
| 2.2. Theories of location of productive forces .....                                                                      | 14 |
| 2.3. Specific approaches to demining and deployment of development forces in Uzbekistan .....                             | 22 |
| III. CHAPTER. ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL STRUCTURE OF UZBEKISTAN AND THEIR FEATURES OF REGIONAL DEVELOPMENT               |    |
| 3.1. Shock and evolving influences of administrative-territorial units.....                                               | 26 |
| 3.2. Establishment of administrative-territorial units in Uzbekistan and changes in its dynamics .....                    | 29 |
| 3.3. Normative-economic bases of administrative-territorial units.....                                                    | 32 |
| IV. CHAPTER. REGIONS NATURAL RESOURCE POWER AND THE ROLE OF ULAN IN TERRITORIAL DEVELOPMENT.                              |    |
| 4.1. The potential of natural resources and the importance of its economy.....                                            | 43 |

4.2. Given the regional location of mineral resources in the regional development.....44

4.3. The role of regional distribution of mineral resources in regional development.....46

## V. CHAPTER REGIONAL POPULATION AND LABOR RESOURCES.....49

5.1 Territorial distribution of the population. Territorial composition of the population of the country and socio-demographic issues of the mine ..... 49

5.2. Achilles tendon movement and changes in it .....52

5.3. Cocktail resources and the evolving state of the nation .....55

5.4. Regional activities of labor market shocks .....63

5.5. Ways to shrink the cocktail market and improve it .....67

5.6. It is necessary to develop a balance of labor resources, bonds and employment of the population, as well as the employment of the population.....69

## VI. CHAPTER TERRITORIAL ASPECTS OF INDUSTRY DEVELOPMENT IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN.

6.1 The importance of industrial policy in the implementation of the strategy of regional economic conditions.....78

6.2 Regional Industrial Policy Mechanisms .....83

6.3 Regional features of Uzbekistan's industry .....85

## VII. CHAPTER. TERRITORIAL SPECIALIZATION OF AGRICULTURE.

7.1. The role of natural and climatic conditions and relief in the development of agriculture.....93

7.2. Territorial territories and specialization in the history of agriculture.....95

7.3. The agro-industrial complex of the country and regional features in its development.....110

## VIII. CHAPTER. CHARACTERISTICS OF REGIONAL DEVELOPMENT OF TRANSPORT AND INFORMATION COMMUNICATION INFRASTRUCTURE.

|                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 8.1. Regional relations in the development of road transport communication.....                  | 102 |
| 8.2. Developments in the field of information and communication services.....                    | 108 |
| 8.3. Prospects for the development of transport, information and communication enterprises ..... | 110 |

## IX. CHAPTER. MECHANISMS OF DISTRIBUTION OF POWERS BETWEEN REPUBLIC, REGIONAL AND LOCAL GOVERNMENT BODIES OF UZBEKISTAN.

|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 9.1. Tasks and principles of distribution of powers between different levels of government.....                                      | 117 |
| 9.2. The need for separation of powers between governing bodies.....                                                                 | 118 |
| 9.3. Ways to increase the effectiveness of interaction and communication between the republican, regional and local governments..... | 120 |

## X. CHAPTER REGIONAL ECONOMIC POLICY

|                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------|-----|
| 10.1. The essence and objectives of regional economic policy..... | 123 |
| 10.2. Foreign experience in regional economic policy.....         | 125 |
| 10.3. The main directions of the country's regional policy .....  | 127 |

## CHAPTER XII. REGIONAL FINANCE AND BUDGET RELATIONS.

|                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 11.1. The financial resources of the regions and their importance in a market economy..... | 135 |
| 11.2. Inter-budgetary relations .....                                                      | 137 |
| 11.3. Local budget, its revenues and expenditures .....                                    | 142 |

## XII. CHAPTER REGIONAL CHARACTERISTICS OF THE WORLD ECONOMY

|                                                                                       |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 12.1. The world economy and its stages of development .....                           | 147 |
| 12.2. Trends in the development of the world economy and its industries.....          | 156 |
| 12.3. The essence and classification of foreign economic relations of Uzbekistan..... | 176 |

## XIII. CHAPTER FORECASTING AND REGIONAL DEVELOPMENT SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT STRATEGIES.

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 13.1. Regional development strategies. Forecasting the socio-economic development of the region .....                                                | 180 |
| 13.2. Regional development strategies .....                                                                                                          | 185 |
| 13.3. Definition of regional innovation strategy and directions of its implementation. Theoretical foundations of regional innovation strategy ..... | 188 |

## XIV. CHAPTER REGIONAL COMPETITIVENESS AND COMPETITIVE ADVANTAGE

|                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 14.1. Theoretical foundations of regional competitiveness and competitive advantage..... | 200 |
| 14.2. Competitiveness and Competitive Advantage Measures in the Regions.....             | 201 |
| 14.3. Areas for improving regional competitive advantage.....                            | 205 |
| 14.4 Legal basis of Public-Private Partnership.....                                      | 208 |

## XV. CHAPTER FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF THE REGIONS AND WAYS TO INCREASE EXPORTS

|                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 15.1. The essence and classification of foreign economic relations.....                                 | 213 |
| 15.2. Export potential of regions .....                                                                 | 215 |
| 15.3. Development of joint ventures in the regions. Ways to increase exports of finished products ..... | 216 |

## XVI. CHAPTER ECOLOGICAL ASPECTS OF TERRITORIAL DEVELOPMENT AND REGIONAL PROBLEMS OF NATURE USE

|                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 16.1. Ecological aspects of the relationship between nature and society..... | 218 |
| 16.2. Regional features in the use of land and water resources.....          | 223 |
| 16.3. Ways to improve the ecological situation in the regions.....           | 227 |
| Glossary .....                                                               | 230 |
| List of used literature .....                                                | 265 |



**Yakubov Iskandar Adilovich**

# **MINTAQAVIY IQTISODIYOT**

**Darslik**

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

|                              |               |
|------------------------------|---------------|
| Muharrir:                    | S. Alimboyeva |
| Tex. muharrir:               | A. Moydinov   |
| Musavvir:                    | A. Shushunov  |
| Musahhih:                    | L. Ibragimov  |
| Kompyuterda<br>sahifalovchi: | M. Zoyirova   |

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 23.06.2021.**

**Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . «Timez Uz» garniturası.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 18,0. Nashriyot bosma tabog'i 17, 5.**

**Tiraji: 100. Buyurtma № 94**

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»  
bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,  
Universitet ko'chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7395-9-8



9 789943 739598